60.5(5Ў)
А-15

G.Q. ABDURAXMANOVA,
X.X. ABDURAMANOV

IJTIMOIY SOHALAR VA INSON TARAQQIYOTI

TOSHKENT

60.5(5Ў)
А-15

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

G.Q. ABDURAXMANOVA, X.X. ABDURAMANOV

IJTIMOIY SOHALAR VA INSON TARAQQIYOTI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2018

UO‘K: 332.012.2
KBK 60.5(5O’)
A 15

A 15 **G.Q. Abduraxmanova, X.X. Abduramanov. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti // akademik Q.X.Abduraxmanov tahriri ostida. – T.: «Fan va texnologiya», 2018, 312 bet.**

ISBN 978–9943–11–894–2

Bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy soha – sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat, uy-joy-kommunal xo‘jaligi, madaniyat, sport, turizm sohalarini rivojlantirish, aholini, ayniqsa uning nochor toifalarini ishonarli ijtimoiy himoya qilish, mehnat muhofazasi, pensiya ta’minoti, sug‘urta tizimlarini takomillashtirish muammolarini tadqiq etish zarurati iqtisodiyot fanida yangi yo‘nalish – ijtimoiy soha iqtisodiyotining alohida fan sifatida shakllanishi va rivojlanishiga asos bo‘ldi.

Mazkur “Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti” o‘quv qo‘llanmasida iqtisodiyot fani ushbu yo‘nalishining nazariy asoslari, uning shakllanish bosqichlari, sohani tartibga solish bo‘yicha jahon tajribasi, O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida mazkur sektor iqtisodiyotining xususiyatlari bayon qilinadi.

O‘quv qo‘llanma ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, talabalari, amaliyotchi mutaxassislar, ushbu sohaga qiziquvchi keng kitobxonlarga mo‘ljallangan.

UO‘K: 332.012.2
KBK 60.5(5O’)

Taqrizchilar: **B.X. Umurzakov** – i.f.d., prof.;
N.T. Shoyusupova – i.f.n., dots.

ISBN 978–9943–11–894–2

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018

KIRISH

XX asr ikkinchi yarmida qator rivojlangan davlatlarda iqtisodiy siyosatning ustuvorligi sifatida uning ijtimoiy yo'nalishi tanlandi. Natijada ijtimoiy-iqtisodiy tizimning yangi modellari: ijtimoiy bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy iqtisodiyot va hokazolar shakllandi. Bu modellarning asosiy xususiyati davlat iqtisodiy siyosatining aholi farovonligi va uning ishonarli ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilganligi edi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng keyinchalik "o'zbek modeli" nomini olgan keng ko'lamli chuqur islohotlar markaziga ham ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, "hamma narsa inson uchun, uning manfaatlari uchun" prinsipi qo'yildi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida fuqarolar turmush darajasini oshirishga iqtisodiyotni barqaror yuqori sur'atlarda rivojlantirishning bosh omili deb qaraladi. Shuning uchun milliy boylikning salmoqli qismi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Iqtisodiyot fanida ijtimoiy soha – sog'liqni saqlash, ta'lim, uy–joy–kommunal xo'jaligi, madaniyat, sport, turizm va boshqa tarmoqlar xizmati tarzida ijtimoiy ne'matlar yaratadigan milliy xo'jalikning tarkibiy qismidir. Hozirgi kunda ijtimoiy soha ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatning intellektual, ma'naviy, tabiiy boyliklarini yaratish ko'p jihatdan ijtimoiy sohaga bog'liqdir. Milliy iqtisodiyotning bu juda muhim tarmog'i bevosita aholining turmush darajasi va sifatini belgilaydi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini yuqori darajada rivojlangan ijtimoiy sohasiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirish mehnatga layoqatli aholining ish bilan samarali

TerDU ARM
№ 404996

bandligini ta'minlash, iqtisodiyotning barqaror yuqori sur'atlarda o'sishiga erishish, milliy boylikni adolatli taqsimlash va qayta taqsimlash, aholi farovonligi va turmush sifatini oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni moddiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmatlar turlarini kengaytirish, pensiya ta'minotini takomillashtirish maqsadlariga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ayni paytda ushbu iqtisodiy siyosat ijtimoiy omil samaradorligini jiddiy ravishda oshiradi. Kuchli ijtimoiy siyosat aholi mehnat faolligi, ijtimoiy mehnat pirovard natijalaridan manfaatdorligini kuchaytiradi, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni rag'batlantiradi. Natijada davlatning ijtimoiy sohalarni rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Bugungi kunda davlat budjeti xarajatlarining 60,0 %i ijtimoiy sohani moliyalash va aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilmoqda. Jahon hamjamiyati O'zbekistonning sog'liqni saqlash, ayniqsa, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ta'lim tizimini rivojlantirish, madaniyat, sport , turizm va ijtimoiy sohaning boshqa yo'nalishlarida erishilgan yuqori natijalarni e'tirof etmoqda.

Umumiy iqtisodiyot fani ijtimoiy sektorni ham qamrab oladi. Lekin ushbu fanga doir darsliklarda mazkur soha iqtisodiyoti mohiyati, uning xususiyatlari, muammolari juda umumiy tarzda bayon etilgan. Shu sababli taraqqiy etgan davlatlarda ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida mazkur soha atroflicha tadqiq qilina boshlandi va ushbu mavzuda darsliklar va o'quv qo'llanmalar paydo bo'ldi.

O'zbekistonda ham ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining shakllantirilishi ijtimoiy soha iqtisodiyoti bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yaratishga ehtiyojni kuchaytirdi. Mazkur o'quv qo'llanma ana shu ehtiyojni qondirish maqsadini ko'zlaydi.

Oliy o'quv yurtlari, ayniqsa iqtisodiyot yo'nalishidagi ta'lim muassasalarini tugallagan mutaxassislarning salmoqli qismi mehnat faoliyatlarini ijtimoiy infratuzilma va davlat boshqaruvi organlarida boshlaydilar. Ulardan amaliyotda iqtisodiy va ijtimoiy

jarayonlardagi muammolarni ularning uzviy bog'liqligida malakali hal etish uchun mazkur sohalarda chuqur bilim talab qilinadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining mohiyati nimadan iborat, rivojlangan davlatlarda ijtimoiy sohani tartibga solish qanday amalga oshiriladi? O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish modelining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish qanday moddiy resurslarni talab qiladi?

Bu va ijtimoiy soha iqtisodiyotining boshqa masalalariga aniqlik kiritish mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish, ular natijalarini umumlashtirish va tahlil etish, tegishli xulosalar chiqarish, amaliy tavsiyalar tayyorlash eng dolzarb vazifalardan biriga aylangan.

I BOB. IJTIMOIY SOHALAR VA INSON TARAQQIYOTI FANINING PREDMETI VA MAZMUNI

1.1. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti va uning xususiyatlari

Insonning ijtimoiy foydali mehnati moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratar ekan, bu uning o‘zi va oilasi, pirovard natijada jamiyat va davlat manfaatiga xizmat qiladi. Ana shu milliy boylikni ijtimoiy adolat asosida taqsimlash va qayta taqsimlash davlatning asosiy funksiyalaridan biridir.

Mavjud bozor iqtisodiyoti tizimlari va ularning yo‘nalishi har bir davlatning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq. Ular qatorida quyidagilarni keltirish mumkin:

– jo‘g‘rofiy joylashish;
– tabiiy resurslarning mavjudligi;
– aholi an’analari va odatlari;
– ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganlik darajasi;
– jamiyatning ijtimoiy yo‘naltirilishi.

Shunga qaramasdan barcha bozor iqtisodiyoti tizimlari uchun uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlar ham mavjud. Ular quyidagilardir:

– mulkchilik turli shakllarining mavjudligi;
– tovar va xizmatlarga erkin narxlarning ustunligi;
– erkin raqobatning rivojlangan tizimi;
– iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muayyan tizimi.

Bu ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti modeli uchun ham xosdir (1.1-chizma).

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti (nemischa “Soziale Marktwirtschaft”) tub mohiyatini uning asoschisi, Germaniyaning avval iqtisodiyot vaziri, keyin federal kansleri bo‘lgan Lyudvig

Erxardning fikricha, ushbu modelning inson, uning manfaatlariga xizmat qilish tashkil etadi. Uning ta'rifi bo'yicha, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti siyosatini olib boradigan davlat "bozor erkinligi prinsipini ijtimoiy mutanosiblik hamda umumiy ish uchun har bir shaxsning ma'naviy mas'uliyati bilan birlashtiradi"[1].



1.1-chizma. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti modellarining tadrijiy rivojlanishi

"Ijtimoiy davlat" atamasining paydo bo'lishi davlatning ijtimoiy siyosatini tubdan o'zgartirish zaruratini anglatardi.

Germaniyada XIX asrning 80 yillarida "ijtimoiy davlat" atamasi bilan bir qatorda boshqa – "farovonlik davlati" tushunchasi paydo bo'ldi. "Farovonlik davlati"ning ijtimoiy siyosati barcha fuqarolar turmush darajasini oshirishga yo'naltirilishi zarurligini bildirardi. Ya'ni davlat fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlashi, o'z zimmasiga ijtimoiy mas'uliyatni olishi zarur edi.

[1] Эрхард Л.Благосостояние для всех. – М.: Дело, 2001. – С. 250.

Ijtimoiy davlat prinsipi qator mamlakatlarning rasmiy doktrinasiga aylandi. Bu prinsip 1919 yilgi Veymar respublikasining konstitustiyasida va Chexoslavakiyaning 1920 yilgi konstitustiyasida huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi.

Ijtimoiy davlat to'g'risidagi tasavvurlarni rivojlantirishda 1942 yilda U.Beverijning Buyuk Britaniya parlamentidagi "Erkin jamiyatdagi ish bilan to'liq bandlik" deb nomlangan mashhur ma'ruzasi katta rol o'ynadi. Ushbu ma'ruzada "farovonlik davlati"ning asosiy prinsiplari bayon etildi hamda birinchi marta kafolatlangan yagona milliy eng kam daromad g'oyasi ilgari surildi.

Bu maqsadlarga erishishda davlatning ijtimoiy siyosati uning mehnatga layoqatli aholini ish bilan bandligini to'la ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lishi zarur edi. Shu vaqtdan e'tiboran "farovonlik davlati" ijtimoiy davlat sinonimiga aylandi. Mazkur bosqichda "farovonlik davlati" ijtimoiy funksiyasining namoyon bo'lishi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda o'z ifodasini topdi.

Davlatning yangi ijtimoiy funksiyasi – ijtimoiy xizmatlarning xususiyati shundan iborat ediki, davlat insonga u tomonidan turmush kechirishning muayyan standartlariga erishish imkoniyati yo'qligini shunchaki qoplabgina qolmasdan, balki mazkur standartlarga erishishi uchun shart-sharoitlarni faol shakllantirishi zarur edi. Bunda davlat barcha ijtimoiy guruhlar uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratish mas'uliyatini o'z zimmasiga olardi. Amalda bu davlatning faol bo'lmagan ijtimoiy siyosatdan faol ijtimoiy siyosatga o'tishini anglatardi.

Davlatning ijtimoiy xususiyati birinchi marta Germaniya Federativ Respublikasining 1944 yilgi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. Ushbu konstitustiyada "Germaniya Federativ Respublikasi demokratik va ijtimoiy huquqiy federativ davlat" deb belgilab qo'yildi. Mazkur qoida hukumatning amalda inson uchun munosib bo'lgan turmush darajasini ta'minlash, barcha ijtimoiy guruhlar asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan siyosat o'tkazish mas'uliyatini bildirardi. Ijtimoiy davlat maqomi 1958 yilda – Fransiyada, 1972 yilda – Shveystariyada, 1975 yilda – Shvestiyada, 1978 yilda – Ispaniya va Turkiyada joriy etildi.

Davlatning ijtimoiy funksiyalari va uning ijtimoiy maqomi qator xalqaro hujjatlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 55 moddasi, Yevropa Kengashi Ustavining 1-a va 1-b moddalari, 1973 yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi paktda mustahkamlab qo'yilgan.

Mazmun jihatidan "ijtimoiy davlat" bilan "farovonlik davlati" tushunchalari o'rtasidagi yaqinlikka qaramasdan ularda rivojlanishning obyektiv shart-sharoitlari va davlat qurilishining milliy amaliyoti aks etgani holda muayyan farqlar ham mavjudligini ko'rsatish lozim.

"Ijtimoiy davlat" tushunchasini talqin etishdagi farqlar, ayniqsa "farovonlik davlati" tushunchasi o'rniga "yalpi farovonlik davlati" tushunchasi paydo bo'lgandan so'ng yaqqol seziла boshlandi.

"Yalpi farovonlik davlati" g'oyasi XX asr 50-60 yillarida rivojlangan davlatlarda turmush darajasi keskin oshishi asosida paydo bo'ldi. Bu paytga kelib ijtimoiy xavflarni sug'urtalash tizimi odamlarning o'z kelajaklaridagi mavhumlikni amalda to'la qoplaydigan bo'ldi. "Yalpi farovonlik davlati" butun aholi turmush sifatining nisbatan teng va yuqori darajasini ta'minlash mas'uliyatini zimmasiga oldi.

Biroq jamiyat barcha a'zolari uchun yagona farovonlikni ta'minlash rejalari iqtisodiy. demografik cheklovlar va sug'urta mexanizmi inqirozi sababli jiddiy muammolarga duch keldi. XX asrning 70 yillaridan boshlab ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy ta'minot uchun xarajatlar daromadlarga nisbatan yuqoriroq sur'atlarda ortadigan bo'ldi. Bu esa hamma joyda soliqlarni va ijtimoiy ta'minot tizimiga majburiy badallarni oshirishni talab etdi. Iqtisodiyotga bunday bosim, o'z navbatida, uning samaradorligi yo'lida to'siq bo'ldi hamda majburiy badallar va soliqlar yukini kamaytirish zaruratini tug'dirdi. Oqibatda ijtimoiy dasturlar va nafaqalar qisman qisqartirildi.

Hozirgi davrda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining qator modellari farqlanadi:

1. *Amerikacha yoki liberal model* (AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya). Uning asosini davlat mulki salmog'ining kichikligi va bozor subyektlarining to'la erkinligi sharoitida iqtisodiyotni tartib-

ga solishning bozor mexanizmi amal etishi tashkil qiladi. Mazkur modelda yalpi milliy mahsulot hajmida davlat xarajatlarining ulushi nisbatan katta emas. Masalan, AQShda bu taxminan 30,0 % ni tashkil etadi. Shu bilan birga tadbirkorlik faolligining yuqoriligi va keskin raqobat qo'shimcha qiymat miqdorini sezilarli darajda oshiradi.

2. *Yapon modeli.* Ushbu model Yaponiya tarixiy an'analari – millat manfaatlarining shaxsiy manfaatlardan ustunligi, xodimlarning intizomliligi va mas'uliyati, yangilikka intilishiga asoslangan. Ushbu xislatlar mahsulotlar tannarxini arzonlashtirish, yuqori sifatliligini ta'minlash hisobiga ularning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shu bilan birga yapon modeli uchun milliy iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlariga davlat ta'sirining yuqori darajasi, besh yillik istiqbol rejalarini belgilash ham xos. Ijtimoiy sohada esa davlat ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurash olib boradi, fuqarolar kasal bo'lganlarida, ishsiz qolganlarida va pensiyaga chiqqanlarida ularning ijtimoiy huquqlariga rioya etilishi ustidan nazorat qiladi. Umuman olganda, xodimlarning ijtimoiy muammolarini hal etish ish beruvchilar zimmasida bo'ladi.

3. *Nemis yoki qit'a modeli* (Germaniya, Avstriya, Shvyetsariya, qisman Fransiya). Mazkur model quyidagi xususiyatlarga ega:

- davlat mulki salmog'ining yuqoriligi;
- davlatning iqtisodiyotga kuchli ta'sir ko'rsatishi, bu ayniqsa ijtimoiy muammolarni hal etishda yaqqol namoyon bo'ladi;
- xodimlar ish haqi o'rtasidagi tafovutning katta emasligi;
- banklarning iqtisodiyotdagi hal qiluvchi roli, Markaziy bankka to'la muxtoriyat berilganligi.

4. *Shved yoki skandinav modeli* (Shvetsiya, Daniya, Norvegiya va Finlyandiya). Iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi, mulkiy tengsizlikni kamaytirishga intilish, aholining kam ta'minlangan toifalari to'g'risida g'amho'rlik qilish ushbu modelning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Soliqqa tortish me'yorining yuqoriligi davlatga salmoqli moliyaviy resurslarga ega bo'lish va ularni ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirish imkonini beradi. Shu tufayli mazkur davlatlarda ishsizlik darajasi juda past, aholi daromadlari bir-biridan jiddiy farq qilmaydi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini faqat qonunlar, ayniqsa iqtisodiyot sohasiga taalluqli qonunlar jamiyat barcha a'zolari tomonidan hurmat qilinadigan va ularga qat'iy rioya qilinadigan huquqiy davlatda shakllantirilishi va rivojlantirilishi mumkin. Bu ayni paytda xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyati to'la erkinligi qonun tomonidan kafolatlanilishini ham nazarda tutadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti mehnatga layoqatli aholining ish bilan to'la va samarali bandligini ta'minlashi lozim. Davlat esa buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi, ish beruvchilarni yangi ish joylari yaratishga rag'batlantirilishi kerak. Ish bilan samarali bandlik milliy iqtisodiyot yuqori sur'atlarda barqaror o'sishini, yalpi va adolatli farovonlikning moddiy asosini yaratishni ta'minlashi kerak.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining asosiy subyektlari bozor va davlatdir. Bunda davlat fuqarolarning munosib va xavfsiz turmush kechirishlariga kafolat beradi va bozori iqtisodiyotini tartibga solish mas'uliyatini zimmasiga oladi.

1.2. Ijtimoiy soha tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishi

Ijtimoiy soha sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy-kommunal xo'jaligi, madaniyat, sport va turizm, ijtimoiy xizmat ko'rsatish va ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug'urta va pensiya ta'minotini mujassamlashtirgan.

Ijtimoiy soha tarmoqlari tomonidan taqdim etiladigan ne'matlar faqat bu ne'matlardan foydalanayotgan shaxs manfaati uchungina emas, balki butun jamiyat manfaatlariga ham xizmat qiladi. Masalan, kasalliklarning oldini olish va bemorlarni davolash aholi o'rtasida kasallanish darajasini pasaytiradi va epidemiya xavfini kamaytiradi. Yalpi savodxonlik jamiyat uchun beqiyos imkoniyatlar yaratadi, iqtisodiyotni jadal rivojlanishining hal qiluvchi omillaridan biriga aylanadi. Madaniy faoliyat ijtimoiy qadriyatlarning ommalashishi va ularning odamlar tomonidan o'zlashtirilishiga, jamiyatni jipslashtirishga yordam beradi.

Ijtimoiy soha tarmoqlarining faoliyati davlat va jamiyat tomonidan muttasil baholanib boradi. Jumladan, turli ijtimoiy guruhlar tomonidan tibbiy yordam va ta'lim olish imkoniyati ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan baholab boriladi. Tibbiy xizmatdan va madaniyat muassasalaridan foydalanish, ta'lim olish imkoniyati xalqaro tashkilotlar va ko'pgina davlatlarning konstitutsiyalarida insonning ajralmas huquqi sifatida e'tirof etilgan.

Ijtimoiy soha tarmoqlarining asosiy xususiyati ular aksariyatining (uy-joy-kommunal xo'jaligini istisno etgan holda) notijorat muassasalar ekanligidir.

Ma'lumki tijorat tashkilotlarining faoliyati foyda olishga qaratilgan. Ular o'z faoliyatlarining yo'nalishini mustaqil belgilaydilar, ishlab chiqarilayotgan tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmat turlari va shakllarini o'zgartirish huquqiga egalar, shuningdek olingan foydani ta'sischilar (mulk egalari) o'rtasida taqsimlaydilar.

Notijorat tashkilotlari faoliyatining maqsadi foyda olishga mo'ljallangan bo'lmaydi. Ularning maqomi foyda olingan taqdirda ham buni ta'sischilar o'rtasida taqsimlashni man etadi. Foyda faqat muassasani rivojlantirish maqsadlariga sarflanishi mumkin.

Butun iqtisodiyot, shu jumladan ijtimoiy soha ham tashkil etish iqtisodiy shakllariga ko'ra uch sektorga tasniflanadi (1.2-chizma).

1. Birinchi sektor – u davlat (munitsipial) mulkiga ega bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalarni qamrab oladi.

2. Ikkinchi sektor – mazkur toifaga faoliyatining asosiy maqsadi foyda olish bo'lgan tijorat korxona, tashkilot va muassasalar kiradi. Ular aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, korxona, tashkilot va muassasalar sifatida tashkil etilgan bo'lishi mumkin. Tabiiyki, ularning mulki ham davlatniki emas, balki aksiyadorlarga, paychilarga tegishlidir.

3. Uchinchi sektorga notijorat tashkilot va muassasalari kiradi. Ular ham foyda olishni ko'zlamaydi. Bu toifaga nodavlat notijorat tashkilotlari, jamg'armalar kiradi.



1.2-chizma. Ijtimoiy soha muassasa va tashkilotlarining mulk shakli bo'yicha tasnifi

Ijtimoiy soha tarmoqlari shakllanishi va tadrijiy rivojlanishi o'z tarixiga egadir. Azal-azaldan bilim berish, nogironlar, nochor shaxslar, yetimlarga yordam ko'rsatish faqat oilalar, qabilalarnigina emas, shuningdek davlat va diniy tashkilotlarning ham zimmasida bo'lgan. Davlat tomonidan ta'lim muassasalari, harbiylar va keksa kishilar uchun kasalxonalar ochilgan. Diniy tashkilotlar ham o'z mablag'lari hisobiga cherkov maktablari va madrasalar, nogironlar, yetimlar uchun kasalxonalar tashkil qilgan.

1.3. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti fanining predmeti

Iqtisodiyot fani sohalari serqirra. Jumladan, mehnat iqtisodiyoti mehnat bozori. mehnat resurslari, ish bilan bandlik, mehnat munosabatlari, ishga haq to'lash va xodimlarning daromadlari, mehnat unumdorligi va samaradorligi, mehnatni me'yorlash, personalni boshqarish usullarini o'rganadi. Mehnat sosiologiyasi insonning mehnatga munosabati, uning ijtimoiy faolligi, ishlab chiqarish jamoalaridagi ijtimoiy muhit, xodimlarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish omillari, ijtimoiy kafolatlar, mehnat nizolarining sabablari, ularni hal etish va boshqa masalalarni tadqiq etadi.

Iqtisodiyot fanining bu va boshqa sohalari qatorida nisbatan yangi, ammo tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan ijtimoiy soha iqtisodiyotini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti ilmiy tadqiqotlar yo'nalishi sifatida XX asr oxirlarida paydo bo'ldi.

Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiy o'sishni iqtisodiy yo'naltirilgan ijtimoiy rivojlanish sifatida talqin qilinadi. Uning shakllanishi va amal etishida inson salohiyati markaziy o'rin egallashi tabiiydir. Bu iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik bilan izohlanadi (1.3-chizma).



1.3-chizma. Inson iijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar snbyekti

Inson faoliyati turlariga iqtisodiy nuqtayi nazardan yondoshish sarf qilinadigan xarajatlarni buning natijasida erishiladigan samara bilan taqqoslashni taqozo etadi. Ijtimoiy soha iqtisodiyotida ham shunday prinsipga amal qilinadi. Ya'ni, cheklangan moliyaviy, moddiy, mehnat va boshqa resurslarni qilinadigan xarajatga

mutanosib samaraga erishishni ta'minlaydigan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun taqsimlash talab etiladi.

Ijtimoiy soha iqtisodiyotiga mulkchilikning xilma-xil shakllari, erkin tadbirkorlik, sog'lom raqobatga hamda iqtisodiyot yuksak darajada rivojlangan holda aholi turmushining munosib darajasi ta'minlanadigan, ijtimoiy himoyalanishi kafolatlanadigan kuchli ijtimoiy siyosatga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida ta'rif berilishi mumkin (1.4-chizma).



1.4-chizma. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti asoslari

Bunday talqin ijtimoiy soha iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardagi bozor iqtisodiyoti hamda o'tish iqtisodiyotiga ega davlatlarda bozor munosabatlari shakllantirilayotgan sharoitlarda amal etayotganligiga mos tushadi.

Sog'lom raqobat mulkchilikning turli shakllari mavjud bo'lishini, tadbirkorlik erkinligini talab etadi, shunday sharoitlardagina iste'dodli ishbilarmonlar va oddiy tovar ishlab chiqaruvchilar o'z salohiyatlarini to'la namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga mazkur iqtisodiyotda aholining ijtimoiy jihatdan nochor toifalari uchun bozor munosabatlari xavfini yumshatish maqsadida ijtimoiy himoya kafolatlanishi kerak.

Ijtimoiy soha iqtisodiyotiga ijtimoiy-texnologik, ijtimoiy-tashkiliy, ijtimoiy-madaniy va siyosiy nuqtayi nazardan yondoshish talab etiladi (1.5-chizma).



1.5-chizma. Ijtimoiy soha iqtisodiyotiga yondashuvlar

Ijtimoiy-texnologik yondoshishda tegishli soha (tibbiy yordam va ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ta'lim berish va hokazolar) tarkibi, ularda qo'llaniladigan texnologiyalar, mazkur faoliyat bilan shug'ullanayotgan muassasalarning turi, ular o'rtasidagi aloqadorlik va boshqa masalalar tadqiq etiladi.

Ijtimoiy-tashkiliy nuqtayi nazar tegishli faoliyat subyektlarining ijtimoiy roli, ularning ijtimoiy aloqalari, tarkib topgan tuzilmalariga qaratiladi. Ijtimoiy sohadagi iqtisodiy institutlarning amal etishida maxsus manfaat guruhlarining, jumladan shifokorlar, o'qituvchilar, teatr va kino arboblari, sug'urtalovchilar uyush-

malari va hokazolarning ahamiyati kattadir. Ular ham ijtimoiy ne'matlar yaratuvchilari, ham bu ne'matlarning iste'molchilari hisoblanadilar.

Ijtimoiy-madaniy yondashuvda faoliyatning maqsadi va vazifalarini mujassamlashtiradigan qadriyatlar asosiy rol o'ynaydi. Ushbu qadriyatlar aholiga ijtimoiy ne'matlar va xizmatlar taqdim etish, mazkur sohadagi iqtisodiy institutlarni tanlash bo'yicha davlat siyosati markaziga qo'yiladi. Ularning asosiylari quyidagilardir: ijtimoiy adolat, ijtimoiy totuvlik; ijtimoiy himoyalanganlik; inson qadr-qimmatini hurmat qilish; iqtisodiy va mehnat hayotini insonparvarlashtirish.

Siyosiy nuqtayi nazar ijtimoiy soha institutlarini joriy etishda o'z ifodasini topadi. Mazkur sohadagi institutlar hokimiyat tomonidan shakllantiriladi, ularning amal qilishi davlat nazoratida bo'ladi. Bunday institutlar qonunlar qabul qilish, huquqiy-normativ hujjatlarni tasdiqlash orqali tashkil etiladi. Ushbu yangi institutlarni joriy etish yoki tugatishda iqtisodiy omillar: mavjud resurslardan oqilona foydalanish yoki bu resurslarni adolatli taqsimlash prinsipi emas, balki siyosiy omillar hisobga olinadi

Ijtimoiy soha iqtisodiyotining bosh maqsadi insonning erkin rivojlanishini, har bir fuqaro va umuman mamlakat butun aholisining munosib turmush darajasi va turmush sifatini ta'minlashdan iboratdir. Bunday maqsadga erishishning vositasi fan va texnika so'nggi yutuqlari hamda inson omilidan samarali foydalanish hisobiga jo'shqin rivojlanayotgan milliy iqtisodiyot hisoblanadi.

1.4. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyotining boshqa ilmiy yo'nalishlar bilan bog'liqligi

Ijtimoiy sohaning iqtisodiy funksiyasi shaxs, oila va umuman jamiyatning rivojlanishini ta'minlaydigan resurs bazasi, shart-sharoitlarini ta'minlashga yo'naltirilgan aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi subyektlarining faoliyat ko'rsatishidir. Mazkur faoliyat iqtisodiy resurslarni shakllantirish va adolatli taqsimlash, resurslardan samarali foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish-

TerDU ,ARM
№ 40/0 006

ga qaratilgan bo‘ladi. Bu funksiyani amalga oshirishda davlat, jamiyat va shaxsning o‘zi ishtirok etadi.

Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti iqtisodiy nazariyaga metodologik asos sifatida tayanadi va ijtimoiy sohani rejalash, amal etishini resurslar bilan ta’minlash masalalarini qamrab oladi, iqtisodiy qonuniyatlar asosida hamda iqtisodiy qonunlarni ijtimoiy sohada qo‘llash amaliyoti asosida davlat, ijtimoiy guruhlar va shaxs o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni o‘rganadi.

Yuqorida bayon etilganlardan xulosa chiqargan holda ijtimoiy soha iqtisodiyotining predmeti mazkur sohaga yo‘naltirilgan moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari hamda ijtimoiy soha amal etishi va rivojlanishiga erishish uchun ushbu resurslardan foydalanish qonuniyatlari hisoblanadi deyish mumkin.

Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti boshqa ilmiy yo‘nalishlar bilan uzviy aloqador (1.6-chizma).



1.6-chizma. Ijtimoiy soba iqtisodiyotining boshqa ilmiy yo‘nalishlar bilan bog‘liqligi

Ijtimoiy soha iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishi davlatning faol ishtirokida sodir bo'ladi. Iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat iqtisodiy siyosati, davlat hokimiyati va boshqaruvi subyektlarining irodasiga bog'liqdir. Ijtimoiy soha iqtisodiy strategiyaning ustuvor yo'nalishiga aylangan taqdirdagina davlat obyektiv ravishda ijtimoiy davlatga aylanadi.

Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish davlat dasturlari asosida fuqarolarning bepul ta'lim olish va tibbiy xizmatdan foydalanish konstitutsiyaviy huquqlari ta'minlanadi, keksa kishilar va mehnatga layoqatsiz shaxslar, onalik va bolalik qo'llab-quvvatlanadi. Bunday ijtimoiy xizmatlarga ehtiyojning qondirilish darajasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanganligi va jamiyatdagi qadriyatlar bilan belgilanadi.

Davlatning milliy daromadni qayta taqsimlash bo'yicha faoliyati uch asosiy yo'nalish bo'yicha olib boriladi:

birinchisi – aholi tomonidan olinadigan daromad mehnat natijalari asosida, lekin tirikchilik ehtiyojlari qondirilishi hisobga olingan holda taqsimlanishi;

ikkinchisi – ehtiyoj miqdori hisobga olingan holdagi to'lovlar (bolalar nafaqalari, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam olish xarajatlarining qoplanishi va hokazolar);

uchinchisi – aholining qonun tomonidan belgilab qo'yilgan toifalariga noishlab chiqarish sohasining tegishli muassasalari orqali amalga oshiriladigan davlat tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlash.

Nazorat uchun savollar

1. Ishlab chiqarishning asosiy omillari nimalardan iborat?
2. "Ijtimoiy davlat" tushunchasi kim tomonidan muomalaga kiritilgan?
3. Davlatning ijtimoiy xususiyati qaysi mamlakat Konstitutsiyasida ilk marta o'z ifodasini topgan?

4. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining qaysi modellarini bilasiz?

5. Kam ta'minlangan fuqarolarga birinchi marta davlat nafaqalari to'lash qachon va qaysi mamlakatda joriy etilgan?

6. Ijtimoiy sohaning iqtisodiy funksiyasi nimadan iborat?

7. Ijtimoiy sheriklik subyektlari kim?

8. Davlatning milliy daromadni qayta taqsimlash bo'yicha faoliyati asosiy yo'nalishlarini ko'rsating.

9. Ijtimoiy sohaning milliy iqtisodiyotdagi roli va o'rniga ta'rif bering.

10. Ijtimoiy sohaning iqtisodiy kategoriyasi sifatidagi vazifalarini ifodalab bering.

II BOB. SOG‘LIQNI SAQLASH

2.1. Aholiga tibbiy yordam va tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi

Sog‘liqni saqlash sohasi – aholiga kafolatlangan yuqori sifatli tibbiy yordam va tibbiy xizmat ko‘rsatadigan muassasalar tizimidir.

Sog‘liqni saqlash tizimi milliy iqtisodiyotimizda aholining sog‘lig‘ini saqlash va ularga tibbiy yordam hamda tibbiy xizmatlar ko‘rsatish bilan jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini kasallikdan saqlash, davolash, reabilitatsiya qiiish va sog‘lom tarzda hayot kechirishni targ‘ibot qiluvchi tizim sifatida muhim iqtisodiy-ijtimoiy rol o‘ynaydi.

Bu soha jamiyatning mehnat resurslarini qayta ishlab chiqarish jarayonini muntazam ravishda amal qilib turishini ta’minlovchi hamda jamiyatda ishlab chiqarilgan moddiy boyliklar miqdorining o‘sishi va ularni odamlar o‘rtasida adolatli qayta taqsimlashga zamin yaratuvchi iqtisodiy vazifani bajaradi.

Tibbiyotda aholiga tibbiy yordam va tibbiy xizmatlar ko‘rsatishning davolash–diagnostika jarayoni turli bosqichlariga muvofiq bo‘lgan quyidagi turlari farqlanadi (2.1-chizma).



2.1–chizma. Aholiga tibbiy yordam va tibbiy xizmatlar ko‘rsatish turlari

Jahon amaliyotida tibbiy texnologiyalarni qo'llash murakkabligiga qarab aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning quyidagi darajalari mavjud (2.2–chizma):



2.2–chizma. Aholiga tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari

Birlamchi bosqich – bu aholi istiqomat qiladigan va ishlaydigan joylarda kasallikka qarshi profilaktika tadbirlari, birinchi tez tibbiy yordam, qishloq va shahar vrachlik ambulatoriyalarida umumiy amaliyot vrachlari va terapevtlar tomonidan ko'rsatiladigan dastlabki tibbiy–sanitariya yordami va tibbiy xizmatlar.

Ikkilamchi bosqich – bu bevosita hududlardagi shifoxonalar va oilaviy poliklinikalar tomonidan yangi tibbiy texnologiyalar asosida ko'rsatiladigan va ommaviy tarzda qo'llaniladigan tibbiy yordam va tibbiy xizmatlardir(muayyan kasalliklarni davolashga ixtisoslashgan shifokorlar – jarrohlar, oftalmolog, otorinola-

ringologlar va hokazolar tomonidan ko'rsatiladigan malakali tibbiy yordam va tibbiy xizmatlar) hisoblanadi.

Uchinchi bosqich – bu innovatsion tibbiy texnologiyalar asosida jihozlangan Respublika Ilmiy – tibbiy Markazlarida ko'rsatiladigan yuqori malakali va kafolatli ko'rsatiladigan tibbiy yordam va tibbiy xizmatlar).

Mazkur uch bosqichli aholiga tibbiy yordam va tibbiy xizmat turlari hamda ularda qo'llaniladigan davolash texnologiyalari bilan texnologik bevosita va uzviy bog'liqdir. Aholi o'rtasida sanitariya-profilaktika tadbirlari (masalan, aholini yoppasiga emlash yoki ularni tibbiy ko'riklardan o'tkazish), bir tomondan, kasalliklar kamayishiga, ikkinchi tomondan, xastaliklarni barvaqt aniqlashga xizmat qiladi. Kasalliklarni davolash tez yordam va ambulatoriya–poliklinika tomonidan tibbiy yordam va xizmat ko'rsatilishi bosqichida boshlanadi. Bunda dastlabki tibbiy–sanitariya yordami bosqichida umumiy amaliyot shifokorlari, terapevt, pediatr tomonidan belgilangan reja va miqdor doirasida amalga oshiriladi. Agar bu tibbiy yordam yetarli darajada amalga oshirilmagan bo'lsa, bemor viloyat yoki Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiy Markazlarining shifokorlari tomonidan chuqur tekshiriladi va zarurat bo'lgan tarzda, uni davolash stastionar sharoitlarda davom ettiriladi.

Har bir mamlakat sog'liqni saqlash tizimi samaradorligining asosiy mezoni – aholi salomatligining darajasidir. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Ustavi salomatlikni: "Inson organizmining a'zolari u yashab faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish va ijtimoiy muhit bilan mutanosib bo'lgan to'la jismoniy, psixologik va ijtimoiy sog'ligining holati" sifatida talqin etadi.

Ushbu tushunchada salomatlikning uchta: jismoniy, psixologik va ijtimoiy tarkibiy xususiyatlari qamrab olingan (2.3–chizma).

Jismoniy salomatlik – bu organizm barcha organlari va tizimlari funksiyasining normal tabiiy holatdir.

Psixologik salomatlik – bu fikrlash darajasi va sifati, diqqat va xotiraning hamda irodaning rivojlanganligi, hissiy barqarorlikdir.



2.3–ch'zma. Inson salomatligining mezonlari

Ijtimoiy salomatlik – bu insonning muayyan jamiyatdagi hayot-faoliyati, ya'ni uning mehnatga munosabati, axloqi, turmush tarziga zid xulq va odatlarga faol qarshi turishidir.

Salomatlikning shaxsiy darajasi, shuningdek guruhiy, mintaqaviy va ijtimoiy salomatlik farqlanadi. Ya'ni:

– shaxsiy salomatlik – alohida insonning salomatligi;

– guruhiy salomatlik – ijtimoiy va etnik guruhlarning salomatligi;

– mintaqaviy salomatlik – ma'muriy hududlar aholisining salomatligi;

– ijtimoiy salomatlik – umuman jamiyat salomatligi.

Ijtimoiy salomatlikni baholash uchun quyidagi tibbiy-demografik ko'rsatkichlardan foydalaniladi (2.4–chizma):



2.4–chizma. Ijtimoiy salomatlikning tibbiy-demografik ko'rsatkichlari

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti nuqtayi nazaridan odamlarning salomatligi – ijtimoiy xususiyatdir, shuning uchun ijtimoiy salomatlikni baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi:

– yalpi ichki mahsulot hajmida sog'liqni saqlashga xarajatlar ulushi;

– birinchi tibbiy-sanitariya yordamidan foydalanish imkoniyati;

– aholini emlash darajasi;

– xomiladorlarning malakali personal tomonidan tekshirilish darajasi;

– bolalarni ovqatlantirish axvoli;

– bolalar o'limining darajasi;

– kutilayotgan o'rtacha umr davomiyligi;

– aholining gigiyenik savodxonligi.

Sog‘liqni saqlash xizmatlari bilan qamrab olishning ko‘rsatkichlari tibbiy yordamga muhtoj aholining sog‘liqni saqlash sohasida eng muhim choralar bilan amalda qamrab olingani darajasini ifoda etadi. Bunday choralarga quyidagilar kiradi:

– ayollarga homiladorlik va tug‘ish paytida malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish;

– reproduktiv salomatlik sohasidagi xizmatlar;

– bolalarning yuqumli kasalliklarga chalinishini oldini olish maqsadlarida emlash;

– bolalarni A guruh vitaminlari bilan ta’minlanishi;

– bolalar, o‘smirlar va katta yoshdagilarning kasalliklarini davolash.

Odatda bunday qamrab olish ko‘rsatkichlari muayyan kasalliklardan davolangan yoki profilaktikadan o‘tgan odamlar sonini tibbiy yordam olish huquqiga ega yoki tibbiy yordamga muhtoj aholi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Jahonda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasining rivojlanishi ko‘p bosqichlarni bosib o‘tgan. XVII asrning ikkinchi yarmida o‘sha vaqtda iqtisodiy jihatdan rivojlangan Angliyada ham aholining o‘rtacha umr ko‘rishi davomiyligi 40 yoshni, dunyoning ko‘pchilik boshqa mintaqalarida esa 20 yoshni tashkil etardi. Davlat tomonidan bolalar va yoshlar o‘rtasida yuqumli kasalliklarning tarqalishi nazorat ostiga olingandan so‘ng aholi o‘rtasida o‘lim darajasi kamaya boshladi. Shundan so‘ng sil va gripp kabi xastaliklarning oldini olish bo‘yicha ko‘rilgan choralar ham aholi salomatligining axvoli yaxshilanishiga xizmat qildi.

Jahon mamlakatlaridagi aholi salomatligini muhofaza qilish tizimini tashkil etish shakllari, sog‘liqni saqlash sohasidagi iqtisodiy munosabatlar va boshqa omillar xilma-xilligiga qaramasdan ularni quyidagicha xususiyatlar bo‘yicha tasniflash mumkin:

– mulkka egalik;

– moliyalash manbalari;

– tibbiy xizmat ko‘rsatuvchilarni (tibbiyot xodimlarini) va bu xizmatlar iste’molchilarini (bemorlarni) rag‘batlantirish mexanizmlari;

– tibbiy xizmat ko‘rsatish hajmi va sifatini nazorat qilish shakl va usullari.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ekspertlari (S. Hakansson, V. Majnoni, D'Intignano, G.H. Mooney, J.L. Roberts, G.L. Stoddart, K.S. Johansen, H. Zollner) tomonidan sog‘liqni saqlash tizimining uch turi farq qilinadigan tasnif taklif etilgan. Ular quyidagilardir:

– bozor yoki xususiy tizim;

– davlat yoki Beverij[2] tizimi;

– ijtimoiy sug‘urta yoki Bismark[3] tizimi (2.1-jadval).

Jahon mamlakatlaridagi sog‘liqni saqlash tizimlarining xususiyatlari

2.1-jadval

Tizimlar	Tizimlar xususiyatlari	Tizimlar amal etadigan davlatlar
Bozor yoki xususiy tizim	Tibbiy yordamni asosan uning iste'molchilari hisobidan taqdim etiladi, yagona davlat tibbiy sug‘urta tizimi mavjud emas. Tibbiy xizmatlarga ehtiyoj tibbiy xizmatlar bozori orqali qondiriladi. Aholi nochor qismiga tibbiy xizmat ko‘rsatish xarajatlari davlat dasturlari asosida qoplanadi	AQSh

[2] Uilyam Genri Beverij (ingl. William Henry Beveridge, 1879 —1963) — ingliz iqtisodchisi va davlat arbobi. Uning aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishning davlat tizimi 1942 yilda mashhur "Beverij hisoboti" nomini olgan "Farovonlik davlati " g‘oyasi olg‘a surilgan "Ijtimoiy sug‘urta va sherikchilik xizmatlari" ("Social Insurance and Allied Services") asarida bayon qilingan.

[3] Otto Eduard Leopold Karl-Vilgelm-Ferdinand gersog fon Lauenburg knyaz fon Bismark und Shyonxauzen (nem. Otto Eduard Leopold von Bismarck-Schonhausen, 1815 — 1898) — davlat arbobi, Germaniya imperiyasining birinchi kansleri.

Davlat yoki Beverij tizimi	Aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish xarajatlari asosan davlat budjeti – korxona va aholidan olinadigan soliq hisobidan moliyalashtiriladi	Buyuk Britaniya, Irlandiya, Daniya, Portugaliya, Ispaniya, Italiya,Grestiya
Ijtimoiy sug‘urta yoki Bismark tizimi	Davlat fuqarolar daromadi darajasidan qat’i nazar ularning hammasiga tibbiy xizmat ko‘rsatilishining kafolatini zimmasiga oladi. Moliyalash manbalari - sug‘urta tashkilotlari foydasidan chegirmalar, xodimlar ish haqidan to‘lovlar, budjet mablag‘laridir	Germaniya, Gollandiya, Fransiya, Kanada, Avstriya, Belgiya, Yaponiya, Shveytsariya

Bozor yoki xususiy tizim uchun tibbiy yordamni asosan uning iste’molchilari hisobidan taqdim etish, yagona davlat tibbiy sug‘urta tizimining mavjud emasligi xosdir. Mazkur tizimda aholining tibbiy xizmatlarga ehtiyojini qondirishning asosiy vositasi tibbiy xizmatlar bozori hisoblanadi. Ushbu bozor tomonidan tibbiy xizmatga qondirilmaydigan ehtiyojlar (aholining kam ta’minlangan toifalari, pensionerlar, ishsizlar va hokazolar) uchun xarajatlarni davlat o‘z zimmasiga oladi. Buning uchun tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha ijtimoiy dasturlar ishlab chiqiladi va ular moliyalashtiriladi.

Bozor yoki xususiy tizim AQSh uchun xosdir. Bu yerda xususiy tibbiy xizmatlar bozori aholining nochor qismiga mo‘ljallangan "Medicade" va pensionerlar uchun "Medicare" davlat dasturlari bilan to‘ldiriladi. Ushbu model odatda xususiy yoki bozor tizimi ham deb ataladi.

Davlat yoki Beverij tizimi aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishda davlat rolining ustuvorligiga asoslangan. Mazkur modelda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish xarajatlari asosan davlat budjeti – korxona va aholidan olinadigan soliq hisobidan moliyalashtiriladi.

Mamlakat aholisiga ayrim tibbiy xizmatlarni istisno etganda, berul tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Ya'ni davlat asosiy tibbiy xizmat ko'rsatuvchi va bu xizmatning asosiy iste'molchisi sifatida tibbiy xizmatlarga ijtimoiy ehtiyojning asosiy qismini qondiradi. Tibbiy xizmatlar bozori ikkilamchi darajaga ega bo'lib, u ham davlat nazorati ostida bo'ladi.

Mazkur model Buyuk Britaniyada 1948 yildan beri amal etadi. U Yevropadagi qator rivojlangan davlatlar uchun ham xos.

Sog'liqni yalpi sug'urtalashga asoslangan yoki Bismark tizimini, shuningdek ijtimoiy sug'urta tizimi ham deb atashadi. Ushbu model aralasn iqtisodiyot tizimiga tayanib, o'zida davlat tomonidan tartibga solishning rivojlangan tizimini, shuningdek aholining barcha qatlamlarining tibbiy xizmatdan foydalanish ijtimoiy kafolatlari bilan tibbiy xizmatlar bozorini mujassamlashtirgan.

Ushbu tizim mamlakat deyarli barcha aholisini majburiy tibbiy sug'urta bilan qamrab olinishini, davlatning sug'urta jamg'armalarini moliyalashda qisman ishtirok etishini nazarda tutadi. Davlat bozor iqtisodiyoti prinsiplarini buzmasdan, fuqarolar daromadi darajasidan qat'i nazar ularning hammasiga tibbiy xizmat ko'rsatilishining kafolatini zimmasiga oladi. Moliyalash manbalari tizimi (sug'urta tashkilotlari foydasidan chegirmalar, xodimlar ish haqidan to'lovlar, budjet mablag'lari) ijtimoiy-sug'urta tibbiyoti moliyaviy negizining mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

2.2. Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorning rivojlanishi

Oxirgi yillarda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasini tubdan isloh qilish va takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida tibbiyot sohasining xususiy sektorini barqaror rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohaga mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimining davlat sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan ko'rsatilayotgan keng turdagi tibbiyot xizmatlarini sifat jihatidan yuksaltirish va yanada

to‘ldirishga xizmat qiladigan muhim tarkibiy qism sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasining xususiy sektori faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi qonunida mamlakatimizda sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatini tartibga solish va litsenziyalash tizimi faoliyat yuritmoqda. Ularga barcha turdagi soliqlar va qator majburiy to‘lovlar, shuningdek, chetdan olib kelinadigan yangi tibbiy asbob-uskunalar uchun bojxona to‘lovlaridan ozod etish bo‘yicha imtiyozlar berilayotir.

So‘nggi 2010-2016 yillarda mamlakatimizda xususiy tibbiyot muassasalari soni 2 barobar ko‘payib, 3,5 mingtaga yetdi. Ularni yuqori texnologiyali tibbiyot texnikasi bilan jihozlash darajasi 3 barobar oshdi. Ayniqsa, stomatologiya, laboratoriya tashxisi, terapiya, fizioterapiya, nevrologiya va boshqa sohalarga ixtisoslashgan xususiy tibbiyot muassasalari rivojlangan.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbari sog‘liqni saqlash sohasi vakillari bilan uchrashuvlarida sog‘liqni saqlash tizimida xususiy sektorni rivojlantirishga hamon yetarlicha e’tibor qaratilmayotganini ta’kidladi.

Bu boradagi tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatiga oid qonunchilikda mavjud cheklovlar ular tomonidan ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat turlarini kengaytirish va sifatini yanada yaxshilashga, ayniqsa, tor ixtisoslikdagi tibbiyot sohalariga ilg‘or davolash usul va texnologiyalarini joriy qilishga to‘sqinlik qilmoqda. Ayniqsa, xususiy tibbiyot subyektlarining qishloq joylarda rivojlanish darajasi qoniqarsiz holatda, ularning uchdan bir qismidan ziyodi Toshkent shahri va viloyatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 aprelda «Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2863-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalish va vazifalari

qatorida xususiy tibbiyot muassasalari tashxis qo'yish va davolashning zamonaviy yuqori texnologiyali usullarini keng qo'llagan holda sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ularga kredit ajratish va moliyaviy yordam ko'rsatish, xususiy tibbiyot sohasiga xorijiy investitsiyalar va malakali mutaxassislarni jalb qilish, tibbiy xizmatlar eksportini kengaytirish, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish bozori infratuzilmasini rivojlantirish belgilangan.

Ayni paytgacha xususiy tibbiyot muassasalariga 177 turdagi tibbiy xizmatlarning atigi 50 tasiga ruxsat etilgan bo'lib, qolganlari taqiqlangan edi. Bugungi kunda ularga tibbiy xizmatlarning deyarli barcha turlarini ko'rsatishga ruxsat berildi.

Ruxsat etilgan tibbiy xizmat turlariga quyidagilar kiritildi:

– kardiojarrohlik;
– neyrojarrohlik;
– mikrojarrohlik;
– onkologiya;
– anesteziologiya va reanimatologiya;
– gelmintologiya;
– intervitsion kardiologiya;
– immunobiologik va immunoferment tashxis qo'yish;
– qon-tomir, torakal va abdominal jarrohlik.

Shuni qayd etish lozimki, agar avval qabul qilingan qonunchilik hujjatlarida xususiy tibbiyot muassasalari shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari tasdiqlangan bo'lsa, endi faqat davlat sog'liqni saqlash muassasalari amalga oshirishi mumkin bo'lgan va xususiy tibbiyot muassasalari uchun taqiqlangan ayrim cheklangan faoliyat turlari tasdiqlanmoqda. Ushbu faoliyat turlari aholi hayoti, salomatligi va sanitariya-epidemiologik holatiga katta xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan, jumladan, o'ta yuqumli, xavfli va karantin kasalliklarga tashxis qo'yish va davolash, toksikologik, venerik va ruhiy xastaliklar, chaqaloqlar va 1 yoshgacha bo'lgan bolalar kasalliklari va patologiyasini davolash, tug'ruqni qabul qilish va homiladorlikni to'xtatish, organlarni

ko‘chirish, qon donorligini tashkil etish va boshqa o‘ziga xos yo‘nalishlar bilan bog‘liqdir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda xususiy tibbiyot muassasalariga keng ko‘lamli imtiyoz va preferensiyalar berilmoqda. Xususan, ushbu muassasalar 2022 yilning 1 yanvariga qadar barcha turdagi soliqlar va majburiy ajratmalar to‘lashdan ozod etilgan. Alohida ta’kidlash lozimki, taqdim etilgan soliq imtiyozlari xususiy tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini sezilarli darajada mustahkamlash imkonini beradi. Bo‘shagan mablag‘lar ularni zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash, ularga servis-texnik xizmat ko‘rsatish, tibbiyot maqsadlari uchun ehtiyot qismlar, inventar va boshqa buyumlar xarid qilish, yangi bino va inshootlarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilishga maqsadli yo‘naltiriladi.

Taqdim etilgan soliq imtiyozlari hisobidan tejalgan mablag‘larning bir qismi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul tibbiy xizmat ko‘rsatishga yo‘naltiriladi. Shunday qilib, berilgan soliq imtiyozlari evaziga davlat bir vaqtning o‘zida aholini manzilli ijtimoiy himoya qilish bilan birga, sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishni kengaytirishni rag‘batlantirish bo‘yicha muhim vazifalarni hal etadi, shu bilan birga, xususiy tibbiyot muassasalari zimmasiga qo‘shimcha moliyaviy xarajatlar yuklanmaydi.

Qishloq joylarda va chekka tumanlarda tibbiyot sohasida xususiy sektorni jadal rivojlantirish maqsadida qarorda qishloq joylarda tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasida tashkil etiladigan yangi mikrofirmalar va kichik korxonalar davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab 10 yil muddatga yagona soliq to‘lovidan ozod etilgan.

2017 yil 1 maydan boshlab sog‘liqni saqlash sohasida kichik korxonalar xodimlarining yillik o‘rtacha cheklangan soni 25 kishidan 100 kishigacha ko‘paytirildi. Bu esa tibbiyot sohasining xususiy sektorida bandlikni kengaytirishni rag‘batlantirish imkonini berdi, xususiy tibbiyot muassasalari xizmat ko‘rsatadigan aholi sonini oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratdi.

Xususiy tibbiyot muassasalarini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlangan. Mazkur dasturda xususiy tibbiyot muassasalarini har tomonlama rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, ular faoliyatining barcha yo'nalishlarini qamrab olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Xususan, xususiy tibbiyot muassasalariga litsenziya berishni sezilarli darajada soddalashtirish va muddatlarini tezlashtirish, jumladan, litsenziya berish to'g'risidagi qarorni 30 kundan 20 kungacha qisqartirish, litsenziya berish uchun davlat bojini eng kam ish haqining 10 barobaridan 5 barobarigacha kamaytirish nazarda tutilgan.

Tijorat banklariga xususiy tibbiyot muassasalariga zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, jumladan, xorijdan sotib olish, boshlang'ich kapitalni shakllantirish, tibbiy xizmatlar ko'rsatish maqsadida bino va inshootlar xarid qilish uchun uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ajratish vazifasi yuklatilgan. Shuningdek, aholiga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, jumladan, bank kredit kartalari bilan hisob-kitob qilish asosida xususiy tibbiyot muassasalarining tibbiy xizmatlaridan foydalanish uchun iste'mol kreditlari taqdim etish tavsiya etilgan.

Shuni alohida ta'kidlasn kerakki, qarorda tibbiyotning xususiy sohasiga, ayniqsa, yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish va xorijiy kapital ishtirokida qo'shma tibbiyot muassasalari tashkil etish orqali ilg'or xalqaro tajribani joriy etishni kengaytirishga doir chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Mazkur qarorda xususiy tibbiyot muassasalarida ishlashga jalb etiladigan xorijlik shifokorlar va zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalariga xizmat ko'rsatadigan texnik mutaxassislar tuzilgan mehnat shartnomalari doirasida olinadigan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslar daromad solig'i hamda yagona ijtimoiy to'lovlardan ozod etilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston xususiy amaliyot vrachlari assotsiatsiyasiga O'zbekistonda Janubiy Koreya, Hindiston, Rossiya, Germaniya va boshqa davlatlarning yetakchi tibbiyot markazlari hamda klinikalari bilan hamkorlikda yirik davolash-tashxis qo'yish

muassasalari tashkil etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va kiritish tavsiya etildi. Bunda qarorga ko‘ra, xususiy tibbiyot muassasalarining xorijlik xodimlari boshqaruv personali sifatidagi faoliyatidan oladigan daromadlari jismoniy shaxslar daromad solig‘idan ozod etiladi.

Xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatini keng ko‘lamda rag‘batlantirish tibbiy sug‘urta tizimini keng joriy etgan holda, aholiga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan kafolatli bepul tibbiy yordam bilan birga, sifatli va arzon tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadigan pulli tibbiy xizmatlar bozorini jadal rivojlantirishni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan tibbiy sug‘urta sohasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solish, ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug‘urtaning huquqiy asoslarini belgilash, sug‘urta polislari bo‘yicha kafolatli yuqori sifatli tibbiy xizmatlar ko‘rsatish, fuqarolar uchun tibbiy sug‘urta tizimida ishtirok etishda rag‘batlantiruvchi imtiyoz va preferensiyalar yaratish va boshqa masalalarga qaratilgan «Tibbiy sug‘urta to‘g‘risida»gi qonun loyihasi konsepsiyasini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

2.3. Sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish

Sog‘liqni saqlash sohasida iqtisodiy munosabatlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Mazkur tarmoqda tibbiy xizmatlarni taqdim etuvchilar -tibbiyot muassasalar va tibbiyot xodimlaridir. Bu xizmatlarning iste’molchilari esa bemorlar bo‘lib, ular tibbiy xizmatlarga talabni shakllantiradilar. Biroq tibbiy xizmatlar bozoridagi talab va taklif tovar bozorlaridagidan farq qiladi. Ushbu tafovutlar quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

– talab paydo bo‘lishining mavhumligi. Tibbiy xizmatlarning iste’molchilari qachon davolanishlari talab qilinishini oldindan bilmaydilar va shu sababdan sog‘liqlarini saqlashga xarajatlarini rejalashtira olmaydilar. Xastalikka duchor bo‘lganlar uchun bu xarajatlar kutilmagan bo‘ladi va oila budjetiga juda jiddiy zarar keltirishi mumkin.

– manfaatlar ziddiyati. Bemor o‘z kasalligi sabablari va u qanday davolanishi kerakligi to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmaydi, shuning uchun davolovchi shifokorlar bilimi va tajribasiga ishonishga majbur. Ushbu holat manfaatlar ziddiyatini paydo qiladi. Agar shifokorlar tibbiy xizmat ko‘rsatish hajmi ortishidan moddiy manfaatdor bo‘lsa, muolajalar hajmini, dori-darmonlarni ko‘paytirishga, kasalxonalarda bemorlar ko‘p bo‘lishini ta’minlaydigan davolash usullarini qo‘llashga intilishi tabiiy;

– xizmatlar taqdim etuvchilarning monopol holati. Ko‘pgina tibbiy xizmat taqdim etuvchilar muayyan hududda (ayniqsa, kichik shaharlar, qishloq joylarida) monopol holatga ega bo‘ladilar. Bu yerlarda bemorlar faqat shu yerdagi tibbiyot muassasalariga murojaat etishga majburlar. Shu bilan birga ixtisoslashtirilgan, yuqori texnologiyali tibbiy xizmat ko‘rsatuvchilar ham monopolchilar hisoblanadilar.

Yuqorida qayd qilingan xususiyatlar sog‘liqni saqlash sohasini moliyalashtirishga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bunda tarmoqni moliyalashtirishning quyidagi tizimlari amal qiladi:

1. Sog‘liqni saqlash sohasini budjet orqali moliyalashtirish tizimi. Mazkur tizimda aholiga bepul tibbiy yordam miqdori va sifatiga qarab soliq tushumlaridan shakllanadigan davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi (2.5-chizma).

Tarmoqni budjetdan moliyalashtirish tizimida mablag‘larni tasarruf etish huquqi sog‘liqni saqlashni boshqarish idoralariga beriladi. Ular asosan davlat tasarrufidagi tibbiyot muassasalari tomonidan aholiga ma’lum bir muddatda ko‘rsatilgan kafolatlangan bepul tibbiy yordam miqdori xarajatlarini qoplaydilar. Ushbu tizim bemorlarga ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar haqining 20%ni o‘z mablag‘lari hisobidan qoplash belgilab qo‘yilgan.

2. Sog‘liqni saqlash sohasini majburiy tibbiy sug‘urta hisobidan moliyalash tizimi. Ushbu tizimda aholiga bepul tibbiy yordam va tibbiy xizmat ko‘rsatishni moliyalash manbai sug‘urtachilar ayrim toifalari tomonidan majburiy ravishda to‘lanadigan sug‘urta badallar hisobidan shartnoma talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Majburiy tibbiy sug‘urta tizimi amal

qiladigan ko‘pgina mamlakatlarda sug‘urta badallari odatda ish beruvchilar va yollanma xodimlar tomonidan teng hissada to‘lanadi. Rossiyada va qator boshqa mamlakatlarda majburiy tibbiy sug‘urta badallari faqat ish beruvchilar tomonidan to‘lanadi.



2.5-chizma. Sog‘liqni saqlash sohasining davlat budjeti tomonidan moliyalash tizimi

O‘zbekistonda tibbiy sug‘urta tizimi 2015 yildan joriy etilishi ko‘zda tutilmoqda (2.6-chizma).

Ish bilan band bo‘lmagan aholini tibbiy sug‘urta qilish quyidagi usulda amalga oshiriladi.

Birinchisi. Yollanma xodimlar (shu jumladan vaqtincha yollanganlar) bilan birga ular oilasining ishlamaydigan a’zolari

ham mazkur xodim va ish beruvchi tomonidan to‘lanadigan sug‘urta badali hisobidan majburiy sug‘urtalanadi.



2.6-chizma. Sog‘liqni saqlash sohasini majburiy tibbiy sug‘urta hisobidan moliyalash tizimi

Ikkinchi usulda esa ish bilan band bo‘lmagan aholi uchun to‘lanmagan tibbiy sug‘urta badallari davlat budjeti yoki budjetdan tashqari jamg‘armalar hisobidan qoplanadi. Masalan ishsizlar uchun ish bilan bandlikka ko‘maklashuvchi jamg‘armalar, pensionerlar uchun yig‘iilib boriladigan pensiya jamg‘armalari hisobidan to‘lanadi.

Ko‘pgina davlatlarda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun majburiy tibbiy sug‘urta mablag‘laridan tashqari bemorlar tomonidan ham ko‘ngilli qo‘shimcha to‘lovlar joriy qilingan. Lekin bu ko‘ngilli qo‘shimcha to‘lovlar miqdori katta emas, umuman qo‘shimcha to‘lovlar ortiqcha talabni chegaralash maqsadida qo‘llaniladi.

3. Sog‘liqni saqlash sohasini xususiy moliyalashtirish tizimi. Mazkur usulda ko‘rsatilgan tibbiy xizmatning miqdoriga qarab moliyalashning manbai fuqarolarning shaxsiy daromadlari, homiylar va ish beruvchilarning mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Fuqarolar ixtiyoriy ravishda o‘ziari va oila a’zolari uchun extiyoriy tanlagan ishonchli tibbiy sug‘urta kompaniyalarining polyuslarini xarid qilishlari mumkin. Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta polisi uning egalariga malakali tibbiy yordam va tibbiy xizmatni uning hisobiga olish imkoniyatini beradi yoki birmuncha yengilliklar berishi mumkin (2.7-chizma).

Tibbiy sug‘urta muassasalari sug‘urtalanganlarning badallarini jamlab, samarali boshqaradi va shu mablag‘ manbalari hisobidan ko‘rsatilgan tibbiy yordam va tibbiy xizmat haqini tibbiy muassasalarga to‘laydi. Jamg‘arilgan sug‘urta badallari miqdori va ko‘rsatilgan tibbiy yordam va tibbiy xizmat xarajatlari miqdori o‘rtasidagi ijobiy qoldiq sug‘urta tashkilotlarining foydasini tashkil etadi.

Mazkur tizimda faoliyat olib boradigan sug‘urtalovchining mavjudligi va uning o‘z daromadlarini ko‘paytirishdan manfaatdorligi tibbiy yordam va tibbiy xizmatlar hajmini nodavlat ekspert guruhi baholash orqali tibbiy xizmat narxini kamaytirish tibbiy yordam va tibbiy xizmatga to‘lanadigan haqni raqobat mexanizmlari orqali arzonlashtirish imkonini tug‘diradi.

Sog‘liqni saqlash tizimi bozor tamoyillari jarayonida tibbiy yordam va tibbiy xizmat miqdori va sifatidan kelib chiqib, mijozlariga o‘z jamg‘armalarini qaysi biri: moliya yoki sug‘urta bozoriga topshirish muammosini hal qilishga imkon yaratadi. Bunday tanlov ikkilamchi qimmatli qog‘oz bozorida foyda olish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin. Lekin, ayni paytda sug‘urtalangan mijoz kasallanib qolishi va ko‘rsatiladigan tibbiy yordam

haqini to‘la olmaslik xavfi vujudga kelishini ham ko‘zda tutmog‘imiz lozim.



2.7-chizma. Sog‘liqni saqlash sohasini xususiy (ixtiyoriy tibbiy sug‘urta bisobidan) moliyalash tizimi

Sog‘liqni saqlash tizimi amal etishi samaradorligining eng muhim omili - tibbiy yordam va tibbiy xizmatlar taqdim etuvchilarni moliyalashtirishni samarali tashkil etishdir. Jahon amaliyotida mazkur tarmoqni moliyalashtirishda quyidagi asosiy usullar qo‘llaniladi (2.8-chizma).



2.8-chizma. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish usullari

1. Smetali moliyalashtirish. Bu usulda moliya mablag'lari miqdori tibbiyot muassasalariga budjet xarajatlari yillik reja moddalari bo'yicha ajratiladi. Odatda xarajatlarning bu moddalari mehnatga haq to'lash, tibbiyot uskunalari, jihozlari, dori-darmonlar xarid qilish, transport, aloqa, kommunal xizmatlar, ta'mirlash va hokazolar uchun xarajatlarni mujassamlashtiradi. Smetali moliyalashtirishda budjet mablag'lari profilaktika–davolash muassasalari kategoriyasiga qarab ajratiladi. Davlat tibbiyot muassasalari budjet mablag'larini qat'iy belgilangan maqsadga sarflanishi nazorat qilinadi.

2. Ko'rsatilgan alohida xizmatlarga haq to'lash. Ushbu usulda moliyalash bemorlarga (yilda, chorak yoki oylik miqdoriga qarab) ko'rsatilgan tibbiy yordam va tibbiy xizmatlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Aholiga tibbiy yordam va tibbiy xizmatlarning narxi davlat tomonidan yoki moliyalashtirishni amalga oshirayotgan idora bilan tibbiy xizmatlarni taqdim etuvchi o'rtasidagi bitimlarda belgilangan tariflar asosida tasdiqlanadi.

Mazkur usulning afzalligi tibbiy yordam va tibbiy xizmatlar taqdim etuvchi (tibbiyot muassasasi) daromadining ko'rsatilgan xizmat hajmiga bevosita bog'liqligidir. Bu tibbiy xizmatlar taqdim

etuvchini tibbiy yordam va tibbiy xizmatlar hajmini va sifatini oshirishga rag'batlantiradi. Ammo xuddi shu xususiyat mazkur usulning kamchiligi hamdir. Chunki, tibbiy yordam va tibbiy xizmatni taqdim etuvchi ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini oshirishdan iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo'ladi. Shuning uchun u bemorni zarurat bo'lgan-bo'lmagan qo'shimcha tibbiy ko'riklardan, narxi qimmat bo'lgan, lekin zarurati bo'lmagan laboratoriya tekshiruvlarini o'tkazish va hokazo salbiy intilish xavfi paydo bo'ladi.

Ushbu usulni qo'llashda tibbiy xizmatni moliyalashtiradigan tomon o'zi tibbiy xizmat haqini to'lash uchun moliyaviy javobgarligidan kelib chiqqan holda xarajatlar umumiy miqdorini rejalashtirishi juda qiyin kechadi. Buning oqibatida sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtiruvchi idora murakkab iqtisodiy vaziyatga tushib qolishi mumkin.

3. Alohida ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun ball bo'yicha haq to'lash usuli. Mazkur usulda ham moliyalashtirish bemorlarda amalda ko'rsatilgan xizmatga qarab amalga oshiriladi. Ammo yuqoridagi usuldan farqli ravishda har bir tibbiy xizmat narxi belgilanmasdan, maxsus shkalaga muvofiq ballarda baholanadi. Tibbiy xizmatni moliyalashtiruvchi tomon bunday usulda yil davomida ko'rsatiladigan tibbiy xizmat uchun to'laydigan mablag'ni ma'lum qiladi. Ana shu mablag' har bir tibbiy xodim tomonidan to'plangan ballarga muvofiq taqsimlanadi. Ushbu usulning afzalligi tibbiy xizmat ko'rsatish uchun xarajatlar umumiy hajmini rejalashtirish imkoniyatidadir.

4. Tibbiy muassasada bo'lish miqdori bo'yicha haq to'lash usuli. Bunda bemor tomonidan tibbiy muassasada bo'lish soniga qarab moliyalashtirish amalga oshiriladi. Ya'ni bemorga ko'rsatilgan tibbiy xizmat sifati va hajmi emas, balki uning tibbiy muassasada necha marta bo'lganligi hisobga olinadi.

Mazkur usul bemorlarni davolash muddatini hamda ko'rsatiladigan xizmatlar turini kamaytirish uchun iqtisodiy rag'bat tug'diradi. Lekin bu tejamkorlik maqsadida ko'rsatiladigan tibbiy xizmat sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

5. Aholi jon boshiga normativi bo'yicha haq to'lash usuli. Ushbu usulda tibbiyot tashkiloti o'z muassasasiga birkitilgan aholi sonidan kelib chiqqan holda moliyalashtiriladi. Bunda ham amalda ko'rsatiladigan tibbiy yordam va tibbiy xizmat hajmi va sifati hisobga olinmaydi. Ushbu usul tibbiyot xodimlarini profilaktika ishlarini samarali tashkil etish uchun iqtisodiy manfaatdorligini oshiradi. Chunki tibbiy muassasaga birkitilgan fuqarolar qancha kam xastalikka chalinsa, tibbiyot xodimlari ko'proq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, demak ko'proq daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan usullarni tanlash har bir davlatda amalga oshirilayotgan sog'liqni saqlash siyosatiga bog'liqdir. Masalan, agar kasalliklarning oldini olish bo'yicha aholiga profilaktika tadbirlari hajmini kengaytirish vazifasi qo'yiladigan bo'lsa, moliyalashtirishning aholi jon boshi bo'yicha moliyalashtirish usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu usulni, shuningdek alohida tibbiy yordam va tibbiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha moliyalash usuli bilan birgalikda qo'llash mumkin.

Davlat tibbiy yordam va tibbiy xizmat ko'rsatishga xarajatlar ortishini cheklash maqsadini ko'zlasa, bunga erishish uchun aholi jon boshiga qarab moliyalashtirish usulini alohida tibbiy xizmatlar uchun ball bo'yicha moliyalash usuli bilan birga qo'llash mumkin.

"Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunning 9-moddasiga muvofiq mamlakatda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning asosiy manbalari quyidagilardir (2.9-chizma).

O'zbekiston Respublikasida davlat sog'liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasalari aholiga davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordamni bepul ko'rsatadilar. Bunday muassasalar qatoriga quyidagilar kiradi:

– qishloq vrachlik punktlari – ular qishloq joylarida aholiga barcha birlamchi tibbiy yordamni ko'rsatadi;

– shahar ambulatoriya-poliklinika muassasalari – ular shahar aholisiga barcha birlamchi tibbiy yordamni ko'rsatadi;

– shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha Respublika, viloyatlar markazlari, ularning tuman va shahar bo'limlari mam-

lakat butun hududida aholiga statsionar sharoitda tez (shoshilinch) tibbiy yordam ko‘rsatadi;

– tug‘ruqxona muassasalari va majmualari;

– yuqumli kasalliklar, silga qarshi, onkologik, psixiatrik, narkologik, endokrinologik davolash muassasalari.



2.9-chizma. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning asosiy manbalari

Shu bilan birga mamlakatda aralash moliyalashtirish asosida aholiga tibbiy yordam ko‘rsatadigan muassasalar ham mavjud. Ular quyidagilardir:

– umumiy yo‘nalishdagi statsionar kasalxona muassasalari;

– ixtisoslashtirilgan kasalxona muassasalari;

– idoraviy ambulatoriya-poliklinika va stastionar kasalxona muassasalari.

O‘zbekistonda stomatologiya poliklinikalari va xususiy tibbiyot muassasalari aholiga pullik tibbiy xizmat ko‘rsatadi.

2.4. Tibbiy sug‘urta va uning xususiyatlari

Tibbiy sug‘urta deyilganda sug‘urta holati yuz bergan da jamg‘arilgan sug‘urta badallari evaziga tibbiy yordam va tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun haq to‘lanishi kafolatlanadigan aholi manfaatlarini muhofaza qilish shakli tushuniladi.

Tibbiy sug‘urtaning ikki shakli farqlanadi (2.10-chizma):

1. Majburiy tibbiy sug‘urta - majburiy ijtimoiy sug‘urtaning bir turi bo‘lib, davlat tomonidan sug‘urta holati ro‘y bergan vaqtda majburiy tibbiy sug‘urta mablag‘lari hisobiga aholiga bepul tibbiy xizmat ko‘rsatilishini kafolatlashga yo‘naltirilgan huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy choralar tizimidir. Majburiy tibbiy sug‘urta dasturi asosida aholiga odatda quyidagi tibbiy xizmat turlari ko‘rsatiladi:

- birlamchi tibbiy yordam, shu jumladan profilaktika yordami;
- tez tibbiy yordam (ixtisoslashtirilgan - sanitariya-aviatsiya tez tibbiy yordami istisno etilgan holda);
- ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam.

2. Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta — shaxsiy sug‘urta turlaridan biridir. Sug‘urtaning bu turi fuqarolarga majburiy sug‘urta tizimiga kirmaydigan davolash—profilaktika muassasalarida tibbiy yordam olish imkoniyatini yaratadi.

Ixtiyoriy tibbiy sug‘urta shaxsiy (muayyan shaxsning aniq bir betobligi murakkabligini hisobga oladigan) hamda jamoaviy (shaxslarning muayyan guruhlarida ma’lum bir kasalliklar paydo bo‘lish xavfini hisobga oladigan) bo‘ladi. Bunda sug‘urtachilar jismoniy shaxslar (odatda shaxsiy dasturlar asosida, masalan homiladorlikni sug‘urtalash) va ish beruvchilar (odatda jamoaviy dasturlar - ambulatoriya va poliklinikalarda tibbiy yordam ko‘rsatish, statsionarlarda davolash, stomatologiya va hokazolar) bo‘ladi.



2.10-chizma. Tibbiy sug'urta turlari

Ish beruvchi uchun o'z xodimlarining shaxsiy tibbiy sug'urta badallarini qoplash iqtisodiy manfaat keltiradi. Eng avvalo, ish beruvchi bu bilan xodimlarning vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotishlari bilan xarajatlarni qisqartirishga erishadi. Sug'urta kompaniyalari ekspertlarining tahlillariga ko'ra, ixtiyoriy tibbiy sug'urta dasturlari bo'yicha sug'urta qilingan xodimlar davolash muassasalari mutaxassislaridan o'z vaqtida tegishli malakali tibbiy yordam va maslahatlar olib turishlari tufayli ularda kasallanish darajasi mehnat jamoasining boshqa a'zolariga nisbatan 40,0 % kam bo'lishidan dalolat beradi. Bundan tashqari ish beruvchi shaxsiy tibbiy sug'urtadan xodimlarni rag'batlantirishning samarali usullaridan biri sifatida foydalanishlari mumkin.

Tibbiy xizmatlarni sug'urtalashning rivojlanishi tibbiy xizmatlar bozorining mukammal emasligiga o'ziga xos javob

bo‘ldi. Tibbiy sug‘urtalash faqat tibbiy yordamga talab paydo bo‘lishi mavhumligi muammosini hal etibgina qolmasdan, balki tibbiy xizmatlar taqdim etuvchilarga bu xizmatlar iste’molchilarning talabini shakllantirish imkoniyatini ham beradi.

Tibbiy sug‘urtaning afzalliklari va kamchiliklari

2.2-jadval

Afzalliklari	Kamchiliklari
Aholiga bepul tibbiy xizmat ko‘rsatilishining kafolatlanishi	Tibbiy xizmatni taqdim etuvchilarning ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar hajmini oshirishdan iqtisodiy jihatdan manfaatdor
Ish beruvchi tomonidan xodimlarning vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qolishlari bilan bog‘liq xarajatlarni qisqartirishi	Tibbiy xizmatlar uchun xarajatlar umumiy miqdorini rejalashtirishning murakkabligi
Xodim oila a’zolarining u va ish beruvchi tomonidan to‘lanadigan sug‘urta badali hisobidan majburiy sug‘urta qilinishi	Tibbiy muassasada bo‘lish miqdori bo‘yicha haq to‘lash usulida tejamkorlik choralarining tibbiy xizmat sifatiga salbiy ta’siri
Ish bilan band bo‘lmagan aholi uchun sug‘urta badallari davlat budjeti yoki budjetdan tashqari jamg‘armalar hisobidan to‘lanishi	Sug‘urtachilarda ehtiyoj bo‘lmasa ham shifokorlarga murojaat qilish, kasalxonada davolanish yoki qimmatbaho dori-darmon olishga xohishning tug‘ilishi
Tibbiy xizmatlar hajmini ekspert baholash orqali kamaytirish	Sug‘urtaga qo‘shimcha to‘lovlar joriy qilinganda zarur bo‘lgan tibbiy xizmatlarga ham talabning kamaytirilishi
Tibbiy xizmatlar narxini raqobat mexanizmlari orqali arzonlashtirish	Majburiy tibbiy sug‘urtalashda kasallanish xavfi kuchli bo‘lgan hamda salomatligi mustahkam shaxslarga nisbatan ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishi

Chunki bu holda sug'urtachi sug'urtalovchi timsolida tibbiy xizmatni taqdim etuvchi bilan o'zaro munosabatlarida tibbiy xizmatlar bozoridagi vaziyatdan yaxshi xabardor bo'lgan vositachiga ega bo'ladi. Sug'urtalovchi to'plangan sug'urta badallarining oqilona sarf qilinishidan iqtisodiy jihatdan manfaatdor, chunki bu unga o'z foydasini ko'paytirish imkoniyatini beradi. Shu sababli u tibbiyot xodimlarining o'z sug'urtachilariga belgilagan muolajalari va berayotgan dori-darmonlarini nazorat qilishga intiladi.

Tibbiy sug'urta asosida tibbiy xizmatdan foydalanishda ayrim sug'urtachilarda ehtiyoj bo'lmasa ham shifokorlarga murojaat qilish, kasalxonada davolanish yoki qimmatbaho dori-darmon olishga xohish tug'iladi. Ayni paytda tibbiyot xodimi bemor ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat uchun o'zi haq to'lamasligini bilganligi sababli unga qimmatli muolajalar va dori-darmonlarni taqdim etishga harakat qiladi.

Tibbiy sug'urtalashda sug'urtachining bunday tibbiy xizmatga ortiqcha talabini cheklash maqsadida quyidagi choralar taklif etiladi:

1. Sug'urtachiga tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun qo'shimcha to'lovlarni joriy etish. Ya'ni bemor tibbiy muassasasiga tibbiy xizmat so'rab murojaat qilgan har bir holda buning uchun o'z hisobidan muayyan miqdorda pul to'laydi. Lekin bunday chora faqat ortiqcha talabni emas, balki zarur bo'lgan talabni ham cheklashi mumkin.

2. Sug'urta badali uchun chegirmalar joriy qilish. Bunday usulda sug'urtachi tibbiy sug'urta davrida belgilab qo'yilgandan kamroq tibbiy xizmatdan foydalangan bo'lsa, uning sug'urta badaliga chegirmalar belgilanadi.

3. Bemorni statsionarda davolash uchun tibbiy sug'urta tashkiloti mutaxassislari tomonidan majburiy ekspertiza o'tkazish.

4. Tibbiy sug'urtalashda sug'urta badallarining miqdorini to'g'ri belgilash ham juda muhimdir. Chunki badallar tibbiy xizmatga o'rtacha talabdan kamroq miqdorda belgilanadigan bo'lsa, kasallanish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar salomatliklari mustahkam fuqarolarga nisbatan ko'proq manfaat topadi. Natijada ik-

kinchi toifa shaxslar tibbiy sug'urtalashdan manfaatdor bo'lmaydi. Bu esa sug'urta badallarining miqdorini oshirishni talab etadi. Ana shu muammoni hal etish uchun quyidagi vositalar ishga solinadi:

- tibbiy xizmat uchun xarajatlarni sug'urtalovchi va sug'urtachi o'rtasida taqsimlash. Bunda sug'urta badallari miqdori o'rtacha talabga mo'ljallab belgilanadi. Sug'urtachi ana shu miqdordan ortiq tibbiy xizmatdan foydalangan bo'lsa, o'z hisobidan qo'shimcha haq to'laydi;
- sug'urta badallari miqdorini sug'urtachi salomatligining ahvoli va uning kasallanish xavfiga muvofiq belgilash. Zamonaviy tibbiyot usullari odamlarni kasallikka chalinish xavfini nisbatan yuqori aniqlik bilan aniqlash imkoniyatiga ega. Shuning uchun har bir sug'urtachining sug'urta badali uning salomatligi ahvolining ekspertizasi natijasiga qarab belgilanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Tibbiy texnologiyalarni qo'llash murakkabligiga qarab aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning qaysi darajalari farqlanadi?
2. Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining Ustavida salomatlikka qanday ta'rif berilgan?
3. Ijtimoiy salomatlikni baholashda qaysi ko'rsatkichlardan foydalaniladi?
4. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish konsepsiyasi nimalarni nazarda tutadi?
5. Mamlakatda ikkilamchi bosqich tibbiy muassasalarga nimalar kiradi?
6. Alohida ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun ball bo'yicha haq to'lash qanday amalga oshiriladi?
7. Mamlakatda aholiga davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordamning qaysi turlari bepul ko'rsatiladi?
8. Sug'urtachining tibbiy xizmatga ortiqcha talabini cheklashning qaysi usullarini bilasiz?
9. Tibbiyot sohasini moliyalashtirish tizimi qaysi manbalardan iborat?
10. Tibbiy profilaktika nimaga qarshi qaratilgan tadbir?

III BOB. TA'LIM

3.1. Ijtimoiy soha tarkibida ta'lim tizimining tutgan o'rni

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari quyidagilardan iborat:

– respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil borayotganligi;

– mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgartirishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xomashyo yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayayotganligi;

– davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topganligi;

– milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy

madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;

– O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqei va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

– shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

– davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

– uzluksiz ta'lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimini tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

– fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

– ishlab chiqarish kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta'lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konvensiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg'or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo'lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir.

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplari quyidagilardan iborat:

– ta'limning ustuvorligi uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;

– ta'limning demokratlashuvi ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;

– ta'limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;

– ta'limning ijtimoiylashuvi ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

– ta'limning milliy yo'naltirilganligi ta'limning milliy tarix, xalqan'analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

– ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

– iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

3.2. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari

3.2.1. Maktabgacha ta'lim

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi.

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari hamda ularning tuman(shahar)lardagi bo'limlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

– maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– respublikada davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich qamrab olinishini ta'minlash, ularga soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish, byudjetdan subsidiyalar ajratish, shuningdek, bolalarning maktabgacha ta'limi va tarbiyasining muqobil shakllarini amaliyotga tatbiq etish;

– zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini ta'lim-tarbiya jarayoniga, shu jumladan nodavlat sektorida joriy etish;

– milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'minlash;

– zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

– maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish va tajribali yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish;

– maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining rastional va belgilangan me'yorlar asosida sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash uchun munosib sharoitlar yaratish, ko'ngilochar va bilim beruvchi mashg'ulotlar elementlari bo'lgan, hajmlari va intensivligi asosiy tibbiy taqdimnomalar bilan belgilanuvchi serharakat o'yinlar va mashqlar uyushtirish;

– O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish orqali bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish hisoblanadi.

Aytish joizki, respublika hududlarida 50, 70, 100, 120 va 150 o'ringa mo'ljallangan davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini qo'shimcha barpo etish orqali bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olish,

bolalarga maktabgacha ta'lim-tarbiya berishning muqobil turlarini amaliyotga joriy etishga qaratilgan kompleks dasturi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Shuningdek, har yili maktabgacha ta'lim tizimining oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojini hududlar bo'yicha o'rganish va tahlil natijalariga ko'ra pedagogika yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalariga maqsadli qabul kvotalari shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son qaroriga muvofiq quyidagi nizomlar tasdiqlandi:

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida nizom.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida nizom.

Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida nizom.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining sog'-lom va xavfsiz ovqatlanishini tashkil etish tartibi to'g'risida nizom.

Maktabgacha ta'lim muassasasi maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari, ta'lim-tarbiya dasturlari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiena, ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish, nutq, o'qish va chet tillarni o'rganish, bilish jarayoni, dunyo haqidagi bilimlar va dunyoni anglashi, ijodiy-estetik rivojlanishini ta'minlaydi.

Quyidagilar maktabgacha ta'lim muassasalari mol-mulkini va moliyaviy resurslarini shakllantirish manbalari hisoblanadi: O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari; tarbiyalanuvchining davlat maktabgacha ta'lim muassasasida bo'lgan davri uchun badal to'lovlari; shartnoma asosida qonun hujjatlarida taqiqlanmagan pullik xizmat ko'rsatish, bino va inshoatlarni, jihoz va anjomlarni ijaraga berishdan olingan daromadlar; jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari; mahalliy, xalqaro va

xorijiy tashkilotlarning grantlari; qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

3.2.2. Umumiy o‘rta ta’lim

Umumiy o‘rta ta’limga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, umumiy o‘rta ta’limning o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bilan uzviy aloqadorligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori qabul qilindi. Shuningdek mazkur qarorga asosan umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Umumiy o‘rta ta’limning muddati 11 yil bo‘lib, uzluksiz ta’lim tizimining majburiy mustaqil turi hisoblanadi.

Davlat ta’lim standartlariga muvofiq har bir shaxsning ta’lim va tarbiya olishdagi konstitutsiyaviy huquqini ro‘yobga chiqarish umumiy o‘rta ta’limning maqsadi hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Umumiy o‘rta ta’limning vazifalari quyidagilardan iborat:

– o‘quvchilar tomonidan muntazam bilimlar olinishini ta’minlash, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish, bazaviy o‘quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirish;

– o‘quvchilarda milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish asosida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o‘z Vataniga va xalqiga sodiq fuqarorni shakllantirish;

– ta’limning uzluksizligini va izchilligini, umumta’lim muassasalari o‘quv dasturlarining o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quv dasturlari bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlash;

– ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy va innovatsion pedagogik uslublarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish;

– o'quvchilarning individual ijobiy xususiyatlarini aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning yuksak darajada ta'lim-tarbiya olishlari, ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratib berish;

– mehnat qilish va mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini ongli ravishda tanlash va kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda ko'maklashish.

Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar) hamda umumiy o'rta ta'lim (I —XI sinflar) bosqichlaridan iborat bo'lib, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

Umumta'lim muassasalarining quyidagi turlari tashkil etilishi mumkin:

– boshlang'ich maktab (o'qitish muddati 4 yil: I — IV sinflar);

– umumiy o'rta ta'lim maktabi (o'qitish muddati 11 yil: I — XI sinflar);

– ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab (o'qitish muddati 11 yil: I —XI sinflar);

– alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab (o'qitish muddati zaruriyatga ko'ra).

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11sinflari o'quvchilari ta'lim olishlari bilan birgalikda ularga kasb-hunar o'rgatish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda ularning ta'limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish, o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish va ularni zarur jihozlar bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 24 oktyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining

10-11sinflari o‘quvchilariga kasbiy ta’lim berishga ixtisoslashgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 868 sonli qarori qabul qilindi.

Aytish joizki, o‘quvchilarga kasbiy ta’lim berish uzluksiz ta’lim tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, ularning kasb-hunar o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, respublika iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur mutaxassislarni tayyorlashni ta’minlaydi.

Kasbiy ta’lim olish o‘quvchilar uchun majburiy bo‘lib, bepul amalga oshiriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11sinflari o‘quvchilariga kasbiy ta’lim berish muddati 2 yil bo‘lib, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi majmualarda tashkil etiladi.

Kasbiy ta’lim berishning maqsadi o‘quvchilarga maxsus va chuquriashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan kasb-hunar o‘rgatishdan, shu kasb bo‘yicha ijodiy fikrlaydigan, tashkilotchilik hamda tadbirkorlik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalashdan hamda o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kasb-hunar tanlashda ularga ko‘maklashishdan iborat.

Kasbiy ta’lim berishning vazifalari quyidagilardan iborat:

– o‘quvchilar tomonidan kasb-hunar ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishini ta’minlash, maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan kasblarni o‘rgatish orqali ularning kasb-hunar olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish;

– kasbiy ta’lim berish jarayonida «usta-shogird» an’analari, mahalliy va xorijiy ilg‘or tajribani o‘rgangan holda eng maqbul usullardan foydalanish hamda kasblarning malaka talablarini va kasbiy ta’lim berish jarayonining metodik ta’minotini takomillashtirib borish;

– kasbiy ta’lim berish jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali kasbiy ta’lim berish sifatini ta’minlash;

– o‘quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlagan holda mehnat jarayonini tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ularning mehnat faoliyati bilan faol shug‘ullanish imkonini beruvchi kasb egasi bo‘lishlarini ta’minlash;

– mehnat bozori uchun maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlik talab etilmaydigan kasblar bo‘yicha raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta’minlash.

3.2.3. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi

Akademik litsey davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘rta maxsus ta’lim beradi. O‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo‘naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi.

Akademik litseylarda o‘quvchilar o‘zlari tanlab olgan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o‘rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko‘nikmalarini o‘zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ko‘nikmalarni o‘qishni muayyan oliy ta’lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro‘yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi beradi; o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o‘quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta’lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o‘quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta’lim olish o‘quvchilarga o‘z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo‘lishni ta’minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga davlat tomonidan

tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Akademik litseylarning faoliyatini ular joylashgan hududning demografik, iqtisodiy va boshqa omillarini hamda bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish natijalari nuqtayi nazaridan olib borilgan tahlillar bu sohadagi ishlarning qoniqarli emasligini ko'rsatmoqda. Hozirgi paytga kelib akademik litseylar sonini optimallashtirish, ulardagi ta'lim sifatini oshirish va mazmunini yangilash, ularni bitirib chiqayotgan yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish ko'rsatkichlarini tubdan yaxshilash bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Akademik litseylarda o'quv jarayoni sifati va samaradorligini tubdan oshirish, akademik litseylarda umumta'lim maktablarining eng qobiliyatli bitiruvchilarini jamlash, umumta'lim maktablari bitiruvchilarining tanlangan kasblar va mutaxassisliklarni egallab olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlarni yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2829 sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga asosan akademik litseylarning muhim vazifalari va faoliyati yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

– umumta'lim maktablarining eng iste'dodli o'quvchilarini tanlash, ularning intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirish

va o‘qishni oliy ta’lim muassasalarida davom ettirishga maqsadli chuqur tayyorlash;

– o‘quvchilarning ijodiy salohiyati namoyon bo‘lishi va faollashishiga ko‘maklashuvchi, individual iste’dodlarni va har bir o‘quvchining qobiliyatlari hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni egallab olish jarayonida mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish;

– ilg‘or mahalliy va xorijiy ta’lim muassasalarining tajribasini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish va uning mazmunini doimiy ravishda yangilab borish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida»gi PF-5313-son farmoniga asosan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi negizida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Kasb-hunar ta’limi markazi tashkil etildi.

Quyidagilar Kasb-hunar ta’limi markazining asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari hisoblanadi:

tasarrufida kasb-hunar kollejlari bo‘lgan vazirliklar, idoralar, xo‘jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalar bilan birgalikda kasb-hunar ta’limi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish bo‘yicha o‘rta va uzoq muddatli dasturlarni hayotga tatbiq etish va kasb-hunar kollejlarida o‘quv-tarbiya jarayoniga tashkiliy va metodik rahbarlik qilishni ta’minlash;

ish beruvchilarning ehtiyojlari va takliflaridan hamda ilg‘or xorijiy tajribadan kelib chiqib, shuningdek, iqtisodiyotning real sektoridagi tarkibiy o‘zgarishlarni hisobga olib kasb-hunar kollejlarida o‘rta bo‘ginning mehnat bozorida talab etilgan mutaxassislarini tayyorlashning o‘quv rejalari va dasturlari ishlab chiqilishini tashkil etish;

yuqori professional rahbarlar va pedagog kadrlarni tanlash hamda ular bilan kasb-hunar kollejlarini ta’minlash, ularning

malakasi va kasbiy darajasini muntazam ravishda oshirish, shuningdek, ular mehnatini rag'batlantirish ishlarini tizimli asosda ta'minlash;

tizimning rahbar va pedagog kadrlari malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlashning yangi shakllari va usullarini joriy etish;

respublikadagi barcha kasb-hunar kollejlari o'quv-metodik ishini ularning idoraviy mansubligidan qat'i nazar, muvofiqlashtirish;

kasb-hunar kollejlarida ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ta'lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish;

umumta'lim maktablari 10-11-sinf o'quvchilarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarida kasb-hunar ta'limi jarayonini muvofiqlashtirish va metodik ta'minlash.

Quyidagilar:

a) vazirliklar va idoralarning iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlashga ixtisoslashtiriladigan kasb-hunar kollejlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari etib:

to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun tushadigan mablaglar;

vazirliklar va idoralarning ushbu maqsadlarga xarajatlar smetasida har yili nazarda tutiladigan budjet mablag'lari va budjetdan tashqari mablag'lari;

Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar mablag'lari;

b) xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalarning iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlashga ixtisoslashtiriladigan kasb-hunar kollejlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari etib:

to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun tushadigan mablag'lar;

xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalarning mablag'lari;

Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar mablag'lari;

d) ko‘p tarmoqli kasb-hunar kollejlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari etib – mutaxassislarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish va qayta tayyorlash uchun ota-onalar va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlarining mablag‘lari belgilangan.

Kam ta’minlangan oilalardan o‘quvchilar kasb-hunar (ko‘p tarmoqli) kollejlarida, ularning idoraviy mansubligidan qat’i nazar, bepul asosda o‘qitiladi.

3.2.4. Oliy ta’lim

Oliy ta’lim tizimi hozirgi davr fan-texnika talablariga javob beruvchi yuqori malakali, mehnat bozorida raqobatbardosh, kuchli ilm salohiyatiga ega mutaxassislar tayyorlashga da’vat etilgan.

Oliy ta’lim o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega.

Oliy ta’lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim muddati kamida to‘rt yil davom etadigan tayanch oliy ta’limdir.

Bakalavrlik dasturi tugallanganidan so‘ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo‘yicha “bakalavr” darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta’lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’limdir.

«Magistr» darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining intihosidir. Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida»gi 2909-sonli qarori oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning, ijtimoiy hayotning real talablaridan kelib chiqqan holda, yurtimizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, unga o‘qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish, mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha ixtisoslik yo‘nalishlarini takomillashtirish borasida katta ishlar qilindi.

Mazkur qarorga ko‘ra, quyidagilar oliy ta’lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari etib belgilandi:

– har bir oliy ta’lim muassasasi tomonidan xorijdagi etakchi turdosh ilmiy-ta’lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo‘lga qo‘yish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta’lim dasturlari va o‘quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o‘qituvchilari va olimlarini jalb etish;

– oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta’lim muassasalaridagi ixtisoslik yo‘nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo‘yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollarini inobatga olgan holda optimallashtirish;

– yangi avlod o‘quv qo‘llanmalarini yaratish va oliy ta’lim tizimiga keng tatbiq etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash, jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish negizida axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;

– pedagog kadrlarning kasb malakasi va mahoratini sifat jihatidan muntazam oshirib borish, pedagog va ilmiy xodimlarning

stajirovkadan o'tishini yo'lga qo'yish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini PhD dasturi va xorijiy magistratura dasturlari asosida o'qitish;

– oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etish;

– oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, talaba-yoshlarning qalbi va ongiga milliy istiqlol g'oyasini, xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'analariga sadoqat tuyg'usini chuqur singdirish, biz uchun mutlaqo yot va begona bo'lgan g'oyalarga nisbatan ularda mustahkam immunitet va tanqidiy munosabatni shakllantirish;

– oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini ularning o'quv va ilmiy-laboratoriya binolarini, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalarini qurish, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish orqali yanada mustahkamlash, zamonaviy ilm-fan sohalarining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalar bazasini zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash;

– oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlash, talabalar, o'qituvchi va yosh tadqiqotchilarning jahondagi ilg'or ta'lim resurslari, ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bo'yicha elektron kataloglarga kirish imkoniyatini kengaytirish.

Mazkur vazifalarning samarali yechimini to'liq ta'minlash maqsadida oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash maqsadida Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Dasturga muvofiq, 2017-2021 yillarda 48 ta oliy ta'lim muassasasida jami 180 ta o'quv, ilmiy-laboratoriya binosi, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalari obyektlarida qurilish, rekonstruktsiya va kapital ta'mirlash ishlari olib boriladi. Shuningdek, 53 ta oliy ta'lim muassasasida 400 ta o'quv laboratoriyasi bosqichma-bosqich eng zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlanadi, 7 ta oliy ta'lim muassasasida barcha oliy ta'lim muassasalari o'zaro hamkorlikda foydalanadigan ilmiy laboratoriyalar tashkil etiladi.

Mamlakatimizning har bir oliy ta'lim muassasasi bilan AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va shu kabi boshqa davlatlarning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarining o'rnatilgani o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda har yili 350 nafardan ortiq xorijlik yuqori malakali pedagog va olimlarning mamlakatimiz oliy o'quv yurtlariga o'quv jarayoniga jalb etilishi ko'zda tutilmoqda.

Ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash maqsadida korxonalarning buyurtmasiga asosan, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyatini amalga oshiradigan ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'idan, yagona soliq to'lovidan, maqsadli davlat jamg'armalariga majburiy to'lov va qo'shimcha qiymat solig'idan ozod qilindi.

Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'lar 1,7 trillion so'mdan ziyod bo'lib, ulardan 1,2 trillion so'mi o'quv-laboratoriya binolari, sport zallari va talabalar turarjoylarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashga, 500 milliard so'mdan ortiq mablag' esa o'quv-laboratoriya uskunalari, mebel va inventar bilan ta'minlash, umumiy tartibda foydalanishga mo'ljallangan, barcha ta'lim muassasalariga xizmat ko'rsatadigan laboratoriya komplekslarini tashkil etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga sarflanadi.

3.2.5. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy ta’lim-kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-son qarori bilan oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari tasdiqlangan.

Ushbu davlat talablari oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimiga majburiy talablarni, shuningdek umumiy qabul qilingan xalqaro standartlarni hisobga olgan holda falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalari izlanuvchilarining dissertatsiya ishi mazmuniga va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

– tayanch doktorantura;

– doktorantura;

– mustaqil izlanuvchilik.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim institutlarida o‘qish uch yilgacha davom etadi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim institutini tashkil etish va faoliyat ko‘rsatishi uchun OTM va ITMlar doimiy faoliyat ko‘rsatadigan muvofiqlashtiruvchi-kollegial organga (ilmiy kengash, kengash, ilmiy-texnikaviy kengash, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash va boshqa shakllarda) ega bo‘lishi lozim.

Tayanch doktoranturaga va doktoranturaga qabul qilish OTM yoki ITMlar tashkil etadigan qabul komissiyalar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tanlov asosida amalga oshiriladi.

Tayanch doktoranturada o‘qishga talabgorlarni tanlab olish kirish imtihonlari natijalariga ko‘ra, doktoranturaga esa suhbat natijalariga ko‘ra amalga oshiriladi.

Mustaqil izlanuvchilik institutiga rasmiylashtirish suhbat natijalariga ko‘ra amalga oshiriladi.

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayanch doktoranturaga kiruvchi yoki mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtiriluvchi shaxslar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– magistr darajasi yoki klinik ordinatura (tibbiyot fanlari uchun),yoki oliy ma’lumot (mutaxassislik dasturlari bo‘yicha) to‘g‘risidagi diplomga ega bo‘lish;

– falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo‘lgan muayyan ilmiy natijalarga, shu jumladan, ilmiy jurnallar va nashrlarda chop etilgan kamida bitta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlarda, tegishli ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy ishlar to‘plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo‘lish.

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun mustaqil izlanuvchilikka ikki yildan kam bo‘lmagan ilmiy-pedagogik stajga yoki aniq ilmiy yutuqqa (ixtiroga patent yoki mualliflik guvohnomasi) ega bo‘lgan shaxslar rasmiylashtiriladi.

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun doktoranturaga kiruvchi yoki mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtiriluvchi shaxslar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

– fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan xorijiy mamlakatlarda olingan ilmiy darajalar;

– fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgandan so‘ng muhim ilmiy yutuqlarga erishish, shu jumladan, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo‘lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-amaliy konferentsiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy ishlar to‘plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo‘lish.

Tibbiyot fanlari bo‘yicha oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim institutiga qabul qilishda OTM yoki ITMning Kollegial organi qarori bilan talabgordan klinik ordinatura (magistraturani) yoki ilmiy darajani olganidan so‘ng ilmiy, ilmiy-pedagogik yoki amaliy

ish stajiga (ikki yildan to‘rt yilgacha bo‘lgan muddatda) ega bo‘lishi talab etilishi mumkin.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim institutiga qabul qilinadigan talabgorlarning tayanch mutaxassisligi oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim institutidagi ixtisoslik tegishli bo‘lgan fan tarmog‘iga muvofiq bo‘lishi kerak.

3.3. Ta’lim sohasiga investitsiyalar

Jahonda ta’lim sohasini moliyalashtirishning bir necha modellari mavjud. Ularni umumlashtirgan holda uch guruhga bo‘lish mumkin (3.1–chizma):

1. Ota–onalarning farzandlarini bolalar bog‘chasida tarbiyalash uchun sarflar bir qismini qoplashga, maktab formasi, darsliklar, o‘quv qurollarini sotib olishga xarajatlari istisno etilganda, davlat ta’lim tizimi barcha bosqichlarini to‘la moliyalashtiradi. Hozirgi davrda sanoqli davlatlargina ushbu model asosida ish ko‘radi.

2. Ta’lim tizimi asosan pulli, davlatning sohaga xarajatlari hajmi juda oz. Bunday model XX asrning 60 yillariga qadar qator Afrika mamlakatlariga xos bo‘lib, ularda hatto boshlang‘ich ta’limni moliyalashtirish uchun ham mablag‘ yetishmas edi.

3. Ta’lim tizimini ko‘p manbali moliyalashtirish. Mazkur modelda sohani moliyalashtirish davlat budjeti va xususiy sektor mablag‘lari hisobiga moliyalashtirilishi bilan bir qatorda bunga tashqi manbalarni ham jalb etish ko‘zda tutiladi. Ko‘p manbali moliyalashtirish o‘z navbatida bir necha turlarga bo‘linadi:

• ta’lim tizimi barcha bosqichlarini ko‘p manbali moliyalashtirish;

• ta’lim tizimining ayrim bosqichlari (masalan, umumiy boshlang‘ich ta’lim, ayrim davlatlarda umumiy o‘rta ta’lim ham) to‘la davlat tomonidan moliyalashtiriladi, ta’limning yuqori bosqichlarida (o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim) aralash moliyalashtirish qo‘llaniladi;



3.1–chizma. Ta'lim tizimini moliyalashtirish modellari

• ta'lim tizimining quyi bosqichlarida aralash, yuqori bosqichlarida esa faqat xususiy moliyalashtirish amalga oshiriladi.

Hozirgi davrda jahondagi ko'pchilik mamlakatlarda ta'lim tizimini moliyalashtirishning asosan uchinchi modeliga amal qilinadi. Chunki bunday usulda davlatlar o'z moliyaviy axvollaridan kelib chiqqan holda ta'lim tizimini moliyalashtirish manbalarini tez o'zgartirish imkoniyatiga egadirlar.

Shu bilan birga Birlashgan Millatlar Tashkiloti aholining barcha qatlamlari o'zlarining ta'lim olish huquqlarini amalga oshira olishlari uchun davlatlarga ta'limning bepul turlarini iloji boricha kengaytirishni tavsiya etadi. Bu e'tiborga olingan holda tobora ko'proq mamlakatlar maktab ta'limini davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish choralarini ko'rmoqdalar.

Lekin jahondagi mamlakatlarda oliy o'quv yurtlarini moliyalashtirish shakllari turlichadir (3.1-jadval).

Jahon mamlakatlarida oliy o'quv yurtlarini moliyalashtirish shakllari

3.1-jadval

Ko'rsatkichlar	Mamlakatlar	Moliyalash manbalari
Davlat oliy o'quv yurtlari talabalari uchun bepul	Avstriya, Daniya, Finlyandiya, Germaniya va Yevropadagi qator boshqa davlatlar	Davlat, munitsipal budjetlari, homiylar mablag'lari, oliy o'quv yurtlari o'zlari ishlab topgan mablag'lar
Davlat oliy o'quv yurtlari studentlarining bir qismi uchun bepul (davlat grantlari)	Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari, shu jumladan O'zbekiston	Davlat budjeti mablag'lari, homiylar mablag'lari, oliy o'quv yurtlari o'zlari ishlab topgan mablag'lar
Talabalar ta'lim olish xarajatlari bir qismini qoplaydi, qolgani – davlat budjeti hisobidan	AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya	Davlat subsidiyalari va ta'lim uchun to'lovlar

3.1-jadvalning davomi

Davlat oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun pulli	Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan davlatlar	Ta’lim uchun to‘lovlar
Xususiy oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun pulli	Rivojlangan davlatlardagi nufuzli oliy o‘quv yurtlari	Ta’lim uchun to‘lovlar
Xususiy oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun subsidiyalar	Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a’zo mamlakatlar. Chili, Tailand, Hindiston va boshqalar	Ta’lim uchun to‘lovlarning bir qismi (beshdan uch qismidan, uchdan bir qismigacha) davlat subsidiyalari hisobidan

O‘zbekistonda ta’lim tizimi uchun davlat xarajatlari faqat Markaziy Osiyo mamlakatlaridagiga qaraganda emas, balki Yevropa Ittifoqi barcha davlatlarinikidan ham yuqori. Buning obyektiv sabablari bor. Birinchidan, O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirish ijtimoiy–iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi, barqaror iqtisodiy o‘sish va insonni taraqqiy ettirishning bosh omili sifatida belgilangan. Ikkinchidan, O‘zbekiston – yosh lar mamlakati va bevosita chuqur bilimli avlod mamlakatni taraqqiy etgan davlatlar qatoriga olib chiqishga qodir bo‘ladi.

Ta’lim tizimining davlat tomonidan moliyalashtirilishi maqsadli xususiyatga ega ekanligini ham ko‘rsatish lozim. Xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, birinchi navbatda, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining prinsip jihatidan mutlaqo yangi tizimini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, Maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi umumiy o‘rta ta’limni tubdan yaxshilashga qaratildi.

Mamlakatda ta’lim tizimini davlat budjetidan moliyalashtirish uch darajalidir (3.2-chizma):



3.2-chizma. Ta'limni budjetdan moliyalashtirish tizimi

• *Respublika (markaziy) budjeti.* Oliy ta'lim muasssasalari, ularning ta'lim muassasalari va akademik litseylar, shuningdek xalq ta'limi sohasi xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish mintaqaviy institutlari respublika budjeti hisobidan moliyalashtiriladi;

• *viloyatlar mahalliy budjetlari.* Ulardan kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalariga qarashli bo'lmagan akademik litseylar hamda ta'lim muassasalariga kapital qo'yilmalar moliyalashtiriladi;

• *tuman mahalliy budjetlari.* Ulardan asosan mazkur tumanlar hududlaridagi maktabgacha tarbiya muassasalari, ixtisoslashtirilgan va umumta'lim maktablarining joriy xarajatlari moliyalashtiriladi.

Umumta'lim maktablarini moliyalashtirishga davlat budjeti mablag'lari bilan birga Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi asosida tashkil etilgan budjetdan tashqari

Maktab ta'limi jamg'armasining hissasi tobora ortmoqda. Maktab ta'limi jamg'armasi uch manba hisobiga shakllantiriladi:

• *maktabni rivojlantirish uchun soliq.* Ushbu soliq soliq tizimi doirasida yuridik shaxs sifatida ro'yxatga olingan savdo tashkilotlaridan savdodan olingan daromadlarining 1,0 % miqdorida olinadi;

• mahalliy hokimiyat organlarining badallari;

• budjetdan tashqari boshqa badallar, shu jumladan homiylik yordamlari.

Ta'limga investitsiyalarning samaradorligi algoritmi 3.3-chizmada ifoda etilganidek namoyon bo'ladi. Ya'ni:

• inson ta'lim olish, malaka oshirish hisobiga o'z bilimlarini oshiradi;

• ushbu bilimlardan mehnat jarayonida foydalanish natijasida mehnat unumdorligi ortadi;

• bu pirovard natijada milliy iqtisodiyot o'sishini ta'minlaydi;

• yuqori samarali mehnat hisobiga insonning ish haqi va daromadi ortadi, turmush sifati yaxshilanadi;

• chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lishdan shaxsiy manfaatdorlik insonni o'z bilimlarini yanada boyitishga undaydi.



3.3-chizma. Inson bilimi ortishining samaradorligi algoritmi

Ta'limga investitsiyalar kiritish samarasini hisoblab chiqish uchun uni oddiygina tarzda: daromadni xodimlar soniga bo'lgan holda aniqlash taklif etiladi[4]:

Ta'limga investitsiyalar samaradorligining koeffitsiyenti = (Foyda - (Xarajatlar - [Ish naqi+Imtiyozlar)]) : Ish haqi + Imtiyozlar.

Xodimning ta'lim olishiga investitsiyalar uning inson kapitalini shakllantiradi va muayyan davrdan so'ng o'z egasiga quyidagi formula bo'yicha foyda keltiradi:

$$Yn = Xo + RSn,$$

Bunda: Yn - n yil ta'limga ega shaxsning ish haqi;

Xo – nol daraja ta'limga ega xodimning ish haqi;

R – ta'limga sarflarning joriy samarasi normasi;

Sn - n yil ta'lim olish davomida investitsiyalar hajmi.

Ta'limga xarajatlar va buning natijasida olinadigan foyda aniqlanganidan so'ng olingan foyda miqdori chiqimlar miqdori bilan taqqoslanadi. Bu ikki miqdor o'rtasidagi farq olingan ta'lim qiymatini ko'rsatadi.

Nazorat uchun savollar

1.Bilimga asoslangan iqtisodiyotning tarkibiy qismi nimalardan iborat?

2. Davlatning bilimga asoslangan iqtisodiyotga taalluqligini qanday aniqlasa bo'ladi?

3. Ta'limning qaysi modellarini bilasiz?

4. O'zbekistonda ta'limni isloh qilish necha bosqichda olib borildi. Ular qanday xususiyatlarga ega?

5. Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi nimalarni ko'zda tutadi?

6. Ta'lim tizimini ko'p manbali moliyalashtirish qanday amalga oshiriladi?

7. Viloyatlar mahalliy budjetlari hisobidan qaysi ta'lim muassasalari moliyalashtiriladi?

---

[4] Фитценц Я. Рентабельность инвестиций в персонал: измерение экономической ценности персонала / Пер. с англ., под общ. ред. В.И. Ярных. - М.: Вершина. 2006. – С.137.

8.Ta'limga investitsiyalarning samaradorligini aniqlashning qanday usullari mavjud?

9. Ta'lim sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar boshqa sohalarga yo'naltirilgan investitsiyalardan nimasi bilan farq qiladi?

10. Bilim milliy iqtisodiyotning rivojlanishi jarayonida qanaqa iqtisodiy vazifasiga ega?

11. Mehnat resurslarining salohiyatini oshirishdagi bilimlar darajasining roli?

IV BOB. TURAR JOY-KOMMUNAL XO‘JALIGI

4.1. Turar joyga egalik – insonning asosiy huquqlaridan biri

Kommunal-xo‘jalik sohasining iqtisodiy kategoriyalari sifatiga xususiy va jamoa mulkchilik shakllariga asoslangan hamda o‘sha mulkni samarali tasarruf etish, kommunal xizmatlarining moddiy va ma’aviy resurslardan to‘laqonli foydalana olish huquqini beruvchi iqtisodiy munosabatlar, xizmatlar uchun o‘z vaqtida to‘lovlarni belgilab boruvchi shartnomalar kiradi.

Kommunal xo‘jaligi sohasining davlatning milliy iqtisodiyotidagi asosiy funksiyasi boshqa sohalarda yaratiladigan moddiy va man’aviy ne’matlarni odilona taqsimlash va qayta taqsimlash mexanizmlari asosida fuqarolarning farovon yashash darajasini muntazam saqlab va oshirib borish uchun turar joylariga o‘z vaqtida va to‘laqonli yetkazib turish xizmatidan iboratdir.

Kommunal-xo‘jalik sohasining obyektlari uy-joy va kommunal xizmatlarni yetkazib beruvchi texnik energetika va elektr inshoatlari bo‘lsa, subyektlari davlat, fukarolar va kommunal xo‘jalik idoralari hisoblanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 25 moddasida “Har bir inson o‘zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan turmush darajasiga ega bo‘lish, jumladan... turar joyga... ega bo‘lish... huquqiga egadir”[5] deb ko‘rsatilgan.

Turar joyga ega bo‘lish deyilganda inson uchun faqat boshpana mavjud bo‘lishi nazarda tutilmaydi. Inson istiqomat qiladigan turar joy uning yashashi uchun munosib bo‘lishi kerak. Munosib turar joy deyilganda esa quyidagilar nazarda tutiladi:

– shaxsiy hayotga aralashmaslikni ta’minlaydigan turar joy sharoitlari;

---

[5]Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar. – T.: Adolat, 2004. – B.35.

– munosib turar joy maydoni;

– yashash uchun zarur darajadagi xavfsizlik;

– turar joy saqlanishining kafolati;

– turar joy mavjud infratuzilmalarining barqarorligi va pu-shiqligi;

– turar joylarning zarur darajada yoritilishi, isitilishi va shamollatirishi;

– suv ta'minoti, zarur sanitariya sharoiti, chiqindilarni olib chiqib ketish kabi zarur infratuzilmalarning mavjudligi;

– turar joy hududidagi atrof muhitning qulayligi;

– turar joyning ish joyi va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalariga yaqinligi.

Yuqorida qayd etilgan talablarga javob beradigan turar joy narxlari ham aholining xarid qobiliyati uchun maqbul bo'lishi lozim. Turar joyning munosibligi manfaatdor shaxslar bilan birgalikda aniqlanishi hamda bu turar joy muntazam yaxshilanib borilishi nazarda tutilishi kerak.

Jahondagi barcha mamlakatlari hukumatlari zimmasida aholini turar joy bilan ta'minlash majburiyati bor. Turar joylarni adolatli taqsimlash va ulardan foydalanishni tartibga solish davlat ijtimoiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu turar joy qurilishi ko'lamlarini kengaytirish, ularga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, aholini, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni turar joy bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, bu sektorni rivojlantirishga imtiyozlar berish, boshqa choralarni ko'rishni talab etadi.

Turar joyni ijaraga oladigan fuqarolarning davlat tomonidan subsidiya qilinishi turlariga quyidagilar kiradi:

– kvartira sertifikatlari – ular odatda foydalanib kelinayotgan turar joylardan kvartira oluvchilarga beriladi. Bunday sertifikatga ega oilalar kvartiralarni turar joy bozoridan mustaqil tanlab olish huquqiga ega bo'ladi. Biroq bunda ular oldiga ijaraga olinayotgan eng kam talablarga javob berishi sharti qo'yiladi. Kvartira sertifikatining bahosi ijaraga olinayotgan kvartira haqi oila daromadining qancha qismini tashkil etishiga qarab belgilanadi.

Ushbu usul qo‘llaniladigan AQShda mazkur ko‘rsatkich 30,0 % ni tashkil etadi. Ya’ni ijarachi kvartira haqining 70,0 % o‘z daromadidan to‘laydi;

– turar joy vaucherlari – ularning egalari yashash uchun eng kam talablarnga javob beradigan kvartirani ijaraga olishlari mumkin. Bunda vaucherning bahosi ijaraning bozor bahosi bilan oila daromadi muayyan qismi o‘rtasidagi farqni tashkil etadi. Ya’ni bu usulda ham oila kvartira haqi muayyan qismini o‘z daromadidan to‘laydi.

Aholini munosib turar joy bilan ta’minlash hukumat muassasalari bilan bir qatorda butun jamiyatning, shu jumladan xususiy sektor, nohukumat tashkilotlar hamda xalqaro hamjamiyatdan ham sa’y-harakatlariga bog‘liqdir. Bu choralar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

– turar joy sohasida xar qanday shaklda – irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, e’tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, tug‘ilgan joyi yoki boshqa maqomlari bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘yilmaslik va bunday kamsitishlardan hammani teng va samarali himoya qilishning qonuniy kafolatlari;

– turar joydan asossiz chiqarib yuborishga yo‘l qo‘ymaslik hamda barcha uchun, shu jumladan ayollar va kambag‘allarga turar joy qurish uchun yer olishning huquqiy kafolatlari;

– turar joy yashash uchun qulay, narxi maqbul bo‘lishiga qaratilgan siyosatni amalga oshirish.

Ijtimoiy turar joy (*ingl. “social housing”*) – davlat yoki munitsipaliitet mulki hisoblangan turar joylar hisobiga fuqarolarni turar joy bilan ta’minlashdir. Ijtimoiy turar joy dasturi Gonkong gubernatori A.Grentmenning 1953 yilda shaharning shimoliy-g‘arbiy qismida ro‘y bergan yong‘in natijasida boshpanasiz qolgan 53 ming kishini turar joy bilan ta’minlash zarurati sababli ishlab chiqilgan edi. O‘shanda yong‘in sodir bo‘lgan hududda aholini arzon kvartiralar bilan ta’minlash maqsadida ko‘p qavatli binolar qurilishi boshlandi.

Buning uchun Gonkong Ijtimoiy ishlar departamenti tomonidan barpo etilan boshlangan mazkur ko‘p qavatli binolar

asosan besh kishiga mo'ljallangan. 24-28 kvadrat metr foydali maydonga (kattalarga o'rtacha 2,2 kvadrat metrdan, bolalarga - 1,1 kvadrat metrdan to'g'ri keladigan) ega bo'lgan bir xonali kvartiralardan iborat bo'lgan. Bunda ushbu kvartiralar uchun fuqarolar oyiga 10-14 dollar (bozor narx: 100 dollar edi) ijara haqi to'laganlar.

Ijtimoiy turar joy dasturini amalga oshirishning ikkinchi bosqichida bir xonali kvartiralar foydali maydoni 35 kvadrat metrgacha (katta kishiga o'rtacha 3,3 kvadrat metrdan to'g'ri kelgan) kengaytirildi.

Ijtimoiy turar joylar Janubiy-Sharqiy Osiyoda keng ommalashgan. Jumladan, Singapurda ijaraga beriladigan kvartiralarning asosiy qismi davlat budjeti hisobiga qurilgan va davlat mulki hisoblanadi. Ularda mamlakatdagi turar joy ijarachilarining 85,0 % ga yaqini istiqomat qiladi. Ijtimoiy turar joylar Ko'chmas mulk departamenti tomonidan barpo etiladi va boshqarib boriladi. Ushbu binolar joylashgan mavzelarda maktablar, shifoxonalar, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari, sport inshoatlari kompleks barpo etiladi.

Ijtimoiy turar joylardagi ikki xonali kvartiralar 45,0 kvadrat metr, uch xonalilar – 60,0-74, to'rt xonalilar – taxminan 93,0 kvadrat metr foydali maydonga ega bo'ladi.

Singapurda ijtimoiy turar joyga ega bo'lish uchun, eng avvalo, mamlakat fuqarosi bo'lish lozim. Shu bilan birga quyidagi shartlar ham belgilangan:

– ijtimoiy turar joyni sotib oladigan fuqaro kamida 21 yoshga to'lgan bo'lishi;

– ikki xonali kvartiralarni xarid qilish uchun uy xo'jaligining daromadi oyiga 2000 Singapur dollaridan, uch xonali uchun – 3000, to'rt va undan ko'p xonali kvartiralarni xarid qilish uchun – 8000 Singapur dollaridan oshmasligi kerak.

Munosib turar joy yashash uchun qulay bo'lishi bilan birga zarur infratuzilmalar bilan ta'minlanishni ham nazarda tutadi. Aholi istiqomat qiladigan turar joylardagi binolarning muhandislik infratuzilmalari ishlashini ta'minlaydigan, yashash uchun qulayiik

yaratadigan hamda talab etiladigan xizmatlarni taqdim etadigan sohalar majmuasi turar joy-kommunal xo'jaligidir.

Turar joy-kommunal xo'jaligi murakkab, ko'p tarmoqli ishlab chiqarish-texnikaviy majmua bo'lib, uning tarkibiga turar joydan foydalanishni ta'minlovchi korxonalar, turar joy xo'jaligi hamda ta'mirlash-foydalanish ishlab chiqarishi va obodonlashtirish xizmati kiradi.

Turar joy fondiga xizmat ko'rsatuvchi va undan foydalanuvchi tashkilotlar vazifasiga turar joy umumiy mulkini, turar joy ichki muhandislik tuzilmalarini saqlash va normal ishlashini ta'minlash, kommunal xizmatlar ko'rsatuvchilar va boshqa tashkilotlar bilan tegishli shartnomalar tuzish kiradi.

4.2. O'zbekistonda turar-joy-kommunal xo'jaligidagi islohotlar

Aholining barcha qatlamlari turmush darajasi va jamiyatimizdagi ijtimoiy muhit muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan uy-joy kommunal sohasining samarali faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kommunal xizmatlar ko'rsatish bo'yicha zamonaviy bozorni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish turar joy-kommunal xo'jaligida ham tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo qildi. Bunda 1993 yilda "Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur Qonunga muvofiq, davlat uy-joy fondi, yani mahalliy davlat hokimiyati organlarining uy-joy fondi hamda davlat organlari, korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining to'liq xo'jalik tasarrufida yoki boshqaruvidagi turar joylarni fuqarolarga, ularning ixtiyoriga qarab, sotildi, shu jumladan, imtiyozli asosda sotildi yoki tekinga mulk qilib berildi. Natijada davlat mulki hisoblangan ko'p qavatli turar joy binolarining 98,0 % xususiylashtirildi.

1999 yilda O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining qabul qilinishi mamlakatda turar joy-kommunal xo‘jaligini isloh qilishning navbatdagi bosqichini boshlab berdi.

O‘zbekistonda turar joy qurilishi ko‘lamlari ortishi bilan birga kommunal xo‘jaligini tubdan takomillashtirish, tarmoqqa bozor mexanizmlarini joriy qilish choralari ko‘rilyapti. Respublikada turar joy–kommunal xo‘jaligini isloh etishga qaratilgan 100 tadan ko‘proq normativ–huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ko‘p kvartirali uylarda uy-joy fondini birgalikda boshqarish hamda uni saqlash, asrash va ta’mirlashni ta’minlash maqsadida 2006 yilda “Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

Yaratilgan mustahkam me’yoriy-huquqiy bazaga muvofiq tarkibiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanishning mutlaqo yangi tizimini shakllantirish imkonini berdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 4 mingdan ziyod xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati 32,4 mingdan ortiq ko‘p xonadonli uylarga xizmat ko‘rsatmoqda. Uy-joylarni, avvalo, ipoteka krediti asosida qurish va rekonstruksiya qilish ko‘lami kengaymoqda. Bu o‘tgan davr mobaynida aholi nufuzi muttasil o‘sib borishiga qaramasdan, aholini uy-joy bilan ta’minlash darajasini kishi boshiga 1991 yildagi 12,4 kvadrat metr o‘rniga o‘rtacha 15,2 kvadrat metrga yetkazish imkonini berdi.

Aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish darajasini yanada oshirish maqsadida markazlashtirilgan davlat kapital qo‘yilmalarini yo‘naltirish va xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan taqdim etilayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali suv ta’minoti, kanalizatsiya va issiqlik ta’minoti tizimlarini rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, uy-joy kommunal sohasining bugungi holatini tahlil qilish asosida zudlik bilan hal etilishi lozim bo‘lgan qator muammolar mavjudligi aniqlandi.

Joylardagi ijro hokimiyati organlari xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlari faoliyatini etarlicha muvofiqlashtirmayapti. Ko‘p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanish borasida kompleks yondashuvning yo‘qligi aholiga sifatli va kafolatli kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirishga to‘siq bo‘lmoqda va uy-joy mulkdorlarining haqli e’tiroziga sabab bo‘lmoqda.

Ko‘p xonadonli uy-joy fondini tegishli darajada saqlashni nazorat qilish tashkil etilmagan, ko‘p hollarda uy-joy fondini texnik ekspluatatsiya qilish va unda aholining xavfsiz yashashi bo‘yicha belgilangan talablar buzilishiga yo‘l qo‘yilmoqda. Bino va inshootlarni ta’mirlash-tiklash ishlarini bajarishga oid qoida va muddatlarga rioya etilmayapti, eski uylarni buzish bo‘yicha ishlar olib borilmayapti, ko‘p xonadonli uylarga tutash hududlarning holati sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena me’yorlariga to‘liq javob bermaydi.

Aholi sifatli ichimlik suvi va markazlashtirilgan issiqlik ta’minoti bilan yetarli darajada ta’minlanmayapti.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tashkilotlari bilan yaqin hamkorlik asosida ko‘p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, ko‘p xonadonli uylarni saqlash qoidalariga rioya etilishini texnik nazorat qilish bo‘yicha samarali tizimni shakllantirish, aholiga sifatli uy-joy kommunal xizmatlari ko‘rsatishni tubdan yaxshilash, shuningdek, uy-joy mulkdorlari shirkatlarining barqaror faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi «Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 5017-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 2900-sonli qarori qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi va uning tarkibida Qoraqal-

pog'iston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, viloyatlar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmalari va Toshkent shahar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bosh boshqarmasi hamda uning tuman (shahar) bo'limlari tashkil etildi.

Quyidagilar Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari hisoblanadi:

– uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosati yuritish va idoralararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

– ko'p xonadonli arzon uy-joylar qurish davlat dasturlarining hayotga tatbiq etilishini ta'minlash, bunday uy-joylarni, suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti obyektlarini barpo etish bo'yicha buyurtmachi vazifasini bajarish, eski va avariya holatidagi uylarni buzishni tashkil etish;

– uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash, undan foydalanish va ekspluatatsiya xarajatlarini belgilash talablariga, ko'p xonadonli uylardan texnik foydalanish qoidalari va normalariga rioya etilishini nazorat qilish, ko'p xonadonli uylarga tutash hududlarni sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlariga muvofiq holatda saqlash;

– aholi punktlarini rivojlantirish sxemalari va bosh rejalari bilan bog'liq holda, suv ta'minoti hamda kanalizatsiya obyektlarini rivojlantirish, modernizatsiya va rekonstruktsiya qilish dasturlarini ishlab chiqish hamda ularning sifatli amalga oshirilishini tashkil etish, soha tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni ta'minlash;

– uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimiga resurs va energiya tejaydigan texnologiya hamda uskunalarni joriy etish, jumladan, uy-joy kommunal xo'jalik obyektlarini zamonaviy hisobga olish-o'lchash priborlari bilan ta'minlash, qurilish-montaj ishlari tannarxini kamaytirish imkonini beradigan, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan zamonaviy, sifatli qurilish materiallari va buyumlaridan keng foydalanish;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasiga oid me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi hisobga olingan holda, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatishning zamonaviy shakl va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda, suv ta’minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta’minoti bo‘yicha xizmat ko‘rsatish, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi tashkilotlarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga doir kompleks tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan tarif siyosatini shakllantirish;

– uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi uchun kadrlar tayyorlash bo‘yicha takliflar kiritish, ularni, jumladan, xorijda o‘quv stajirovkalarini o‘tkazish orqali qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy mahsulotlar, idoraviy axborot tizimlari va ma’lumotlar bazasini joriy etish.

Shuningdek, Vazirlik tarkibida Ko‘p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida uning hududiy inspeksiyalari tashkil etildi.

4.3. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlarini moddiy rag‘batlantirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 iyundagi “Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlarini moddiy rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 409-sonli qaroriga asosan uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlari mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan.

Ko‘p kvartirali uy-joy fondidan foydalanish sohasida nazorat inspektorlaridan tashqari, budjet tashkilotlari xodimlariga mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan lavozim maoshiga quyidagi qo‘shimchalar va ustamalar to‘lanadi:

– ish vaqtidan boshqa vaqtlarda, dam olish va bayram kunlarida ishlaganlik uchun — soatbay tarif stavkasidan kelib chiqqan holda 2 baravar miqdorida;

– tungi vaqtda ishlaganlik uchun — soatbay tarif stavkasidan kelib chiqqan holda 1,5 baravar miqdorida.

Shuningdek, uzoq muddat ishlaganlik uchun, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish davlat tashkilotlaridagi uzluksiz ish stajini hisobga olgan holda, lavozim maoshiga foiz miqdorida har chorakda quyidagi miqdorlarda to‘lanadi (4.1-jadval).

Uzoq muddat ishlaganlik uchun, uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish davlat tashkilotlaridagi uzluksiz ish stajini hisobga olgan holda, lavozim maoshiga foiz miqdori

4.1-jadval

Ish staji	Ustamalar miqdorlari (lavozim maoshiga nisbatan foiz hisobida)
3 yildan 5 yilgacha	40
5 yildan 10 yilgacha	50
10 yildan 15 yilgacha	75
15 yildan ortiq	100

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi uchastkalari nazoratchilaridan tasnqari, davlat unitar korxonalari xodimlariga tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan lavozim maoshiga quyidagi qo‘shimchalar va ustamalar belgilanishi mumkin:

– kasblarni (lavozimlarni) qo‘shib bajarganlik va xizmat ko‘rsatish hududini kengaytirganlik uchun – amalda bajarilgan ishlar uchun;

– dam olish va bayram kunlarida ishlaganlik uchun – soatbay tarif stavkasidan kelib chiqqan holda ikki baravar miqdorda;

Uzluksiz ish staji quyidagi holatlarda lavozimda ishlashga kirganda:

– tashkilotlar tugatilgani (qayta tashkil etilgani) yoki shtat qisqargani yoxud doimiy yashash joyi o‘zgargani sababli tashkilotlardan ishdan bo‘shagan kundan boshlab uch oydan kechikmay ishga kirganda;

– o‘z xohishiga ko‘ra (uzrli sabab bo‘yicha), shu jumladan eri yoki xotini boshqa yashash joyiga o‘tganda (o‘tish vaqti bir oylik muddatga kiritilmaydi) tashkilotlardan ishdan bo‘shagan kundan boshlab bir oydan kechikmay ishga kirganda.

Budjet tashkilotlari xodimlarini mukofotlash va ularga moddiy yordam ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Uy-joy kommunal xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlari xodimlariga bayram kunlari uchun shtat jadvaliga muvofiq lavozim maoshining ikki baravari miqdorida mukofot to‘lanishi mumkin.

Mukofotlarning aniq miqdorlarini belgilash uchun O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligida byudjet tashkilotlari xodimlarini mukofotlash tartibini belgilash komissiyasi tashkil etiladi.

Budjet tashkilotlarining alohida tashabbuskor va yuqori malakali xodimlariga O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirining buyruqlariga muvofiq hamda komissiya qarorlari asosida lavozim maoshiga lavozim maoshining 50 foizidan oshmaydigan miqdorlarda har oylik shaxsiy ustamalar belgilanishi mumkin.

Budjet tashkilotlari xodimlariga quyidagilar to‘lanadi:

– yo‘lkira va ovqatlanish uchun — eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida har oylik kompensatsiya;

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va qand-shakar xarid qilish uchun — eng kam oylik ish haqining o‘n baravaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda bir yo‘la moddiy yordam;

– alohida holatlar (uzoq muddat kasallik, oila a'zosining vafoti, nikoh tuzish va boshqalar) munosabati bilan bitta lavozim maoshidan oshmaydigan miqdorda bir yo'la moddiy yordam.

Davlat unitar korxonalari xodimlarini mukofotlash har choraklik prognoz ko'rsatkichlarini bajarish bo'yicha ma'lumotlar asosida, shu jumladan:

– uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida iste'molchilar qamrovini va daromadni ko'paytirganlik uchun — lavozim maoshining 50 foizigacha miqdorda;

– yo'qlab olinadigan asosiy depozit hisob raqamiga pul mablag'lari tushganligi uchun — lavozim maoshining 40 foizigacha miqdorda;

– hisobga olishning yakka tartibdagi priborlari joriy etilganligi va energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish yo'li bilan elektr energiyasi iste'molini qisqartirganlik uchun — lavozim maoshining 30 foizigacha miqdorda;

– kommunal xo'jaligi obyektlarida avariya vaziyatlarining o'z vaqtida oldini olganlik va ularni bartaraf etganlik uchun — lavozim maoshining 30 foizigacha miqdorda mukofotlanadi.

Pul mablag'lari tushishi prognoz ko'rsatkichlari bajarilmagan taqdirda qolgan ko'rsatkichlar bo'yicha mukofot miqdori, ular bajarilgan taqdirda – 50 foizga kamayadi.

Davlat unitar korxonalari xodimlarini bayram kunlarida mukofotlash miqdorlari tegishli tashkilotlarning rahbarlari tomonidan, moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimi uchastkalarining nazoratchilariga mukofotlar to'lash ko'rsatilgan xizmatlar (suv ta'minoti, kanalizatsiya va issiqlik ta'minoti) uchun aholiga hisoblab yozilgan pul mablag'lari yig'ilishiga mutanosib ravishda foizlar miqdorida amalga oshiriladi.

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimi uchastkalari nazoratchilari mehnatiga haq to'lashga yo'naltiriladigan pul mablag'larining foiz hisobidagi nisbati quyidagilar ta'minlangan taqdirda iste'molchilarga (jismoniy shaxslarga) hisoblab yozilgan

to‘lovlar yig‘imi darajasiga ko‘ra davlat unitar korxonasi tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi:

– ko‘rsatilgan xizmatlar uchun iste’molchilarga (jismoniy shaxslarga) hisoblab yozilgan to‘lovlar 100 foiz yig‘ilganda – besh foizdan o‘n foizgacha miqdorida;

– to‘lovlar 70 foizdan ko‘p miqdorda yig‘ilganda – besh foiz miqdorida belgilanadi.

Ko‘p kvartirali uy-joy fondidan foydalanish sohasida nazorat inspektorlarini moddiy rag‘batlantirishga yo‘naltiriladigan pul mablag‘larining foiz hisobidagi nisbati O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzuridagi Uy-joy kommunal xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasining bankdagi hisob raqamiga jarimalar mablag‘larining 100 foiz tushishi ta’minlangan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi tomonidan tegishli mansabdor shaxslarga solingan jarimalar darajasiga ko‘ra, lekin 10 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda belgilanadi.

4.4. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish va uning asosiy turlari

Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos ijtimoiy xizmat sohalaridan biri hisoblanadi. Maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalariga ishi tushmagan, ehtiyoj sezmagan odam topilmasa kerak. Hozirgi kunga kelib xizmat ko‘rsatishning bu turi rivojlanib, aholining xizmatini o‘tab, ehtiyojini qondirib kelmoqda. Ularning ayrim sohalari quyidagilar:

– poyafzalni tikish va t‘klash;
– mo‘yna-teri mahsulotlarini tikish va ta’mirlash;
– bosh kiyimlarni tiklash;
– uy jihozlarini tiklash;
– uy xo‘jaliklarida texnikani ta’mirlash;
– avtomashinalarni ta’mirlash;
– aholining buyurtmalari bilan uy-joylarni qurish va tiklash;
– foto va kinolaboratoriyalar;

– hammomlar;
– kir yuvish korxonalari, ximchistkalar;
– sartaroshxonalar;
– prokat punktlarinning xizmatlari;
– mebellarni aholining byurtmasi bilan ishlab chiqarish va tiklash.

Iqtisodiyot vazirligi tomonidan mahalla, tuman, shahar va viloyat markazlarida aholi ehtiyoji uchun ko'rsatilishi majburiy bo'lgan tavsiya etilayotgan namunaviy xizmat turlari ro'yxati ishlab chiqilgan (4.2-jadval).

Mahalla, tuman, shahar va viloyat markazlarida aholi ehtiyoji uchun ko'rsatilishi majburiy bo'lgan tavsiya etilayotgan namunaviy xizmat turlari ro'yxati

4.2-jadval

T/r	Hududlar toifasi	Aholi ehtiyoji uchun ko'rsatilishi majburiy bo'lgan tavsiya etilayotgan namunaviy xizmatlar
I.	Mahallalar uchun jami 11 ta xizmat turi	-oziq-ovqat va nooziq ovqat do'koni; -dorixona; -kommunal xizmatlar (elektr, gaz va ichimlik suv bilan ta'minlash xizmatlari); -tikuvchilik atelesi; -sartaroshxona; -rasmxona; -poyabzal ta'mirlash ustaxonasi; -soatsozlik ustaxonasi; -televizor va radiolarni tuzatish ustaxonasi, -to'y va xashamlarga buyumlarni ijaraga berish xizmati; -nusxa ko'chirish (kserokopiya qilish) xizmati;

II.	Tumanlar uchun Mahalla uchun belgilangan 11 ta xizmatga qo‘shimcha 17 ta jami 28 ta xizmat turlari	-sog‘liqni saqlash xizmati; -transport xizmati; -kimyoviy tozalash (ximchistka) xizmati; -veterinariya xizmati; -hammom; -kelinlik libosiarini ijaraga berish xizmati; -pullik jamoat hojatxonasi; -xorijiy til o‘rgatish markazi; -sun’iy qoplamali futbol va boshqa sport maydonchalari; -avtoturargoq; -qurilish materialari sotish do‘koni; -qurilish xizmat ko‘rsatadigan servis kompaniyalari; -mineral o‘git va yoqilg‘i moylash materiallari sotish shahobchasi; -avtomobillarni va qishloq xo‘jaligi texnikasini ta’mirlash xizmati; -paynet va internet xizmati; -notarius xizmati; -sug‘urta va bank xizmati.
III.	Shaharlar uchun tumanlar uchun belgilangan 28 ta xizmatga qo‘shimcha 10 ta jami 38 ta xizmat turlari	-sport sog‘lomlashtirish markazi; -madaniy hordiq chiqarish joylari (teatr, konsert zallari va parklar); -ta’lim va musiqa maktablari; -mebellarni ta’mirlash xizmati; -mehmonxona xizmati; -ko‘char va ko‘chmas mulklarni baholash xizmati; -buxgalteriya xizmati; -reklama xizmati; -bolalar bog‘chasi xizmati; -savdo va umumiy ovqatlanish xizmati.

IV.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahri uchun shaharlar uchun belgilangan 38 ta xizmatlarga qo‘shimcha 10 ta jami 48 ta xizmat turlari	-sanatoriya xizmati; -supermarket; -hayvonot bog‘i; -tumanlararo va viloyatlararo jamoat transporti xizmati; -turizm xizmati; -maishiy texnikalarni (sovutgich, kompyuter, elektr jihozlari va h.k) ta’mirlash xizmati; -yoshlar uchun turli xil zamonaviy va ma’naviy bilimlarni berish markazlari; -lizing xizmatlari; -auditorlik xizmatlari; -buyurtmalar asosida xizmat ko‘rsatish (mahsulotlarni yetkazib berish, chipta buyurtirish, mehmonxonani band qilish, transport chaqirtirish va h.k.)

Maishiy xizmat tarmog‘ining barqarorlashtirilishi va rivojlanish vazifalari quyidagilardan iborat:

– maishiy xizmatlarning ko‘p xilligini ta’minlash va takomillashtirish;

– aholining ayrim talablarni qondira oladigan sohalarni rivojlantirish va ularning sifatini yaxshilash;

– aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarini oqilona joylashishini amalga oshirish va ularni zamonaviy uskunalar bilan qurollantirish;

– aholiga xizmat ko‘rsatishni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash;

– ishlab chiqarish quvvatlaridan, transport vositalaridan va asosiy fondlardan to‘la to‘kis foydalanish;

– bajariladigan ishlarni va xizmatlarni texnik va standart talablarga javob berishini ta’minlash;

– tarmoqning boshqaruv tizimini takomillashtirish, ya’ni bozor iqtisodiyotiga moslashtirish;

– qishloq aholisiga maishiy xizmat ko‘rsatish darajasini shahar darajasiga yaqinlashtirishdan iboratdir.

Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini rivojlantirishda ishlab chiqarish bazasini takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Korxonalarning quvvati va hajmlari aholiga yetarli darajada xizmatlarni ko‘rsatish miqdori bilan bog‘liq. Bularni rivojlantirish quyidagi omillarning ta’siri bilan bog‘liq:

– aholiga maksimal qulayliklarni yaratish;

– aholining vaqt sarflarini tejash;

– maishiy xizmatlarning kompleks punktlarini tuzish asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish;

– maishiy xizmat korxonalarining binolarini yangi tipda yaratish;

– maishiy xizmatlarni yangi texnologiyalar asosida aholiga ko‘rsatish;

– maishiy xizmat korxonalarining optimal o‘lchamlarini aniqlash.

Xulosa qilib aytganda, respublika aholisiga maishiy xizmat ko‘rsatishni barqarorlashtirish va uning darajasini oshirish xususiy tadbirkorlikni va kichik biznesni rivojlantirish asosida ushbu tarmoqda aralash iqtisodiyotni barpo etishni jadallashtirish bilan bog‘liq.

Nazorat uchun savollar

1. Turar joyni ijaraga oladigan fuqarolarni davlat tomonidan subsidiya qilishning qanday turlarini bilasiz?

2. Xitoyning “Qulay turar-joy miliiy loyihasi” davlat dasturi nimalarni ko‘zda tutadi?

3. Shahar xo‘jaligi tarkibidagi turar-joy-kommunal xo‘jaligini tasniflab bering.

4. O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksida davlat hokimiyati mahalliy organlarining uy-joy munosabatlarini tartibga solish sohasida qanday vakolatlari belgilab qo‘yilgan?

5. Bugungi kunda mamlakat turar joy–kommunal xizmati qanday boshqarilmoqda?

6. Ipoteka krediti subyektlariga kimlar kiradi?

7. Oila daromadining 25,0 % ni ipoteka kreditiga ajratish bo'yicha ipoteka krediti orqali turar joy olish imkoniyati indeksini aniqlang.

8. O'zbekistonda amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra, ipoteka kreditlari olish uchun nimalarni garovga qo'yish mumkin?

9. Turar-joylarning qaysi mulk shakllarini bilasiz?

10. Kommunal xo'jaligi xizmatlari nimalardan iborat?

11. Fuqarolarga kommunal xizmatlarni amalga oshirishning huquqiy asoslariga nimalar kiradi?

12. Kommunal xo'jaligi sohasi subyektlari va obyektlarini aytib bering.

13. Aholining turmush farovonligini oshirishda turar-joy muammolarining iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati.

14. Aholining turar-joy ta'minlash borasidagi Davlat dasturlari haqida gapirib bering.

V BOB. MADANIYAT

5.1. Jamiyat taraqqiyotida madaniyat sohasining tutgan o‘rni

Jamiyat taraqqiyotida madaniy soha milliy iqtisodiyotimizning nihoyatda serqirra qismi bo‘lib, umumiy tarzda jamiyatda yashab mehnat faoliyatini bajarayotgan insonga ma’naviy qudrat, uning ijodiy kuch va qobiliyatlarini, ajdodlardan qolgan bebaho meros tarixiy qadriyatlarni belgilovchi, ijtimoiy taraqqiyotni yanada kuchaytiradigan muayyan bir o‘lchov darajasidir.

Keng ma’nodagi “madaniyat” insoniyat hayoti va faoliyatining turli jihatlarini, shaxs tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy ne’matlarni qamrab oladi. Bu muayyan tarixiy davr (masalan, Uyg‘onish davri madaniyati), aniq bir jamiyat, millat (masalan, o‘zbek madaniyati), inson faoliyati yoki turmushining o‘ziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, turmush madaniyati) madaniyati va hokazolarda o‘z ifodasini topadi.

Tor ma’nodagi “madaniyat” faqat insonning ma’naviy talablarinin ta’minlab turuvchi sohasiga nisbatan ishlatiladi. Ushbu talqinda “madaniyat” deyilganda badiiy ijod, madaniy merosni saqlash, madaniyat muassasalari faoliyati, madaniy ne’matlarni yaratish va tarqatish anglanadi.

Madaniyat arabcha “madina” (“shahar”) so‘zidan chiqib kelgan. Arablar inson hayotini ikki: badaviy yoki sahroiy hamda madaniy turmush sifatida farqlaganlar. Badaviy turmush – ko‘chmanchi holda sahro va dashtlarda yashab, asosan chorvachilik bilan shug‘ullanish, madaniy turmush esa shaharlarda o‘troq hayot kechirish hisoblangan.

Jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlari – antik davrda “madaniyat” insonning tabiatga ko‘rsatadigan maqsadga muvofiq ta’siri (yunoncha “kultura” – “yerga ishlov berish, parvarishlash” so‘zidan) hamda odamga ta’lim-tarbiya berish ma’nosini

anglatgan. Keyinchalik qadimiy Rimda mazkur tushuncha ijtimoiy hayotning shahar turmush tarzini ifodalovchi mazmun bilan ham boyigan. O'rta asrlarda madaniyat insoniyat tamaddun: – stivilizatsiya ma'nosida ishlatila boshlangan.

Jamiyat rivojlanishi bilan madaniyat sohasida etishtiriladigan mahsulot asosiy turlari kabi ikkiga – moddiy va ma'naviy ne'matlarga ajratila boshlandi. Bunda sohaning moddiy ne'matlari ishlab chiqarish faoliyatining barcha turlari va uning natijalarini qamrab oladigan bo'lsa, ma'naviy ne'matlari bevosita insonning va ma'naviy jihatlarini boyitishga, uni ma'naviy jihatdan o'sishga taalluqlidir (5.1-chizma).

Madaniyat iqtisodiy nuqtai nazaridan quyidagicha tasniflanadi:

– badiiy ijod;
– madaniy ne'matlarni yaratish va tarqatish;
– madaniyat muassasalari faoliyati;
– madaniy merosni asrash.

Yuqoridagi tasniflash asosiga madaniy faoliyat sohasi boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan jamiyat a'zolarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan funksiyalar tarkibidagi madaniy ne'matlarni yaratish, tarqatish, saqlash va ularni yana yuksaklikka ko'tarishdek iqtisodiy funksiyani bajaradi. Shu bilan birga madaniyat sohasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mazkur tizim faoliyati uchun xizmat ko'rsatishning turli darajalari va bosqichlari emas, balki jamiyat a'zolarining ma'naviy, estetik ehtiyojlarini muqobil vositalar yordamida qondirish xosdir.

Madaniyat sohasida ham barcha soxalarga xos mulkchilik shakllari amal qilib kelmoqda. Bu borada sohaning asosiy vazifalaridan biri har xil mulkchilik shakllarga asoslangan muassasalar faoliyatini umumlashtirgan holda ularning ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish mexanizmlarini barqarorligini ta'minlab, amaldagi qonun va talablarni (shartnomalar, soliq to'lovlari, gonorarlar miqdorini oshkoralik prinsiplari, madaniy anjumanlarning harajat smetalari, ijrochilarning haq to'lovlari va

h.k.z) iqtisodiy manfaatlar nuqtayi nazaridan odilona mehnat miqdori, mahorat darajasi va noyobligiga yarasha to'lovlarni belgilash bilan bog'liq.



5.1-chizma. Moddiy va ma'naviy madaniyat

Shuning uchun madaniyat iqtisodiyoti faoliyatida ishtirok etayotgan obyektlar va subyektlarning o'rni va ularning vazifalaridan kelib chiqqan tarzda ko'rilishi zarur.

Madaniyat obyektlari: teatrlar, kino va konsert zallari, kutubxonalar, muzeylar, klublar, sport inshoatlari va boshqalar. Yuqorida qayd etilgan muassasalarning iqtisodiy va ijodiy faoliyati doim bir zayilda bir-biriga muvofiq ravishda amal et-

maydi. Madaniy muassasalarning bozor sharoitiga mos faoliyatini muvofiqlashtirish, ijodiy yuksalish bilan birga iqtisodiy samaraga erishish madaniyat sohasining dolzarb iqtisodiy masalasiga kiradi.

Madaniyat sohasining subyektlari: bu avvalam bor davlat, keyin madaniy muassasalar va ulardagi jamoa a'zolari hamda madaniy ne'matlarni iste'mol qiluvchi jamiyat a'zolari.

Xususan, adabiyot ham fan va amaliyotning muayyan sohasini umumlashtiruvchi asarlar (siyosiy adabiyot, iqtisodiy adabiyot va hokazolar) majmui hamda voqelikni so'z yordamida badiiy aks ettiradigan san'at turlaridan biri. Adabiyot insonning his-tuyg'ularini keng va chuqur aks ettirish imkoniyatiga egaligi bilan jamiyat a'zolarining estetik ehtiyojlarini qondirish, ular ma'naviyatini yuksaltirishda juda katta ahamiyatga ega.

Adabiyot asarlarini tarqatishning iqtisodiyotda alohida tarmog'i -matbaachilik shakllangan. Axborot texnologiyalari jadal rivojlangan bugungi sharoitda adabiy asarlarni o'quvchilarga yetkazishda Internetning roli ham ortib bormoqda.

Tasviriy san'at esa voqelikni ko'rgazmali obrazlar orqali ifoda etadi. Uning rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika kabi janrlari mavjuddir. Tasviriy san'atda insoniyat tarixi turli davrlarining falsafiy, estetik, g'oyaviy moniyati chuqur aks etishi insonga ulkan estetik zavq bag'ishlaydi. Tasviriy san'atning katta estetik ahamiyatga ega asarlari muzeylarda namoyish etilishi bilan bir qatorda ular ko'rgazmalari ham uyushtirilib turadi.

Amaliy san'at ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolarini (asbob-anjomlar, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechak, taqinchoqlar, o'yinchoqlar va hokazolarni) badiiy bezash bilan bog'liq ijod sohasidir. Jamiyat a'zolari amaliy san'at asarlari bilan asosan muzeylar orqali tanishadi.

Ijro san'atining asosiy turlaridan biri – teatr (*yunoncha "theatron" – "tomoshagoh" so'zidan*) o'ziga xos ifoda vositasiga ena bo'lib, bu aktyorning tamoshabinlar oldidagi o'yini jarayonida sahnaviy voqea gavdalanadi.

Konsert (*lotincha "concerto" – "musobaqalashaman" so'zidan*) san'ati dastavval musiqa asarlarini tamoshabinlar oldida ijro

etish sifatidagi ijro san'ati bo'lgan. Dastlabki konstertlar XVII asrning 70-yillarida Londonda skripkachilar tomonidan uyushtirilgan. Keyinchalik konsertlarni turli musiqa jamiyatlari, filarmoniyalar tashkil etgan. Hozirgi vaqtda konsert san'atining estrada, raqs kabi turlari keng ommalashgan.

Sirk (*lotincha "circus" – "aylana, doira" so'zidan*) san'ati o'zida teatr, xoreografiya, vokal, rassomlik, kino san'ati unsurlaridan foydalangan holda, asosan insonning cheksiz imkoniyatlarini namoyish etishga yo'naltirilgan. Sirk qadimdan ma'lum bo'lib, xalq sayillarida namoyish etiladigan tomoshalar va sport musobaqalari takomillashtirilib, san'at turiga aylangan. Qadimgi Misr, Rim, Yunoniston, Xitoy, boshqa mamlakatlarda miloddan avvalgi I asrdayoq sirk tomoshalari ko'rsatilgan. Birinchi sirklar XVIII asr oxirlarida Angliyada, XIX asr boshida Fransiyada paydo bo'lgan.

Madaniyat muassasalari faoliyatida klub ishi, muzey ishi va kutubxona ishi farqlanadi.

Klub ishi keng ommaviy madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish, aholi havaskorligini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Buning uchun maxsus madaniyat muassasalari - madaniyat saroylari va uylari tarmog'i yaratiladi. Ularda madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilishi, konsertlar, kinofilmlar namoyish etilishi bilan bir qatorda, turli to'garaklar tashkil etiladi.

Muzey (yunoncha "musion" – "muza" – "ilhom pari"lariga bag'ishlangan" so'zidan) ishi – tarixiy, madaniy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash va targ'ib etishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Muzeylar Uyg'onish davrida Italiyada (Vatikan muzeyi), Germaniyada (Drezden muzeyi) paydo bo'lgan. Hozirgi vaqtda muzeylar ishi xalqaro miqyosda YUNESKO huzuridagi Xalqaro muzeylar kengashi (IKOM) tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

Kutubxona ishi – bosma va ayrim qo'lyozma asarlaridan ommaviy ravishda foydalanishni, kitobxonlarning axborot olish va adabiyotlarga ehtiyojini qondirishni ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir.Yozuvning paydo bo'lishi va hujjatli manbalarning ko'payishi, keyinchalik bosma adabiyotlarning nashr etilishi

kutubxonalar paydo bo‘lishi va rivojlanishiga shart-sharoit yaratgan. Sharqda miloddan avvalgi VII asrdayoq kutubxonalar bo‘lgan. Qadimiy kutubxonalarning eng mashhurlaridan biri – Misrdagi Aleksandriya kutubxonasidir.

Kutubxonalar mulk egaligi, xizmat ko‘rsatilayotgan kitobxonlar toifasi, saqlanayotgan adabiyot tarkibi, mintaqaviy darajasiga qarab ommaviy, ilmiy, maxsus, bolalar va hokazolarga tasniflanadi.

Umuminsoniy va milliy tarixiy va madaniy merosni saqlash muzey va kutubxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan birga tarixiy va madaniy meros obyektlarini asrash, ularni ta’mirlash ishlarini amalga oshirishni ham talab qiladi. Jahon mamlakatlarida ushbu masala bilan maxsus shug‘ullanadigan tarixiy va madaniy merosni saqlash hamda ta’mirlash bo‘yicha turli jamiyatlar, tashkilotlar ish olib boradi. O‘zbekistonda ham Madaniyat va sport ishlari vazirligi tarkibida Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha Bosh ilmiy-ishlab chiqarish boshqarmasi tashkil etilgan.

Madaniy ne’matlar ayni paytda ijtimoiy (jamoaviy) ne’matlar ham hisoblanadi. Bu madaniy ne’matlardan bir yo‘la keng iste’molchilarning foydalanish imkoniyati, shu bilan birga madaniy ne’matlardan alohida bir shaxsning foydalanishi ular miqdori kamaymasdan boshqalar ehtiyojini ham qondirishi alohida ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi.

Madaniy ne’matlarning ijtimoiy xususiyati ularni yaratuvchilarning ushbu ne’matlarni iste’molchilarga sotish orqali o‘z chiqimlarini to‘la qoplash imkoniyatlarini jiddiy ravishda cheklab qo‘yadi. Shu sababli madaniy ne’matlarni yaratish va tarqatishni qo‘llab-quvvatlashda davlatning hamda jamiyatning ishtirok etishi nihoyatda muhimdir.

Bu madaniyat sohasining jamiyatda ma’naviyatni yuksaltirishdagi alohida roli bilan ham bog‘liqdir. Madaniyat muassasalari shaxsning umuminsoniy va milliy ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali har taraflama kamol topishiga xizmat qiladilar.

5.2. Madaniyat muassasalarini moliyalashtirish manbalari

Jahon amaliyotida madaniy faoliyatni moliyalashtirishning turli modellari uchraydi. Ularni moliyalashtirish manbalariga ko'ra ikki turga tasniflash mumkin:

1. Madaniy faoliyatni asosan davlat tomonidan va qisman xususiy moliyalashtirish modeli.

2. Madaniy faoliyatni xususiy subsidiya salmog'i yuqori bo'lgan holda aralash moliyalashtirish modeli.

Madaniy faoliyatni moliyalashtirishda xususiy sektor ishtirokining ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bunda madaniyat sohasiga subsidiyalar bevosita madaniy ne'matlarni iste'mol qilganlik uchun haq to'lash bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Shu bilan birga bu madaniy faoliyatni bozor iqtisodiyotiga xos bo'lmagan moliyalashtirish shakli ham emas. Agar, masalan, reklama xizmatlari hisobiga homiylik qilinadigan bo'lsa, bundan homiy muayyan bevosita va bilvosita manfaat topadi. Shuning uchun homiylik farqli ravishda madaniyat sohasidagi faoliyatni moliyalashtirishdan muayyan iqtisodiy manfaatlar ko'zlanmasdan, ma'naviy qadriyat omillari asosida moddiy qo'llab–quvvatlash metsenatlik deb ataladi.

Madaniy faoliyatni asosan davlat va qisman xususiy moliyalashtirish modeli Yevropa davlatlari, xususan Fransiyaga xosdir. Ushbu mamlakatda madaniyat sohasini moliyaviy qo'llab–quvvatlash umumiy hajmining 99,0 % davlat, atigi 1,0 % – metsenatlar va homiylar mablag'lari tashkil etadi.

Madaniy faoliyatni xususiy subsidiya salmog'i yuqori bo'lgan holda aralash moliyalashtirish modeliga AQShni misol qilib keltirish mumkin.

Amerika Qo'shma Shtatlarida madaniyat sohasini (shu jumladan san'at, milliy bog'lar, kutubxona va muzeylarni) federal va mahalliy hokimiyat organlari, shtatlar hukumatlari tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tarmoq xarajatlari umumiy hajmining taxminan 70,0 % ni tashkil etadi. Bunda san'atni moli-

yaviy qo'llab–quvvatlashda budjet mablag'lari atigi 10,0 % ga tengdir

Yuqorida qayd qilingan modellar davlatlar o'rtasidagi madaniy tafovutlarni aks ettiradi. Yevropa mamlakatlarida madaniyat sohasini rivojlantirishda davlat tarixan hal qiluvchi rol o'ynagan.

Davlat boshqa ijtimoiy sohalarida bo'lgani kabi madaniyat sohasini ham moddiy qo'llab–quvvatlashda bevosita va bilvosita moliyalashtirishni amalga oshiradi.

Davlatning madaniyat sohasini bevosita moliyalashtirish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

– davlat madaniyat muassasalari, madaniyat faoliyatning ayrim turlari hamda madaniyat sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun budjet mablag'lari va imtiyozli kreditlar ajratish;

– budjetdan tashqari jamg'armalar tashkil etish va ularning mablag'lari hisobiga madaniyat sohasidagi faoliyatni moliyalashtirish.

Davlatning madaniyat sohasini bilvosita moliyalashtirish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

– madaniy faoliyatning ayrim turlariga ixtisoslashgan muassasalar, ijodkorlarga hamda madaniyat sohasiga homiylik ko'rsatayotgan korxona, tashkilot va muassasalarga soliq imtiyozlari berish;

– madaniyat muassasalari va xodimlariga kommunal xizmatlar to'lovlari, ijara haqida imtiyozlar berish;

– madaniyat muassasalariga ajratiladigan kreditlarga davlat kafolatlarini berish.

Madaniyat sohasini davlat tomonidan moliyalashtirishda asosan ikki usul qo'llaniladi:

1. Smeta bo'yicha moliyalashtirish. Mazkur usulda budjet mablag'lari daromadlar va xarajatlar ko'rsatilgan hamda tasdiqlangan smetalar asosida amalga oshiriladi. Bu davlat madaniyat muassasalarini moliyalashtirishning asosiy shaklidir. Smetalarda har bir modda (shtat ro'yxati asosidagi ish haqi, kommunal xizmatlar to'lovlari, joriy ehtiyojlar uchun xaridlar va hokazolar)

bo‘yicha xarajatlar normativlarga ko‘ra belgilab qo‘yiladi. Shuningdek, unda aholiga pullik madaniy xizmat ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar ham aks etadi.

Smeta bo‘yicha moliyalashtirish davlat madaniyat muassasalari faoliyat olib borishlarini resurslar bilan ta’minlash imkonini beradi. Ammo moliyalashtirishning ushbu usulida madaniyat muassasalariga ajratilayotgan budjet mablag‘lari bilan ular faoliyati natijalari o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lmaydi. Bunday usul madaniyat muassasalarining o‘z moliyaviy–xo‘jalik faoliyatini tashkil etish imkoniyatlarini nihoyatda cheklab qo‘yadi.

2. Normativ–maqsadli moliyalashtirish. Mazkur usulda budjet mablag‘lari madaniyat muassasalari faoliyati pirovard natijalari ko‘rsatkichlari (teatrlar uchun – tomoshabinlar, muzeylar uchun – ekskursiyachilar soni, kutubxonalar uchun – o‘quvchilarga berilgan kitoblar soni va hokazolar) asosida ajratiladi. Madaniyat muassasalari ajratilgan mablag‘larni o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha mustaqil taqsimlash huquqiga ega bo‘ladilar.

Biroq ushbu usulning ham o‘z kamchiliklari mavjud. Jumladan, muzey xodimlari o‘z faoliyatlarini asosiy ko‘rsatkich – ekskursiyachilar sonini ko‘paytirishga qaratib, muzey ishining juda muhim yo‘nalishlarini e’tibordan chetda qoldirishlari mumkin.

Qator mamlakatlarda madaniyat sohasini moliyalashtirishda vaucher usulidan ham foydalanish tajribasi mavjud. Mazkur shakl davlatning madaniy xizmat ko‘rsatadigan muassasani emas, balki bevosita ushbu xizmatlardan foydalanayotgan iste`molchilarni subsidiya qilishni nazarda tutadi.

Iste`molchi vaucherni muayyan madaniy xizmatidan foydalanish uchun oladi. U bunday xizmat ko‘rsatadigan madaniyat muassasani o‘zi mutaqil tanlaydi va bu xizmat haqini vaucher bilan to‘laydi. Vaucher aniq bahoga ega va davlat madaniyat muassasasiga uning qiymatiga teng miqdorda mablag‘ ajratadi. Agar mazkur madaniyat muassasasida ko‘rsatilayotgan xizmat haqi vaucher narxidan qimmat bo‘lsa, iste’molchi farqni o‘z hisobidan qoplaydi. Vaucherni boshqa maqsadlarda foydalanib bo‘lmaydi.

Madaniyat muassasalarini moliyalashtirishda vaucher usulidan foydalanish. eng avvalo, aholi keng qatlamlarini, ayniqsa uning nochor qismini ma'naviy ne'matlardan bahramand bo'lishini ta'minlash maqsadlariga yo'naltirilgan. Madaniyat muassasalarini davlat tomonidan bevosita moliyalashtirishda bunga erishish uchun, ya'ni ko'rsatilayotgan xizmat narxini arzonlashtirish uchun ajratilayotgan mablag'larni muttasil ko'paytirib borish talab qilinadi. Lekin bunday ish tutilganda aholining daromadi yuqoriroq qismi ko'proq manfaat topadi. Davlat bevosita iste'molchini moliyalashtirganda, ya'ni vaucher usulida ijtimoiy adolat ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimi muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari va daromadlari jamg'arilishini ta'minlash, Madaniyat vazirligi tizimi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va xodimlarini moddiy rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 1 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 886-sonli qarori qabul qilindi.

Quyidagilar Jamg'armaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

– «O'zbekkonsert» davlat muassasasining ta'minotini amalga oshirish;

– moliyaviy, tashkiliy va ijodiy tadbirlar majmuasini amalga oshirish asosida madaniyat va san'at sohasining yanada rivojlanishiga ko'maklashish, shuningdek, madaniyat arboblari va ular tomonidan tashabbus ko'rsatilayotgan tasviriy san'at, adabiyot, teatr, musiqa va xoreografiya sohasidagi tadbirlarning o'tkazilishi uchun har tomonlama ko'maklashish;

– xalqaro va davlatlararo madaniy aloqalarni kengaytirish, madaniyat va san'at sohasidagi xalqaro madaniyat tashkilotlari va xayriya jamg'armalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy investistiyalar va grantlarni jalb etish, mamlakatimizda homiylikning rivojlanishiga ko'maklashish;

– O‘zbekiston san’atining jahon adabiy va madaniy muhitiga integratsiyasi va madaniyatlararo ijodiy muloqotni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, mamlakatning raqobatbardoshligini va ilmiy-texnik salohiyatini namoyish qilishga ko‘maklashish;

– O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarning madaniyat va san’at sohasidagi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, ularni zarur adabiyotlar va davriy nashrlar bilan ta’minlash;

– xorijiy tajribani e’tiborga olgan holda, mamlakatimizning muzey va boshqa madaniy muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish tizimini takomillashtirishga ko‘maklashish;

– moliyalashtirish, shuningdek, xalqaro standartlarga muvofiq holda yangi madaniyat muassasalarining qurilishida ko‘maklashish;

– O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning mukammal va joriy ta’mirlanishini amalga oshirish;

– xalqaro institutlar, hukumatlar, homiylar va xorijiy donorlar bilan hamkorlikda loyihalarning birgalikda moliyalashtirilishini tashkil etishni ta’minlash;

– ijobiy xalqaro tajribani respublikada joriy qilishga doir takliflarni tayyorlash maqsadida madaniyat va san’at sohasini moliyalashtirish bo‘yicha rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarning tajribasini o‘rganish;

– aholiga pulli xizmatlar ko‘rsatish hajmini va O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi budjet muassasalari va tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armalariga mablag‘lar tushumini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– qonunchilikda belgilangan manbalardan kelib tushuvchi mablag‘lar jamg‘arilishini ta’minlash;

– ajratilayotgan mablag‘lardan samarali va maqsadli foydalanilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta’minlash;

– O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi xodimlarni moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlarga mablag‘larni maqsadli ajratish.

Quyidagilar Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalari hisoblanadi:

– konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya berilganligi uchun undiriladigan davlat bojidan tushgan mablag‘larning 70 foizi miqdoridagi ajratmalar;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorda davlat foydasiga undirilgan muzkning sotilishidan O‘zbekiston Respublikasi budjetiga kelib tushgan mablag‘larning bir qismi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2017 yil 16 avgustdagi PQ-3219-son qaroriga muvofiq, «O‘zvinosanoat-xolding» AJ tomonidan o‘zining shaxsiy tashabbusi tartibida har yili ajratiladigan mablag‘lar;

– Jamg‘armaning vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larini moliya tashkilotlariga joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

– yuridik va jismoniy shaxslar, xalqaro tashkilotlarning xayriya ehsonlari, grantlari;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Nazorat uchun savollar

1. “Madaniyat” tushunchasining tadrijiy rivojlanishini izohlab bering.

4. O‘zbekistonda madaniyat sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?

5. Nomoddiy madaniy meros obyektlariga nimalar kiradi?

6. Muzeylarni tashkil etish uchun nimalar talab etiladi?

7. “Bomol–Bouen kasalligi”ning mohiyati nimadan iborat?

8. Madaniy faoliyatni xususiy subsidiya salmog'i yuqori bo'lgan holda aralash moliyalashtirish modeli qanday xususiyatga ega?

9. Madaniyat muassasalarini smeta bo'yicha moliyalashtirish bilan normativ–maqsadli moliyalashtirish o'rtasida qanday farq bor?

10.Madaniy sohaning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va asosiy funksiyalarini aytib bering.

11. Madaniyat sohasidagi obyektlarga nimalar kiradi?

12. Madaniy sohaning subyektlari haqida nima bilasiz?

VI BOB. SPORT VA TURIZM

6.1. Sport va uning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni

Sport (*inglizcha "sport", eski fransuzcha "desport"ning qisqartirilgan shakli – "o'yin", "ko'ngil ochish" so'zidan*) – jismoniy tarbiyaning bir qismi bo'lib, odamlarning muayyan qoidalar bo'yicha tashkillashtirigan faoliyati, ular jismoniy va intellektual salohiyatini taqqoslash usulidir.

Sportning iqtisodiy funksiyasini ikki tomonlama ta'riflash to'g'ri bo'ladi.

Birinchidan, sport va jismoniy tarbiya aholimiz sog'ligini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, u ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini, fuqarolarimizning jismonan baquvvat va aqlan intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashda asosiy rol o'ynaydi.

Ikkinchidan, sport bu avvalam bor hozirgi zamon tadbirkorlik jarayoni, sport katta xarajat talab chiqish bilan bir qatorda ulkan daromad ham manbai. Sportni to'g'ri tashkil qilish, uni samarali boshqara borish bugungi kunda katta miqdordagi investitsiyalar, stadion va sport anjumanlarida ishtirok etish bilan bog'liq.

Shuning uchun sport va jismoniy tarbiya – nafaqat ijtimoiy faoliyat sohasi, bu birinchi navbatda insonning salomatligini saqlash va mustahkamlash, uning psixologik va jismoniy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan muhim iqtisodiy vazifa hamdir. U inson madaniyatning bir qismi, uni jismoniy tarbiyalash va jismoniy rivojlantirish orqali jismoniy va intellektual qobiliyatlarini oshirish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish bo'yicha qadriyatlar, me'yorlar va bilimlar jamlanmasidir.

Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari – jismoniy mashg'ulotlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasidir. Jismoniy tarbiya aqliy axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan qo'shib olib boriladi.

Jamiyatda jismoniy tarbiya ahvolining asosiy ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

– jamiyat a'zolari salomatligi va jismoniy rivojlanganliklarining holati;

– ta'lim, tarbiya sohasi, ishlab chiqarish va turmushda jismoniy tarbiyadan foydalanish darajasi.

Jismoniy tarbiya insonning turmush kechirishga o'zini tayyorlash, chiniqish, tabiat tomonidan o'ziga in'om etilgan salohiyatlarni rivojlantirish bo'yicha ko'p asrlik tajriba mujassamlashtirgan.

Jismoniy tarbiya, odatda, ommaviy jismoniy tarbiya va davolash jismoniy tarbiyasiga tasniflanadi. Ommaviy jismoniy tarbiya deyilganda insonning o'z jismoniy, psixologik salohiyatini oshirish, chiniqish, jismoniy rekreastiya darajasida mashq qilish anglanadi.

Rekreatsiya (*lotincha "recreation" — "tiklash" so'zidan*) – tabiat qo'ynida jismoniy mashqlar bajarish, sport bilan shug'ullanish orqali faol dam olishdir. Rekreatsiya, qoida bo'yicha, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishda yuqori natijalarga erishish uchun zo'riqishni talab etmaydi, balki jismoniy kuchni tiklashga qaratilgan bo'ladi.

Davolash jismoniy tarbiyasida esa shaxsning kasallanishi, jarohatlanishi, zo'riqishi va boshqa sabablarga ko'ra organizm funksiyalari faoliyati buzilishini davolash va tiklash uchun maxsus tanlangan jismoniy tarbiya mashqlari, ayrim sport vositalaridan foydalaniladi.

"Jismoniy tarbiya" atamasi XIX asrda Angliyada muomalaga kirgan bo'lsa ham keyinchalik u G'arb davlatlarida keng qo'llanilmadi. Hozirgi vaqtda YUNESKO, Xalqaro olimpiya qo'mitasi, Yevropa Ittifoqi hujjatlarida jismoniy tarbiya ma'nosida "Sport – hamma uchun" atamasi ishlatiladi. "Ommaviy jismoniy tarbiya" aynan shu atamani anglatadi. Sport jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lsa ham birgalikda "jismoniy tarbiya va sport" sifatida ishlatilishi ana shu bilan izohlanadi.

Shu bilan birga sportning inson tomonidan bevosita jismoniy kuch ishlatish bilan bog'liq bo'lmagan turlari (shaxmat, shashka

va hokazolar) ham bor. Shuning uchun "sport" atamasi asosan inson jismoniy va aqliy salohiyatlarini taqqoslash, musobaqalashish, sport o'yinlari orqali ko'ngil ochish ma'nosida ishlatiladi.

Xitoyda topilgan anjomlar va inshoatlar bu yerda milodgacha 4000 yil avval ham hozirgi ma'nodagi sport o'yinlari mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Ushbu davlatda, ayniqsa, gimnastika juda ommalashgan. Hindistonda sportning shaxmat, chim ustida xokkey turlari paydo bo'ldi. Eronda ko'hna davrlarda bolalarni chavandozlik, kamondan o'q uzishga o'rgatadigan maktablar ochildi. Qadimiy Misrda esa maxsus binolarda yugurish, kurash, mushtlashish, qilichbozlik bo'yicha musobaqalar o'tkazilardi.

Ko'hna Yunonistonda ham sportning kurash, yugurish, bosqon irg'itish, aravalarda poyga kabi turlari juda mashhur bo'lgan. Yunoniston – hozirgi davr Olimpiada o'yinlarining vatani, bu yerda mo''jazgina Olimpiya shaharchasida har to'rt yilda bir marta Olimpiada o'yinlari o'tkazib turilgan.

Uyg'onish davrida insonning jismoniy barkamolligiga ham e'tibor ortib borgan. Jumladan italiyalik insonparvar Franchesko Petrarka (1304–1374) sog'lom turmush tarzini targ'ib etgan, yoshlarni, jumladan, alpinizm bilan shug'ullanishga da'vat etgan. XV asr boshidan esa Yevropadagi ayrim maktablarda jismoniy tarbiya o'quv dasturlariga kiritilgan.

1711 yilda Angliyada birinchi marta ot poygalari o'tkazilgan. Bu vaqtda ushbu mamlakatda sport klublari ham tashkil etila boshlangan, ularning a'zolari sportning turi sohalarida musobaqalar uyushtirishgan. 1896 yilda esa franstuz Per de Kubertenning tashabbusi bilan Afinada birinchi zamonaviy Olimpiada o'yinlari tashkil etilgan.

Bugungi kunda sport umunmadaniy, siyosiy, estetik, siyosiy ahamiyat kasb etgan. Olimpiada o'yinlari, sportning futbol, engil atletika, boks, tennis kabi turlari bo'yicha musobaqalar butun dunyodagi millionlab sport ixlosmandlarining diqqat-e'tiborini tortadi. Sportga mamlakatlar, millatlar shuhratini oshirishning qudratli omili sifatida qaraladi. Mashhur xalqaro sport

musobaqalari va ular reklamasidan milliardlab dollar daromad olinmoqda.

Sportning asosiy tashkiliy shakllari sifatida ommaviy havaskorlik sporti va yuqori natijalar sporti farqlanadi. Ommaviy havaskorlik sporti — bu salomatlikni mustahkamlash, mehnat qobiliyatini oshirish, hayotiy muhim ko'nikmalarni shakllatirish, jismoniy kamolotga erishish uchun muntazam o'quv-mashq mashg'ulotlari, musobaqalarda ishtirok etishdir. U, shuningdek, maktab, studentlar, kasbiy-amaliy, rekreativ sport turlarini qamrab olgan.

Ommaviy havaskorlik sporti vazifalar jismoniy tarbiya funksiyalari bilan o'xshash. Lekin ayni paytda jismoniy tarbiyadan mashqlar va musobaqalar o'tkazilishining muntazamligi bilan ajralib turadi.

Yuqori natijalar sporti iloji boricha yuqori sport natijalariga erishishga yo'naltirilgan. Sportda yuksak natijalarga erishish faqat shaxsiy emas, balki umummilliy ahamiyat kasb etadi. Chunki nufuzli musobaqalarda yuksak natijalarga erishish sportchi fuqarosi bo'lgan davlatning jahondagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham davlat sportni har taraflama qo'llab-quvvatlaydi.

Sport quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajaradi:

– musobaqalashish orqali insonning jismoniy va aqliy salohiyatini taqqoslash. Sportni musobaqalashishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Sportda eng asosiysi – raqobatchisiga nisbatan kuchliroq, epchilroq, mohirroqligini, ya'ni o'z salohiyati, iste'dodini oshkor namoyish qilish;

– sport insonni har tomonlama kamol toptirish vositasi sifatida. Sport bilan shug'ullanadigan shaxs o'z organizmini chiniqtirish orqali salomatligini mustahkamlaydi, o'zida hayotiy muhim hislatlar – iroda, matonat, qat'iyat, chidamlilik va hokazolarni shakllantiradi;

– sport estetik tarbiya vositasi sifatida. Sport musobqalari kuchlilik, mahorat ko'rigi sifatida millionlab kishilar e'tiborini tortishi bilan bir qatorda, ularni sport bilan faol shug'ullanishga

da'vat etadi, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishning asosiy omiliga aylanadi;

– sport keng ijtimoiy munosabatlar sohasi sifatida. Sport faoliyati shaxslararo, jamoalararo, millatlararo va xalqaro munosabatlarni, turli mamlakatlar xalqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlash, tinchlik va birodarlik g'oyalarini targ'ib qilishga xizmat qiladi;

– sport iqtisodiy omil sifatida. Sport bilan shug'ullanish odamlar salomatligini mustahkamlab, ularning ish qobiliyatini, ya'ni mehnat unumdorligini oshiradi. Shu bilan birga sport xodimlar kasallanishlarini kamaytirish orqali katta iqtisodiy samara keltiradi.

6.2. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlar

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimiz vakillarining Olimpiya o'yinlari, jahon chempionatlari, Osiyo o'yinlari va chempionatlari hamda xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishayotgani, dunyoda O'zbekistonning obro'-e'tibori va sport salohiyati yanada oshayotgani, respublikamiz hududlarida jahon andozalariga mos muhtasham sport inshootlari barpo etilayotgani, o'quvchi va talaba yoshlar o'rtasida uch bosqichdan iborat «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» sport o'yinlari ommalashib borayotgani ayniqsa e'tiborlidir.

Mamlakatimizda sport sohasini rivojlantirish bo'yicha birgina 2017 yilning o'zida quyidagi qonunosti hujjatlar qabul qilindi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 4956 - son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2779-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 16 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 148-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 avgustdagi «Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag'batlantirish to'g'risida» PQ-3196-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 sentyabrdagi "Respublika oliy sport mahorati maktablari va ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktablarida sportchi lavozimini joriy etish hamda ularga oylik ish haqi va ustamalar belgilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 733-sonli qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi huzurida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish kengashini tashkil etish to'g'risida"gi 865-sonli qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 4956-son Farmoniga asosan Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil etildi. Qo'mita jismoniy tarbiya va sport sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlovchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Quyidagilar Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari hisoblanadi:

– jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining keng qatlamlarini sport bilan shug'ullanishdan bahramand qilishga va sog'lom turmush tarzini yuritishga, jismonan sog'lom o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashga, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirishga, mamlakatning sport yutuqlarini ommalashtirishga va xalqaro sport maydonida keng e'tirof etilishiga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

– mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya-sport jamiyatlari, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda shaharlar va tumanlarda sport-ommaviy tadbirlarni, xalq o'yinlari va sportning milliy turlari bo'yicha musobaqalarni muntazam ravishda o'tkazgan holda aholi, ayniqsa yoshlar, xotin-qizlar, keksa kishilar, qishloq ahoiisi orasida sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishni ommalashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni tashkil etish;

– bolalarni, ayniqsa qiz bolalarni sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish yo'li bilan bolalar sportini har tomonlama rivojlantirish, bolalar sporti ta'limi sifatini oshirish, barcha mintaqalarda, shu jumladan qishloq tumanlarida va chekka tumanlarda bolalar sport obyektlari tarmog'ini yanada kengaytirish, «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» musobaqalarining uch bosqichli tizimi o'yinlari o'tkazilishini tashkil etish, shu asosda bolalarning sog'lig'ini mustahkamlash va ularning barkamolligini ta'minlash;

– Milliy olimpiya qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federastiyalar va assostiastiyalar bilan birgalikda iqtidorli va istiqbolli sportchilarni taniash, tayyorlash va ularning mahoratini oshirishning uzluksiz tizimini takomillashtirish, Olimpiya, Paralimpiya va Osiyo o'yinlarida, jahon, Osiyo chempionatlarida va boshqa nufuzli xalqaro musobaqalar va turnirlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishni ta'minlash uchun ulardan sifatli sport zaxirasini va

mamlakat terma jamoalari tarkiblarini shakllantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

– mamlakatda professional sportni rivojlantirishni rag'batlantirish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalarni sport tayyorgarligi jarayoniga joriy etish, sport turlari bo'yicha milliy chempionatlar darajasi va sifatini oshirish, xalqaro va mintaqaviy musobaqalarni tashkil etish, nosog'lom sport raqobatiga va taqiqlangan preparatlar qo'llanilishiga qarshi kurash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish;

– ommaviy, bolalar va professional sport yo'nalishlari bo'yicha jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport tashkilotlarining, obyektlar va inshootlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash, ulardan eng ko'p darajada va samarali foydalanishni ta'minlash, respublikada sport uskunalari va inventari ishlab chiqarishni tashkil etish va kengaytirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilishida ishtirok etish;

– jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport tashkilotlarini, ta'lim va sport-ta'lim muassasalarini yuqori malakali trenerlar va boshqa sport mutaxassislari bilan ta'minlash;

– sport sohasida davlatlararo va xalqaro sport aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash, jismoniy tarbiya va sport sohasiga xorijiy investistiyalar va grantlarni jalb etish ishlarini tashkil etish, ommabop sport dasturlari tashkil etilishiga ko'maklashish, jismoniy tarbiya va sport sohasida ommaviy adabiyotlarni nashr etish va mavzuli video- va kino materiallar yaratish.

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi huzurida Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish kengashi tashkil etildi. Kengash jamoatchilik asosida faoliyat yuritadi.

Quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

– Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda ko'maklashish;

– jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning to‘liq va sifatli bajarilishi bo‘yicha monitoring olib borish;

– «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonuni talablari hayotga to‘laqonli joriy etilishini ta’minlash.

Respublikada sport sohasiga alohida e’tibor qaratilganligi bois sport maktablari shtat jadvallariga yangi lavozimlar kiritilmoqda. Xususan, 2018 yil 1 yanvardan boshlab Respublika oliy sport mahorati maktablari va ixtisoslashtirilgan bolalar-o‘smirlar sport maktablari shtatlar jadvaliga «sportchi» lavozimi kiritiladi.

Harakatlar strategiyasi doirasida rejalashtirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish maqsadida jami 995,2 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ sarflanishi nazarda tutilgan bo‘lib, shundan 706,2 milliard so‘mdan ortiq qismi ushbu yillarda jami 167 ta sport inshooti, jumladan, 90 ta sport majmuasi hamda 77 ta suzish havzasini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash hamda jihozlash va qayta jihozlashga yo‘naltiriladi.

6.3. Turizm – iqtisodiyotni rivojlanishning samarali sohasi

Hozirgi davrda turizm jahon xo‘jaligining eng yirik tarmoqlaridan biriga aylanib, uning o‘sish sur’atlari iqtisodiyot boshqa tarmoqlari mazkur ko‘rsatkichlaridan salkam ikki baravar yuqori bo‘lmoqda. Buning isboti – xalqaro turizmning neftni qazib olish sanoati va avtomobilsozlikdan keyingi uchinchi o‘ringa ko‘tarilib olganidir.

Xalqaro turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi vaqtda turizm sohasiga jahon yalpi mahsulotining 6,0 %, jahonda kiritilayotgan investitsiyalar hajmining 7,0 %, dunyodagi iste’mol xarajatlari hajmining 11,0 %, barcha soliq tushumlarining 5,0 %, shuningdek mavjud ish joylari nar 16 tasining bittasi to‘g‘ri kelmoqda.

Turizmning – iqtisodiy kategoriyalarga munosib quyidagi sifatlari xususiyatlari namoyon bo‘lmoqda:

– industriya shakliga ega;

– turistik mahsulot va xizmatlar ko‘rinishiga ega;

– yangi mintaqalarni kashf etadi;

– milliy iqtisodiyotni, mahalliy infratuzilmalarni jadal rivojlantirish, mahalliy aholi daromadlarini ko‘paytirishning qudratli omili bo‘lishi mumkin;

– yangi ish joylari yaratadi;

– jahon yalpi mahsulotini turizmni jadal rivojlantirayotgan mamlakatlar foydasiga qayta taqsimlaydi;

– kiritilgan investitsiyalar tez foyda keltirishini ta’minlaydi;

– madaniy merosni saqlash, tabiatni muhofaza qilish vositasi hisoblanadi .

Qadimiy zamonlardayoq odamlar dunyoni ko‘rish, yangi hududlarni ochish, savdo, diplomatik, harbiy, diniy va boshqa maqsadlar bilan uzoq o‘lkalarga yo‘lga chiqishardi. Uzoq asrlar davomida odamlarning sayohat qilishlariga asosan savdo–sotiq, ta’lim olish, ziyorat qilish, davolanish sabab bo‘lardi. Bu sayyohlar mahalliy aholining muayyan xizmatlariga muhtoj bo‘lardilar. Shu tariqa yangi yo‘llar, mehmonxonalar, karvonsaroylar, yemakxonalar qurilishiga kirishilardi.

O‘rta asrlarda diniy maqsadlardagi sayohatlar kuchaydi. Juda ko‘plab kishilar muqaddas qadamjolarni ziyorat qilgan borardi. Uyg‘onish davri esa sayohatlarning ta’lim yo‘nalishini kuchaytirdi.

Manufaktura ishlab chiqarishining rivojlanishi va XVIII-XIX asrlarda Yevropadagi yetakchi davlatlarda ro‘y bergan sanoat inqilobi jamiyatning iqtisodiy hayotini tubdan o‘zgartiridi. Ishlab chiqarishning fabrika usuliga o‘tilishi ish vaqti bilan xodimning to‘la ihtiyorida bo‘lgan dam olish vaqtini aniq chegaralab qo‘ydi. Bu esa odamlarning turli o‘lkalar bilan tanishish maqsadida sayohatlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Turizmning rivojlanishida 1807 yilda paroxod, 1814 yilda parovozning kashf qilinishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Endilikda kamroq xarajat bilan uzoq o‘lkalarga xavf-xatarsiz sayohatga chiqish imkonini tug‘dirdi.

Xalqaro turizmga asos qo'yilishi 1840 yillarda ingliz tadbirkori T.Kuk tomonidan avval o'z mamlakati ichkarisida, keyinchalik boshqa davlatlarga ham sayohatlarin' tijorat asosida tashkil qilishi bilan bog'liq. Sayohatlar uyushtirish katta daromad keltirishi mumkinligi ayon bo'lgach, turli davlatlarda turizm kompaniyalari paydo bo'la boshladi.

XIX asr boshida avval Germaniyada, keyin Shveytsariyada xizmat ko'rsatish darajasi yuqori bo'lgan mehmonxonalar barpo etildi. Shu asrning ikkinchi yarmidan boshlab ommaviy sayohatlarni tashkil etishga ixtisoslashgan turizm byurolari ham tashkil topdi.

Ammo ommaviy turizm XX asrning 50-60 yillaridan boshland'. Bu davrga kelib turistik firmalarning faoliyat' ko'lami beqiyos kengaydi, ko'p davlatlarda mehmonxonalar, madaniy-maishiy va ko'ngilochar muassasalar tarmog'i jadal kengaya boshladi.

Jahon turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilda jahon yalpi ichki mahsuloti hajm'ning 10 foiz' shu soha hissasiga to'g'ri keladi. Dunyoda ish bilan band bo'lgan jami aholining 8 foizi turizm sohasida mehnat qilmoqda.

Jahonda turizmning jadal rivojlanishi quyidagi omillar bilan bog'liq:

– aholi daromadlarining ortishi;

– ish vaqti qisqarishi va bo'sh vaqtning ko'payishi;

– avtomobilsozlik, aviasozlik, kommunikatsiya va axborot texnologiyalarini rivojlantirishdagi muvaffaqiyatlar;

– urbanizatsiya ko'lamlarining kengayishi;

– jamiyat ma'naviy qadriyatlaridagi ustuvorliklar.

Turizm – serqirra faoliyat sohasi hisoblanadi. Shuning uchun "turizm" atamasining talqinlari ham ko'p. Jumladan, 1980 yilda Filippinda qabul qilingan turizm bo'yicha Manila deklaratsiyasida "Turizm – davlatlarning ijtimoiy, madaniy, ta'lim va iqtisodiy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatishi sababli xalqlar turmushida muhim ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat hisoblanadi" deb qayd etilgan. Jahon turizm tashkiloti tomonidan 1981 yilda Madridda

o‘tkaziigan turizm bo‘yicha jahon konferensiyasida “Turizm – faol dam olishnir g turlaridan biri bo‘lib, u yoki bu mintaqalar, yangi davlatlar bilan tanishish maqsadidagi sayohatdir, u qator mamlakatlarda sport unsurlari bilan qo‘shilib ketadi” deb ko‘rsatiidi.

Turizmga mufassalroq ta’rif Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan berilgan, ya’ni: “Turizm – dam olish, amaliy va boshqa maqsadlar bilan o‘zlariningodatiy muhitidan tashqaridagi joylarda ketma–ket bir yildan ko‘p bo‘lmagan muddatda sayohatda bo‘ladigan shaxslar faoliyatidir”.

Turizm turli mezonlar – jo‘g‘rofiya, sayohat maqsadi, uning davomiyligi, harakatlanish vositalari, ishtirok etish shakli, yosh tarkibi, mavsum va hokazolar bo‘yicha tasniflanadi. Shu bilan birga turizm moliyalash manbaiga ko‘ra ijtimoiy va tijorat, ishtirok etuvchilar sonidan kelib chiqib shaxsiy, oilaviy, guruhiy, tashkillashtirilishiga qarab uyushgan va uyushmagan kabilarga ham ajratiladi (6.1–chizma).

Shu bilan birga ichki (mahalliy) va xalqaro turizm farqlanadi. Ichki (mahalliy) turizmda mamlakat fuqarolari (rezidentlar) va xorijiy fuqarolarning (rezident bo‘lmaganlar) mamlakat hududida sayohat qilishlari tashkillashtiriladi. Xalqaro turizm turizm xizmatining ham eksporti, ham importini nazarda tutadi. Ya’ni xalqaro turizmda mamlakat fuqarolari chet ellarga sayohatga borishlari, ayni paytda xorijiy mehmonlarni ushbu davlatda qabul qilib olish talab qilinadi.

Turizmning asosini uning subyekti – turist va obyekti – turist ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan turizm infratuzilmalari: sayohat mintaqasi (hoyi), turizm tashkiloti va korxonasi tashkil etadi.

Turizm mintaqasi deyilganda turist sayohat qilish uchun tanlagan joy tushuniladi. Bu joyda, albatta, turistning bo‘lishi, joylashtirilishi, ovqatlanishi, madaniy hordiq chiqarishi uchun zarur infratuziimalar bo‘lishi kerak. Ya’ni bunda turizm mintaqasi yaxlit turistik mahsulot majmuasini tashkil etadi.



6.1–chizma. Turizm turlari tasnifi

Turizmning jadal rivojlanishi "turizm industriyasi" atamasini muomalaga kiritdi,. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi ekspertlarining ta'rificha, "Turizm industriyasi – sayohatchilar uchun tovarlar va xizmatlar yaratishda ishtirok etadigan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish

faoliyat turlarining jamlanmasidir"6. Ya'ni turizm industriyasi iqtisodiy faoliyat bilan chambarchas bog'liqdir.

Shuning uchun, jumladan, AQSh Savdo vazirligi turizm industriyasining agrosanoat majmuasi, qurilish, transport, aloqa, umumiy ovqatlanish, vado, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa sohalar bilan qalin bog'liq ekanligi sababli ushbu murakkab majmuaga mamlakat iqtisodiyoti 24 tarmog'ini kirigan. Jahon turizm tashkiloti mutaxassislarining hisoblashicha, turizm sohasida xo'jalik yurituvchi subyektlar milliy iqtisodiyotlar 32 tarmog'ini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga turizm sohasida sayyohlarga bevosita xizmat ko'rsatadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan birga turizm faoliyatining bir tarkibiy qismi bo'lgan firma va kompaniyalar ham mavjud. Shuning uchun faoliyati bevosita turizm bilan bog'liq korxona, tashkilot va muassasalar – birlamchi xizmatlar sohasi, bu faoliyatlarining bir tarkibiy qismi bo'lganlar – ikkilamchi xizmatlar sohasi subyektlari deb ataladi.

Turizm industriyasi tarkibidagi asosiy sektorlar quyidagilardan iboratdir:

– sayyohlarni joylashtirish;
– sayyohlarni ovqatlantirish;
– litsenziyali savdo;
– turizm va sayyohatlar;
– industrial;
– maishiy xizmat;
– kibbiyot muassasalari;
– madaniyat va sport muassasalari.

Turizm firmalari shakli va tashkiliy tuzilmasi bo'yicha turlicha bo'lishlari mumkin, lekin ularning asosiylari turizm operatorlari va turizm agentliklaridir.

Turizm operatorlari sayohat turlarini ishlab chiqadilar va ularni ulgurji ravishda turizm agentlariga sotadilar. Turizm operatorlari sayohat tashkilotchilari va guruhiy turizm uchun turizm mahsulotlarini yaratuvchilar hisobianadilar. Turizm

6 Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2005. – С. 10

operatori sayohat jamlanmasiga kiritilgan xizmatlar taqdim etilishi uchun javobgardir. Lekin mehmonlar, restoranlar egasi bo'lgan yoki bu turizm mahsulotlarini boshqalardan sotib olgan turizm operatori turistlarga bevosita o'zi ham xizmat ko'rsatishi mumkin.

Turizm agentliklari – turizm operatoridan turizm mahsulotlarini ulgurji sotib oladilar va ularni iste'molchilarga sotadilar. Ular turizm mahsulotlari bahosiga turistlar guruhi shakllantirilgan joydan turizm obyektigacha hamda sayohat nihoyasiga yetganidan so'ng o'sha joyga turistlarni olib borishga xarajatlarini qo'shadilar.

6.4. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari

Mamlakatimizda ish o'rinlari yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, valuta tushumlarini ko'paytirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yaqin istiqbolda hal qilish uchun keng salohiyatga ega bo'lgan turizm sohasini rivojlantirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2666-sonli qaroriga asosan Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi.

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

mamlakatning turizm salohiyatini tubdan oshirishga, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berishga, turizm sohasida yagona davlat siyosati o'tkazilishiga yo'naltirilgan turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasi shakllantirilishi va amalga oshirilishini ta'minlash;

turizm xizmatlarining tashqi va ichki bozorlarida marketing tadqiqotlari olib borishga, tarixiy-madaniy merosni keng targ'ib qilishga, O'zbekiston Respublikasining turizm qiyofasini saqlab qolish va rivojlantirishga, milliy turizm mahsulotlari va brendlari

xalqaro turizm bozorlariga kirib borishiga yo'naltirilgan faol reklama-axborot siyosatini amalga oshirish;

– ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlari ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish va ularning amalga oshirilishi monitoringi, turizm turlarining keng doirasini jadal rivojlantirish, xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan turizm infratuzilmasini rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni, shuningdek xalqaro moliya institutlari va boshqa tashkilotlarning kreditlari va grantlarini jalb etish;

– turizm faoliyati rivojlanishini muvofiqlashtirish, mintaqalarda yangi turizm yo'nalishlari tashkil etilishini ta'minlash, ularni pasportlashtirish, turizm yo'nalishlari va turizm obyektlari bo'yicha yagona milliy reestrlarni shakllantirish;

– turizm xizmatlarini tashkil etishda, eng avvalo, turistlar joylashtiriladigan joylarda, ovqatlanish punktlarida, respublika hududi bo'ylab harakatlanishda va turizm obyektlariga tashriflarni uyushtirishda turistlarning xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlashga yo'naltirilgan turizm xizmatlari ko'rsatish sifati va xavfsizligi standartlari ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish, turizm sohasida xizmatlarni litsenziyalash va sertifikatlashtirish hamda litsenziyalanadigan va sertifikatlashtiriladigan turizm xizmatlarining belgilangan talablar va standartlarga muvofiqligi bo'yicha inspeksiya nazoratini amalga oshirish;

turizm sohasini davlat tomonidan va bozor munosabatlari asosida tartibga solishni maqbullashtirish va turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish, turizmni rivojlantirishga qarshilik qilayotgan barcha g'ov va to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish, turizm sohasida tadbirkorlik faolligi oshishiga har tomonlama ko'maklashish, ushbu sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish;

turizm faoliyati sohasida birinchi navbatda BMTning Butunjahon turizm tashkiloti, turizm bo'yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlar hamda turizm sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xorijiy kompaniyalar bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xalqaro va davlatlararo standartlar va normalarni turizm faoliyati va amaliyotiga joriy etish;

turizm faoliyati subyektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni yuqori sifat darajasida tashkil etish, tarmoq turizm fanlarini rivojlantirishga ko'maklashish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilinishi davlatimiz tomonidan turizm sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning mantiqiy davomi bo'lib, turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhitni yaratgan holda, eng samarali tartibni joriy etish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, yurtimizga keladigan turistlar oqimini ko'paytirish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan.

Xususan, qaror bilan sohada me'yoriy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonga sayohatlarni arzonlashtirish, yurtimizning barcha hududlarida turizmni va soha bilan bog'liq infratuzilmani rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va yangi turizm obyektlari tashkil etish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Ayni paytda mamlakatimiz hududlarida zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu maqsadda Dasturga muvofiq quyidagilar ko'zda tutilgan:

– Andijon viloyati Xonobod shahrida dam olish hududlari;

– Jizzax viloyati Forish va Arnasoy tumanlarida Aydar-Arnasoy ko'llari sohilida beshta yangi zamonaviy dam olish hududlari tashkil etish;

– Qashqadaryo viloyati Shahrisabz va Qarshi shaharlarida to'rt yulduzli mehmonxonalar;

– Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani Chimyon tog‘ massivida mehmonxona majmuasi barpo etish;

– Navoiy viloyatida To‘dako‘lning janubiy sohilida ichki turizm va Aydarko‘l sohillarida xorijlik turistlar uchun plyajlar tashkil etish.

Turizmni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilgan:

– O‘zbekistondagi muqaddas qadamjolarga ziyorat turizmi yo‘nalishi bo‘yicha sayyohlarni jalb qilish, bunda logistika, jumladan, charter reyslarni tashkil etish masalalarini hal qilish;

– Buxoro va Samarqand shaharlaridagi turizm hududlari tajribasi asosida Urganch, Toshkent shaharlari va Farg‘ona viloyatida turizm hududlari, shuningdek, Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida tog‘ klasterlarini bosqichma-bosqich tashkil etish;

– tashkil etilayotgan turizm hududlari va tog‘ (tog‘oldi) turizm klasterlariga chet el sarmoyadorlarini jalb qilish, shuningdek, yangi mehmonxonalar qurish uchun yurtimizga yetakchi mehmonxona brendlarini taklif qilish yoki mamlakatimizdagi mehmonxona xo‘jaliklarini ular boshqaruviga topshirish.

Shu munosabat bilan xorijlik turistlar uchun viza tartibotini soddalashtirish va ziyorat turizmini tashkil etish bo‘yicha takliflarni muntazam kiritib borish ko‘zda tutilgan. Mazkur vazifa ijrosini ta’minlash maqsadida xorijlik fuqarolar uchun viza va ro‘yxatga olish tartibini bosqichma-bosqich soddalashtirish bo‘yicha takliflarni ushbu davlatlar bilan ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanish darajasidan, jahon turizm bozorining kon’yunkturasi hamda xalqaro va mintaqaviy vaziyatdan kelib chiqqan holda tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi doimiy faoliyat yuritadigan ishchi guruh tuzilgan.

Respublikada turizm sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Xususan:

– tadbirkorlik subyektlariga yangi mehmonxonalar va turizm infratuzilmasining boshqa inshoatlarini qurish, mavjudlarini modernizatsiya qilish uchun uzoq muddatli (15 yilgacha)

kreditlar ajratish amaliyoti joriy qilinmoqda, bunda kredit va foizlarni qoplash uchun mehmonxonalarning moliyaviy tushumi va mavsumiy sharoitidan kelib chiqadigan talablar taqdim qilingan;

– tadbirkorlik subyektlariga chet el valutasidagi mablag'larni o'tkazish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar, terminallar ijarasi, erkin konvertatsiya qilinadigan valutadagi naqd pullarni inkassatsiya qilish va chet el valutasida operatsiyalar amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xizmatlar uchun yig'imlarning (komissiya to'lovlarining) maqbul miqdorlari belgilangan;

– 2022 yil 1 yanvarga qadar mehmonxonalar boshqaruv xodimi sifatida jalb qilingan malakali xorijlik mutaxassislarning mehnatiga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov to'lashdan, shuningdek, mehmonxonalarga boshqaruv xodimi sifatida jalb qilinadigan malakali xorijlik mutaxassislarning daromadlari jismoniy shaxslarning daromad solig'idan ozod etilgan.

Hududlarning sayyohlik salohiyatini dunyoga keng targ'ib qilish, mamlakatimizga tashrif buyurishi kutilayotgan sayyohlarga qulay sharoitlar yaratish, sohadagi mavjud muammolarni tizimli asosda bartaraf etish, ushbu vazifalarni amalga oshirishda joylardagi mahalliy davlat hokimiyati organlarining mas'uliyatini oshirish hamda turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 iyuldagi "Turizm sohasini rivojlantirishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3129-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan Xorazm, Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyati hokimlarining turizmni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosarlari lavozimlarini joriy etildi.

Viloyatlar hokimlarining turizmni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosarlarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

– hududda turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, soha bo'yicha qabul qilingan konsepsiya va dasturlarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni belgilash;

– chet el mamlakatlari bilan turizm sohasida, ayniqsa, turistlar oqimini ko'paytirish hamda ularni jalb qilish bo'yicha hamkorlik va kelishuvlarni vakolatli organlar bilan birgalikda amalga oshirish;

– sohani chuqur tahlil qilish asosida turistik xizmatlarga bo'lgan talabni o'rganish, bu boradagi mavjud muammolar va to'siqlarni aniqlash, sohani rivojlantirish hamda takomillashtirishning maqsadga muvofiq modellarini ishlab chiqish va kelgusi rejalarni belgilash;

– turizm sohasining iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy, madaniy va boshqa yo'nalishlardagi infratuzilmasini takomillashtirish va turizm yo'nalishidagi diqqatga sazovor joylar, ularni yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilash hamda amalga oshirish;

– qo'shimcha turizm marshrutlarini ishlab chiqish, chet el yoshlarini keng jalb etish maqsadida ko'ngilochar komplekslar barpo etish, madaniy meros obyektlarida xalqimizning tarixi, turmush tarzi, urf-odatlari, an'analarini o'zida aks ettirgan ekspozistiyalarni tashkil etish;

– turizm sohasida turizmni rivojlantirishning hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish;

– turizmni rivojlantirish masalalari bo'yicha mas'ul vazirlik, idora va qo'mitalarning hududiy boshqarmalari ish faoliyatini muvofiqlashtirish;

– turizm sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini jalb etish, xorijiy turoperatorlar va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish orqali respublikaning mavjud sayyohlik salohiyatini keng yoritish choralarini ko'rish.

Nazorat uchun savollar

1. Sportning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini sanab bering.
2. Rekreatsiya tushunchasining mohiyatini yoritib bering.

3. Jismoniy tarbiyaning vujudga kelish tarixini tushuntirib bering.

4. Mamlakatimizda sport sohasini rivojlantirish bo'yicha qanday me'yoriy hujjatlar qabul qilingan?

5. Xalqaro turizm tashkiloti haqida ma'lumot bering.

6. Turizmning iqtisodiy kategoriyalarga munosib sifat xususiyatlarini sanab bering.

VII BOB. IJTIMOIY SUG'URTA VA PENSIYA TA'MINOTI

7.1. Ijtimoiy sug'urtaning mohiyati va shakllari

Ijtimoiy sug'urta aholini mehnatga layoqatlilik va daromadlarni yo'qotish bilan bog'liq turli xatarlardan ijtimoy muhofaza qilish shaklidir. Ijtimoiy sug'urtaga xos xususiyat uning davlat ko'magida ish beruvchilar va xodimlarning maqsadli badallari, maxsus budjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan moliyalanishi hisoblanadi.

Aytish mumkinki, ijtimoy sug'urta aholini ijtimoiy muhofaza qilishning zamonaviy tizimi hisoblanib, unga davlat ijtimoiy sug'urtalarining yaxlitligi, ijtimoiy yordamning turli shakllari kiradi.

Ijtimoiy sug'urta ikkita asosiy vazifani hal qilishga, birinchidan, xodimlarning mehnatga layoqatligini tiklash va saqlash, shu jumladan, mehnatni muhofaza qilish va uning xavfsiz shart-sharoitlarini ta'minlash bo'yicha profilaktika va reabilitatsiya choralarini amalga oshirishga, ikkinchidan, mehnatga layoqatligini yo'qotgan yoki unga ega bo'lmagan shaxslarning moddiy ta'minlanganligini kafolatlovchi chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Ijtimoiy sug'urtaning zamonaviy shakllari orasida majburiy, ixtiyoriy va korporativ turlari mavjud.

Majburiy ijtimoiy sug'urta – mehnatga layoqatlilikni (kasallik, baxtsiz hodisa, qarilik) yoki ish joyini yo'qotish tufayli daromaddan (ish haqi) mahrum bo'lish hollarida qo'llaniladigan amaldagi qonunchilikda belgilangan ijtimoiy kafolatdir. Ularni beruvchi moliyaviy manbalar – ish beruvchilar va xodimlarning sug'urta badallari, shuningdek, budjet mablag'laridir. Sug'urtaning ushbu turiga xos huquqiy jihat – bu yo'qotilgan ish haqi va boshqa mehnat daromadlarining o'rnini qoplashdir.

Ixtyoriy ijtimoiy sug'urta davlatning sug'urta yordami mavjud bo'lmagan hollarda jamoaviy javobgarlik va o'z-o'ziga yordam tamoyiliga asoslangan. U shaxsiy va jamoaviy bo'lishi mumkin hamda baxtsiz hodisalar oqibatlaridan tibbiy va pensiya ta'minotini ko'zda tutadi. Bu turdagi sug'urtalashning moliyaviy manbalarini xodimlar va ish beruvchilarning badallari tashkil qiladi. Ixtiyoriy ijtimoiy sug'urtani majburiy sug'urtaga muqobil deb emas, balki qo'shimcha deb tushunish kerak. Ushbu jamg'armalarning bir-birini to'ldirishi bir turdagi sug'urta kamchiliklarini boshqa turdagisining afzalliklari bilan to'ldirish imkonini beradi.

Korporativ sug'urta – ish beruvchilarning daromadlari hisobidan shakllantiriladigan ijtimoiy muhofaza tizimi bo'lib, u xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlarini (tibbiy yordam, sog'lomlashtirish, turar-joy, transport va o'quv harajatlarini, madaniyat sohasidagi xizmatlar, pensiya to'lovlari) qondirishga yo'naltiriladi.

Sanab o'tilgan sug'urta turlari orasida moliyaviy mablag'lar hajmiga, qamrovining ommaviyligiga va xizmatlarining rangbarangligiga ko'ra asosiysi majburiy ijtimoiy sug'urta hisoblanadi (eng avvalo, pensiya, tibbiy sug'urta, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan, ishsizlik va boshqa ijtimoiy xatarlardan sug'urtalashdir). Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy sug'urtaning bu turi odatda ijtimoiy himoya maqsadlari xarajatlarining 60-70 foizini, YaIMning taxminan 15-20 foizini tashkil etadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy sug'urta tizimi bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoyaning asosiy institutlaridan biridir. Shu munosabat bilan xodimlarni ijtimoiy sug'urta qilish bo'yicha xarajatlarni ishchi kuchini tiklash va ularni mahsulot tannarxiga kiritish uchun huquqiy tan olinishi (ya'ni, xarajatlarning ushbu turining soliq xarakterini tan olish) muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday sug'urta turining mohiyati ijtimoiy xatarning muayyan shakliga ta'sir ko'rsatuvchi, imkon qadar ko'p sonli subyektlar (yuridik va jismoniy shaxslar) orasida uning salbiy oqibatlarini taqsimlash yordamida moddiy yo'qotishlar xatarini

kamaytirish va o'rinini qoplashdan iborat. Shu maqsadda mazkur shaxslar moddiy yo'qotishlarga olib keluvchi sug'urta holatlari sodir bo'lganda maqsadli foydalanish uchun pul• (moddiy) resurslarni shakllantiradi (sug'urta turlarining tasnifi 7.1-chizmada keltirilgan).

Ijtimoiy sug'urta shakllari sug'urtaning himoyalash obyektlariga ishlaydigan aholining ish haqi (daromadlari) yo'qotilishi va davolanish bilan bog'liq qo'shimcha harajatlarning yuzaga kelishi xatariga kiradi. Yollanma mehnat bilan shug'ullanadigan shaxslarning kelib chiqishi, moddiy ta'minlanmaganligining vujudga kelish sabablari o'xshash bo'lgan ijtimoiy munosabat turlari, subyektiv tarkibi va doirasi **"ijtimoiy xatar"** deb ataladigan universal ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy kategoriyaga birlashadi. Ijtimoiy xatar holati quyidagilar oqibatida yuzaga keladi:

– mehnatga layoqatning yo'qolishi (kasallik, baxtsiz hodisa, farzand tug'ilishi va uni parvarishlash, keksalik oqibatida);

– mehnatga talabning yo'qligi (ishsizlik).

Shu tarzda, ijtimoiy xatar deyilganda, obyektiv, ijtimoiy ahamiyatli sabablarga ko'ra ish haqini yoki mehnat daromadining yo'qotilishi, shuningdek davolanish va ijtimoiy xizmatlarga qo'shimcha xarajatlar qilish zarurati paydo bo'lishi tushuniladi.

Kasallik, nogironlik, ishsizlik tufayli ta'minlanmaganlik, ishlab chiqarish jarayonida qatnasha olmaslik va natijada ish haqidan mahrum bo'lish hollari individ uchun tasodifiy bo'lib tuyulsa-da, umuman iqtisodiyot uchun doimiy va ommaviy holatdir.

Ushbu holatlar tufayli ijtimoiy xatarli vaziyatlarning vujudga kelish ehtimoli (bemorlar, nogironlar, halok bo'lganlar, pensionerlar) miqdor jihatidan va ularning qiymat ko'rsatkichlari (kasallikning davomiyligi, nogironlik kelib chiqqan o'rtacha yosh, qonun bilan belgilangan pensiya yoshi) jihatidan ham baholanishi va taxmin qilinishi mumkin.

Ijtimoiy sug'urta tizimida to'lovlarning berilish shartlari (nafaqa, pensiyalar), ularning miqdori va muddati sug'urta badallari tizimi bilan o'zaro bog'liq, bu esa sug'urtalanuvchilarning sug'urta badallarini to'lashdan manfaatdorligi mexanizmini

yaratadi va ayni paytda sug‘urtalanuvchilarning individual ulushi hisobini yuritish muammosini hal qiladi.



7.1-chizma. Sug‘urta turlarining tasnifi

Ijtimoiy sug‘urtaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: qayta tiklash, hamjihatlikda qayta taqsimlash va ijtimoiy himoya.

Aytib o‘tilgan vazifalardan birinchisi ishchi ish haqidan mahrum bo‘lgan holatlarda amalga oshiriladi.

Hamjihatlikda qayta taqsimlash vazifasining iqtisodiy mexanizmi moddiy zararni birdamlik asosida hal qilish (sug‘urta hamjamiyati doirasida cheklangan) hisoblanadi. Bu esa sug‘urta holatlariga uchramagan sug‘urta subyektlariga bunga uchraganlarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Bunda qayta taqsimlash “bo‘ylamasiga” ham, “yonlamasiga” ham davom etishi mumkin.

Ijtimoiy himoya vazifasi qolgan ikkita vazifani: qayta taqsimlash va qayta tiklash uchun umumlashtiruvchi hisoblanadi. Ijtimoiy sug‘urtalashda ijtimoiy himoya sug‘urtalanuvchilarning erishilgan turmush darajasini, davolanish yoki reabilitatsiya (tibbiy, kasbiy yoki ijtimoiy reabilitatsiya) tufayli yo‘qotilgan ish haqini yoki kutilmagan qo‘shimcha harajatlarni kompensatsiyalash mexanizmlari yordamida saqlab qolishda ifodalanadi.

7.2. Pensiya tizimining iqtisodiy funksiyasi va maqsadi

Pensiya (*lotincha “pensio” – “to‘lov” so‘zidan*) – fuqarolarga davlat yoki boshqa subyektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va, odatda, umrbod faqat naqd pul shaklida va pensionerning elektron hisob-raqamiga to‘lanadigan to‘lovlar hisoblanadi.

Davlat yoki nodavlat pensiya tizimining milliy iqtisodiyotdagi asosiy iqtisodiy funksiyasi – mehnatga layoqatli va mehnatga layoqati bo‘lmagan toyifadagi fuqarolar o‘rtasidagi yalpi ichki daromadini qayta taqsimlash, muntazam daromad manbaiga ega va daromadga ega bo‘lmaganlar, katta daromadga ega shaxslar va past daromadga ega shaxslar o‘rtasida hamda yoshiga doir pensiyaga ketayotgan mutaxassislar va endi mehnat jarayoniga kirib kelayotgan yosh ishchilar o‘rtasida, keksa avlod va yosh avlod o‘rtasidagi iqtisodiy-ijtimoiy qarama-qarshi ziddiyatlarni bartaraf etish, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshatib, barqaror iqtisodiy-ijtimoiy o‘sishni ta’minlaydi.

Pensiya ta'minoti tizimining asosiy maqsadi – insonning mehnat faoliyati pirovard natijalariga qarab (mehnat staji, sug'urta staji, mehnat davomidagi daromad ko'rsatkichlari) uning qonunda belgilangan yoshiga qarab yoki sog'ligiga qarab (nogironlik) hamda boquvchisini yo'qotgan vaziyatda yoshiga doir yoki nogironlik pensiya hamda boquvchisini yo'qotgan oilalarga pensiya to'lovlarni belgilaydi.

Pensiya tiziminig subyektlari – davlat, ish beruvchilar va pensionerlar (shu jumladan nogironlar, boquvchisini yo'qotgan oilalar).

Pensiya tizimining obyektlari – davlat va nodavlat pensiya ta'minoti idoralari, pensiya jamg'armalari, xalq banki bo'linmalari, pochta bo'linmalari hisoblanadi.

Pensiya ta'minoti faoliyatiga bevosita ta'sir qiluvchi omillar – davlatdagi demografik vaziyat, mehnat bozoridagi muvozanat, aholi daromad ko'rsatkichlari, iqtisodiy rivojlanish sur'atlari, bank tizimining barqarorligi, sug'urta tizimining aholini qamrab olish darajasi va h.k.

Hozirgi davr jahon amaliyotida pensiyalarning asosiy uch turi farqlanadi:

- **yoshga doir pensiya**. Bu pensiyani olish uchun qonunchilik orqali belgilab qo'yilgan muayyan yoshga to'lish va muayyan mehnat stajiga ega bo'lish talab qilinadi;
- **nogironlik pensiyalari**. Bu pensiyalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogironlar deb topilgan shaxslarga tayinlanadi;
- **boquvchisini yo'qotgaulik pensiyalari**. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi.

Jahonda pensiya tizimlari turlicha ekanligiga qaramasdan ularning hammasini ikki yirik guruhga ajratish mumkin (7.2-chizma):



7.2-chizma. Pensiya tizimlari modellarining amal etishi

1. Taqsimlash turidagi pensiya tizimlari. Uning mohiyati pensiya to'lovlari uchun joriy xarajatlar joriy tushumlar hisobiga amalga oshirilishidan iborat. G'arbda uni **"pay-as-you-go" – "yurib turgan ekansan, to'la"** deb ham atashadi. Ya'ni, bu aholi katta avlod vakillari pensiya ta'minotini mamlakatning iqtisodiy faol aholisi ta'minlaydi, degan ma'noni beradi.

Taqsimlash tizimidagi pensiya modelida pensionerlarga pensiya to'lash uchun mablag'lar uch manbadan shakllantiriladi:

– ish bilan band xodimlar to'lovlari;

– ish haqi fondidan majburiy to'lovlar;

– davlat dotatsiyalari.

Taqsimlash pensiya tizimining uchta asosiy kamchiligi mavjud:

– demografik ko‘rsatkichlarning ta’siri;
– pensiyaning o‘rtacha ish haqiga bog‘liqligi;
– mablag‘ to‘planishi koeffitsiyenti.

2. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi. Mazkur model joriy va kelajakdagi pensiya to‘lovlarini amalga oshirish uchun maxsus mablag‘ zahirasini yaratishni ta’minlashga yo‘naltirilgan. U mohiyat jihatidan uzoq muddatli investitsiya jarayonidan iborat bo‘lib, dastavval to‘lanadigan badallar hisobiga pensiya kapitali shakllantiriladi, u iqtisodiyotga investitsiya qilinadi va shu hisobiga pensiya kapitali ko‘paytiriladi. Pensiya to‘lovlari ana shu jamg‘arilgan pensiya kapitali hisobidan amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir shaxs pensiyasi bevosita uning mehnat faoliyati davomida pensiya jamg‘armasiga to‘lagan badallari hamda bu badallar hisobiga shakllantirilgan kapitalning iqtisodiyotga investitsiya sifatida kiritilishi natijasida olingan foydaga bog‘liqdir.

Ushbu modelning asosiy g‘oyasi – fuqaroning faol mehnat faoliyati davomida kelgusida oladigan o‘z pensiyasi uchun mablag‘ jamg‘arishdir. Davlat fuqarolarga yoshga doir pensiya eng kam miqdorini to‘lash kafolatini oladi. Har bir xodim esa ish beruvchi mablag‘lari hisobidan jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya sug‘urtasida ishtirok etadi.

Ushbu model tarafdorlari jamg‘arilgan badallarni qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilishdan olinadigan foyda inflyatsiya darajasi va ish haqi o‘sisni sur’atlaridan yuqori ekanligini, shu tufayli pensiya jamg‘armalari pensionerlarga munosib pensiya to‘lashga qodir ekanliklarini asos qilib keltiradi. Ammo boshqa bozorlar kabi moliya bozori ham beqarorlik xususiyatiga ega.

Aholining qarishi pensiya tizimining taqsimlovchi yoki jamg‘arib boriladigan modellaridan qat’i nazar ish bilan band fuqarolarga pensiya bosimini kuchaytiradi. Natijada pensiya islohotlarini amalga oshirish, ya’ni pensiyaga chiqish yoshini uzaytirish (7.1-jadval) yoki shaxsiy ihtiyoriy jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini rag‘batlantirish talab qilinadi

Jahon mamlakatlarida yoshga doir pensiya olish uchun talablar

7.1-jadval

Mamlakatlar	Erkaklar uchun, yosh	Ayollar uchun, yosh	Amal eta boshlagan yil
Yaponiya	70	70	2012
Islandiya	67	67	2007
Norvegiya	67	67	2011
Daniya	65-67	65-67	2008
Germaniya	65-67	65-67	2008
AQSh	65	65	2012
Ispaniya	65	65	2011
Belgiya	65	65	2009
Avstriya	65	60	2011
Buyuk Britaniya	65	60	2012
Gruziya	65	60	2011
Italiya	57-65	57-65	2009
Moldova	65	60	2011
Armaniston	63	63	2011
Qozog'iston	63	60	2011
Qirg'iziston	63	58	2011
Tojikiston	63	58	2011
Ozarbayjon	62,5	57,5	2011
Turkmaniston	62	57	2011

Shuning uchun hozirgi davrda jahonning rivojlangan davlatlarida uch darajali pensiya ta'minoti tizimidan qo'llanilmoqda:

– ***birinchi daraja*** – **ijtimoiy pensiya**. Ushbu darajada pensiyaning eng kam miqdori davlat ijtimoiy taqsimlash pensiya tizimi orqali kafolatlanadi. Ijtimoiy pensiya miqdoriga pensionerning ish haqi darajasi, ish staji va boshqa ko'rsatkichlarining ta'siri bo'lmaydi yoki juda kam bo'ladi;

– *ikkinchi daraja* – **pensionerlar hayotiy ehtiyojlarini qondirish modeli**. Mazkur darajada xodimlarning faol mehnat faoliyati orqali pensiya yoshiga etgandan so‘ng hayotiy ehtiyojlarini to‘la qondiradigan miqdorda mablag‘ jamg‘arishi rag‘batlantiriladi. Bu model ham davlat tomonidan yoki uning nazoratida tashkil etiladigan taqsimlovchi pensiya tizimi orqali amal etadi;

– *uchinchi daraja* – **ixtiyoriy qo‘shimcha shaxsiy pensiya ta’minoti**. Ushbu model sug‘urta kompaniyalari, banklar, xususiy pensiya jamg‘armalari ishtirokini nazarda tutadi.

Nazorat uchun savollar

1. Ijtimoiy sug‘urta deganda nimani tushunasiz?
2. Majburiy sug‘urta bilan ixtiyoriy sug‘urta o‘rtasida qanday farqli jihatlar mavjud?
3. Davlat pensiya ta’minoti tizimining milliy iqtisodiyotdagi iqtisodiy funksiyasi nimalardan iborat?
4. Davlat pensiya tizimining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy maqsadini aytib bering.
5. “Pensiya” va “nafaqa” tushunchalarining farqi nimada?
6. Davlat pensiya ta’minoti tizimi va jamg‘arilib boradigan pensiya ta’minotining umumiyligi va prinstipial farqlarini aytib bering.
7. Pensiya tizimlari qaysi guruhlarga tasniflanadi?
8. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida amalga oshirilayotgan pensiya islohotlarining mohiyati nimadan iborat?
9. O‘zbekistonda amalga oshirilgan pensiya islohotlari asosiy xususiyatlarini ta’riflab bering.
10. O‘zbekistonda yoshga doir pensiyalar tayinlashda qanday imtiyozlar ko‘zda tutilgan?

VIII BOB. INSON TARAQQIYOTI KONSEPSIYASI

8.1. Inson taraqqiyoti konsepsiyasining mohiyati

Ma'lumki, davlatning samarali taraqqiyoti ko'p jihatdan jamiyat tanlagan uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga bog'liq. U.Cherchill yozganidek: «Aniq nazariyaga ega bo'lgan va unga sidqidildan ishongan kishi kundalik hayotning o'zgarishlari va kutmagan hodisalariga uzoqni ko'ra bilmaydigan, hamda kundan kunga paydo bo'ladigan tabiiy impulslarga ko'r-ko'rona ergashadigan kishilarga nisbatan ko'proq darajada tayyor turadi». ***Jamiyatning rivojlanishi strategiyasi*** bosh ustuvorliklarni hamda iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishning izchilligini aniqlash, hokimiyatning turli tarmoqlari va darajalarida xatti-harakatlarni muvofiqlashtirish, resurslar va kuchlarning optimal taqsimlanishiga erishish imkonini beruvchi omildir.

Uzoq vaqt davomida dunyoda ***iqtisodiy taraqqiyot konsepsiyasi*** yakka hukmron bo'lib kelgan. Qichqacha aytganda ushbu konsepsiyaning mohiyati nihoyatda sodda va tushunarli: iqtisodiyotning va mehnat samaradorligining o'sish sur'ati yuqori bo'lgan, yalpi ichki mahsuloti (YaIM) va aholi jon boshiga o'rtacha daromadi yuqori bo'lgan mamlakat farovon hisoblanadi. Turli siyosiy, iqtisodiy tizimlarga ega davlatlar iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga ko'ra o'zaro raqbotlashar edi. Bu konsepsiya sodda va tushunarli bo'lgan tufayli birmuncha chidamli bo'lib, hamon odamlar tafakkuriga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda.

Ammo XXI asr bo'sag'asida iqtisodiy o'sishning o'zi asosiy maqsad emasligi ayon bo'lib qoldi. Jamiyatning daromadlari faqat vosita, xolos: ular kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlariga ham, qurollanishga ham sarflanishi mumkin. Shu sababli turli mamlakatlardagi turmush sifati har doim ham o'rtacha daromad darajasiga mos kelavermaydi. Bundan tashqari, YaIM notekis taqsimlanishi

mumkin. Zero, hukumatlarning ijtimoiy siyosati faol, kuchli yoki sust, loqayd bo'lishi mumkin. Xuddi shuningdek ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitidagi ijtimoiy ustuvorliklar demokratiya va bozor sharoitidan mutlaq farq qilishi mumkin. Demak, YaIM darajasi ham, o'sish sur'ati ham taraqqiyot va muvaffaqiyatning asosiy mezoni bo'la olmaydi. Bu haqiqatni anglash yangicha yondashuvni – ***Inson taraqqiyoti Konsepsiyasini*** (ITK) shakllantirish imkonini berdi.

Ushbu konsepsiyaning shakllanishiga hind iqtisodchisi, 1998 yil Nobel mukofoti laureati Amartya Kumar Senaning ilmiy asarlari, pokistonlik mashhur iqtisodchi Mahbub ul-Haqning faoliyati katta hissa bo'lib qo'shildi.

Mahbub ul-Haq BMT RD tomonidan 1990 yildda tayyorlangan birinchi «Inson taraqqiyoti to'g'risida»gi ma'ruzaning tashabbuskori va mualliflaridan biri bo'ldi. Shundan buyon ushbu nashr har yili chop etiladi. Shuningdek, dunyoning deyarli barcha davlatlari har yili ISRK ga asoslangan o'z Milliy ma'ruzalarini tayyorlaydi. 2008 yilgacha 600 dan ziyod global, mintaqaviy va milliy ma'ruzalar chop etilgan bo'lib, ular 143 mamlakatdagi inson rivojlanishi jarayonlarini aks ettiradi[1].

1995 yildan buyon **O'zbekistonda Inson taraqqiyoti to'g'risida** to'qqizta ma'ruza e'lon qilingan bo'lib, ular ijtimoiy siyosat, iqtisodiy o'sish, islohotlarni o'tkazishda davlatning roli, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, davlat boshqaruvini markazdan chetlashtirish, sog'liqni saqlash, ta'lim tizimiga bag'ishlangan. Ushbu hujjatlar bilan o'zbek va rus tillarida www.undp.uz veb-sayti orqali tanishish mumkin.

Inson taraqqiyoti haqidagi ma'ruza qiziqarli statistik ma'lumotlarni qamrab olgan ommabop materialgina emas. Bu, eng avvalo, inson taraqqiyoti borasidagi **mamlakat strategiyasi** amalga oshirilishi jarayonini aks ettiradi, siyosat ustuvorliklarini ifodalaydi va keigusi harakat dasturini belgilab beradi.

Shu tarzda yigirma yildan kam muddatda ***Inson taraqqiyoti Konsepsiyasi*** ijtimoiy jarayonning umum tan olingan paradig-

[1]Measuring Human Development. New York. 2007, p.2

masiga ayiandi. Boshqacha aytganda, u nafaqat nazariy qurilma, balki jamiyat rivojlanishining kompleks modelidir. Inson rivojlanishi nuqtai nazaridan yutuqlar bugun barcha joylarda mamlakat farovonligi va u tanlagan yo'lning to'g'riligini tasdiqlovchi ***bosh mezon*** sifatida tan olinadi.

Inson taraqqiyoti konsepsiyasiga ko'ra, jamiyat rivojlanishi markazida iqtisodiy ko'rsatkichlar emas, avvalo inson turishi kerak. Taraqqiyotning bosh maqsadi va mezoni – odamlar imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ehtiyojlarini samarali qondirishdan iborat. BMT hujjatlari bu borada yaqqol tushuncha hosil qilish imkonini beradi: *«ijtimoiy siyosatning mohiyai shundaki, u odamlar uchun tanlash imkoniyatini kengaytirishi kerak»*. Bu o'rinda «tanlash imkoniyati» deganda shaxsning tabiiy, jamiyatda umum qabul qilingan qadriyatlarga mos keladigan ma'naviy va moddiy ehtiyojlari, yanada yuqori turmush darajasiga erishish bo'yicha maqsad va intilishlari tushuniladi.

Bir qarashda bularning barchasi oddiy haqiqat, hammaga ma'lum fikrlar bo'lib tuyulishi mumkin. Zero, hatto aniq davr mutafakkirlari ham qayd etganidek: *«boylik biz intilayotgan asl maqsadimiz bo'lmasa kerak; u shunchalik foydali va o'zga narsaga xizmat qiladi»* (Aristotel). Nima sababdan insoniyat asl maqsad va taraqqiyot mezoni inson ekanligini tushunish uchun bunchalik uzoq yo'l bosdi? Gap shundaki, inson rivojlanishi konstepstiyaning mualliflaridan biri Mahbub ul-Haq ta'kidlaganidek, «aniq narsa shunday bo'ladiki, uni ba'zan ko'ra bilish mushkul». Bundan tashqari, insoniyat avvalgi davrlarda invidining tanlash imkoniyatini kengaytirish masalasini amaliy hal etishga qodir emas edi. Bu hol buning uchun ***zarur shart-sharoit vujudga kelganligini,*** ya'ni – ilmiy-texnik taraqqiyotning inqilobiy rivojlanishi va inson bunyodkorlik salohiyatining mislsiz o'sishi, globallzatsiya va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarining mutlaqo yangi imkoniyatlari paydo bo'lishi, demokratiya va bozor iqtisodiyoti ko'lamining kengayishi kuzatilgan taqdirdagina mumkin bo'ldi.

8.2. Inson taraqqiyoti tamoyillari, komponentlari va mezonlari

Aslida iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini tahlil qilish jarayonida go'yoki hamma narsa oydinlashadi: bu sohadagi statistika ko'rsatkichlari xolis bo'lib, ularni qiyoslash mumkin. «Insonning tanlov imkoniyatlarini kengaytirishni» qanday o'lchash mumkin?

Turli jamiyatlar, millatlar va xalqlarning dunyoqarashi, madaniyati, qadriyalari turlicha bo'lsa-da, barcha joyda «turmushning yuqoriroq darajasi» deganda umuman qarashlar o'xshash bo'ladi. Unga oilaviy farovonlik, salomatlik, uzoq umr ko'rish, moddiy farovonlik, ma'lumotning yuqori darajasi, nafaqat salmoqli daromad, balki moddiy qoniqish, jamoatchilik orasida obro', xavfsizlik, madaniy xoridiq kabi tushunchalarni qamrab oladi. Odamlar har doim o'zlarining shaxs va fuqaro sifatida imkoniyatlarini namoyon eta olishi, jamiyat hayotida ishtirok etish, huquq va erkinliklari hurmat qilish, fikrlarining e'tiborga olinishini har doim qadrlashgan. Shundan kelib chiqqan holda shu narsa tan olindiki, inson rivojlanishini baholash quyidagi **tamoyillarga va to'rtta komponentga** tayanishi kerak:

Inson taraqqiyoti faqat ijtimoiy siyosat bilan cheklanmaydi. Iqtisodiy rivojlanishsiz, iqtisodiy salohiyatsiz odamlarning ehtiyojlarini qondirish, imkoniyatlarini kengaytirishga erishib bo'lmaydi. Inson taraqqiyotini faqat ta'lim va sog'liqni saqlash, gender rivojlanish va qashshoqlikka qarshi kurash ko'rsatkichlari kabi ijtimoiy mezonlar statistikasi asosida tahlil qilish noto'g'ri. Ushbu ma'lumotlar jamg'arish va investistiyalar, ishlab chiqarish va iste'mol qilish, savdo va texnologiyalar kabi ko'rsatkichlarsiz inson rivojlanishi haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi. Oqibat natijada, jamiyatning rivojlanishini uning ***samaradorligiga*** ko'ra, ya'ni odamlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun resurslardan foydalanish optimalligiga ko'ra baholash lozim. Shu sababli inson rivojlanishining ***bosh to'rt komponentidan*** bittasi ishlab chiqarish ***samaradorligini oshirish, iqtisodiy rivojlanish*** hisoblanadi. Shuni ehtiborga olish kerakki, inson taraqqiyoti konsepsiyasi nuqtai

nazariga ko'ra, iqtisodiy rivojlanish mafkurasi o'zgaradi. U endilikda yalpi, moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishga qaratilmay, inson taraqqiyotining boshqa tamoyillari va komponentlari bilan uzviy birikishi kerak.

Jamiyatning rivojlanishi darajasini imkoniyatlar tengligiga ko'ra, huquq va majburiyatlar taqsimlanishi adolatligiga ko'ra baholanishi kerak. Imkoniyatlar tengligi – mavhum tushuncha emas. U aniq, predmetga ega, huquqiy va iqtisodiy mohiyatga ega. Uning mazmuni shundaki, jamiyatda u yoki bu beligiga ko'ra, shu jumladan jinsiga ko'ra, kam imtiyozli etnik guruhlar, ekspluatatsiya qiluvchi sinflarning huquqiy va iqtisodiy kamsitish bo'lmasligi kerak. Nogironlarga tizimli yordam alohida e'tiborni talab etadi. Buning omilari orasida qonunchilikda mustahkamlangan va amaliyotda qo'llaniladigan siyosiy huquqlar va erkinliklar, sog'liqni saqlash tizimi va ta'lim tizimidan foydalanish, mikromoliyalash tizimi orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va h.k.lar bor. Shu sababli inson taraqqiyotining ***ikkinchi umum tan olingan komponenti imkoniyatlar tengligi*** hisoblanadi.

Inson taraqqiyoti konsepsiyasi iqtisodiy o'sish nazariyasidan farqli o'laroq ijtimoiy taraqqiyotni uzoq muddatli jarayon sifatida ko'rib chiqadi. Jamiyatning bugungi vazifasi tabiat in'om etayotgan ne'matlarni faqat o'zlashtirishdan iborat emas. Bu Orol dengizi hududidagi ekologik og'ir vaziyat yuzaga kelishiga sabab bo'lgan ma'muriy-buyrug'bozlik sharoitida tabiatga nisbatan bo'lgan vahshiylarcha munosabat nimalarga olib kelishini yaqqol ko'rsatib turibdi. Jamiyatning maqsadi – rivojlanishning uzluksizligini, uning ***barqaror xarakterini*** ta'minlashdir. Barqaror rivojlanish tamoyillari 1980 yilda Xalqaro atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha komissiya tomonidan tayyorlangan «Bizning umumiy kelajagimiz» ma'ruzasida belgilangan edi. Unda ta'kidlanishicha, barqaror rivojlanish bu «bugungi kunning ehtiyojlariga javob beradigan, ammo ulardan kelgusi avlodlar ham bahramand bo'lish imkoniyatlaridan mahrum etmaydigan rivojlanishdir». Ushbu tamoyil inson taraqqiyoti konsepsiyasining uchinchi komponenti bo'lib, tabiat, atrof-muhit - bular nafaqat

inson hayotining eng muhim jabhalari, balki kapital, rivojlanish omili hamdir. Aksariyat hollarda bu qayta tiklanmaydigan, cheklangan zahiraga ega resurslardan iborat. Shu bois u ham har qanday ijtimoiy qayta tiklanish omili kabi uning rivoji uchun iqtisodiyot o'sishi va odamlarning ehtiyojlari kengayishi barobarida zarur bo'lgan sarmoyalarni talab etadi.

Inson taraqqiyoti konsepsiyasiga muvofiq rivojlanish uning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Ayni paytda inson taraqqiyoti darajasi insonning o'zi ham rivojlanish ***masalalarini hal qilishda qanchalik ishtirok etayotganligi*** bilan ham belgilanadi. Axir u rivojlanishning nafaqat obyekti, balki subyekti hamdir. Shu bilan birga nafaqat rivojlanishining vositasi va omili, balki uning maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Shuning uchun inson taraqqiyotining ***to'rtinchi komponenti*** – bu ijtimoiy taraqqiyot nafaqat odamlarning manfaati yo'lida, balki ular tomonidan ham amalga oshirilishini hisobga olgan holda shaxs ***imkoniyatlarini kengaytirishdan*** iborat. Bir tomondan ***bu insonlarni qarorlar qabul qilish*** jarayoniga jalb qilish, ularning siyosiy faolligi va rolini oshirish zarurligini nazarda tutadi. Boshqa tomondan, imkoniyatlarni kengaytirish ***inson omili salohiyatini,*** bilimi, ko'nikmalari, jismoniy va aqliy qobiliyatlarini oshirishni anglatadi. Hozirgi kunda insoniy kapital, bilimlar iqtisodi salmoqli tarzda iqtisodiy o'sish manbai bo'layotgani umumiy ravishda e'tirof etilmoqda. Insoniy kapitalga sarmoyalar kiritish eng rentabelli, samarador bo'lmoqda. 2000 yil sentabr oyida bo'lib o'tgan maxsus Sammitda qabul qilingan Mingyillik deklaratsiyasida BMTga a'zo-davlatlar rahbarlarining barchasi xalqaro hamjamiyatning asosiy vazifasi sifatida aynan inson imkoniyatlarini kengaytirish bilan bevosita bog'liq masalalarni belgilagani bejiz emas. Ular qatorida 2015 yilgacha bo'lgan davrda quyidagi masalalar belgilangan: sayyoramizda kuniga bir dollardan kam daromadga ega aholi ulushini ikki barobarga qisqartirish, toza ichimlik suvini iste'mol qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan aholi ulushini ham ikki barobarga kamaytirish; onalar o'limini to'rtdan uch qismiga va bolalar o'limini undan ikki

qismiga kamaytirish; ta'lim olish uchun imkoniyatlarni kengaytirish; gender tengligini rag'batlantirish: OIV/OITS, bezgak va boshqa kasalliklar tarqalishini to'xtatish; atrof-muhit yaxshilanishiga erishish.

Inson taraqqiyoti konsepsiyasining asosiy «savatlari» va komponentlari

8.1-jadval

Iqtisodiyot	*Demografiya*	*Aholi daromadlari*
YalM darajasi va o'sish sur'atlari	Aholi ko'payishi, uning tuzilmasi	Aholining real daromadlari
Aholi jon boshiga YalM	Tug'ilish va o'lim miqdori	Daromadlar tuzilmasi
Xarid qobiliyati pariteti bo'yicha YalM	Oila hajmi	Daromadning o'rtacha jon boshiga miqdori
YalMning tarmoq tuzilmasi	Qaramoqlik yuki koeffitsiyenti	Jamiyatda daromadlar taqsimlanishi
Davlat budjetining tuzilmasi	Nikohdan o'tish va ajrimlar soni	Uy xo'jaliklarining sarf-xarajatlari
Inflyatsiya darajasi va sur'atlari	Migratsiyaviy jarayonlar	Mehnat resurslari va bandlik
Kambag'allik	***Sog'liq***	***Ovqatlanish***
Iste'mol savati	Sog'liqni saqlashga sarflanadigan davlat va shaxsiy xarajatlari	Iste'mol qilish tuzilmasi (natural ko'rsatkichlar)
Mutlaq kambag'allik chizig'i	Tibbiy infratuzilma bilan ta'minlanganlik	Iste'mol qilish tuzilmasi (kaloriyalar bo'yicha ko'rsatkichlar)

Kambag‘allik chizig‘idan quyida bo‘lgan aholi ulushi va tuzilmasi	Immunizatsiya va vaksinatsiya; kontratsepsiya va tug‘ruqgacha parvarish	Bolalar ozuqasi; kam vaznli bolalar ulushi
	Umr davomiyligi; onalar va bolalar o‘limi	Kamqonlik darajasi
Turar-joy va kommunal xizmatlar	***Ta’lim va madaniyat***	***Jinoyatchilik***
Turar-joy bilan ta’minlanganlik, uning texnik holati	Ta’lim va madaniyatga sarflanadigan xarajatlar	Jinoyatchilik dinamikasi
Yangi turar-joy qurilishi	O‘quvchiga sarflanadigan xarajatlar	Giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar
Turar-joy narxi	Savodxonlik darajasi	Korrupsiya
Kommunal xizmatlar bilan ta’minlanganlik va uning narxi	Ta’lim turlari bilan qamrab olinganlik	Mulkka qarshi jinoyatlar
Uzoq muddat davomida foydalaniladigan buyumlar bilan ta’minlanganlik	O‘qituvchilar ish haqi; o‘qituvchi/o‘quvchi koeffitsiyenti	Bolalar jinoyatchiligi
Atrof-muhit holati	***Davlat boshqaruvini takomillashtirish, demokratiya va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish***	
Iqtisodiyot va jamiyatning energiya manbalari bilan ta’minlanganligi	Ma’muriy islohot va davlat boshqaruvini markazdan chetlashuvi	

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida o‘g‘itlar va pestitsidlar	Siyosiy institutlarning rivojlanganligi
Havodagi ifloslantiruvchi moddalarning konsentratsiyasi	Ular faoliyatining samaradorligi, transparentligi va hisobdorligi
Suvning ifloslanish darajasi	Aholining fuqarolik va siyosiy huquqlarini huquqiy va institutsional jihatdan ta’minlash
Tuproq holati; bioxilma-xillikning yo‘qolishi	Dinga e’tiqod qilish erkinligi

Xulosa qilib aytish mumkinki, inson taraqqiyoti konsepsiyasi – bu samarali va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hamda uni mantiqiy yakuniga izchil ravishda yetkazish, ya’ni odamlar imkoniyatlarini kengaytirish, ularning iqtisodiy va siyosiy huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, bugungi va kelgusi avlodlarning ma’naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirishdir.

Mazkur me’yorlardan kelib chiqqan holda inson taraqqiyoti jarayonini tahlil qilish – bu murakkab ish ekanligi ayon bo‘lmoqda. U ma’lumotlarni har biri ko‘p tarmoqli kompleks ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lgan bir necha «savatlar» bo‘yicha to‘plash va o‘lchashni talab etadi. Albatta, inson taraqqiyoti konsepsiyasini ushbu qisqacha tavsif shaklida inson taraqqiyoti konsepsiyasining barcha ko‘plab instrumentariyini ochib berishga urinishdan ma’no yo‘q. Qolaversa u doimiy ravishda takomillashtiriladi va yangi tahlil vositalari bilan to‘ldiriladi. Ammo, o‘ylashimizcha, inson taraqqiyoti konsepsiyasining asosiy «savatlari» va komponentlari haqida yaxlitlashgan tasavvurni taqdim etish foydadan holi bo‘lmaydi.

Inson taraqqiyoti konsepsiyasini qo‘llashning butun davri

davomida muayyan mamlakatdagi inson rivojlanishi darajasi va dinamikasini ifodalovchi yagona ***integratsiyalashgan ko'rsatkich-ni*** ishlab chiqish va ularni boshqa davlatlardagi holat bilan taqqoslash borasida urinishlar amalga oshirilgan. Oxir-oqibat inson taraqqiyot konsepsiyasining asosiy «savatlarida» bosh yo'nalishlarni o'zida mujassam etgan ko'rsatkich sifatida ***inson taraqqiyoti indeksi*** qabul qilingan. Uning komponentlari - bular asosan yuqorida keltirilgan inson taraqqiyoti konsepsiyasining «iqtisodiyot», «sog'liqni saqlash» va «ta'lim» kabi «savat»laridagi ko'rsatkichlardir.

8.3. Inson taraqqiyoti indeksi va uni hisoblash metodikasi

Insonning taraqqiyoti indeksi – inson rivojlanishi sohasidagi uch asosiy yo'nalish – salomatlik va uzoq umr, bilim va yetarli turmush darajasi bo'yicha o'rtacha yutuqlar darajasini belgilovchi qo'shma (integral) indeksdir.

Insonning taraqqiyoti indeksining tarkibiy elementlari quyidagi subindekslar hisoblanadi:

1. **Kutilayotgan hayot davomiyligi indeksi** – u ma'lum darajada mamlakat ijtimoiy ta'minoti va sog'liqni saqlash tizimining holatini aks ettiradi.

2. **Ta'lim darajasi indeksi** (ta'limdan foydalanish) – u mamlakat ta'lim tizimi holatining aksi sifatida ta'lim olish imkoniyatini ifodalaydi.

3. **Turmush darajasi indeksi** yoki aholi jon boshiga (milliy valutalarning xarid qilish qobiliyati pariteti bo'yicha AQSH dollarida) – yalpi milliy daromad asosida mamlakat aholisi daromadlarini aks ettiruvchi daromad indeksi.

1990-2009 yillarda inson taraqqiyoti indeksi quyidagi subindekslarni hisoblash asosida o'lchangan:

1) tug'ilishda umrning kutilayotgan davomiyligi;

2) katta yoshdagi aholining savodxonlik va maktab ta'limini qamrab olish darajasi (boshlang'ich maktabdan oliy o'quv yurtlariga qadar);

3) AQSH dollaridagi xarid qilish qobiliyati pariteti bo'yicha aholi jon boshiga yalpi milliy daromad.

2010 yildan boshlab inson taraqqiyoti indeksini hisoblash metodikasi o'zgardi. Ya'ni 2010 yilda Inson taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruzaga ko'ra, ta'lim (ta'limdan foydalanish) darajasi indeksi yoki aholi jon boshiga yalpi miiliy mahsulot asosida daromad indeksi va hayot darajasi indeksini o'lchash uchun yangi ko'rsatkichlar kiritilgan.

Ta'lim darajasi indeksi quyidagi ikki ko'rsatkich bo'yicha o'lchanadi:

1) O'rtacha ta'lim davomiyligi, u hayot davomida 25 va undan katta yoshdagi shaxslar olgan o'rtacha ta'lim yillari bilan o'lchanadi;

2) Kutilayotgan ta'lim davomiyligi, uni kutilayotgandek, rasmiy belgilangan maktabga borish yoshiga yetgan bola, agar uning hayoti davomida aholini ta'lim bilan qamrash ko'rsatkichlari sohasida ustuvor yo'nalish saqlanib qolgan bo'lsa, olishi mumkin.

Bu yangi indikatorlardan foydalanish zarurati shu bilan bog'liqki, ko'pgina, ayniqsa inson taraqqiyoti indeksi reytingining yuqori qatorlaridagi mamlakatlarda katta yoshli aholi savodxonligi va ta'lim bilan qamrash darajasining yuqori ko'rsatkichlariga erishildi. Nima uchun mazkur ko'rsatkichlarning farqlash qimmati zaiflashdi?

Ta'limning kutilayotgan davomiyligi hamda 25 va undan katta yoshdagi shaxslar uchun o'rtacha ta'lim olish yillari miqdorini boshqa avval foydalaniluvchi va barcha mamlakatlar bo'yicha yanada ifodalangan tabaqalash qimmatiga ega ko'rsatkichlarga nisbatan ta'lim konsepsiyasini to'g'riroq aks ettiradi, chunki ular ta'lim va ta'lim bilan qamrashdagi so'nggi o'zgarishlarni yaxshi aks ettiradi. Biroq ular oldingi indikatorlar singari ta'lim sifatini baholamaydi.

Hozirda daromad darajasi AQSH dollaridagi xarid qilish qobiliyati pariteti bo'yicha aholi jon boshiga yalpi milliy daromad yordamida baholanadi.

1990 yilda qabul qilingan inson taraqqiyoti indeksini hisoblash metodikasi bo'yicha indeksni hisoblash o'rtacha arifmetik o'lchamlar indekslarini aniqlashga asoslangan. Mazkur agregatlash usulining asosiy kamchiligi shundaki, u inson taraqqiyoti o'lchovchilari o'rtasidagi o'zaro to'liq almashuvni ko'zda tutgan. Zero, subindekslardan biri bo'yicha yutuqlarning quyi ko'rsatkichlari boshqa ikki subindeksning yanada yuqori ko'rsatkichlari orqali bir tekisda ta'minlanadi.

2010 yilda qo'llangan multiplikativ agregatlash usuli o'rtacha geometrik usuldan foydalangan holda o'lchovlar bo'yicha erishilgan yutuqlardagi farqlarni e'tiborga olish imkonini beradi. Masalan, tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligidagi 1 foiz pasayish ta'lim va daromadlar sohasida 1 foizli pasayish singari inson taraqqiyoti indeksiga ta'sir etadi.

Shunday qilib, mazkur usul chiziqli agregatlash formulasiga nisbatan jiddiy e'tirozlardan birini hisobga olib, u o'lchamlarning o'zaro to'liq almashuvini amalga oshiradi va komponentlardan biri bo'yicha yanada yuqori belgi integral inson taraqqiyoti indeksining yuqoriroq ko'rsatkichiga ta'sir etishi mumkinligini ko'zda tutadi.

Inson taraqqiyoti indeksi miqdori mamlakatlarni turli inson rivojlanishi darajalariga ega guruhlarga taqsimlash mezoni bo'lib xizmat qiladi. Indeks 0 dan 1 gacha bo'lgan belgilarni qabul qilishi mumkin, bunda indeks miqdori 1 ga qancha yaqin bo'lsa, inson taraqqiyoti shuncha yuqori hamda mazkur mamlakatdagi turmush sharoiti alohida kishi va millatning umumqabul qilingan farovonlik mezonlariga yaqinlashadi.

Inson taraqqiyoti indeksini baholash mezoni

8.2-jadval

Ko'rsatkich	Darajasi
0,8-1	yuqori
0,5-0,8 gacha	o'rtacha
0-0,5 gacha	past

Inson taraqqiyoti indeksi qisqa muddatli istiqbolda inson rivojlanishidagi taraqqiyotni baholashga qodir emas, chunki uning ba'zi indikatorlari mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlardan darhol ta'sirlanmaydi. Bu o'rtacha ta'lim davomiyligi va tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi singari ko'rsatkichlarga taalluqli. Shuning uchun o'rta va uzoq muddatli istiqbolda inson taraqqiyoti indeksi taraqqiy etishini kuzatish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, inson taraqqiyoti indeksi turmush sifatining iqtisodiy hamda ijtimoiy ko'rsatkichlaridan foydalangan holda o'rtacha farovonlik darajasini ifodalaydi. Bunda inson taraqqiyoti indeksining ilmiy qimmati nafaqat umumiy va o'rtacha natijalarga erishish, balki uning komponentlari belgilarini qiyoslashdan iborat.

Inson taraqqiyoti indeksi integral indeks bo'lib, uni aniqlash uchun o'rtacha kichik indekslarni hisoblash zarur. Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$HDI_t = \sqrt[3]{LEI_t \cdot EI_t \cdot GNII_t},$$

Ya'ni, inson taraqqiyoti indeksini aniqlash uchun uch subindeksning o'rtacha geometrik o'lchamini hisoblash zarur:

1) Kutilayotgan umr davomiyligi (Life expectancy index, *LEI*).

2) Ta'lim indeksi (Education index, *EI*).

3) Turmush darajasi indeksi (Gross national income index, *GNII*).

Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash metodikasi ikki bosqichdan iborat:

1.Har bir o'lchov uchun subindekslarni hisoblash.

2.Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash uchun subindekslarni agregatlash.

1-bosqich. Har bir o'lchov uchun subindekslarni hisoblash. Ko'rsatkichlarni 0 dan 1 gacha shkalali indekslarga o'zgartirish maqsadida minimal va maksimal belgilar (yoki maqsadli mo'ljallar) o'rnatiladi. Agregatlash uchun o'rtacha geometrik o'lchamdan foydalanilgani tufayli maksimal belgi istalgan ikki

mamlakat yoki vaqt davrlari o'rtasidagi (foizda) qiyoslovga ta'sir qilmaydi. Maksimal belgilar 1980-2010 yillarda mamlakat indikatorlarining *haqiqatda kuzatilayotgan yuqori belgilariga* qo'yiladi.

O'sish minimal darajalarga nisbatan o'lchanib, ular jamiyatga ma'lum davrda saqlanib qolish uchun zarur. Quyidagi minimal belgilar o'rnatilgan: tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi uchun – 20 yil, ta'lim sohasida ikkala o'zgaruvchi uchun – 0 va aholi jon boshiga yalpi milliy daromad uchun – 163 AQSH dollari.

Minimal ta'lim darajasi haqidagi tasavvur jamiyatlar rasmiy ta'limsiz mavjud bo'lishi mumkinligi bilan ma'qullanadi. 163 AQSH dollardan iborat yashash uchun zarur asosiy daromad darajasi – mavjud tarixiy ma'lumotlar bo'yicha biror-bir mamlakatda erishilgan kuniga 45 sentga ekvivalent eng kam belgi (Zimbabve, 2008 y.), bu Jahon banki tomonidan o'rnatilgan kuniga 1,25 AQSH dollarga teng kambag'allik chegarasidan 1/3 marta ortiq.

1. Kutilayotgan umr davomiyligi indeksi. Kutilayotgan umr davomiyligi indeksi tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligini osh'rishda mamlakat tomonidan erishilgan nisbiy o'sishni o'lchaydi. U kutilayotgan umr davomiyligi ko'rsatkichi asosida o'lchanadi.

Kutilayotgan umr davomiyligi mazkur davrda tug'ilgan chaqaloqning taxminiy umr davomiyligini belgilaydi, chunki umuman, o'rtacha umr davomiyligi muayyan mamlakatda turmush sharoitlarining barqaror o'lchamshini aks ettiradi. Kutilayotgan umr davomiyligi indeksini belgilashda xalqaro metodikada qabul qilingan minimal va maksimal belgilar muvofiq tarzda 20 va 83,2 sifatida (Yapomya, 2010 y.) belgilangan. Umr davomiyligi indeksini hisoblashda quyidagi formula qo'llaniladi:

$$LEI_i = \frac{LE_i - \min\{LE\}}{\max\{LE\} - \min\{LE\}} = \frac{LE_i - 20}{83{,}2 - 20} = \frac{LE_i - 20}{63{,}2},$$

bu yerda: LEI_t – tadqiq etilayotgan yilda umr davomiyligi indeksi;

LE_t – tadqiq etilayotgan yilda muayyan mamlakatda umr davomiyligining mavjud belgisi;

min $\{LE\}$ – tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan kutilayotgan umr davomiyligining minimal belgisi;

max $\{LE\}$ – tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan kutilayotgan umr davomiyligining maksimal belgisi.

2. Ta'lim indeksi. Ta'lim indeksi ikki subkomponentdan iborat:

a) O'rtacha ta'lim davomiyligi indeksi – 25 va undan katta yoshdagi shaxslarning umri davomida aholi ta'lim darajasi ko'rsatkichiga asoslangan, olingan har bir ta'lim darajasining nazariy davomiyligi asosida o'qish miqdorida hisoblangan ta'lim olish yillarining o'rtacha miqdori.

b) Kutilayotgan ta'lim davomiyligi indeksi – ta'lim olish yillari miqdori, agar rasman belgilangan maktabga borish yoshiga yetgan bola, uning umri davomida aholini ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichlari sohasida ustuvor yo'nalish saqlanib qolsa, ta'lim olishi mumkin.

a) **O'rtacha ta'lim davomiyligi indeksini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanish zarur:**

$$MSI_t = \frac{MS_t - \min\{MS\}}{\max\{MS\} - \min\{MS\}} = \frac{MS_t - 0}{13{,}2 - 0} = \frac{MS_t - 0}{13{,}2},$$

bu yerda: MSI_t- tadqiq etilayotgan yilda o'rtacha ta'lim davomiyligi indeksi;

MS_t - tadqiq etilayotgan yilda o'rtacha ta'lim davomiyligining mavjud belgisi;

min $\{MS\}$ - tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan o'rtacha ta'lim davomiyligining minimal belgisi;

max $\{MS\}$ - tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan o'rtacha ta'lim davomiyligining maksimal belgisi.

b) Kutilayotgan ta'lim davomiyligi indeksini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanish zarur:

$$ESI_t = \frac{ES_t - \min\{ES\}}{\max\{ES\} - \min\{ES\}} = \frac{ES_t - 0}{20{,}6 - 0} = \frac{ES_t - 0}{20{,}6}, \quad (5)$$

bu yerda: ESI_t - tadqiq etilayotgan yilda kutilayotgan ta'lim davomiyligi indeksi;

ES_t - tadqiq etilayotgan yilda kutilayotgan ta'lim davomiyligining mavjud belgisi;

$min\ \{ES\}$ - tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyot indeksi maqsadli mo'ljallaridan kutilayotgan ta'lim davomiyligining minimal belgisi;

$max\ \{MS\}$ - tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan kutilayotgan ta'lim davomiyligining maksimal belgisi.

So'ngra bu ikki subkomponent yagona **ta'lim indeksi**ga birlashtirilad, uni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$EI_t = \frac{\sqrt{MSI_t \cdot ESI_t} - \min\{EI\}}{CEL - \min\{EL\}} = \frac{\sqrt{MSI_t \cdot ESI_t} - 0}{0{,}951 - 0},$$

bu yerda: EI_t – tadqiq etilgan yilda ta'lim indeksi;

MSI_t - tadqiq etilgan yilda o'rtacha o'qish davomiyligi indeksi;

ESI_t - tadqiq etilgan yilda kutilayotgan o'qish davomiyligi indeksi;

$min\ \{EI\}$ - tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyot indeksi maqsadli mo'ljallardan ta'lim indeksining minimal belgisi;

CEI – erkin ta'lim indeksi.

3. Turmush darajasi indeksi aholi jon boshiga (milliy valutalarning xarid qilish qobiliyati pariteti bo'yicha AQSH dollarida) yalpi milliy daromad ko'rsatkichi asosida hisobianadi. Aholi jon boshiga yalpi milliy daromad ko'rsatkichini hisoblash boshqa indikatorlarga nisbatan murakkabroq hisoblanadi. Daromad ko'rsatkichi tuzatiladi, chunki inson salohiyatining munosib rivojlanish darajasiga erishish uchun cheklanmagan daromad talab etilmaydi.

Biroq bu, o'z navbatida, mazkur ko'rsatkichning inson taraqqiyoti indeksidagi muhimligiga ta'sir etmaydi. bu ayniqsa yuqori daromad darajasiga ega mamlakatlarga nisbatan sezilarlicha kuzatiladi. Shu tarzda, daromad uchun minimal va

maksimal belgilardan iborat natural logorifmlardan foydalaniladi. Aholi jon boshiga yalpi milliy daromad indeksi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$GNII = \frac{\log(Y_t) - \log(Y_{min})}{\log(Y_{max}) - \log(Y_{min})}$$

bu yerda: ***GNII*** – turmush darajasi indeksi;

Y_t - tadqiq etilayotgan yilda mamlakat aholi jon boshiga yalpi milliy daromad;

Y_{min} - tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan mamlakat aholi jon boshiga yalpi milliy daromad miqdorining minimal belgisi;

Y_{max} – tadqiq etilayotgan yilda inson taraqqiyoti indeksi maqsadli mo'ljallaridan mamlakat aholi jon boshiga inson taraqqiyoti indeksi miqdorining maksimal belgisi.

2-bosqich. Integral inson taraqqiyoti indeksini hisoblash uchun subindekslarni agregatlash. Kutilayotgan umr davomiyligi (*LEI*) indeksi, ta'lim indeksi (*EI*) va turmush darajasi indeksi (*GNII*) belgilari o'rnatilgach, inson taraqqiyoti indeksi quyidagi formula bo'yicha bu uch indeksning geometrik o'rtacha ko'rsatkichi sifatida hisoblanadi:

$$HDI_t = \sqrt[3]{LEI_t \cdot EI_t \cdot GNII_t}$$

Kutilayotgan umr davomiyligi indeksi = $\frac{73,5-20}{83,2-20} = 0,847.$

O'rtacha o'qish davomiyligi indeksi = $\frac{7,5-0}{13,2-0} = 0,568.$

Kutilayotgan o'qish davomiyligi indeksi = $\frac{11,4-0}{20,6-0} = 0,553.$

Ta'lim indeksi = $\frac{\sqrt{0,5 \cdot 0,553}-0}{0,951-0} = 0,589.$

Daromad indeksi = $\frac{\ln(7,263)-\ln(163)}{\ln(108,211)-\ln(163)} = 0,584.$

Inson taraqqiyoti indeksi = $\sqrt[3]{0,847 \cdot 0,589 \cdot 0,584} = 0,663.$

Shu tarzda, yangi indikatorlar va yangi amaliy shakldan foydalangan holda inson taraqqiyoti indeksini hisoblash metodologiyasini yaxshilash sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. O'rtacha geometrik ko'rsatkichni qo'llash yanada past indeks belgilarini beradi, binobarin o'lchamlari turlicha rivojlangan

mamlakatlarda ko‘proq o‘zgarishlar kuzatilgan. Bundan tashqari, mavjud maksimal belgilar darajasida yuqori chegaralarni o‘rnatish umumiy indeks belgilariga kamroq ta’sir ko‘rsatadi hamda muvofiq tarzda reytingga kamroq ta’sir etadi.

Inson taraqqiyoti indeksi yalpi milliy mahsulotga nisbatan kengroq vosita hisoblanishiga qaramay, inson rivojlanishini baholash uchun inson rivojlanishi integral indekslarini hisoblash metodologiyasini takomillashtirish zarurati haligacha saqlanib qolgan. Inson taraqqiyoti indeksi inson rivojlanishini belgilash uchun ijtimoiy tengsizlik, inson huquqlariga rioya etish va siyosiy erkinliklar mavjudligi singari bir qator muhim mezonlarni hisobga olmaydi hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va institutsional islohotlarni sifatli to‘liq baholay olmaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Inson salohiyati uchun qanday sifatlar xos?
2. Iqtisodiy rivojlanish modellari to‘g‘risida nimani bilasiz?
3. Yalpi ichki mahsulot bilan yalpi milliy mahsulot o‘rtasida qanday farq bor?
4. Inson taraqqiyoti indeksini aniqlashda qaysi indikatorlardan foydalaniladi?
5. Rivojlanish darajasi o‘rtacha bo‘lgan mamlakatlarning insonni rivojlantirish indeksi qanday?

IX BOB. INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI VA MINGYILLIK RIVOJLANISH MAQSADLARI

9.1. Inson huquqlari – ijtimoiy taraqqiyot va barqaror rivojlanishning asosi

1948 yil 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) rezolyustiyasi bilan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" qabul qilindi va e'lon qilindi.

Umumjahon deklaratsiyasida 1789 yilgi Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasidek, "Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar" (1-modda) deb e'lon qilindi. Shu bilan bir qatorda umumjahon deklaratsiyasida unga quyidagilar qo'shib qo'yilgan: "Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasa yoki boshqa holatidan qat'i nazar ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va erkinliklarga ega bo'lishi zarur"[7] (2-modda).

Inson huquqlarining umumiy prinsiplari quyidagilardan iboratdir:

– inson huquq va erkinliklari unga tug'ilganidan mansub, davlat tomonidan taqdim etilmagan;

– inson va fuqaro huquq va erkinliklarini tan olish, ularga rioya qilish va himoya qilish – davlatning majburiyatidir;

– inson va fuqaro huquq va erkinliklarining davlat tomonidan mustahkamlab qo'yilgan qoidalari xalqaro-huquqiy standartlarga muvofiq bo'lishi kerak;

– tenglik prinsipiga muvofiq huquq va erkinliklar hammaga va har bir kishiga teng taqdim etilgan;

– inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi huquqiy normalar faqat e'lon qilinib qolmasdan, balki bevosita amal etishi zarur;

[7] Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар: тўплам. – Т.: Адолат, 2004. – 30-31 б.

– inson va fuqaro huquq va erkinliklari qonunlarning mazmunini, mohiyati va qo'llanilishini, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini belgilab berishi kerak;

– davlat inson va fuqaro huquq va erkinliklarini bekor qiladigan yoki kamaytiradigan qonunlar qabul qilmasligi lozim; bu huquqlar va erkinliklar faqat favqulodda sharoitlarda cheklanishi (asosiylaridan tashqari) mumkin;

– inson va fuqaro huquq va erkinliklari sud himoyasi bilan kafolatlanishi kerak;

– inson va fuqaro huquq va erkinliklarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini buzish kerak emas.

Inson va fuqaroning huquq va erkinliklari quyidagilardan iborat:

– bazaviy (ajratilmaydigan);

– asosiy (konstitutsiyaviy);

– umume'tirof etilgan (xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yilganlari).

Inson huquqlari ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'lishiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

– shaxsiy;

– siyosiy;

– ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy.

Ammo amaliyotda bunday tavsiflash ramziy hisoblanadi.

Shaxsiy huquqlar ko'pincha fuqaro huquqlari deb atalsa ham davlat fuqaroligiga mansubligi bilan bevosita bog'liq bo'lmasdan har bir shaxsning huquqi hisoblanadi. Ular shaxslarning fuqaroligi, jinsi, yoshi, irqi, milhy yoki diniy mansubligidan qat'i nazar tug'ma va ajralmas huquqlar hisoblanadi. Bu huquqlar inson hayoti, qadr-qimmati va erkinligini himoya qilish uchun zarurdir. Shaxsiy huquqlarga quyidagilar kiradi:

– yashash huquqi;

– erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi;

– shaxs qadr-qimmati huquqi;

– xususiy turmush daxlsizligi huquqi;

– turar joy daxlsizligi huquqi;

– vijdon erkinligi va fikrlash erkinligi;
– ko‘chish va yashash joyini tanlash erkinligi;
– millatini va muomala tilini tanlash erkinligi;
– sud himoyasidan foydalanish huquqi;
– xususiy mulk huquqi.

Siyosiy huquqlar va erkinlikka, qoida bo‘yicha mazkur davlat fuqaroligiga mansublik bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, fuqaro asosiy konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari guruhlaridan biri hisoblanadi. Odatda siyosiy huquqlarga quyidagilar kiradi:

– so‘z erkinligi (axborot olish erkinligi);
– uyushish erkinligi;
– yig‘ilish o‘tkazish erkinligi;
– davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish va davlat xizmatiga tenglik asosidy qabul qilinish huquqi;
– fuqarolik huquqi;
– saylov huquqi.

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga esa quyidagilar kiradi:

– tadbirkorlik erkinligi (tadbirkorlik va qonun bilan man etilmagan iqtisodiy faoliyatning boshqa turlari bilan shug‘ullanish huquqi);
– xususiy mulk huquqi;
– mehnat huquqi (mehnat qilish va mehnatning erkinligi huquqi);
– oilani, onalikni, otalikni va bolalikni muhofaza qilish huquqi;
– ijtimoiy ta’minotdan foydalanish huquqi;
– turar joyga ega bo‘lish huquqi;
– sog‘liqni saqlash va tibbiy yordam olish huquqi;
– adolatli soliq to‘lash huquqi;
– 8 soatlik ish kuni, adolatli mehnat sharoitlari, bir xil mehnatga teng miqdorda ish haqi olish huquqi va hokazolar.

Madaniy huquqlar shaxsning ma’naviy rivojlanishini ta’minlaydi. Ularga quyidagilar kiradi:

– ta’lim olish huquqi;
– ijod erkinligi;

– madaniy hayotda ishtirok etish huquqi;

– qulay atrof muhitda yashash huquqi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 1950 yildan boshlab har yili 10 dekabr - Inson huquqlari xalqaro kuni sifatida nishonlanadi.

1966 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" va "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" qabul qilindi. Bu va shundan keyin qabul qilingan xalqaro bitimlar inson va fuqaro huquqlarining xalqaro standarti hamda bu xaq-huquqlarni ta'minlash kafolatlarini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishganidan so'ng qo'shilgan birinchi xalqaro-huquqiy xujjat "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" bo'ldi. O'zbekiston inson huquqlari va manfaatlarini ijtimoiy rivojlanish va davlat qurilishining, o'zining ichki va tashqi siyosatining eng muhim ustuvori sifatida belgilab oldi. O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 60 ta asosiy xalqaro hujjatga qo'shilgani, BMT tomonidan mazkur sohada qabul qilingan 6 ta asosiy xalqaro shartnomaning ishtirokchisi ekanligi xuddi shundan dalolat beradi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy qonunchiliklarida o'z ifodasini topib, insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari hamda erkinliklarini ishonarli himoya qilishni ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi "O'zbekiston xalqi inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib"[8] so'zlari bilan boshlanadi. Mamlakatning Asosiy Qonunida mustahkamlab qo'yilgan O'zbekiston fuqarolarining shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari prinsip jihatidan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalariga muvofiqdir.

Mamlakat Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning yaxlit va keng qamrovli tizimi mustahkamlangan. Tabiiyki, inson hu-

[8] Узбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2010. – Б.3.

quqlari to‘g‘risidagi bo‘lim davlat organlari tizimiga bag‘ishlangan bo‘limdan avval keladi. Davlat huquqlarni taqdim etmaydi, fuqaroning o‘zi unga erkinlik bilan berilgan ajralmas tabiiy huquqlardan ongli va mas’uliyatli ravishda foydalanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarining aks etishi

9.1-jadval

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
1-modda. Hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. **2-modda**. Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e’tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat’i nazar ushbu Deklaratsiyada e’lon qilingan barcha huquq va erkinliklarga ega bo‘lishi zarur. **7-modda**. Barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir	**18-modda**. O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.
3-modda. Har bir inson yashash, erkin bo‘lish va shaxsiy dahlsizlik huquqiga ega.	**24-modda**. Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. **25-modda**. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

5-modda. Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak.	**26-modda**. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.
8-modda. Har bir inson unga konstitustiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanish huquqiga ega.	**19-modda**. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.
17-modda. Har bir inson yakka holda, shuningdek boshqalar bilan birgalikda mulkka egalik qilish huquqiga ega.	**36-modda**. Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli.
18-modda. Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega.	**29-modda**. Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.
20-modda. Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasi orqali o'z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega.	**32-modda**. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar.
23-modda. Har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay ish sharoitiga ega bo'lish va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga ega.	**37-modda.** Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq-

lari va erkinliklarini ta'minlaydi", deb alohida ta'kidlangan (43-modda).

Konstitutsiyaning uchinchi bo'limi o'ziga xos hisoblanadi, uning asosiy maqsadi - fuqarolik jamiyatining an'analarini tiklash, ijtimoiy birlashmalari, siyosiy partiyalar va ommaviy axborot vositalari maqomini huquqiy tarzda rasmiylashtirish, ularning real va barqaror rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Demokratiya va inson huquqlarining konstitutsiyaviy asosi umuminsoniy va milliy qadriyatlar birligini ifoda etadi. O'zbekiston o'z madaniyatining boy salohiyatiga muvofiq inson huquqlari bo'yicha umumjahon xalqaro standartlarga intilishga harakat qiladi.

O'zbekiston bosqichma-bosqich inson huquqlarini ijtimoiy taraqqiyot va barqaror rivojlanishning asosi sifatida tiklamoqda. Xalqaro huquq konstitutsiyaviy qurilishning muhim manbai sifatida belgilangan. Bu degani, O'zbekistonning xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga, inson huquqlarini mustahkamlash, demokratiya ideallari, fuqarolik jamiyatini, millatlararo tinchlikni ta'minlashga sodiqlikni bildiradi.

9.2. Mingyillik rivojlanish maqsadlari, ularning vazifalari va indikatorlari

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015 yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030 yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etgan.

2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar 9.2-jadvalga muvofiq tasdiqlangan.

2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar

9.2-jadval

Milliy maqsadlar	Milliy vazifalar
1-maqsad. Barcha joylarda aholining kam ta’minlanganlik darajasini pasaytirish.	**1.1-vazifa.** 2030 yilgacha fuqarolarning o‘ta qashshoqlik shaklini bartaraf etish.
	1.2-vazifa. 2030 yilgacha kam ta’minlangan erkaklar, xotin-qizlar va barcha yoshdagi bolalarning ulushini kam ta’minlanishning barcha ko‘rinishlarida ikki barobarga qisqartirish.
	1.3-vazifa. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligi va samaradorligini kuchaytirish, ijtimoiy himoya qilish xizmatlari sifatini oshirish, ijtimoiy himoya qilish choralari doirasiga muhtojlarning barchasi to‘liq qamrab olinishiga erishish.
	1.4-vazifa. 2030 yilgacha butun aholining, jumladan kam ta’minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning bazaviy zaxiralar (yer uchastkalari, yangi texnologiyalar, bank kreditlari va b.)dan foydalanishlari uchun qulay iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlar, yangi texnologiyalar va moliyaviy xizmatlar, shu jumladan mikromoliyalashtirish bilan ta’minlash.
	1.5-vazifa. 2030 yilgacha aholining ijtimoiy zaif qatlamlarining yashash sharoitlarini yaxshilash, ularning iqlim o‘zgarishi yuzaga keltirgan kutilmagan holatlar va boshqa iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik larzalar va musibatlar oldidagi himoyalanmaganligi va zaifligini kamaytirish.
	1.a-vazifa. Aholining kam ta’minlanganligini uning barcha shakllarida tugatish bo‘yicha dasturlar va strategiyalarni amalga oshirishga etarli va prognoz qilinadigan mablag‘ni ta’minlash uchun turli manbalardagi, jumladan, rivojlanish maqsadida hamkorlikni faollashtirish asosidagi salmoqli zaxiralarning safarbar etilishiga erishish.
	1.b-vazifa. Aholining kam ta’minlanganligini tugatish bo‘yicha tadbirlarga tezkor sarmoya kiritilishiga ko‘maklashish uchun kam ta’minlangan fuqarolarning manfaatlarini hamda gender jihatlarni inobatga oladigan

	rivojlanish, monitoring va baholashni strategik prognozlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish.
2-maqsad. Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish.	**2.1-vazifa.** 2030 yilgacha zarur hajmda ovqatlanishning yuqori sifati va balanslashganligini ta’minlash hamda aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, go‘daklar bilan bir qatorda, ijtimoiy zaif kishilarning hayot uchun muhim va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlaridan yil bo‘yi erkin foydalanishlariga erishish.
	2.2-vazifa. 2030 yilgacha to‘yib ovqat emaslikning barcha shakllariga barham berish, jumladan, 2025 yilgacha besh yoshgacha bo‘lgan bolalarning o‘sishi va vaznidagi kechikishga qarshi kurashishga oid xalqaro darajada kelishilgan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish hamda o‘smir qizlar, homilador va emizuvchi xotin-qizlar, keksa odamlarning ovqatlanishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish.
	2.3-vazifa. 2030 yilgacha qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishning o‘rtacha samaradorligini hamda qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat yetishtiruvchilarining daromadini ancha oshirish.
	2.4-vazifa. 2030 yilgacha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning barqaror tizimlari yaratilishini ta’minlash hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish imkonini beradigan qishloq xo‘jaligini yuritish usullarini joriy qilish.
	2.5-vazifa. Urug‘ va madaniylashtirilgan ekinlarning, shuningdek, qishloq xo‘jaligi va uy hayvonlarining hamda ularning tegishli yovvoyi turlarining genetik rang barangligi saqlanishini, jumladan urug‘ va ekinlarning turli-tuman zaxiralarini tegishli tarzda saqlash orqali, ta’minlash.
	2.a-vazifa. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi sohasidagi salohiyatni mustahkamlash maqsadida qishloq infratuzilmasi, qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari va agrotashviqot, texnologiyalarni rivojlantirish hamda o‘simlik va hayvonlarning genetik zaxiralarini yaratishga sarmoya kiritilishini, jumladan, xalqaro hamkorlikni faollashtirish yo‘li bilan, ko‘paytirish.
	2.b-vazifa. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining jahon bozorlarida savdo cheklovlari kiritilishi va xatolar yuzaga kelishini bartaraf etish hamda bunga yo‘l qo‘ymaslik.

9.2-jadvalning davomi

	2.d-vazifa. Oziq-ovqat mahsulotlari va ularni qayta ishlash mahsulotlari bozorlarining tegishli tarzda faoliyat yuritishini ta'minlash choralarini ko'rish, oziq-ovqat narxlarining keskin o'zgarishini cheklashga yordam berish maqsadida bozor ma'lumotlaridan, jumladan oziq-ovqat zaxiralari haqidagi ma'lumotdan o'z vaqtida foydalanishga ko'maklashish.
3-maqsad. Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish	**3.1-vazifa.** 2030 yilgacha onalar o'limi ko'rsatkichini uchdan bir baravarga qisqartirish.
	3.2-vazifa. 2030 yilgacha yangi tug'ilgan chaqaloqlar va besh yoshgacha bo'lgan bolalar orasidagi o'limni ikki baravarga kamaytirish.
	3.3-vazifa. Aholining tuberkulyoz va OIV bilan zararlanish darajasini kamaytirish hamda suv orqali yuqadigan gepatit va boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishni ta'minlash.
	3.4-vazifa. 2030 yilgacha aholi o'rtasida yurak-tomir, onkologik, qandli diabet va surunkali respirator kasalliklar tufayli bevaqt o'limni 30 foizga qisqartirish.
	3.5-vazifa. Ruhiy faollashtiruvchi moddalarga qaramlik, shu jumladan, giyohvand moddalar va alkogolli ichimliklarni suiiste'mol qilishning profilaktikasi va davolanishini yaxshilab borish (alkogolning zararli iste'mol qilinishini 10 foizga kamaytirish).
	3.6-vazifa. 2025 yilgacha yo'l-transport hodisalari sonini, jumladan, piyodalar tomonidan yo'l harakati qoidalarining buzilishi natijasida yuzaga keladigan YTH holatlarini ikki baravar qisqartirish.
	3.7-vazifa. 2030 yilgacha jinsiy va reproduktiv salomatlikni asrash bo'yicha xizmatlardan, shu jumladan, oilani rejalashtirish va o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan qizlar uchun nikoh yoshini uzaytirish xizmatlaridan umumiy foydalanishni hamda milliy strategiya va dasturlarda reproduktiv salomatlikni asrash masalalarining hisobga olinishini ta'minlash.
	3.8-vazifa. Sog'liqni saqlash xizmatlari bilan umumiy qamrab olishni, shu jumladan, sog'liqni saqlashga sarflanayotgan katta xarajatlar tufayli nimoyalashni, asosiy sifatli tibbiy-sanitariya xizmatlaridan foydalanish va barcha uchun xavfsiz, samarali, sifatli va arzon asosiy dorivor va emlash vositalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash.

	3.9-vazifa. Xavfli kimyoviy moddalarning ta'siri, havo va suvning ifloslanishi natijasida, jumladan kimyoviy ishlab chiqarish hamda zararli moddalar ko'milgan joylarda, o'lim va kasallanish holatlarini qisqartirish.
	3.a-vazifa. Zarurlarga ko'ra, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tamakiga qarshi kurash Hadli konvensiyasi (2003 yil may oyida qabul qilingan xalqaro bitim) amalga oshirilishini faollashtirish.
	3.b-vazifa. Yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarni davolash uchun emlash va dorivor vositalar bo'yicha tadqiqotlar va ishlanmalarga ko'maklashish; Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha bitimining aholi salomatligini asrash maqsadida moslashishini namoyon etish va, xususan, barcha uchun dorivor vositalardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash bo'yicha qoidalardan rivojlanayotgan mamlakatlarning to'liq najmda foydalanishi ko'zda tutilgan «TRIPS bo'yicha bitim va jamoatchilik sog'lig'ini saqlash» Doxa deklaratsiyasiga (Jahon savdo tashkiloti (JST) homiyligidagi muzokaralar turkumiga) muvofiq, arzon asosiy dorivor hamda emlash vositalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish.
	3.d-vazifa. Sog'liqni saqlashni moliyalashtirishni izchil oshirish, kadrlarni tayyorlash va tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, munosib ish haqi bilan ta'minlash.
	3.e-vazifa. Xalqaro tibbiy-sanitariya qoidalarining (XTSQ JSTning bazaviy hujjati, qoidalarning hozirgi tahriri Jahon sog'liqni saqlash assambleyasining 2005 yil 25 maydagi 58 sessiyasida qabul qilingan) joriy qilinishi hamda umumiy sog'liqni saqlash sohasidagi favqulodda vaziyatlarda chora-tadbirlarni amalga oshirishga tayyorlikni ta'minlash.
4-maqsad. Umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish.	**4.1-vazifa.** 2030 yilgacha boshlang'ich va umumiy o'rta ta'limni, umumiy qamrovni saqlab qolgan holda, o'qitishning dolzarb va samarali natijalariga erishishni ta'minlaydigan yangi sifat bosqichiga ko'tarish.
	4.2-vazifa. 2030 yilgacha barcha o'g'il bolalar va qiz bolalar uchun kichik yoshdagi bolalarni rivojlantirish, parvarishlash va maktabgacha o'qitishning sifatli tizimlaridan ular boshlang'ich ta'limni olishga tayyor bo'lishlari maqsadida bemalol foydalanish imkoniyatini ta'minlash.

9.2-jadvalning davomi

	4.3-vazifa. 2030 yilgacha barcha xotin-qizlar va erkaklar uchun arzon va sifatli o'rta maxsus, oliy, kasb-hunar hamda qo'shimcha ta'limdan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash.
	4.4-vazifa. 2030 yilgacha ishga joylashish, munosib ishga ega bo'lish va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun mehnat bozorida talab katta bo'lgan ko'nikmalarga, shu jumladan, kasbiy-texnik ko'nikmalarga ega yoshlar va kattalar sonini jiddiy ravishda ko'paytirish.
	4.5-vazifa. Ta'lim muassasalari sharoitlarini imkoniyati cheklangan bolalarning manfaatlarini hisobga oladigan darajada yaxshilash bilan nogironlar uchun barcha darajadagi ta'lim va kasbiy-texnik tayyorgarlikdan teng foydalanish imkoniyatini, barcha uchun xavfsiz va samarali o'qitish muhitini ta'minlash.
	4.7-vazifa. 2030 yilgacha barcha o'quvchilar va talabalarning barqaror rivojlanishiga ko'mak'ashish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallashlarini ta'minlash.
	4.a-vazifa. O'quv muassasalarining barcha uchun xavfsiz va samarali o'quv muhitini ta'minlaydigan shart-sharoitlarini yaxshilash.
	4.b-vazifa. 2020 yilgacha oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun kreditlar va grantlar, shu jumladan xalqaro miqdorini jiddiy ravishda ko'paytirish.
	4.c-vazifa. 2030 yilgacha malakali o'qituvchilarning sonini, jumladan o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida xalqaro hamkorlik qilish orqali, jiddiy ravishda ko'paytirish.
5-maqsad. Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish.	**5.1-vazifa.** Hamma joyda barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish.
	5.2-vazifa. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllarini, shu jumladan, odam savdosi, jinsiy ekspluatatsiya hamda ekspluatatsiyaning boshqa shakllarini tugatish.
	5.3-vazifa. Erta nikohlar va zo'rlab nikohlashni tugatish.
	5.4-vazifa. Kommunal xizmatlar, infratuzilma va ijtimoiy himoya tizimlarini taqdim etish orqali parvarishlash va uy xo'jaligini yuritish bo'yicha haq to'lanmaydigan mehnatni tan olish va qadrlash, milliy sharoitlarni

	hisobga olgan holda oilada xo‘jalik yuritish uchun umumiy mas’uliyat tamoyilini rag‘batlantirish.
	5.5-vazifa. Xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha bosqichlarida har tomonlama ishtirok etishlarini hamda qaror qabul qilishda yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash.
	5.6-vazifa. Reproduktiv salomatlikni asrash sohasida umumqamrovli tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatish uchun sog‘liqni saqlash xizmatlaridan umumiy foydalanishni ta’minlash.
	5.a-vazifa. Xotin-qizlarni ularning huquq va manfaatlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirishlarida qo‘llab-quvvatlaydigan dasturlarni kengaytirish.
	5.b-vazifa. Xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘maklashish maqsadida yuqori samarali texnologiyalar, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faolroq foydalanish.
	5.c-vazifa. Gender tenglik tamoyillarini boshqaruvning turli bosqichlarida davlat dasturlarini qabul qilish jarayoniga to‘la singdirish.
6-maqsad. Barcha uchun suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamda ulardan oqilona foydalanishni ta’minlash.	**6.1-vazifa.** 2030 yilgacha barcha uchun toza ichimlik suvidan umumiy va teng huquqli foydalanish imkoniyatini ta’minlash.
	6.2-vazifa. 2030 yilgacha tegishli sanitariya-gigiyena vositalaridan umumiy va teng huquqli foydalanish imkoniyatini ta’minlash, aholining ijtimoiy zaif qatlami ehtiyojlariga alohida e’tibor qaratish.
	6.3-vazifa. 2030 yilgacha suv muhitining har qanday, jumladan, quruqlikdagi faoliyat natijasida ifloslanishini sezilarli ravishda kamaytirish hamda oqava suvlarni xavfsiz tarzda qayta ishlatish hajmini oshirish.
	6.4-vazifa. 2030 yilgacha iqtisodiyotning barcha sektorlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli oshirish.
	6.5-vazifa. 2030 yilgacha barcha darajalarda suv resurslarining kompleks, shu jumladan, zaruratga ko‘ra transchegaraviy hamkorlik asosida boshqarilishini ta’minlash.
	6.6-vazifa. 2030 yilgacha suv bilan bog‘liq ekotizimlar, shu jumladan, tog‘lar, o‘rmonlar, suvli-botqoqli hududlar, daryolar, suvli qatlamlar va ko‘llarning qo‘riqlanishi va tiklanishini ta’minlash.

9.2-jadvalning davomi

	6.b-vazifa. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining suv xo‘jaligi va sanitariyani yaxshilash ishidagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash.
7-maqsad. Arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini ta’minlash.	**7.1-vazifa.** 2030 yilgacha arzon, ishonchli va zamonaviy energiya ta’minotidan umumiy foydalanishni ta’minlash.
	7.2-vazifa. 2030 yilgacha jahon energetika muvozanatida tiklanuvchan manbalardan olinadigan energiya ulushini jiddiy ravishda ko‘paytirish.
	7.3-vazifa. 2030 yilgacha energiya samaradorligini kuchaytirish bo‘yicha ko‘rsatkichni ikki baravar oshirish.
	7.b-vazifa. 2030 yilgacha zamonaviy va barqaror energiya bilan ta’minlash uchun infratuzilmani kengaytirish va texnologiyalarni modernizatsiya qilish.
8-maqsad. Samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta’minlash asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashish.	**8.1-vazifa.** 2030 yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmining aholi jon boshiga nisbatan hisoblaganda ikki baravar o‘sishini ta’minlash.
	8.2-vazifa. Diversifikatsiya, texnik modernizatsiyalash va innovatsion faoliyatni rivojlantirish vositasida iqtisodiyotda samaradorlikning o‘sishiga erishish, bunda yuqori qo‘shilgan qiymat va mehnat talab sektorlarga alohida e’tibor qaratish.
	8.3-vazifa. Mehnat bozorida faol va sust chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususiy mulkni muhofaza qilish, kichik va yirik biznesni hamda xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va tezkor rivojlantirishdagi to‘siqlarni bartaraf etish orqali aholini, ayniqsa, yoshlar, nogironlarni munosib ish bilan ta’minlash va samarali bandlikni kengaytirishga yo‘naltirilgan qulay shart-sharoit varatish.
	8.4-vazifa. 2030 yilning oxirigacha bo‘igan butun muddat davomida iste’mol qilish va ishlab chiqarish tizimlarida resurslardan foydalanishning global samaradorligini asta-sekin oshirib borish hamda Iste mol va ishlab chiqarishning oqilona modellaridan foydalanishga o‘tish bo‘yicha o‘n yillik harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilganidek, iqtisodiy o‘sish atrof-muhit holatining yomonlashuvi bilan birga kechmasligiga intilish.
	8.5-vazifa. 2030 yilgacha barcha xotin-qizlar va erkaklarni, shu jumladan, yoshlar va nogironlarni barqaror va samarali bandlik hamda munosib ish bilan, shuningdek, teng qiymatli mehnat uchun teng ish haqi to‘lanishini ta’minlash.

9.2-jadvalning davomi

	8.6-vazifa. 2020 yilgacha ishlamayotgan, o‘qimayotgan va kasbiy malakalarni egallamayotgan yoshlarning ulushini jiddiy ravishda qisqartirish.
	8.7-vazifa. Bolalar mehnati hamda majburiy mehnatning eng yomon shakllariga yo‘l qo‘ymaslikni nazorat va monitoring qilishni kuchaytirish.
	8.8-vazifa. Ishchi xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish va ular uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta’minlash.
	8.9-vazifa. 2030 yilgacha yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda mahalliy mahsulotga bo‘lgan talabni kuchaytirishga ko‘maklashuvchi turizmning barqaror rivojlanishini ta’minlash.
	8.10-vazifa. Milliy moliyaviy muassasalarning barchaning bank, sug‘urta va moliyaviy xizmatlardan bemalol foydalanishini rag‘batlantirish va kengaytirish qobiliyatini mustahkamlash.
	8.b-vazifa. 2020 yilgacha yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha global strategiyani ishlab chiqish va amalga kiritish hamda Xalqaro mehnat tashkilotining ish o‘rinlari haqidagi Global paktini (2009 yil 19 iyulda Xalqaro mehnat konferensiyasida qabul qilingan) amalga oshirish.
9-maqsad. Barqaror infratuzilmani yaratish, umumqamrovli va barqaror sanoatlashuv va innovatsiyalarga ko‘maklashish.	**9.1-vazifa.** Iqtisodiy rivojlanish va odamlar farovonligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida sifatli, ishonchli, barqaror va chidamli infratuzilmani, shu jumladan, hududiy va transchegaraviy infratuzilmani rivojlantirish, bunda barcha uchun arzon va teng huquqli foydalanishni ta’minlash.
	9.2-vazifa. Umumqamrovli va barqaror sanoatlashuvga ko‘maklashish va ishlov beruvchi tarmoqlarning jadal rivojlanishi, resurs tejovchi ekologik xavfsiz texnologiyalarni keng qo‘llash orqali mavjud korxonalarni modernizatsiyalash hamda yangilarini tashkil etish yo‘li bilan 2030 yilgacha sanoat ishlab chiqarishining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 40 foizga yetkazish.
	9.3-vazifa. Mayda sanoat korxonalari va kichik korxonalarning moliyaviy xizmatlardan, shu jumladan arzon kredʻitlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish hamda ishlab chiqarish-sotish bosqichlarida qo‘shilgan qiymatni hosil qilish va bozorlarga integratsiyalashuvni kuchaytirish.

9.2-jadvalning davomi

	9.4-vazifa. 2030 yilgacha infratuzilmani modernizatsiyalash va sanoat korxonalarini qayta jihozlash, resurslardan foydalanish hamda sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayonlaridan keng foydalanish hisobiga ularni barqaror qilish, bunda barcha manfaatdor mamlakatlarning ularning individual imkoniyatlariga muvofiq ishtirokini ta'minlash.
	9.5-vazifa. Iqtisodiyot tarmoqlarining texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni, jumladan innovatsion faoliyat uchun qulay shart-sharoit yaratish va ilmiy tadqiqot hamda konstruktorlik sohasidagi xodimlar sonini jiddiy ravishda ko'paytirish orqali jonlantirish.
	9.b-vazifa. Mahalliy texnologiyalar sohasidagi ishlanmalar, tadqiqotlar va innovatsiyalarni, jumladan sanoatning diversifikatsiyasi uchun qulay bo'lgan siyosiy iqlimni yaratish va xomashyo sohalarida qo'shilgan qiymatni ko'paytirish orqali qo'llab-quvvatlash.
	9.c-vazifa. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini jiddiy ravishda kengaytirish hamda Internet tarmog'idan umumiy va arzon foydalanishni ta'minlash.
10-maqsad. Mamlakat ichida tengsizlikni uning barcha ko'rinishlarida qisqartirish.	**10.1-vazifa.** 2030 yilgacha aholining eng kam ta'minlangan 40 foizi daromadlarining mamlakat bo'yicha o'rtacha darajadan oshishiga erishish va daromadlari o'sishini qo'llab-quvvatlash.
	10.2-vazifa. Barcha odamlarning, ularning yoshi, jinsi, nogironligi mavjudligi, millati, dini va ijtimoiy maqomidan qat'i nazar, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etishini qonunchilik yo'l bilan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.
	10.3-vazifa. Qonunchilikning kamsitishga qarshi me'yor va qoidalarining amalda, ayniqsa aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga nisbatan to'liq va so'zsiz bajarilishini ta'minlash.
	10.4-vazifa. Tegishli siyosatni, ayniqsa, budjet-soliq siyosatini hamda ish haqi va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha siyosatni qabul qilish, asta-sekin ko'proq tenglik ta'minlanishiga erishish.
	10.7-vazifa. Tartibga solingan, xavfsiz, bosnqariladigan mehnat migratsiyasi va samarali migratsiya siyosatiga ko'maklashish.

9.2-jadvalning davomi

11-maqsad. Shaharlar va aholi yashash punktlarining ochiqligi, xavfsizligi va ekologik barqarorligini ta'minlash.	**11.1-vazifa.** 2030 yilgacha barcha uchun turar joy va uy-joy kommunal xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash.
	11.2-vazifa. 2030 yilgacha yo'l harakati xavfsizligini oshirish, xususan, jamoat transportidan foydalanish imkoniyatini kengaytirish asosida barchaga xavfsiz, arzon, qulay va ekologik barqaror transport vositalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash. bunda aholining ijtimoiy zaif qatlamlari ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratish.
	11.3-vazifa. 2030 yilgacha barchaga ochiq bo'lgan va ekologik barqaror urbanizatsiya ko'lamini hamda aholi yashash punktlarini kompleks va barqaror rejalashtirish hamda ularni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish.
	11.4-vazifa. Madaniy va tabiiy meros obyektlarini muhofaza qilish hamda saqlash bo'yicha xatti-harakatlarni jonlashtirish.
	11.5-vazifa. 2030 yilgacha falokatlarda halok bo'lganlar va jabrlanganlar, ayniqsa xotin-qizlar va bolalar sonini jiddiy ravishda qisqartirish hamda falokatlar natijasida kelib chiqadigan to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy zararni sezilarli tarzda qisqartirish, bunda aholining ijtimoiy zaif qatlamlari himoyasiga alohida e'tibor qaratish.
	11.6-vazifa. 2030 yilgacha shaharlar ekologiyasining aholiga salbiy ta'sirini kamaytirish, bunda havoning sifatiga hamda shahar chiqindilari va boshqa chiqindilarning chiqarib tashlanishiga alohida e'tibor qaratish.
	11.7-vazifa. 2030 yilgacha shaharlar va aholi yashash punktlarida yashil hududlar, istirohat bog'lari, bolalar uchun o'yin maydonchalari maydonini kengaytirish, bunda nogironlarning dam olishi uchun zarur sharoitlarni yaratish.
12-maqsad. Iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o'tishni ta'minlash.	**12.1-vazifa.** Iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellaridan foydalanishga o'tish bo'yicha O'n yillik harakatlar strategiyasini amalga oshirish.
	12.4-vazifa. 2030 yilgacha, kelishilgan xalqaro tamoyillarga muvofiq, kimyoviy moddalar va barcha chiqindilardan ularning butun hayotiy sikli davomida ekologik jihatdan oqilona foydalanishga erishish hamda ularning odamlarga va atrof-muhitga salbiy ta'sirini eng kam darajaga yetkazish uchun havoga, suvga va tuproqqa tushishini jiddiy ravishda qisqartirish.

9.2-jadvalning davomi

	12.5-vazifa. 2030 yilgacha chiqindilar hosil bo'lishining oldini olish, qayta ishlash va takroriy foydalanish bo'yicha choralarni qabul qilish orqali ularning hajmini jiddiy ravishda qisqartirish.
	12.6-vazifa. Korxonalarga, ayniqsa yirik korxonalarga, ishlab chiqarishning barqaror usullarini qo'llash va o'z hisobotlarida resurslardan samarali foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirishni tavsiya qilish.
	12.7-vazifa. Davlat xaridlarini amalga oshirish davomida ekologik standartlarning qo'llanishini kengaytirish.
	12.8-vazifa. 2030 yilgacha aholini barqaror rivojlanish va tabiat bilan uyg'un turmush tarzi haqida tegishli ma'lumot bilan ta'minlash.
	12.b-vazifa. Ish o'rinlarini tashkil etish, mahalliy madaniyat va mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqishga ko'maklashuvchi barqaror turizm tomonidan barqaror rivojlanishga ko'rsatiladigan ta'sir monitoringining vositalarini ishlab chiqish va joriy etish.
	12.d-vazifa. Qazilma yoqilg'ining behuda sarflanishiga olib keladigan samarasiz foydalanishga subsidiyalar ajratishni — milliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda bozor nomutanosibliklarini, jumladan soliqqa tortish tizimini isloh qilish orqali bartaraf etish va ular mavjud bo'lgan joylarda zararli subsidiyalardan astasekin voz kechish, bunda ularning ekologik oqibatlari hisobini yuritish, ayni paytda aholining muhtoj va ijtimoiy zaif qatlamlari manfaatlarini himoya qilish uchun ular rivojlanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni eng kam darajaga keltirish orqali optimallashtirish.
13-maqsad. Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo'yicha tezkor choralarni qabul qilish.	**13.2-vazifa.** Iqlim o'zgarishiga aks-ta'sir choralarini milliy darajada siyosatga, strategiyaga va rejalashtirishga kiritish.
	13.3-vazifa. Odamlar va muassasalar, tashkilot va korxonalarning iqlim o'zgarishi oqibatlarining oldini olish, ularga moslashish va xavfli iqlim hodisalarining tavakkalchiligidan erta ogohlantirish bo'yicha xabardorligi, ma'lumotlarning tarqatilishini hamda imkoniyatlarini yaxshilash.

9.2-jadvalning davomi

15-maqsad. Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish, o‘rmonlardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to‘xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo‘qolib ketish jarayonini to‘xtatish.	**15.1-vazifa.** Xalqaro bitimlardan kelib chiqadigan majburiyatlarga muvofiq, yer usti va ichki chuchuk suvli ekotizimlar, jumladan o‘rmonlar, suvli-botqoqli hududlar, tog‘lar va qurg‘oqchil yerlarni saqlash, tiklash va ulardan oqilona foydalanishni ta’minlash.
	15.2-vazifa. O‘rmonlarning barcha turlaridan oqilona foydalanish usullarini joriy etishga ko‘maklashish, o‘rmonlarning yo‘qolib ketishini to‘xtatish, yemirilgan o‘rmonlarni tiklash hamda o‘rmonzorlar va o‘rmonlarni tiklash ko‘lamini jiddiy ravishda ko‘paytirish.
	15.3-vazifa. 2030 yilgacha sahrolanishga qarshi kurash, yemirilgan yerlar va tuproqlarni, shu jumladan, sahrolanish, qurg‘oqchilik va suv toshqiniga uchragan yerlarni tiklash va yerlarning yemirilishining neytral balansiga erishish.
	15.4-vazifa. 2030 yilgacha tog‘ ekotizimlarining, shu jumladan ularning bioxilma xilligi, saqlanishini barqaror rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ne’matlarni yaratish salohiyatini kuchaytirish maqsadida ta’minlash.
	15.5-vazifa. Hayvonlarning tabiiy yashash muhiti emirilishini cheklovchi jiddiy choralarni ko‘rish, yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan biologik turlarning sonini kamaytirish.
	15.7-vazifa. Brakonerlik hamda flora va faunaning qo‘riqlanadigan turlarining kontrabanda savdosini tugatish uchun shoshilinch choralar ko‘rish, jonli tabiatning noqonuniy mahsulotlariga talab, shuningdek, ularni taklif qilishga oid muammolarni hal qilish.
	15.8-vazifa. Begona invaziv turlar kirib kelishining oldini olish va ularning yer usti va suv ekotizimlariga ta’sirini jiddiy qisqartirish bo‘yicha choralar ko‘rish, shuningdek, ustuvor turlar miqdorining qisqarishi yoki yo‘q qilinishining oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rish.
	15.9-vazifa. Iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarini rivojlantirishning milliy strategiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda ekotizim va biologik xilma xillik qimmatining hisobga olinishini ta’minlash.
	15.a-vazifa. Biologik xilma xillik va ekotizimlarni saqlash hamda ulardan oqilona foydalanish maqsadida moliyaviy resurslarning barcha manbalarini safarbar etish va jiddiy ravishda ko‘paytirish.

9.2-jadvalning davomi

16-maqsad. Barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lida tinchlik-sevar va ochiq jamiyatlar barpo etilishiga ko'maklashish, barcha uchun odil sudlov imkoniyatidan foydalanishni ta'minlash va barcha darajalarda samarali, hisobdor va keng ishtirokka asoslangan muassasalarni tashkil etish.	**16.1-vazifa.** Zo'ravonlikning barcha turlari tarqalishini qisqartirish va ushbu hodisa sababli o'lish ko'rsatkichlarini kamaytirish.
	16.2-vazifa. Bolalar va ayollarga nisbatan zo'ravonlikning barcha turlarini tugatish.
	16.3-vazifa. Qonun ustuvorligiga ko'maklashish hamda barcha uchun odil sudlovdan foydalanish bo'yicha teng imkoniyatlarni ta'minlash.
	16.4-vazifa. 2030 yilgacha noqonuniy pul va qurol-yarog' oqimlarini jiddiy ravishda qisqartirish, o'g'irlangan aktivlarni izlab topish va qaytarish bo'yicha ishlarni jonlantirish, uyushgan jinoyatchilikning barcha shakllariga qarshi kurash olib borish.
	16.5-vazifa. Korrupsiya, ekstremizm va poraxo'rlik ko'lamlarini ularning barcha shakllarida jiddiy ravishda qisqartirish.
	16.6-vazifa. Boshqaruvning barcha bosqichlarida davlat organlarining samaradorligi, hisobdorligi va shaffofligini oshirish.
	16.7-vazifa. Boshqaruvning barcha bosqichlarida qarorlarni tayyorlash va qabul qilish jarayonida fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari hamda fuqarolik jamiyati tashkilotlarining ishtirokini kengaytirish.
	16.10-vazifa. Fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqini amalga oshirishlari uchun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot oshkoraligini kuchaytirish hamda fuqarolarning asosiy erkinliklari himoyasini ta'minlash.
	16.a-vazifa. Zo'ravonlikning oldini olish, terrorchilik, ekstremizm va jinoyatchilikning boshqa turlariga qarshi kurashish ishida milliy va xalqaro darajalarda hamkorlikni kengaytirish orqali tegishli milliy muassasalarni mustahkamlash.
17-maqsad. Barqaror rivojlanish maqsadlarida Global sheriklik doirasida amalga oshirish vositalarini	**17.1-vazifa.** Ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning talab qilinadigan darajasini ta'minlash uchun ichki va tashqi manbalar resurslarining safarbar etilishini kuchaytirish.
	17.3-vazifa. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish uchun tashqi manbalardan qo'shimcha moliyaviy resurslarni safarbar etish.
	17.4-vazifa. Davlat qarzdorligi darajasini mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy holati barqarorligini ta'minlaydigan

mustahkamiash va ishlarni faoilashtirish.	darajada usnlab turish.
	17.6-vazifa. Fan, texnika va innovatsiyalar sohalarida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, tuzilmalar islohotlarini kuchaytirish manfaati yo‘lida o‘zaro bilim almashinuvini rag‘batlantirish.
	17.8-vazifa. 2019 yilgacha texnologiyalar banki va fan, texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish mexanizmining to‘liq ko‘lamda amal qilishini ta’minlash hamda yuqori samarali texnologiyalar, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish.
	17.13-vazifa. Global makroiqtisodiy barqarorlikni, jumladan, siyosatni muvofiqlashtirish va siyosatning izchilligini ta’minlash orqali, kuchaytirish
	17.14-vazifa. Qabul qilinayotgan qarorlar, ishlab chiqilayotgan va amalga oshirilayotgan strategiyalar hamda dasturlarga barqaror rivojlanish tamoyillarini integratsiya qilishning uzoq muddatli mexanizmlarini shakllantirish.
	17.17-vazifa. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda davlat bilan xususiy sektor o‘rtasida, fuqarolik jamiyati tashkilotlari o‘rtasidagi samarali sheriklikni rag‘batlantirish.
	17.18-vazifa. 2020 yilgacha daromadlar darajasi, jinsi, yoshi, irqi, millati, fuqaroligi, ijtimoiy maqomi, geografik joylashuvi va milliy sharoitlarni hisobga olgan holda ahamiyatli bo‘lgan boshqa xarakteristikalari bo‘yicha taqsimlangan yuqori sifatli, dolzarb va ishonchli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini jiddiy ravishda ko‘paytirish.
	17.19-vazifa. Hozirgi tashabbuslarga asoslangan holda, 2030 yilgacha yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichiga qo‘shimcha tarzda barqaror rivojlanish sohasida taraqqiyotni o‘lchash bo‘yicha boshqa o‘lchov ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish, statistika sohasidagi salohiyatni oshirish.

2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etilgan.

Quyidagilar Muvofiqlashtiruvchi kengashning asosiy vazifalari hisoblansin:

Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha mas'ul vazirlik hamda idoralarning samarali ishlarini tashkil etish, BRMga erishishda sektorlararo muvofiqlashtirish va uyg'unlashgan yondashuvni ta'minlash;

Milliy maqsad va vazifalarning tarmoq, mintaqa va maqsadli rivojlantirish dasturlari, strategiyalar va konsepsiyalarga kiritilishini ta'minlash;

vazirliklar, idoralar va ishchi guruhlarning Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish hamda natijalarga erishish masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitish.

Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish davrida quyidagilar:

a) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi funksiyasini bajaradi;

b) ishchi organ quyidagi huquqlarga ega:

Milliy maqsad va vazifalarning amalga oshirilishi uchun mas'ul bo'lgan davlat va xo'jalik boshqaruv organlari tomonidan bajarilishi shart bo'lgan Milliy maqsad va vazifalarni zarur darajada bajarish bo'yicha qarorlar qabul qilish;

Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni ishlab chiqish va hal qilish uchun tegishli mutaxassislar va ekspertlarni, shu jumladan xorijiy, shuningdek, ilmiy va boshqa muassasalarni jalb qilish.

Milliy maqsad va vazifalarning izchil va zarur darajada bajarilishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ularga muvofiqligi yuzasidan vazirliklar va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligi belgilangan.

Nazorat uchun savollar

1. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish nimalarga asoslangan?

2. T. Shulsning inson kapitali nazariyasi G. Bekkerning g'oyasidan nimal bilan farq qiladi?

3. Inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlarini ta'riflab bering.

4. Insonning asosiy huquq va erkinliklari birinchi marta qaysi hujjatda mustahkamlab qo'yildi?

5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning qaysi shaxsiy huquqlari mustahkamlab qo'yilgan?

6. Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish konsepsiyasi doirasida fuqarolik jamiyati huquqiy asoslarni yanada mustahkamlash uchun qaysi qonunlar qabul qilinishi mo'ljallangan?

X BOB. TURMUSH DARAJASI VA INSON TARAQQIYOTI

10.1. Turmush darajasi va unga ta'sir etuvchi omillar

"Turmush darajasi" atamasiga mutaxassislar turlicha yondoshadi va uning har xil talqinidan foydalanadi. Haqiqatan, turmush darajasi g'oyatda murakkab, ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u umumiy ma'noda ham, alohida talqinlarda ham aniqlikni talab qiladi.

"Turmush darajasi" tushunchasi ma'nosiga ko'ra, aholi farovonligi, turmush sifati, xodimlarning moddiy va ma'naviy talablarining qondirilish darajasi, aholining ahvoli kabi qator atamalarning butun bir oilasi bilan birga mavjud.

"Turmush darajasi"ga berilgan iqtisodiy adabiyotlardagi mavjud ta'riflar ishlab chiqarish, daromadlarni iste'mol qilish, daromadlar, turmush qiymati, iste'mol me'yorlari va mezonlar kabi turli boshlang'ich tushunchalarni ta'kidlab ko'rsatadi yoki ularni rad qiladi yoxud bo'lmasa kompleks ravishdagi ko'p jihatli xususiyatga ega bo'ladi.

Turmush darajasi va ijtimoiy ishlab chiqarish o'rtasida teskari aloqa mavjud. Bu eng avvalo, turmush darajasiga va mehnat resurslarining sifat xususiyatlariga hamda band bo'lgan aholi mehnati samaradorligiga bog'liq va xodimning iste'mol imkoniyatlari o'sishi bilan yuksak mehnat unumdorligidan manfaatdorligining oshishidir.

Rasmiy statistik ma'lumotlarda daromadlar, ish haqi, pensiya, ijtimoiy yordam, transfertlar turmush darajasiga kiritiladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– pullik daromadlar, ularning hajmi, tarkibini hamda ulardan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar;

– pullik daromadlarning tabaqalanishini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar;

– ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordamning asosiy ko'rsatkichlari;

– uy-joy fondi va aholining uy-joy sharoitlari ko'rsatkichlari.

Turmush darajasi ko'rsatkichlari tizimi. Turmush darajasi inson (aholi) hayoti va faoliyati haqida tasavvur beruvchi ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi.

Turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar har xil va turmush darajasi konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ba'zi eng muhim ko'rsatkichlar 10.1-jadvalda ko'rsatilgan.

Aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlari

10.1-jadval

Hajmiy (mutlaq)	Nisbiy (o'rtacha)
1. Milliy daromad hajmi	1. Iste'mol jamg'armasining milliy daromaddagi ulushi
2. Aholining milliy daromadlari	2. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar
3. Ish haqi jamg'armasi	3. O'rtacha va eng kam ish haqi
4. Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar	4. Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan o'rtacha daromad
5. Pensiya jamg'armasining umumiy hajmi	5. O'rtacha va eng kam pensiya miqdori
6. Tovar aylanish hajmi	6. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan tovar aylanishi
7. Bajarilgan xizmatlar hajmi	7. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi
8. Uy-joy fondining kattaligi	8. Bir kishining uy-joy bilan ta'minlanganligi (kv.m, xona)
9. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan aholi soni	9. Iqtisodiy faol aholi tarkibida ishsizlar ulushi
10. Aholining tabiiy o'sishi	10. Umr davomiyligi

Turmush darajasini odamlarning iqtisodiy va moddiy sharoitlar hamda imkoniyatlar hisobiga erishiladigan, iste'mol orqali

amalga oshiriladigan, eng avvalo, daromadlar darajasi va turmush qiymatining o'zaro nisbati bilan belgilanuvchi moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirish darajasi sifatida qabul qilish kerak.

Turmush darajasi daromadlar darajasining iste'mol va hayotiy ne'matlar bilan ta'minlanish xususiyatlari bilan birgalikda turmush qiymatiga nisbati bo'lib, bu xususiyatlar ushbu nisbat bilan belgilanadi.

Amaliy hisob-kitoblar uchun hatto quyidagi umumiy tarzda berilgan ta'rif ham yetarli bo'lishi mumkin: aholi turmush darajasi – bu daromadlar darajasining turmush qiymatiga nisbatidir. Daromadlar darajasi ushbu o'rinda tasarrufdagi boyliklar ko'rsatkichi bilan eng maqbul tarzda aks etadi, chunki unga kundalik daromadlardan tashqari to'plangan jamg'armalar ham qo'shiladi. Biroq, hisoblarning oson bo'lishi uchun o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadining ko'proq tarqalgan ko'rsatkichidan ham foydalanish mumkin. Turmush qiymati oqilona iste'mol budjeti, (turmush qiymati indekslari yordamida hisoblanuvchi) iste'mol savatining tirikchilik minimumi yordamida hisobga olinishi mumkin. Hozirgi kunda eng kam tirikchilik miqdori muntazam, shu bilan birga, aholining turli guruhlari va mamlakat mintaqalari uchun hisob-kitob qilinishini e'tiborga olib, uni haqiqiy hisob-kitoblarda qo'llash ancha qulay.

Turmush darajasi inson (aholi) hayoti va faoliyatining qandaydir bitta tomoni haqida tasavvur beruvchi ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Turmush darajasi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun aholi daromadlarini va uning ehtiyojlarini, iste'mol darajasi va tarkibini, uy-joy, mulk, madaniy-maishiy buyumlar bilan ta'minlanganligini va boshqa ko'plab jihatlarni uyg'un birlikda o'rganish zarur.

Turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar xilma-xil. Avvalo, aholining turmush darajasi ko'rsatkichlari umumiy va xususiy ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Umumiy ko'rsatkichlarga quyidagilarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorlari kiradi:

– milliy daromad;

– iste'mol fondi (bevosita iste'molchilar maqsadlariga sarflanuvchi iqtisodiyot tarmoqlarining mahsulotlari);

– milliy boylik tarkibida iste'mol fondining ulushi (to'plangan iste'molchilar mulki – uy-joy, madaniy-maishiy binolar, madaniy-maishiy, xo'jalik predmetlari).

Bu ko'rsatkichlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umumiy yutuqlarini tavsiflaydi.

Xususiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

– iste'mol darajasi va usullari;

– mehnat sharoitlari;

– uy-joy bilan ta'minlanganlik;

– ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish darajasi;

– bolalarni tarbiyalash sharoitlari;

– ijtimoiy ta'minot.

Ushbu ko'rsatkichlar jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq, lekin katta batafsillikka ega va aholining (xodimlarning) muayyan guruhlari, hududlar bo'yicha aniqlashtiriladi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar jamiyat va inson hayoti hamda faoliyatining iqtisodiy tomonini, ehtiyojlarni qondirishning iqtisodiy imkoniyatlarini tavsiflaydi. Ularga jamiyat iqtisodiy rivojlanishining darajasini hamda har bir inson boyligini (nominal va real daromadlar, ish bilan bandlik) tavsiflovchi ko'rsatkichlar kiradi. Bu ko'rsatkichlar ishchi kuchining (aholining) iqtisodiy asosini tavsiflab, ularni takror ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liq, bu aholi daromadlari o'lchami va darajalanishida, ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar aholining jins va yosh, kasb-malakaviy tarkibini, ishchi kuchining jismoniy takror barpo bo'lishini tavsiflaydi. Ular ijtimoiy ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi, ijtimoiy soha va umuman iqtisodiyotning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu omillar ommaning tabiiy asosi haqida tasavvur beradi va aholining, uning alohida guruhlari sonining o'zgarishida hamda umr davomiyligida yaqqol ko'rinadi.

Obyektiv va subyektiv ko'rsatkichlar inson hayoti va faoliyatidagi o'zgarishlarning asoslanishi bilan bog'liq: birinchisi obyektiv (iqtisodiy, texnik) asosga, ikkinchisi – alohida shaxslar

va aholi guruhlarining subyektiv fikriga, mehnat, oilaviy munosabatlar, daromadlar, turmush tarzidan qoniqishining subyektiv bahosiga ega. Subyektiv baho turmush sifati konsepsiyasida hisobga olinadi.

Qiymat va natural ko'rsatkichlar. Qiymat ko'rsatkichlariga daromadlarning barcha ko'rsatkichlari va pul shaklidagi boshqa ko'rsatkichlar (tovar aylanishi, xizmatlar, yuk tashish hajmi, pul qo'yilmalari va jamg'armalar) kiradi. Natural ko'rsatkichlar aniq moddiy boyliklar va xizmatlarni iste'mol qilishning natural ko'rsatkichlardagi (kg, dona, kv.m, kub) miqdorini – oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish, uy-joy, madaniy-maishiy tovarlar bilan ta'minlanishni tavsiflaydi.

Miqdor va sifat ko'rsatkichlar. Miqdor ko'rsatkichlar aholi farovonligining sifat jihatini ta'riflab berishga imkon beradi. Bular – boyliklar, xizmatlar, oziq-ovqatning iste'mol tarkibi, ta'lim, malaka, uzoq muddatga foydalanish uchun mo'ljallangan ijtimoiy-maishiy predmetlar bilan ta'minlanish darajasidir.

Shunday qilib, aholining turmush darajasi umumiy, xususiy, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, obyektiv, subyektiv, qiymat, natural, miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi.

Turmush darajasi ko'p sonli, xilma-xil omillarga bog'liq bo'lgan ko'p qirrali hodisadir. Istalgan odamning hayoti va faoliyati havo va suv muhitining, uy-joy, maishiy hamda ishlab chiqarish sharoitlarining, iste'mol tovarlari miqdori va sifatining ahvolidan boshlab, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyatlar, shuningdek, siyosiy institutlar ahvoliga qadar bo'lgan tabiiy va ijtimoiy omillarning keng spektri bilan belgilanadi. Omillarning eng ahamiyatli guruhi – siyosiy va iqtisodiy omillar, ijtimoiy soha, ilmiy-texnik jarayon, ekologik muhitning rivojlanish omillaridir.

Yuqoridagi omillarning ta'siri tabiiy iqlim sharoitlari va boyliklar (inson, mehnat, ishlab chiqarish, moliyaviy, axborot, ma'naviy) mavjudligi bilan kuchayishi yoki zaiflashishi mumkin. Lekin, bevosita bog'liqlik bu yerda yo'q. Masalan, juda taqchil tabiiy boyliklarga ega bo'lgan Yaponiya va Shveytsariya boy mamlakatlar hisoblanadi. Aholisining soni ko'p bo'lgan mamlakatlarda ham (AQSH, Germaniya, Yaponiya), kichik bo'lgan mam-

lakatlarda ham (Lyuksemburg, Finlyandiya, Shveytsariya) yuksak darajadagi farovonlik qayd qilinadi. Masalan, Kanada, Norvegiya, Rossiya (shimoliy mintaqalar) og'ir iqlim sharoitlariga ega, turmush darajasi bo'yicha esa bu mamlakatlar bir-biridan farq qiladi.

Endi aholining turmush darajasiga ta'sir etuvchi omillarga batafsil to'xtalib o'tsak.

Siyosiy omillar. Har bir mamlakatda aholining turmush darajasi jamiyat (davlat) tuzumi xususiyatiga, huquq institutining mustahkamligiga va inson huquqlariga rioya etilishiga, hokimiyatni turli tarmoqlarining o'zaro nisbatiga, uning boshqa mintaqalar (korxonalar) bilan o'zaro munosabatlariga, qarshi kuchlar, har xil partiyalarning mavjudligiga bog'liq.

Iqtisodiy omillar. Aholi turmush darajasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan milliy boylikning iqtisodiy imkoniyatlariga bog'liq. U moddiy boyliklar, mehnat hisobiga jamg'arilgan mahsulotlar hamda jamiyat tasarrufidagi hisobga olingan va iqtisodiy muomalaga jalb qilingan tabiiy boyliklarning yig'indisidir. Milliy boylikning uzluksiz to'lib borishi (uning oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishi) ishlab chiqarilgan mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Boylik ko'rsatkichlari ijtimoiy ishlab chiqarish moddiy sharoitlarini va umuman jamiyat hayotini tavsiflaydi, ijtimoiy mahsulot miqdori esa ma'lum davr mobaynidagi ishlab chiqarish jarayoni natijasi sifatida, shuningdek, boylik elementlarining o'rnini to'ldirish va uni ko'paytirish manbai sifatida chiqadi. Jamg'arilgan boylik va ijtimoiy mahsulotlar hajmi mamlakatning iqtisodiy qudratini hamda iste'mol, daromadlar, turmush darajasi hajmini ham aks ettiradi.

Milliy boylikning tarkibiy qismi jamiyat farovonligining moddiy sharoitlari majmuini ifodalaydigan milliy mulk va oldingi avlodlar mehnatining natijasidir. Uning miqdori va tarkibi boshqa bir xil sharoitlarda YaIM o'sishi hamda mamlakat farovonligi oshishi uchun katta imkoniyatlarni taqozo qiladi.

Iqtisodiy omillar orasida milliy daromadning o'sishi alohida rol o'ynaydi. Uning kattaligi hozirgi avlod mehnatining natijasi va aynan iste'molning o'sish manbaidir.

Ijtimoiy omillar. Ijtimoiy sohaning (fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at) rivojlanishi aholining ijtimoiy (ma'naviy, madaniy) ehtiyojlarini qondirishni shart qilib qo'yadi, millat aql-idrokining rivojlanishiga ko'maklashadi, millatning sog'lig'ini saqlaydi va mustahkamlaydi, jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot mahsulot va xizmatlar, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat va boshqaruv, ta'lim, kadrlarni kasbiy tayyorlash xususiyatlariga o'zgarishlar kiritadi. Bu mehnat va boyliklarning xarajatlar o'zgarmagan yoki kamaygan paytda ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatini beradi, mehnat unumdorligining o'sishiga ko'maklashadi.

Ijtimoiy-ruhiy iqlimning holati inson turmush sharoitlarining xususiyatidir, u aholi turmushining ruhiy qulaylik darajasini belgilaydi. Unga insonning o'z-o'zini yuzaga chiqarish (ish bilan ta'minlanish, shu jumladan, mutaxassisligi bo'yicha mehnat faoliyatiga ega bo'la olish), hayotining xavfsizlik darajasi (muhitning kriminogenligi, harbiy ziddiyatlarning mavjudligi), ijtimoiy tahdidlar (qashshoqlik darajasi, axborot ola olish, erkin fikrlash huquqi) imkoniyatini hisobga oluvchi moddiy, moliyaviy va boshqa omillar ta'sir qiladi.

10.2. Turmush sifati ko'rsatkichlari va omillari

Turmush sifati insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish (moddiy ahvoli, oziq-ovqat, salomatligining ahvoli, mehnati va boshqalardan qoniqish) darajasining subyektiv bahosini ifodalaydi.

Turmush sifatining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar:

Inson sog'lig'i – umr davomiyligi, o'lim darajasi, kasalliklarning davom etish vaqti va og'irligi, insonlarning jismoniy va aqliy qobiliyatlari, ularning kayfiyatlari.

Ovqatlanish: ovqatlanishning bir maromdaligi, oziq-ovqatning tarkibi, qiymati (kaloriya, grammlardagi vitamin, oqsillar miqdori), mazaliligi; mahsulotlarning yangiligi va tozaligi.

Ta'lim: ta'lim olishning davom etish muddati va saviyasi; ilmiy bilimlarni egallash darajasi, adabiyotlarning badiiy va axloqiy saviyasi, kutubxona, televidenie, muzeylar va boshqa madaniyat muassasalarining ommabopligi.

Ish bilan bandlik va mehnat sharoitlari: mehnat sharoitlari va xususiyati, uning qizg'inligi va samaradorligi, insonlarning shaxsiy mayllari va qobiliyatlariga muvofiqligi, kasb tanlash erkinligi, ish vaqtining, har yilgi ta'tillarning davom etish muddati, bandlik va ishsizlik, mehnatning moddiy va ma'naviy bahosi, jamoadagi mikroiqlim, mehnatdan qoniqish.

Turarjoy sharoitlari: turarjoy maydoni va qulay qurilganligi, jihozlari, qismlarining qulay joylashganligi va aholi yashash joyining obodonligi.

Ijtimoiy ta'minot: ijtimoiy tenglik, bandlik kafolatlari, keksalik, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlikning ta'minlanganligi, bolali oilalarga yordam va nafaqa, dotatsiyalarning tegishli ko'rsatkichlari.

Kiyim: kiyim va poyabzalning sifati, tanlash imkoniyati, ommabopligi va xilma-xilligi.

Dam olish va bo'sh vaqt: uning davom etish muddati, o'z bo'sh vaqtini o'tkazishni tanlash imkoniyati, dam olish va sport, turizm, ekskursiyalar, sayohatlar uchun turli muassasalarning ommabopligi, bo'sh vaqtni o'tkazish va dam olishdan qoniqish.

Inson huquqlari: inson huquqlarini amalga oshirish imkoniyatlari, xavfsizlikning ta'minlanishi, epidemiyalar, halokatlar, harbiy va milliy to'qnashuvlar, siyosiy nizolar munosabati bilan stressga sabab bo'luvchi keskinliklardan himoya, huquq organlarining xolisligi va insonparvarligi, ularga ishonch darajasi.

Shuningdek, **jamiyatning intellektual salohiyati indeksi** ham turmush sifatining muhim indikatori hisoblanadi. Jamiyatning intellektual salohiyati aholining bilim saviyasini hamda mamlakatdagi fanning ahvolini aks ettiradi. Intellektual salohiyat indeksini hisoblashda katta yoshli aholining bilim darajasi, talabalarning aholi umumiy sonidagi ulushi, YalMdagi ta'limga xarajatlar ulushi, iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlarning umumiy sonida fanda

hamda ilmiy xizmat ko'rsatishda bandlarning ulushi, YaIMda fanga xarajatlarning ulushi hisobga olinadi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan inson kapitali ham turmush sifati indikatoridir. U davlat, korxonalar va fuqarolarning ta'limga, sog'liqni saqlashga va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlariga aholi jon boshiga sarflanadigan xarajatlari darajasini aks ettiradi. Mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, inson kapitali hamda uning ulushining butun kapital tarkibidagi darajasi ham shunchalik kattadir. Inson kapitali hatto qashshoq mamlakatlarda ham takror ishlab chiqarilgan, moddiy-ashyoviy sharoitlarni o'z ichiga olgan ishlab chiqarishdan oshib ketadi.

Turmush sifati indikatoriga **aholining yashash qobiliyati koeffitsiyenti** ham kiradi. U aholi genofondini, aqliy rivojlanishini saqlab qolish imkoniyatlarini tavsiflaydi. Bu koeffitsiyent besh balli shkala bo'yicha o'lchanadi. YuNESKO va Butun jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mamlakatlar bo'yicha aholining yashash qobiliyati koeffitsiyenti quyidagi qiymatga ega bo'lgan:

5 ball – dunyodagi hech bir mamlakat ega emas;

4 ball – Shvetsiya, Gollandiya, Belgiya, Daniya;

3 ball – AQSH, Yaponiya, Germaniya, Tayvan oroli, Singapur, Janubiy Koreya;

2 ball – Xitoy, Eron, Braziliya, Argentina, Mo'g'uliston, Turkiya, Vetnam;

1,6 ball – Somali, Gaiti, Birma (1989-yildan boshlab Myanma);

1,5 ball – Bosniya, G'arbiy Sahroi Kabir.

Ijtimoiy-mehnat munosabatlari sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi har bir mehnatga layoqatli insonga zarur turmush darajasini saqlab turishga imkon beruvchi sharoitlarni ta'minlashdir. Bu maqsadga erishish ushbu siyosatning qator tarkibiy elementlari hisobiga ta'minlanishi mumkin.

"Turmush sifati" kategoriyasining tarkibi quyidagilardan tashkil topgan:

1. Turmush sifatining obyektiv ko'rsatkichlari:

– daromadlar darajasi;

– oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi va sifati;

– noozıq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi va sifati;

– xizmatlarni iste'mol qilish darajasi va sifati;

– uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi va sifati;

– ijtimoiy infratuzilma obyektlari bilan ta'minlanish darajasi va sifati;

– tug'ilish darajasi va sifati;

– ijtimoiy ta'minot darajasi va sifati;

– salomatlik (umr davomiyligi) darajasi va sifati;

– ta'lim darajasi va sifati;

– ilmiy-innovatsiya faoliyati darajasi va sifati;

– shaxs xavfsizligi (jinoyatchilik darajasiga teskari kattalik);

– aholining ish bilan bandlik (jumladan, mehnat sharoitlari) darajasi va sifati;

– insonning kundalik hayoti va faoliyatining darajasi va sifati;

– fuqarolar huquqlarini ta'minlash darajasi va sifati.

2. Turmush sifatining subyektiv ko'rsatkichlari:

– fuqarolar madaniyati darajasi;

– fuqarolarning mamlakat miqyosidagi hayot va faoliyat sharoitlaridan qoniqish darajasi (shu jumladan, mamlakat "imidji" bahosi ham);

– fuqarolarning mintaqa miqyosidagi hayoti va faoliyat sharoitlaridan qoniqish darajasi;

– fuqarolarning munitsipal ta'lim miqyosidagi hayoti va faoliyat sharoitlaridan qoniqish darajasi;

– fuqarolarning mikrodarajadagi (tashkilot, korxona, oila) ijtimoiy-ruhiy va iqtisodiy munosabatlardan qoniqish darajasi;

– fuqarolarning kelajakka ishonch darajasi.

Turmush sifati kategoriyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri turmush darajasi bo'lib, u jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasini va ularni qondirish darajasini, shuningdek, bu ehtiyojlarni rivojlantirish va qondirish uchun jamiyatdagi mavjud sharoitlarni aks ettiradi. Faqatgina bu uch tarkibiy qism birgaligidagina turmush darajasining miqdoriy

va sifatiy ko'rsatkichlarini ishonchli tarzda tasvirlab berishi mumkin.

Turmush sifati aholi turmushining u yoki bu jihatiga baho beruvchi quyidagi **umumiy** va **xususiy ko'rsatkichlar** tizimi bilan belgilanadi:

– umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar (turmush darajasi mezoni, turmush qiymati indeksi, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi milliy mahsulot);

– aholi daromadlari (aholining mavjud umumiy daromadlari, aholi ixtiyoridagi real daromadlar, aholining shaxsiy daromadlari, aholining ixtiyoridagi shaxsiy daromadlari, aholining pul daromadlari, xodimlarning o'rtacha daromadlari va o'rtacha ish haqi, mavjud ish haqining o'rtacha miqdori, pensiya, nafaqa, yordam, stipendiyaning o'rtacha miqdori);

– aholi iste'moli va xarajatlari (aholi tomonidan moddiy boyliklar va xizmatlar iste'molining umumiy hajmi, aholining pul xarajatlari, aholining iste'mol xarajatlari, aholi tomonidan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol qilinishi, o'rtacha ish haqining xarid qobiliyati, o'rtacha pensiyaning xarid qobiliyati);

– to'plangan mulk va uy-joy, uzoq muddatga foydalanish uchun mo'ljallangan predmetlar va aholi mulkining mavjudligi, aholining turarjoy sharoitlari);

– aholining ijtimoiy tabaqalanishi (umumiy daromadlari miqdori bo'yicha taqsimlanishi, asosiy oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarning o'rtacha jon boshiga (uy xo'jaligi bo'yicha o'rtacha) umumiy daromadning har xil darajasiga ega aholi tomonidan iste'mol qilinishi, o'rtacha jon boshiga (uy xo'jaligi bo'yicha o'rtacha) umumiy daromadning har xil darajasiga ega aholining iste'mol xarajatlari tarkibi, aholi qatlamlarining real va me'yoriy iste'mol savati bahosining dinamikasi, daromadlar to'planish indeksi (Djini koeffitsiyenti), daromadlarning taqsimoti va aholi iste'molining denil koeffitsiyenti, o'rtacha jon boshiga (uy xo'jaligi bo'yicha o'rtacha) to'g'ri keladigan daromad darajasi bo'yicha aholi kvintil (detsil) guruhlarining jamiyat umumiy daromadidagi ulushi);

– aholining kam ta'minlangan qatlamlari (tirikchilik minimumi (qashshoqlik bo'sag'asi), minimal iste'mol budjeti, ish haqining eng kam miqdori, nafaqaning eng kam miqdori, eng kam ish haqining xarid qobiliyati, eng kam pensiyaning xarid qobiliyati, muhtojlik koeffitsiyenti (darajasi), daromad tanqisligi, muhtojlik zonasi, qashshoqlikning ijtimoiy portreti).

Aholi turmush darajasini baholashning asosiy ko'rsatkichlarini 10 ta guruhga birlashtirish mumkin: aholi daromadlari; ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, ta'lim; uy-joy sharoitlari; madaniyat va dam olish; transport ta'minoti va aloqa; aholini huquqiy himoya qilish; atrof-muhit; demografik vaziyat.

Endi aholi turmush sifati ko'rsatkichlarining tasnifini batafsil ko'rib chiqamiz.

Aholi daromadlari. Aholining farovonligini tavsiflash uchun o'zgarmas narxlar va soliqlar chog'ida (daromadlarning oshishiga qaraganda ular kamroq oshirilganda) o'sishi ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlarining oshishi haqida guvohlik beruvchi (jami aholi, oila, alohida inson) umumiy daromadlari muhim ahamiyatga ega.

Umumiy daromad aholi ixtiyoriga tushuvchi turmush vositalarining butun miqdorini, imtiyozlarni va bepul xizmatlarni qamrab oladi. Bunga keng iste'mol bilan korrespondensiya qiluvchi bepul ta'lim va tibbiy xizmat baholari kirmaydi.

Ijtimoiy ta'minot. Ijtimoiy ta'minot xarajatlari istalgan mulkchilik shaklidagi davlat organlari va tashkilotlar tomonidan uy xo'jaligini har xil ofatlar va kutilmagan holatlardan himoya qilish maqsadida amalga oshiriladigan xarajatlarning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Bu xarajatlar ijtimoiy yordam va ma'muriy to'lovlardan iborat bo'ladi.

Ijtimoiy ta'minotga sarflanadigan xarajatlar quyidagi tarkibni o'z ichiga oladi:

– ijtimoiy ta'minot xarajatlariga (uy xo'jaliklari, tadbirkorlar, davlat fondlaridan) mablag' ajratish tarkibini;

– nafaqa turlari (kasallik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, kasbiy kasallik, keksalik, boquvchisini yo'qotganlik, nogironlik, ishsizlik) bo'yicha xarajatlar tarkibi.

Sog'liqni saqlash. "Sog'liq" va "turmush sifati" tushunchalarini birlashtiruvchi aloqalarning mavjudligi birinchisining turmush sifati umumiy muammolari doiralarida o'rganishni nafaqat qonuniy, balki zarur ham qilib qo'yadi. Sog'liq, unga ega bo'lish darajasiga deyarli barcha ehtiyojlarning qondirilish darajasi bog'liq bo'lgan ne'mat va boylik kiradi. Sog'liq va farovonlik o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarining murakkab tizimi bilan tavsiflanuvchi ko'p tomonli aloqa sog'liqni aholi turmush darajasining kompleks tadqiqotlari doiralarida har tomonlama o'rganish zaruriyatini shart qilib qo'yadi.

Ta'lim. Ta'limga ehtiyoj nafaqat miqdor, balki sifat xususiyatga ega, shuning uchun ta'limning rivojlanishi ta'lim tizimini kengaytirish chizig'i bo'ylab ham, uni sifat jihatidan takomillashtirish chizig'i bo'ylab ham borishi mumkin. Ta'lim o'z ichiga quyidagilarni oladi: o'quvchilar va talabalarning aholining umumiy sonidagi ulushi; erkaklar va ayollar soni; YaIM foizlarida ta'limga xarajatlar; ta'lim darajasi: 1000 maktab o'quvchisiga to'g'ri keladigan o'qituvchilar soni; davlat umumta'lim maktablari, davlat OO'Yu va o'rta maxsus kasb-hunar muassasalari soni, shuningdek, undagi o'quvchilarning 10000 aholiga soni.

Uy-joy sharoitlari. Bu ko'rsatkich o'z ichiga butun uy-joy fondiga shaxsiy uy-joy ulushini (%da); uy-joy fondining umumiy maydonini (kv.m); bir kishiga to'g'ri keladigan uy-joyning umumiy maydonini (kv.m); uy-joyning qulaylik darajasini (markaziy isitish, suv quvuri va quvurlar tizimining mavjudligi) oladi.

Madaniyat va dam olish. Bu ko'rsatkich o'z ichiga kitob va jurnallarning aholi jon boshiga miqdorini; kutubxona, teatr, kinoteatr, gazetalarning har 1000 aholiga nisbatan sonini; har 10 ming aholiga nisbatan turist sifatida xorijga chiqqan shaxslar sonini; sanatoriy-kurortlarda davolangan yoki dam olgan shaxslar sonini oladi.

Transport ta'minoti. Bu ko'rsatkichni avtomobil yo'llarining, shu jumladan, asosiy yo'llarning asfaltlangan yo'llar foizidagi masofasi (ming.km) bilan; shaxsiy foydalanish uchun yengil avtomobillarning 1000 kishiga to'g'ri keladigan soni bilan; avtomobil yo'llarining 100 kv.m hududga qalinligi bilan baholash mumkin.

Aholining huquqiy himoyasi. Uni aholi turmushining xavfsizlik darajasi va huquq-tartibot organlarida bandlar soni (ming.kishi) tavsiflaydi.

Atrof-muhit. Atrof-muhitni baholash uchun muhitning ifloslanishini, tabiatga ta'sir ko'rsatishni (masalan, suvga ekologik standartlarni), harorat, havoning namligi va quruqligini, madaniy yodgorliklar, ijtimoiy-iqtisodiy tizimga ta'sirni, aholi zichligini hisobga olish mo'ljallanadi.

Demografik vaziyat. Aholining turmush sifatini to'liqroq tavsiflash uchun aholining demografik vaziyatini ham hisobga olish zarur. Bu vaziyatni tavsiflashning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar: jami aholi soni; tabiiy o'sish koeffitsiyenti; tug'ilish koeffitsiyenti; o'lim koeffitsiyenti; migratsiyaning netto koeffitsiyenti (emigrantlar va immigrantlar o'rtasidagi tafovutning aholining o'rtacha yillik soniga nisbati orqali hisoblanadi); umrning (yoshning) kutilayotgan davomiyligi; qarish indeksi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash va rejalashtirishda qator muammolarni hal qilish zarurati yuzaga keladi. Aholining turmush sifati yuqorida ko'rilgan ko'p omillar bilan belgilanadi, shuning uchun har bir sanab o'tilgan omillarning aholi turmush sifatiga ta'siri darajasini aniqlash, ularning ta'sir ko'rsatish yo'nalishlarini tadqiq qilish, ularni boshqarish imkoniyatlarini o'rganish aholi turmush sifatini tadqiq qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Turmush sifatini belgilovchi omillar quyidagi guruhlarga tasniflanishi mumkin (10.1-chizma).

Endi aholining turmush sifatiga ta'sir etuvchi omillarga batafsil to'xtalib o'tsak.

O'z navbatida, **tabiiy omillar** inson istiqomat qiladigan muhit, harorat rejimi, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun tabiiy boyliklarning mavjudligi, **inson omili** esa iqtisodiy o'sishni va iste'mol bozorlarining katta sig'imini ta'minlashga imkon beruvchi aholi soni va inson sarmoyasining sifatidir.



10.1-chizma. Turmush sifatini belgilovchi omillar

Tabiiy boyliklar va aholi sonining xo'jalik faoliyati natijalariga ta'sirini bir ma'noli va belgilovchi omil deb hisoblash mumkin emas. Chunki, juda kam tabiiy boyliklarga ega mamlakatlarda (Yaponiya, Shveytsariya) turmush sifati ancha yuqori. Aholi soniga kelganda, farovonlikning yuksak darajasi yashovchilar soni katta bo'lgan mamlakatlar (Yaponiya, AQSH, Germaniya) uchun ham, kichikroq mamlakatlar uchun ham (Lyuksemburg, Finlyandiya) xos.

Siyosiy omillar siyosiy barqarorlik, demokratik erkinlik, huquqlar totuvligi, urushlar bo'lmasligini ta'minlash, **texnologik omillar** tabiat va insonga ta'sir qiluvchi ilmiy bilimlar tizimi o'z ifodasini topadigan mehnat vositalarini yaratishni ta'minlovchi texnologiyalarni rivojlantirish darajasi, **iqtisodiy omillar** iqtisodiy o'sish, inson sarmoyasini rivojlantirish, YaIMni ko'paytirish, moliyaviy bozorlarni rivojlantirish va barcha turdagi boyliklardan samarali foydalanish uchun sharoitlar yaratish, **ekologik omillar** tabiatning ahvoli, yer, havzalar va havoning ifloslanish darajasi, atrof-muhitning insonga ta'siri bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, aholining turmush sifatiga axborot, ijtimoiy va ma'naviy omillar ham ta'sir ko'rsatib, o'z navbatida, **axborot omillari** mamlakatning barcha hududida ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, axborot xolisligining oshirilishi, dunyo miqyosidagi axborot tarmog'iga, ya'ni internetga kirish huquqining ta'minlanishi,

aloqaning zamonaviy vositalarining rivojlantirilishi, **ijtimoiy omillar** odamlar qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar, qonunlar tizimi bilan ifodalash va xavfsizlikni ta'minlash uchun ijtimoiy sharoitlar, **ma'naviy omillar** odamlar ehtiyojlarini, ular hayotining maqsadlarini, axloqiy me'yorlarni shakllantirish tizimi bilan izohlanadi.

10.3. Aholi daromadlari va ularning turkumlanishi

Daromadning mohiyati uning shakli vositasida pul to'lovlari, natural vositalar, ko'chmas mulk, muayyan vaqt oralig'ida aholiga bepul xizmat ko'rsatish majmuidan iborat bo'lib, ular iste'mol va jamg'armalarga qo'llaniladi. Pul va natural tushumlar mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha solishtirma og'irlikka ega bo'lgan shakldagi daromadlardan iborat bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi:

– birinchidan, daromadlar shakllari o'zgardi, ya'ni an'anaviylariga (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) tadbirkorlik faoliyatidan, mulkdan, ko'chmas mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valutasidan keladigan daromadlar qo'shildi;

– ikkinchidan, daromadlarning miqdor va sifat tarkibiy qismlari o'zgardi, haqiqiy egalik qilinayotgan daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsiyenti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, aholi pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi xususiyatlar paydo bo'ldi;

– uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishlari qo'shildi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasini, qimmatli qog'ozlarni, shaxsiy mulkni sotib olishga xarajatlar, tijorat banklariga qo'yilmalar.

Shu bilan birga, aholi daromadlarining tarkibi ham jiddiy o'zgardi. Mulkchilik munosabatlarning tubdan o'zgarishi, xo'jalik yuritish va mehnat bozori hamda sarmoya yangi shakllarining yuzaga kelishi aholi daromadlari tarkibiga tegishli o'zgarishlarni olib kirdi.

Aholi daromadlarini batafsil tahlil qilish uchun ularning mavjud turlarini to'liqroq baholash maqsadida ma'lum belgilar bo'yicha ularni tasniflash lozim (10.2-chizma).

Aholining pul daromadlari – bu ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlari, mulkdan foiz, dividend, renta, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishdan kelib tushadigan daromadlardir.

Natural daromadlar – bu asosan uy xo'jaliklari tomonidan shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulot (shaxsiy yordamchi xo'jalik, fermer xo'jaligidan), shuningdek, davlat budjeti, korxonalar fondi va turli xayriya yordami mablag'lari hisobiga olinadigan natural tushumlar va bepul xizmatlardir.

Fuqarolar daromadlari darajasi ular farovonligining muhim ko'rsatkichidir. U jamiyatning har bir a'zosining dam olish, bilim olish, sog'liqni saqlash, zaruriy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini belgilaydi. Undan tashqari, oila daromadlari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish mamlakat iqtisodiyotidagi holat haqida eng qimmatli axborot beradi va uning iqtisodiy-siyosiy kelajagini bashorat qilishga yordam beradi. Shuning uchun iqtisodchilar aholi daromadlari shakllanishini doimiy kuzatib boradi.

Yalpi daromadlar – bu shaxsiy iste'molga shaxsiy yordamchi xo'jalikdan natural tushumlar qiymatini va aholiga ijtimoiy fondlar hisobiga bepul va imtiyozli xizmatlar qiymatini hisobga olgan holda kirimning barcha manbalari bo'yicha pul daromadlarining umumiy yig'indisidir. Aholi jami daromadlari tarkibi 10.3-chizmada ko'rsatilgan.

Nominal daromadlar aholi pul daromadlarining soliq va to'lovlar to'lashga qadar va narxlar o'zgarishidan qat'iy nazar darajasini tavsiflaydi. Bu daromad turmush darajasini ifodalamaydi.

O'z ixtiyoridagi daromadlar soliqlarni to'lash va majburiy to'lovlardan keyingi, aholi ixtiyorida haqiqatdan ham qoladigan, oxirgi iste'mol uchun sarf qilish mumkin bo'lgan daromad hisoblanadi. Aholining o'z ixtiyoridagi daromadini quyidagicha tasniflash mumkin.



10.2-rasm. Aholi daromadlarining turkumlanishi



10.3-chizma. Aholi daromadlarining tarkibi

Aholining real daromadlari ikkita omil – ixtiyoridagi daromadlar hamda tovar va xizmatlar narxlari bilan belgilanadi. Ular amalda olingan nominal daromadlarga xarid qilish mumkin bo'lgan iste'mol tovarlari va xizmatlar miqdori bilan ifodalanishi mumkin. Real daromadlar tasarrufidagi daromadlar o'sish sur'atlari bilan muayyan davr uchun iste'mol narxlar indeksi o'rtasidagi nisbatga bog'liq.

Aholining nominal va real daromadlarini hisoblash natijasida aholining real daromadlari indeksi hisoblanadi. Buni hisoblash uslubini quyidagi 10.2-jadvalda ko'rib chiqamiz.

Aholining real daromadlar indeksini hisoblash uslubi (shartli statistik ma'lumotlar asosida)*

10.2-jadval

T/r	*Ko'rsatkichlar*	*Bazis davr*	*Joriy davr*
1.	Aholining nominal daromadlari, mln so'm	567	598
2.	Umumiy nominal daromaddan chegirib tashlanadigan har xil to'lovlar (soliqlar va ijtimoiy to'lovlar)	98	112

3.	Aholining ixtiyoridagi daromadi, mln so'm (1-2)	469	486
4.	Iste'mol narxlari indeksi	1,0	1,16
5.	Real daromad, mln so'm (3:4)	469	418,9

*Manba: G'oyibnazarov B.K. Aholi turmush darajasini statistik baholash. – T.: Fan, 2005. – 24 b.

Aholi uchun real daromadlar, mol-mulk va ilgari jamg'arilgan mablag'lar miqdori bilan bir qatorda ularning farovonlik darajasini belgilab beruvchi eng muhim ko'rsatkichlar jumlasiga kiradi.

10.4. Aholi daromadlarining tabaqalashuvi

Aholi daromadlari ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-kasbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-geografik omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Ko'rinib turganidek, barcha omillar ijtimoiy maqsadlar bilan bog'liq: siyosiy tuzum ijtimoiy dasturlar, daromad siyosati va ish haqi yo'nalishini iqtisodiy siyosat doiralarida belgilab beradi; jins, yosh, insoniar qobiliyati, ularning bardoshi, oila institut (nikoh munosabatlari, oilada farzand mavjudligi) insonning ma'lum kasbga, mutaxassislikka mansubligi, unda u yoki bu darajadagi bilim, malaka va ish tajribasining mavjudligi umumiy daromad qiymatiga ta'sir qiladi. Inson ijtimoiy foydali mehnat bilan bandmi yoki band emasmi, oilada yashaydimi yoki oilasiz, bolami, o'smirmi, o'quvchimi, yollanma ishchimi ekanligi yoki yo'qligida namoyon bo'luvchi insonning ijtimoiy maqomi mashg'ulot yoki faoliyat turi, ishlab chiqarish turi, mehnat sharoitlari, umuman iqtisodiy siyosatning shakllanish darajasi hamda qisman daromadlar va ish haqi siyosati (davlat, mintaqaviy, mahalliy, firma ichidagi) singari umumiy daromad miqdoriga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Daromadlarning shakllanishida yashash va ishlash joyining tabiiy-iqlim sharoitlari, joylashish zichligi va xususiyati, mintaqaning milliy o'ziga xosligi, unda yashovchi aholi mentaliteti ancha ahamiyatlidir.

Bozor qonunlariga mos ravishda, jamiyatda qabul qilingan va qonuniy ruxsat berilgan usullar bilan topilgan daromadlardagi farqlar **adolatli tengsizlikni**, g'ayriqonuniy, ya'ni man etilgan

usullar bilan topilgan daromadlardagi farqlar **adolatsiz tengsizlikni** paydo etadi. Adolatsiz tengsizlik xufyona (man etilgan) iqtisodiy faoliyat bor joyda yuzaga keladi (10.3-jadval).

Noqonuniy faoliyat turlari*

10.3-jadval

Ishlab chiqarish faoliyati	**Noishlab chiqarish faoliyati**
a) Kontrabanda: – tamaki mahsulotlari (ulgurji va chakana savdo); – qurol-yaroq; – spirtli ichimliklar; – oziq-ovqat mahsulotlari; – avtomobillarni olib qochish.	a) Talonchilik va o‘g‘irlik: – avtomobillar; – san’at ishlanmalari; – kvartiralar; – muassasalar; – yuk avtomobillaridan tovarlar; – yengil avtomobillardan tovarlar; – seyflar; – qimmatbaho buyumlar
b) Narkotik moddalarni ishlab chiqarish va sotish	b) Boshqa jinoyatlar: – garovga olish; – firibgarlik; – ta’magirlik
d) Fohishabozlik	d) Huquqi bo‘lmagan shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan qonuniy noishlab chiqarish faoliyati
e) Yashirin ko‘ngil ochdi o‘yinlar	
f) Yashirin abortxonalar	
g) Korrupsiya (pora berish, sotib olish)	
h) O‘g‘irlik	
i) Tovar markalarini qalbakilashtirish	
j) Qalbaki qog‘oz pullarni chiqarish	
k) Olib qochilgan tovarlar bilan operatsiyalar	

l)Oziq-ovqat mahsulotlari sortlarini o‘zgartirish	
m) Huquqi bo‘lmasdan turib, ruxsat etilgan ishlab chiqarish faoliyat turlari bilan shug‘ullanish: – noqonuniy tovarlarni ishlab chiqarish (spirtli ichimliklar); – noqonuniy xizmatlarni ko‘rsatish; – litsenziyasi bo‘lmay bir qancha faoliyat turlari bilan shug‘ullanish.	

Manba: G‘oyibnazarov B.K. Aholi turmush darajasini statistik baholash. – T.: Fan, 2005. – 83-84 b.

Ilmiy kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki, xufyona iqtisodiyot rivojlanishini tavsiflovchi omillarni 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Iqtisodiy omillar:

– soliqlarning yuqoriligi (daromad solig‘i, foydadan soliqlar va boshqalar);

– xo‘jalik faoliyati sohalarining qayta o‘zgartirilishi (sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, savdo, xizmat ko‘rsatish);

– moliya tizimidagi inqiroz va uning milliy iqtisodiyotga salbiy ta’siri;

– xususiylashtirish jarayonining nomukammalligi;

– qayd qilinmagan iqtisodiy tuzilmalar faoliyati (qishloq xo‘jaligida: aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishi; savdo sohasida: oziq-ovqat va kiyim-kechak bozorlarida individual savdo faoliyati; qurilishda: byurtmaga uy-joylarni qurish, ta’mirlash; transport sohasida: shaxsiy avtomobillarda odam tashish; fan sohasida: xususiy repititorlik, tarbiyachilik, enagalik; sanoat tarmog‘ida: uy xo‘jaligida spirtli ichimliklar ishlab chiqarish, kiyim-kechaklar, poyabzal, mebel, avtomobil va boshqa maishiy xizmatlar ta’miri).

2. Ijtimoiy omillar:

– aholi turmush darajasining pastligi. Bu iqtisodiy faoliyatning yashirin turlari rivojlanishini ta’minlaydi;

– ishsizlik darajasining yuqoriligi va qisman ishlovchilarning barcha faoliyat turlari bo'yicha olayotgan daromadlarining kamligi;

– yalpi ichki mahsulotning notekis taqsimlanishi.

3. Huquqiy omillar:

– qonunning nomukammalligi;

– noqonuniy va kriminal iqtisodiy faoliyat bo'yicha huquqiy himoyalash tuzilmalari faoliyatining yetarli emasligi;

– iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha koordinatsion mexanizmning takomillashmaganligi[9].

Amaliyotda daromadlardagi tafovut darajasi eng kam, o'rtacha va eng yuqori ish haqi (daromad) oluvchi xodimlarning yoki aholining mutlaq va nisbiy sonini statistik taqsimlash usuli bilan – ish haqi yoki jami daromadning miqdori bo'yicha o'lchanadi. Bunday o'lchov uchun asos tarmoq, mintaqa va aholining turli guruhlaridagi daromad darajasi bo'yicha guruhlangan muayyan tartibdagi qatorni tuzish uchun qo'llanuvchi statistik axborotdir.

Aholi daromadlari qator omillar ta'sirida o'zgaradi va bu omillarning ta'sir kuchi hamda yo'nalishlari turlicha. Daromadlar miqdori va ularning farqlari qator omillar ta'siri bilan bog'liq (10.4-chizma).

Endi yuqoridagi omillarga batafsil to'xtalib o'tsak.

Ijtimoiy-siyosiy omillar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jamiyatni ijtimoiy jihatdan qayta qurishni taqozo etadi, bu esa jamiyat va insonlar hayoti hamda faoliyatining mehnat, moliya-kredit, huquq, investitsiya, texnik, ijtimoiy-maishiy sohalaridagi katta o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

Iqtisodiyotni demonopollashtirish, mulkning turli shakllarining rivojlanishi taqsimot munosabatlariga o'zgarishlar olib keladi. Masalan, mehnat taqsimotining qachonlardir yagona, rasman e'lon qilingan tamoyili o'rniga mehnat va uning natijalari, sarmoya (mulk), ishchi kuchi qiymati bo'yicha taqsimot keladi va obyektiv jihatdan amalga oshadi.

[9] Ғойибназаров Б.К. Аҳоли турмуш даражасини статистик баҳолаш. – Т.. Фан, 2005. – 84 б.



10.4-chizma. Aholi daromadlarining tabaqalashuviga ta'sir etuvchi omillar

Aytish joizki, bozor iqtisodiyotida tovarlar (xizmatlar) bozoridagi raqobat muhim rol o'ynaydi, u korxonalarning va alohida xodimlarning ham daromadlarining shakllanishiga ta'sir qiladi. Bozorga o'tishning dastlabki bosqichida korxonalar (firmalar) mehnat daromadlarining taxminan bir xil iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tenglashuvi sodir bo'ladi, (bu tovarlar, xizmatlar va mehnat xarajatlarining taxminan bir xil iste'mol sifatini ta'minlaydi). Chet el mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor munosabatlari fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi bilan innovatsiyalarni joriy qilish orqali mehnatning o'rtacha ijtimoiy zarur xarajatlari borgan sari ko'proq faol rol o'ynay boshlaydi. Bu bir korxonalarning sinishiga, (keragidan ortiq qo'shimcha mahsulot me'yori sifatida ustama foyda oluvchi)

boshqalarining esa gullab yashnashiga olib kelishi mumkin, bu xodimlar daromadlarining o'sishiga ham yordam beradi. Bu barcha jarayonlar aholining ish bilan bandligiga, ishchi kuchi narxiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda hozirgi paytda ish bilan bandlik davlatning ijtimoiy siyosatiga, shu jumladan, mehnat bozorini (ish bilan bandlikni, ish vaqtini tartibga solish, ishlab chiqarish tarkibini o'zgartirish, ijtimoiy kafolatlar tizimini shakllantirish) tartibga solish sohasiga bog'liq. Bunda ishchi kuchining siljib turishidagi cheklovlarni olib tashlash, yashash joyini tanlash erkinligi (masalan, uy-joy bozorini rivojlantirish orqali), jamoaviy shartnomalar rolini oshirish, ishchi kuchini yollashning shartnomaviy shaklini kengaytirish ma'lum rol o'ynaydi.

Shunday qilib, ijtimoiy-siyosiy omillar aholining turli guruhlari daromadlari shakllanishining boshqa omillari yo'nalishi va ta'sir kuchini ma'lum darajada belgilab beradi.

Ijtimoiy-demografik omillar – aholining alohida guruhlarida daromadlar yosh va jins bo'yicha farq qiladi, negaki bu yerda daromadlar shakllanishining turli manbalari va ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etishning har xil imkoniyati harakat qiladi. Undan tashqari, yuksak jismoniy bardosh ato qilingan insonga mahsulot ishlab chiqarishning yuqoriroqligi tufayli kattaroq daromad olishga imkon beradi. Iste'dod, yuksak qobiliyatning mavjudligi qisqaroq muddatlarda aqliy o'sishga, yangi g'oyalar, ixtirolar va kashfiyotlar ishlab chiqishga yordam beradi va bu o'z navbatida fan-texnika taraqqiyoti hamda millatning ma'naviy rivojini ta'minlaydi.

Ijtimoiy-kasbiy omillar daromadlar miqdoriga va ularning tabaqalanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har bir kasb (ixtisos) bilim, tajriba, mahoratning muayyan darajasini (ko'pincha ish stajini) talab qiladi. Alohida kasblar va ixtisosliklar malaka darajasi bilan farqlanadi. Masalan, past malakali xodimlar (yordamchi ishchilar, sanitariya-maishiy va ishlab chiqarish imoratlari farroshlari, yukchilar, tabelchi, garderob xizmatchisi) pastroq daromadli kasblar hisoblanadi, shu bilan birga, yuqoriroq daromadli xodimlar kasblari ham (menejerlar, yuristlar, bank

xodimlar, uchuvchilar, kosmonavtlar) mavjud. Turli kasblar xodimlarining ko'proq qismi uchun esa ish haq miqdori boshqa bir xil sharoitlarda malakaga bog'liq.

Ijtimoiy-maqomiy omillar yuqorida sanab o'tilgan omillar bilan o'zaro chambarchas bog'liq va ko'p jihatdan ular tomonidan belgilanadi. Har bir insonning ijtimoiy maqomi hayoti va faoliyatining har xil bosqichlarida uning jamiyatdagi o'rni va turli manbalardan daromad olish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Masalan, mulk (sarmoya) egasi yollanma xodimga o'zidagi daromadga qaraganda ko'proq daromad olishga yo'l qo'ymaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy maqom odamlarning bilim darajasiga, ijtimoiy va iqtisodiy xulqiga bog'liq. Ijtimoiy xulq o'zini tutish madaniyatida, bo'sh vaqt shakllarida, munosabatda, turmush tarzida ifodalanadi. Iqtisodiy xulq faoliyat turini tanlashda, ishni yo'qotish holatidagi harakatlarida ifodalanadi. Masalan, mutaxassislar ixtisosligiga muvofiq bo'lmagan, lekin yaxshi to'lanadigan ishga o'tishga kamdan-kam rozi bo'ladilar. Nafaqaga yashashni va to'g'ri keladigan ishni kutishni rahbarlar istamaydilar. Yuksak malakali xodimlarning katta qismi esa, agar bu ishga joylashish, mehnat daromadini olish uchun ham zarur bo'lsa, qayta o'qishga tayyor.

Ijtimoiy maqom qisman shaxsning vijdonlilik, halollik, ma'suliyatlilik, tashabbuskorlik va tadbirkorlik, axloqiy ahvol, kirishimlilik, xayrixohlik, sabrlilik, xo'jayinlik tuyg'usi kabi sifatlari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar daromadlar miqdori va tarkibiga eng ko'p darajada ta'sir qiladi. Ularni sanab o'tilgan omillarni hisobga olmasdan amalga oshirish amri mahol. Bu yerda, birinchi navbatda, faoliyat turiga (yollanma mehnat, tadbirkorlik va mustaqil mehnat faoliyati, shaxsiy yordamchi va uy xo'jaliklarida ishlash, vositachilik, maslahat berish), ish bilan bandlik variantlariga (ish bilan bandlikning turlari, shakllari, vaqti va xususiyatining birga qo'shilishi), ishlab chiqarish turiga (iqtisodiyot tarmoqlari), mulkchilik shakllariga, mehnat sharoitlariga bog'liqlik ahamiyatlidir.

Amalda bu omillarning uyg'unligi yollanma xodimlar, mulk egalari, tadbirkorlar va boshqa shaxslarning daromadini ko'paytirish (kamaytirish) imkonini beradi. Ish bilan bandlik turlarining birga qo'shilishi daromadlarning o'sishiga olib borishi shubhasiz. Masalan, zararli sharoitlardagi mehnatga mo'tadil sharoitlardagiga qaraganda ko'proq haq to'lanadi. Ish vaqtidan tashqari bajariladigan ishga ham oshirilgan haq to'lanadi. To'liqsiz ish bilan bandlik daromad miqdorining pasayishiga olib keladi, chunki mehnatga haq mehnatning vaqtiga yoki unumdorligiga bog'liq holda to'lanadi.

Daromad miqdori korxonani (firmani) tanlashga ham bog'liq, u mulkchilik shakliga, korxona turiga, uning tovarlar (xizmatlar) va mehnat bozoridagi o'rniga bog'liq. Agar korxona (tarmoq) monopolist bo'lsa, unda u, tabiiyki, o'z shartlarini buyuradi va daromadlarning o'sishi uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shu sababli gaz sanoati, elektr energetikasi, aloqa xodimlari ish haqi va daromadlari o'rtacha darajadan ancha yuqori. Aksionerlik jamiyatlari xodimlari davlat korxonalariga nisbatan mulkdan qo'shimcha daromadga ega bo'ladi. Mulkchilik shakli mehnatga haq to'lashning tashkil qilinishida mustaqillik va erkinlikni oldindan belgilab qo'yadi. Budjet sohasida uni tartibga solish imkoniyatlari cheklangan, negaki mehnatga haq to'lash bu yerda davlat tomonidan belgilanadi. Xususiy korxonalarga bu jihatdan deyarli to'la erkinlik berib qo'yilgan.

Ijtimoiy-geografik omillar hududiy kenglik, tabiiy-iqlim sharoitlari, joylashish xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, O'zbekiston turli iqlim sharoitlari, foydali qazilmalarning notekis joylashganligi bilan ajralib turadi. Bu esa mamlakatning turli hududlarida turmush vositalari qiymatining farqlanishiga olib keladi, natijada tegishli daromadlarni ta'minlash va ularni tartibga solish talab qilinadi. Daromadning (ish haqining) miqdoriga alohida hududlarning tarmoq tarkibi ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mehnatga haq to'lash miqdori Toshkent, Navoiy viloyatlarida yuqoriroq, chunki mazkur viloyatlarda sanoat tarmoqlari rivojlangan, Toshkent shahrida esa moliya-bank muassasalari va davlat boshqaruv organlarining ko'p to'planganligi bois yuqoridir. Past ish haqi qishloq xo'jaligi yo'nalishiga ega va yengil sanoat ustunlik qiluvchi hududlar uchun

xos. Ish haqi miqdori hududiy mehnat bozorining holati, kasaba uyushmalarining faolligi bilan chambarchas bog'liq.

Iqtisodiyotda shunday qonuniyat borki, aholi jon boshiga olingan daromadlarni o'sishi ishlab chiqarish darajasi va uning o'sish sur'atlariga to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Aholi jon boshiga hisoblangan daromad ishlab chiqarishning hajmiga va aholining soniga bog'liq bo'ladi. Aholi jon boshiga daromadlar o'sishi uchun ishlab chiqarishning o'sishi aholining ko'payishidan tez borishi talab qilinadi.

10.5. Kam ta'minlanganlik: ko'rsatkichlari, omillari va uni kamaytirish yo'llari

Kam ta'minlanganlikni o'lchash kambag'allik darajasini yoki kambag'allik chegarasidan past daromadga ega bo'lgan aholi ulushini, kambag'al oilalarning moddiy yetishmovchilik darajasini, shuningdek, kambag'al oilalarning daromad darajasi bo'yicha tabaqalanish darajasini belgilashni anglatadi.

Kam ta'minlanganlikni o'lchash jarayonining o'zi uy xo'jaliklarini (milliy va mintaqaviy darajalarda saralab olingan vakillar tanlab tekshiriladi) tekshirishga, ularni daromadlar va iste'mol darajasiga ko'ra farqlashga asoslangan.

Kam ta'minlanganlikning tarqalishini baholashning asosiy ko'rsatkichi sifatida kambag'allik koeffitsiyentidan yoki ularning umumiy miqdoridagi kambag'al uy xo'jaliklari (aholi) ulushidan foydalaniladi. Kambag'allik koeffitsiyenti oddiy formula yordamida aniqlanadi:

$$P = q / H$$

Bu yerda: P – kambag'allik koeffitsiyenti;

q – kambag'allik chegarasidan past daromadga, iste'molga ega uy xo'jaliklari (aholi) soni;

H – uy xo'jaliklarining (aholining) umumiy soni.

Shuni alohida ta'kidlash lozim, bu ko'rsatkichdan foydalanish cheklangan, chunki u kambag'allikning faqat tarqalishini tavsiflaydi, lekin kambag'allik xususiyatini ochib bera olmaydi.

Kam ta'minlanganlikni yanada aniqroq tavsiflash va uning tabiatini aniqlash uchun kambag'allikning quyidagi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi:

– kambag'allik oralig'i (kambag'allik darajasi) indeksi – kambag'allik chegarasining uy xo'jaliklari xarajatlari darajasidan yoki kambag'allarning o'rtacha daromadlaridan oshib ketish darajasi. Bu ko'rsatkich kambag'allikning jiddiyligini aks ettiradi va kambag'allikdan chiqishga zarur xarajatlar qiymatini belgilash uchun foydalanish mumkin. Bu ko'rsatkich kambag'allikning kuchlilik darajasini aks ettirmaydi.

– kambag'allikning kuchlilik indeksi. Bu indeks har xil daromadli oilalarning o'rtacha o'lchab ko'rilgan kattaligi orqali aniqlanadi hamda quyidagi ikki tarkibiy qismning yig'indisi: kambag'allik darajasi va kambag'allar o'rtasidagi tengsizlik bilan bog'liq bo'lgan yig'indidan iborat.

Kambag'allik ko'p darajali hodisa hisoblanib, uning mohiyati faqatgina daromadlar yoki iste'mol bo'yicha kambag'allikdangina iborat bo'lib qolmaydi. Agar inson taraqqiyoti uning munosib va sog'lom turmush kechirish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat bo'lsa, unda bu ma'noda kambag'allik – bunday imkoniyatlarning yo'qligi yoki jiddiy cheklanganligidir.

Kambag'allik insonning uchta asosiy yo'nalish – sog'liq (uzoq umr ko'rish orqali), bilim va yashash sharoitlari bo'yicha yetishmovchiliklarining turli jihatlarini aks ettiruvchi maxsus ko'rsatkich bo'lib, u yuksak daromadga ega mamlakatlar uchun, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun alohida hisoblanuvchi kambag'allik indeksi deb ataladi.

Qayd qilish kerakki, kambag'allik indeksi daromadlarning iste'molga nisbati bo'yicha aniqlanadi. BMT tashkiloti kuniga 1,25 dollardan kam daromad bilan yashovchi aholini kambag'allar guruhiga kiritadi.

Bundan tashqari, kambag'allikni baholashda uy xo'jaliklarini tekshiruv ma'lumotlariga ham asoslaniladi. Bu tekshiruvlar har yili o'tkaziladi va 10000 uy xo'jaligidagi reprezentativ tanlovni qamrab oladi. Kambag'allikning oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli bo'yicha chegarani belgilashda aholi jon boshiga sutkasiga 2101

kilokaloriya iste'molga xarajatlar qiymati bo'yicha hisoblab chiqiladi. Bu chegaradan pastroq xarajatlarning o'rtacha darajasiga ega bo'lgan uy xo'jaliklari kambag'allar toifasiga kiritiladi. Uy xo'jaliklaridagi iste'mol qiymatini aniqlash paytida oilaviy xarajatlarning bir maromdaligi, shu bilan birga, bevosita uy xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot iste'moli ham hisobga olinadi.

Kambag'allar toifasiga kiritilgan uy xo'jaliklarida bu holatga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

– aholining qishloq joylarida istiqomat qilishi;

– 16 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 3 yoki undan ortiq bo'lgan oilalarning mavjudligi;

– oila boshliqlarining o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lganligi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ish bilan bandlik har doim ham kambag'allikdan xalos bo'lishga yordam bermaydi. Ya'ni, iste'mol uchun past xarajatlarga ega uy xo'jaliklarining katta qismi (50% atrofida) budjet sohasida ishlovchi xodimlarga, korxonalarning kam haq to'lanuvchi xodimlariga to'g'ri keladi. Mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan xodimlarda kambag'allikka uchrash ehtimoli yuqori bo'ladi.

Kam ta'minlanganlikning jiddiyligi va keskinligi. Bir sutkada 2101 kkal iste'molga asoslangan kambag'allikni belgilash uslubiyoti uning jiddiyligi va keskinligini aynan mos baholashga imkon bermaydi. Biroq aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allikning jiddiyligi yuqori emas, chunki kambag'al oilalarning aksariyati kambag'allik chegarasining o'rnatilgan me'yorlariga yaqin bo'lgan iste'mol xususiyatiga (1900 kkaldan 2100 kkalgacha) ega. Shu bilan birga, ko'pchilik hududlarda (qishloq joylari bundan mustasno) kambag'allikning keskinligi ham yuqori darajada emas, biroq bu ko'rsatkich bo'yicha mamlakatlarda katta hududiy tafovutlar mavjud bo'ladi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, kam ta'minlanganlikka quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:



10.5-chizma. Kam ta'minlanganlikka ta'sir etuvchi omillar

Endi yuqorida ko'rsatilgan omillarga batafsil to'xtalib o'tsak.

1. Demografik o'sish. Kambag'allikning nisbatan yuqori darajasini oldindan belgilab bergan omillardan biri o'tgan asrning 70-80 yillardagi tug'ilishning yuqori darajasi bo'lib, u o'zining eng yuqori ko'rsatichiga yetgan, ya'ni aholi o'sha davrda yiliga o'rtacha 3,6 %dan ko'paygan. Bugungi kunga kelib mamlakatdagi demografik tendensiyalar normal holatda bo'lishiga qaramasdan quyidagi holatlar kuzatilmoqda:

– tug'ilish darajasining pasayishi;

– aholi o'sish sur'atlarining kamayishi;

– ikki yil oraliq bilan tug'ish holatlarining keskin qisqarganligi;

– ko'pchilik oilalarning oilaning o'rtacha o'lchamini rejalashtirishi.

2. Ish bilan bandlik. Ish bilan bandlik aholi iqtisodiy farovonligining oshishiga yordam beradi. Biroq, ish bilan bandlik oilani kambag'allikdan har doim ham ishonchli ravishda kafolatlay olmaydi. Bu qisman quyidagilar bilan izohlanadi:

– ish bilan bandlikning mavjud tarkibi, ya'ni qishloq xo'jaligi va budjet sohasida kam haq to'lanuvchi mehnatning ustunligi (sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xizmatlar va h.k.);

– norasmiy sektorda bir martalik, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarning ustunligi (bu sohada daromadlar beqaror xususiyatga ega bo'ladi);

– mamlakatning yetarli miqdordagi suv zaxiralariga ega bo'lmagan hududlarida, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarini yuritish uchun foydalaniladigan yerning unumdorlik sifati pasayishi.

3. Ta'lim. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, to'q oilalarga qaraganda kambag'al oilalarning ma'lumot darajasi pastroq bo'ladi. Kam daromadli oilalarda o'rta maxsus yoki oliy ma'lumotga ega bo'lgan oila a'zolari soni kam bo'ladi. Statistik ma'lumotlar tahlili aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarga qabul qilishning kamayishi kuzatilayotganligini ko'rsatmoqda. Bu holat yosh bolalar parvarishini amalga oshirishga majbur ayollar katta qismining samarali ish bilan bandlik qatoridan chiqishiga va shunga muvofiq uy xo'jaliklari tashqi daromadlarining qisqarishiga, bolalarni maktab ta'limiga yetarlicha tayyorlanmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, aksariyat mamlakatlarda oliy ta'limning pullik-shartnoma tizimga o'tishi kambag'al oilalarning oliy ma'lumot olishlarini mushkullashtirib qo'yadi.

4. Salomatlik va ovqatlanish. Shunisi shubhasizki, kambag'allik xavfi salomatlikning ahvoli mehnatga layoqatsizlikka sabab bo'ladigan oilalarda o'sib boradi. Bu shaxslarning mehnatga layoqatli yoshda bu toifa aholi tarkibidan chiqarilishi, ularni davolash xarajatlarining yuqoriligi, bunga bog'liq holda uy xo'jaliklari xarajatlari tarkibining majburiy o'zgarishiga olib keladi.

Ovqatlanish bolalar va onalar salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega. To'yib ovqat yemaslik va mikroelementlar yetishmovchiligi bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, homiladorlik paytida asoratlarga olib keladi va katta yoshdagilarning reproduktiv faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aytish joizki, aholining ayrim toifalari o'rtasida to'yib ovqatlanmaslik va mikroelementlar tanqisligi belgilari mavjud. Bu holat to'g'ri ovqatlanish haqidagi bilimlarning yetishmasligi, ovqatlanishning milliy an'analari, daromadlar kamligi, tibbiy yordam va undan keyingi nazoratning yetarli darajada sifatli emasligi bilan izohlanadi.

5. Ekologiya. Sobiq ittifoq davrida ko'p miqdordagi suvning Amudaryo va Sirdaryodan sug'orish maqsadlarida sarflanishi, zaharli o'g'itlardan keragidan ortiq foydalanish O'zbekistonda ko'plab ekologik muammolarni meros qilib qoldirdi. Bu aholining kambag'allik darajasining oshishiga olib keldi. ya'ni odamlarning iflos-

langan, kimyoviy moddalarga to'yingan yerda yetishtirilgan mahsulotlarni, suvni iste'mol qilishi natijasida ular salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Orol dengizining qurib qolgan tubidan tarqalgan chang sababli respiator xastaliklar bilan kasallanish hollari ko'paygan. Shu bilan birga, respublikada ikkinchi bor sho'rlanishga –50%, suv eroziyasiga –8% va shamol eroziyasiga esa 54% sug'oriladigan yerlar yo'liqqan. Mazkur holat agrar faoliyatdan keladigan daromadlarni jiddiy pasaytiruvchi omil hisoblanadi.

6. Gender. Umuman olganda, kasb-hunar ta'limi yoshida erkak va ayollar o'rtasida tengsizlik kuzatilmaydi. Biroq, undan yuqori yoshda jinslardagi nisbatda o'zgarishlar qayd etiladi. Aytish lozimki, ayollar borgan sayin ko'proq sog'liqni saqlash (barcha xodimlarning 77,5%ini tashkil qiladi) va ta'lim (72,7%) kabi kam haq to'lanuvchi sohalarda band bo'lib bormoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, uy xo'jaliklari, agar ayollar ish bilan band bo'lmasa, ko'pincha kam ta'minlangan bo'ladi. Shuning uchun ayollarning ish bilan bandligini oshirish oilaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, ayollarning o'rtacha daromadi erkaklarnikiga qaraganda kamroq, lekin bu ayollarning ko'proq kam haq to'lanuvchi sohalarda bandligi tufayli sodir bo'lmoqda. Erkaklar singari, ayollar ham norasmiy mehnat bozorida kam himoyalangan, ya'ni yosh ayollar odam savdogarlari tomonidan ekspluatatsiya qilinish xavfi bilan to'qnashadi.

Kam ta'minlanganlikka ta'sir qiluvchi omillardan kelib chiqib, uning tarqalishining quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Farovonligi asosan qishloq xo'jaligi faoliyatiga bog'liq bo'lgan qishloq oilalari. Bu oilalar uchun quyidagilar xos:

– yollash bo'yicha ish bilan bandlikning nisbatan yuqori darajasi va oilaning ish bilan band va band bo'lmagan mehnatga layoqatli a'zolari sonining o'zaro turg'un nisbati (o'zaro nisbat 1:1,5);

– oilaning katta yoshdagi a'zolari kasbiy ma'lumot darajasining pastligi;

– suv yetishmasligi va yer sifatining pastligi tufayli mavjud yer maydonlari unumdorligining pastligi;

– oilaning kattaligi va oilaning ish bilan band bo‘lgan a’zolariga tushadigan iqtisodiy yukning ortiqligi. Bu oilalar uchun tahdid soluvchi omil. qishloq xo‘jaligi mahsulotlari konyunkturasiga va qishloq xo‘jaligi faoliyatini olib borishning tasnqi omillariga bog‘liq bo‘lgan, qancha oz bo‘lsa, shunchalik beqaror ham bo‘lgan daromadlardir.

2. Ko‘proq kichik shaharlar, shahar tipidagi manzilgohlar va tuman markazlarida yashovchi oilalar. Bu toifani qishloq xo‘jaligidan tashqari korxonalarning yollanma xodimlari tashkil qiladi. Bu oilalar uchun quyidagi belgilar xos:

– oilaning uncha katta emasligi (o‘rtachaga yaqin);

– oilaning ish bilan band bo‘lgan a’zolariga tushadigan iqtisodiy yukning nisbatan kattaligi;

– uy xo‘jaliklari boshlig‘ining ancha yuqori bilim darajasi;

– oilaning mehnatga layoqatli a’zolari ish bilan bandlik darajasining pastligi;

– yer maydonining yo‘qligi va o‘lchamining kichikligi.

Bu oilalar uchun xavf omillari iste’mol tovarlari va xizmatlariga narxlarning oshishi, ish haqlarining kechikishi. struktura tashkil qiluvchi qishloq xo‘jaligidan tashqari korxonalar iqtisodiy ahvolining yomonlashuvidir.

3. Bu turga shahar oilalari kirib, ular quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

– oilaning uncha katta emasligi,

– oilaning ham o‘quvchilar, ham katta yoshdagi ishsiz a’zolari hisobiga ish bilan band bo‘lganlarga tushadigan iqtisodiy yukning kattaligi;

– oilaning to‘liq emasligi, ya’ni boquvchilardan bittasining yo‘qligi;

– oilaning mehnatga layoqatli a’zolarining budjet sohalarida bandligi;

– yer maydonining yo‘qligi.

Bu oilalar uchun asosiy xavf omillari qatoriga iste’mol tovarlari va xizmatlariga narxlarning oshishi, mehnatga layoqatli oila a’zolarining kasalligi va ishni yo‘qotish kiradi.

4. Quyidagi belgilar bilan ajralib turuvchi qishloq va shahar oilalari:

– mehnatga layoqatli oila a'zolari kasbiy ma'lumotining past darajasi va ularga mehnat bozorida talabning pastligi;

– malakasiz va beqaror ish bilan bandlik (iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi malakasiz xodimlar, vaqtinchalik yollanma va mavsumiy xodimlar, norasmiy sektorda band bo'lgan tadbirkorlar);

– yer maydonining yo'qligi yoki unumdorligining pastligi.

Kambag'al oilalar miqdori ajratilgan guruhlarining o'zaro nisbati va to'planish manzillarning muayyan turiga va ishlab chiqarish infratuzilmasi holatiga bog'liq. Kambag'allik to'plangan manzillarning bir necha turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

– transport-sanoat aglomeratsiyalaridan uzoqda joylashgan qishloq joylari;

– ishlab chiqarish depressiyasi xususiyatiga ega bo'lgan ko'p sohali kichik shaharlar;

– transport-sanoat aglomeratsiyasidan tashqarida joylashgan tuman markazlari.

Aholining ko'pchilik toifalari uchun kambag'allik muammosini mustaqil ravishda hal qilib bo'lmaydi, chunki aholining bir qismi ijtimoiy qabul qilmaslikning alohida zonasiga tushib qoladi. Shu bilan birga, bozor kimlarnidir oldinga chiqib ketishiga imkon bersa, boshqalarni hamma narsadan mahrum qiladi.

Kambag'allikni davlat siyosatining quyidagi tamoyillariga tayangan holda bartaraf etish mumkin: halol, yuqori haq to'lanuvchi mehnat uchun keng imkoniyatlar berish va mehnatga layoqatli fuqarolarni o'zini-o'zi mehnati bilan faol mustaqil ta'minlashga rag'batlantirish.

Kambag'allik bilan kurashish va uning oldini olish bir necha yo'nalishlar bo'yicha olib borilishi mumkin:

– alohida xodim va umuman aholi turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy choralar (bu daromadlar, bandlik siyosati, investitsiya, soliq, manzilli ijtimoiy yordam);

– obyektiv ravishda turli xavflardan aholini himoya qilish tizimini (mehnatga layoqatning yo'qotilishi, kasallik, nogironlik, ishsizlik, qarilik, o'lim, boquvchisini yo'qotish) va bolalarga

nafaqalar, aholining alohida guruhlariga imtiyozlar berish tizimining samaradorligini oshirish;

– ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish (moddiy yoki nomoddiy yordam, bepul ovqatlanish, nogironlar huquqlarining tiklanishiga yordam berish, uyda, kunduzgi muassasalarda ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy uy-joy taqdim qilish).

Kambag'allikni bartaraf etishda soliqqa tortishning o'zgartirilishi natijasida daromadlarning kambag'allar foydasiga ularga har xil turdagi yordam ko'rsatish orqali qayta taqsimlanishi yaxshi samara bermaydi. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar bunday yo'ldan allaqachon voz kechgan. Kambag'allarga to'lov ko'rinishida yordam ko'rsatish ish haqining rag'batlantiruvchi vazifasining pasayishiga olib keladi, boqimandalik kayfiyatining rivojlanishiga, ish bilan bandlik tarkibining yomonlashuviga, o'z ahvolini yaxshilashga intilishdan to'la mahrum bo'lgan odamlarning paydo bo'lishiga ko'maklashadi.

Shuning uchun ijtimoiy himoyaning faol siyosati qiyin vaziyatda qolganlarga bevosita yordam ko'rsatishdan ham ko'ra, bunday vaziyatga tushib qo'lish xavfini qisqartirish, aholining bozor sharoitlariga ijtimoiy moslashuvi, ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish, hududiy ijtimoiy dasturlar ishlab chiqishdir. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya haddan tashqari mehnat faolligining aks rag'batlantiruvchisi bo'lib qolishi mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Tengsizlikning iqtisodiy tabiati nimada?
2. Lorens egri chizig'i va Jini koeffitsiyenti mohiyatini tushuntiring.
3. Kambag'allika doir qaysi konsepsiyalarni bilasiz?
4. Turmush kechirishning eng kam miqdori nimani anglatadi?
5. Kambag'allikning mutlaq va nisbiy darajalari o'rtasidagi farqni tushuntirib bering.
6. Iste'mol budjetining eng kam miqdori nimani anglatadi?

XI BOB. INSON TARAQQIYOTI O'LLARI

11.1. Demografik vaziyat va uning inson taraqqiyotidagi roli

Demografik jarayonlarni o'rganishda aholiga doir nashr etilgan raqamli ma'lumotlar, ilmiy manbalar, maxsus tadqiqot natijalaridan, ya'ni demografik ma'lumotlardan foydalaniladi. Demografik ma'lumotlar birlamchi va ikkilamchi tavsifga ega.

Birlamchi ma'lumotlar – demografik jarayonlar haqida to'plangan dastlabki statistik ma'lumotlar, jadvallar va maxsus ko'rsatkichlar. **Ikkilamchi ma'lumotlar** – bu birlamchi ma'lumotlar asosida olib borilgan ilmiy tahlil va hisob-kitoblardir [10].

Aholi soni muayyan bir hududda yashovchi aholining umumiy miqdori hisoblanib, u eng keng tarqalgan umumiy miqdoriy demografik tavsiflardan biridir. Aholi soni tug'ilish va o'lim natijasida muntazam o'zgarib turadi, muayyan bir hududlar uchun esa aholi migratsiyasi natijasida o'zgaradi. Shuning uchun demografik tahlilda aholi soni vaqt funksiyasi sifatida qaraladi. U ma'lum bir vaqt aholini ro'yxatdan o'tkazish vaqti uchun, yil boshi, yil oxiri yoki yil o'rtasidagi holati bo'yicha o'lchanadi va baholanadi. Ushbu vaqtning belgilanishi, ayniqsa, yirik mamlakatlar yoki hududlar uchun juda zarur, bunda yil boshidagi va yil o'rtasidagi aholi miqdoridagi farq 100 mingni tashkil qilsa, yirik mamlakatlar uchun esa millionlarni tashkil qiladi.

Aholi soni dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarning tahlili uchun tarkibiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi, masalan, ayrim hududlarda yashayotgan aholi soni va ulushini solishtirish. Bunda guruhlash va indekslar qo'llaniladi. o'sish va o'sish sur'atlari, teng bo'lmagan vaqt oraliqlari uchun esa o'sish va o'sish sur'atining o'rtacha yillik sur'atlari olinadi.

U yoki bu vaqt uchun aholi sonining o'zgarishi, birinchidan, aholining **tabiiy o'sish** sur'ati deb nomlanuvchi tug'ilganlar va

[10] Буриева М.Р. Демография асослари. – Тошкент, 2001. – 16 б.

o‘lganlar miqdorining farqlari bilan; ikkinchidan, agar so‘z mamlakat yoki aholi manzilgohi haqida ketadigan bo‘lsa, ularning miqdori aholi migratsiyasi (keluvchilar va ketuvchilar nisbati) bilan aniqlanadi. Immigratsiya va emigratsiya o‘rtasidagi farq aholining **migratsion o‘sishi** deb nomlanadi.

Aholining jins tarkibi – aholining erkak va ayollarga taqsimlanishidir.

Demografiyada jins tarkibini tasavvur qilishning quyidagi ikkita yondashuvidan foydalaniladi:

– birinchisi, jami aholi yoki ayrim yosh guruhlardagi erkaklar va ayollar mutlaq soni va ulushining oddiy hisobi;

– ikkinchisi, jami aholi yoki ayrim yosh guruhlaridagi erkaklar sonining ayollar soniga nisbati (yoki aksincha).

Odatda, jinslar nisbati erkaklar sonining har 100 yoki 1000 ayolga to‘g‘ri keladigan nisbati orqali hisoblab chiqilishi bilan aniqlanadi (yoki kam hollarda ayollar sonining har 100 yoki 1000 erkakka to‘g‘ri keladigan nisbati ham olinadi).

Aholining jins tarkibi uchta omilning birgalikdagi ta’siriga bog‘liq bo‘ladi: tirik tug‘ilganlar orasidagi o‘g‘il bolalar sonining qiz bolalar soniga nisbati; differensial o‘lim darajasi, ya’ni turli yosh guruhlaridagi erkaklar va ayollar o‘rtasidagi o‘lim darajasining farqi; migratsiya jadalligidagi jinslar farqi. Birinchi omil (jinslarning ikkilamchi nisbati) barcha aholi uchun amaliyotda bir xil va o‘zgarmasdir, shuning uchun bu yerda asosiy rollar differensial o‘lim darajasi va migratsiya jadalligidagi jinslar farqiga tegishli bo‘lib, ular mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog‘liq bo‘iadi.

Aholining yosh tarkibi – bu aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo‘yicha taqsimotidir.

Aholining yosh tarkibi haqidagi ma’lumotlar ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlarni tadqiq qilish uchun kerak bo‘ladi. Aholi yosh tarkibining xususiyatlarini anglash orqali istiqboldagi tug‘ilish va o‘lim tendensiyalari, shuningdek, aholining takror barpo bo‘lishi haqida ilmiy asoslangan mulohazalar chiqarish mumkin. Ushbu xususiyatlarni bila turib, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda u yoki bu muammolarning vujudga kelish

ehtimolini baholash, mehnatga layoqatli aholi va ishchi kuchining dinamikasini prognozlashtirish, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, ularga bo'lajak talab, mintaqalarda saylovlarning natijalarini va shunga o'xshash masalalarni bilish imkonini beradi.

Aholining yosh tarkibini tuzish uchun odatda bir, besh, ba'zi hollarda o'n yillik oraliqlardan foydalaniladi.

Bir yillik yosh tarkibi – bu aholining quyidagi yillar to'igandagi yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishidir: 0 yosh, 1, 2, ..., 34, 35, ... 89, ..., ω yosh va undan kattalar. Ω – bu qandaydir eng yuqori yosh bo'lib, uning asosida aholining bir yillik yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi yakunlanadi. Oxirgi yosh guruhi (ω yosh va undan kattalar) ochiq yosh oralig'ini tarkib toptiradi, bunda ωning aniq kattaligi yangi tug'ilgan bolaning kutilayotgan umr davomiyligining o'rtachasiga va katta yoshlardagi aholining soniga bog'liq bo'ladi.

Besh yillik yosh tarkibi quyidagi yosh guruhlari bo'yicha tuziladi: 0 yosh, 1-4 yosh, 5-9 yosh, 10-14 yosh, ..., 35-39 yosh, ..., 80-84 yosh, ..., 100 yosh va undan kattalar. Bu standart yosh guruhlanishi deb nomlanadi va xalqaro demostatistika amaliyotida qo'llaniladi.

O'n yillik yosh tarkibi quyidagi yosh guruhlari bo'yicha tuziladi: 0 yosh, 1-9 yosh, 10-19 yosh, 20-29 yosh, ..., 60-69 yosh, 100 yosh va undan kattalar.

Yosh tarkibidagi umumiy tuzilmaviy o'zgarishlarni baholash uchun bundan yanada kattaroq yosh guruhlanishlari qo'llaniladi.

Halqaro amaliyot va statistikada aholining yosh tarkibi iqtisodiy nuqtayi nazardan uch guruhga ajratiladi:

– bolalar (0-14 yosh);

– mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (15-64 yosh);

– mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi (65 va undan yuqori yoshdagilar).

O'zbekiston milliy statistikasida aholi mehnatga layoqatliligi bo'yicha uch guruhga bo'linadi:

1. Mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi (0-15 yosh);

2. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (16-54 yoshdagi ayollar, 16-59 yoshdagi erkaklar);

3. Mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi (55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklar).

Aholining yosh va jinsiy tarkibini birgalikda va yaqqol namoyon etish uchun yosh-jins piramidasi tuziladi.

Yosh-jins piramidasi ikki tomonlama chiziqli diagrammani o'zida aks ettirib, undagi aholi yosh va jins bo'yicha birgalikda taqsimlangan, bunda grafikning bir tomonida (o'ngdan) ayol jinsli aholi, ikkinchi tomonda esa (chap tomonda) erkak jinsli aholi aks ettiriladi. Diagrammaning vertikal o'qi yosh shkalasini o'zida namoyon etib, u bir yoki besh yillik intervallarga bo'linib, 0 yildan boshlanadi va yuqori yosh yoki ochiq yosh intervali bilan tugallanadi.

Gorizontal chiziqlar o'zida berilgan yosh va jinsdagi aholining umumiy miqdorini; aholining umumiy miqdoridagi berilgan yosh va jinsdagi aholining ulushini; berilgan yosh va jinsdagi aholi miqdoridagi faqat ushbu jinsning ulushini aks ettiradi. Bunda gorizontal chiziqlar maydoni (yoki teng miqdorda taqsimlangan yosh intervallarining uzunligini) aytib o'tilgan ko'rsatkichlarga teng bo'ladi.

Piramidalar aholining turli qismlarini qiyoslash va uning yosh-jins tarkibi xususidagi qiyosiy ma'lumotlarni olish maqsadida guruhlarning yosh-jins miqdori yoki ushbu miqdorlarning jami aholidagi ulushidan foydalanilgan holda tuziladi.

Yosh-jins piramidasi aholining muayyan vaqtdagi holatini aks ettiradi. Shuning uchun piramidadagi chiziqlarning nisbiy uzunligi bo'yicha tug'ilish va o'lim jarayonlarining aholining yosh tarkibiga ta'siri, aholi takror barpo bo'lishining istiqboldagi tendensiyalari haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Masalan, muayyan bir yilda tug'ilganlar soni qo'shni yillarnikidan ko'p bo'lsa piramida bo'rtiq, agar tug'ilganlar soni qo'shni yillarnikidan kam bo'lsa botiq shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu deformatsiya yetuk va keksa yoshdagilar orasidan o'tayotib,

deyarli butun yuz yillik davr davomida, toki ushbu tug'ilganlar jamlanmasining o'lib yo'q bo'lmaguniga qadar saqlanib qoladi.

Demografiyada yosh-jins piramidalaridan foydalanishning eng muhim jihatlaridan biri – bu aholining takror barpo bo'lishi va yosh tarkibining o'zaro aloqadorlikdagi tahlilidir.

Aholining progressiv, statsionar va regressiv yosh tarkiblari 1894 yilda shved demografi A.G.Sundberg tomonidan birinchi marta ilmiy iste'molga kiritilgan.

Ma'lumki, progressiv yosh tarkibida aholi soni ko'payadi, statsionarda aholi o'z miqdorini o'zgartirmaydi, regressivda esa qisqaradi. Aholining yosh tarkiblari 0-15 yoshdagi bolalar hamda 50 yoshdan va undan yuqori yoshdagi "qariyalar" ulushi bilan farqlanadi. A.G. Sundbergning tasnifi bo'yicha, progressiv yosh tarkibida bolalar ulushi 40, qariyalar esa 10 foizni; mos ravishda statsionarda – 27 va 23; regressivda esa 20 va 30 foizlarni tashkil qiladi (11.1-jadval).

Aholi yosh tarkibining turlari, %

11.1-jadval

Yosh guruhlari	Yosh tarkibi		
	progressiv	statsionar	regressiv
0-14	40	27	20
15-49	50	50	50
50 va undan yuqori	10	23	30

Aholining mazkur yosh tarkibi turlariga yosh piramidasining turlari mos keladi. Aytish joizki, yosh piramidasining turlari 1930 yillarda nemis statistigi F.Burgderfer tomonidan taklif qilingan.

Aholining keksayishi hozirgi davrning zamonaviy demografik hodisasi hisoblanib, garchi uning rivojlanish intensivligi turlicha bo'lsada, barcha mamlakatlar uchun xos bo'lmoqda. **Aholining keksayishi** aholi umumiy sonida ulug' yoshdagilar ulushining ortishi, yoshlar salmog'ining kamayishi, shu bilan bir vaqtda o'rta yoshdagi aholi sonining ko'payishida o'z ifodasini topadi. Ta'kidlash joizki, aholining keksayishi deganda, nafaqat bu yosh guruhidagi kishilar salmog'ining, balki mutlaq sonining

ham ortishi tushuniladi. O‘zbekistonda ham bugungi kunda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar demografik jarayonlarga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi: tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari keskin kamaydi, tug‘ilganda kutilayotgan hayot davomiyligi uzaydi. Buning natijasida aholining “keksayish” jarayoni tezlashdi.

Fanda keksalik, uning dastlabki ko‘rinishlari, keksalik yoshi va uning chegaralari kabi masalalar atrofida baxs-munozaralar anchadan beri olib boriladi, lekin so‘nggi yillardagina bu masalalar iqtisodiyot, demografiya, sotsiologiya, gerontologiya kabi fanlarning jiddiy tadqiqot obyektiga aylandi. Chunki, aholining keksayish jarayoni bilan bir vaqtda keksa kishilarning ijtimoiy, fiziologik va biologik xarakteristikasida tub o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu o‘zgarishlarning silliqroq kechishi nafaqat sog‘liqni saqlash tizimiga, balki jamiyatning boshqa tuzilmalariga – iqtisodiy, ishlab chiqarish, rekreatsiya, ijtimoiy ta’minot, oila va boshqalarga ham bog‘liqdir.

Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti qarilikni insonning hayoti davomida kechadigan o‘zgarishlarni belgilovchi fiziologik jarayon, deb hisoblashni taklif qilgan[11]. Shu bilan birga, keksalikni kasallik bilan tenglashtiruvchi fikrlar ham keng tarqalgan. Biz bu fikrni to‘g‘ri emas, deb hisoblovchilar fikriga qo‘shilamiz. Bizningcha, keksalik kishida namoyon bo‘lgach, ular surunkali kasalliklarga tez-tez yo‘liqadigan aholi guruhini tashkil etadilar, xolos. Chunki, inson organizmining jismonan qarishi oqibatida kishining tashqi o‘zgarishlar va noqulay holatlarga moslashishi susayadi va u tez-tez kasalliklarga chalinadigan bo‘lib qoladi. Keksa kishi mehnatga layoqatsiz va o‘zgalar yordamiga muhtoj bo‘ladi.

Odatda, mehnatga layoqatli yoshdan katta bo‘lgan aholi pensiya yoshidagi aholi hisoblanadi. Bu yosh chegarasidan boshlab insonda jismoniy quvvatning zaiflashuvi, ish qobiliyatining susayishi ro‘y beradi, uning ijtimoiy-iqtisodiy, jamiyat va oiladagi mavqeida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Shuning uchun ham iqtisodchilar aholining bu guruhini qariyalar guruhiga kiritadi.

[11] Здоровье пожилых // Доклад комитета ВОЗ. Женева, 1992. – С.7.

Inson organizmida ro‘y beradigan o‘zgarishlar: jismoniy quvvatning zaiflashuvi, ish qobiliyatining susayishi, tashqi ta’sirlarga moslashish va javob reaksiyalarining sekinlashuvi va boshqalar 55-60 yosh chegarasidan yuzaga chiqadi. Demak, keksalik davrining boshlanishiga shartli ravishda O‘zbekistonda belgilangan mehnatga layoqatli yoshning eng yuqori chegarasini asos sifatida olishni va mehnatga layoqatli yoshdan katta bo‘lgan aholi – 55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklarni qariyalar guruhiga kiritish mumkin, deb hisoblaymiz.

So‘nggi yillarda inson umrining keksalik davrini tasniflash bo‘yicha xilma-xil yondoshuvlar paydo bo‘ldi. Masalan, gerontologlar tasnifiga ko‘ra, 60-74 yoshdagilar – qariyalar, 75-84 yoshdagilar – keksalar, 85 va undan yuqori yoshdagilar – juda keksalardir[12], Butun jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tasnificha, 60-74 yoshdagilar – qariyalar, 75-89 yoshdagilar – keksalar, 90 va undan yuqori yoshdagilar – uzoq umr ko‘ruvchilar, deb hisoblanadi[13].

Bizningcha, bu mezonlarni dunyodagi barcha mamlakatlar aholisi uchun tadbiq etib bo‘lmaydi. Keksalik yoshini bunday davrlarga bo‘lishda har bir davlatdagi tug‘ilganda kutilayotgan hayot davomiyligi asos qilib olinishi lozim. Chunki, hozirda aholisi o‘rta hisobda 35-40 yil umr ko‘radigan mamlakatlar ham bor. Masalan, dunyoda o‘rtacha umr davomiyligi 67 yil bo‘lsa, Mozambikda – 40 yil, Afg‘onistonda – 43 yil, Zambiyada – 35 yil. O‘zbekistonda – 71,8 yil, Norvegiyada – 80 yil, Yaponiyada – 82 yildan iboratdir.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida aholining yosh tarkibida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar shuni ko‘rsatadiki, bu davr dunyoda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham aholi tarkibida bolalar ulushining kamayib, aksincha qariyalar ulushining ortib borishi bilan tavsiflanadi. Bu hol, o‘z navbatida, aholining keksayish jarayoni boshlanganligini ko‘rsatmoqda.

Demograf olimlar tomonidan aholining keksayish darajasini “qarish indeksi” yordamida baholash taklif etilgan. “Qarish indeksi” tushunchasi fanga taniqli demograf A.Sovi tomonidan kiritil-

[12] Возраст мудрости – возраст создания / Программа развития ООН. – Москва, 1999. – С.17.
[13] Калинюк И.В. Возрастная структура населения. – М.: Статистика, 1975. – С.12.

gan. Fransuz demografi qarish indeksini mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi (qariyalar) sonining mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi (bolalar) soniga foizlarda hisoblangan nisbati orqali aniqlashni va aholining keksayish darajasini baholashda hozirda jahonning ko'pchilik mamlakatlarida foydalanilayotgan quyidagi demografik mezonni taklif qildi (11.2-jadval).

Aholining keksayish darajasi mezoni

11.2-jadval

Bosqich	Aholining qarish indeksi, %	Aholining qarish darajasi
I	20 dan kam	past
II	20-30	o'rta
III	30 dan baland	yuqori

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, aholining qarish indeksi 20 %dan kamni tashkil etsa, shu hudud aholisining keksayish darajasi past hisoblanadi. Agar qarish indeksi 30 %dan ortsa shu hudud aholisi yuqori darajada keksayayotgan hududlar qatoridan o'rin oladi.

Muayyan hududda aholining keksayish jarayonining rivojlanish darajasini baholashda belgilangan yosh chegarasidan yuqori yoshdagi aholi salmog'i ko'rsatkichidan foydalaniladi. Mazkur ko'rsatkichning ortib borishi bilan shu hudud aholisi demografik nuqtayi nazardan qari hisoblanishi mumkin. Shu munosabat bilan ko'p mamlakatlardagi olimlar demografik qarilik to'g'risidagi masalani ko'tarmoqda. Masalan, fransuz demograflari Jaklin Bojyo-Garne va E.Rosset demografik qarilikni to'rt bosqichga ajratishni taklif qilgan (4.7-jadval).

4.7-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, muayyan hudud aholisi tarkibida qariyalar ulushi 8 %dan kamni tashkil qilsa, bu hudud aholisi demografik yosh, 12 %dan ko'p bo'lsa demografik qari hisoblanadi. Hozirgi kunda bu holat asosan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, jumladan Germaniya (24%), Fransiya (23,7%), Buyuk Britaniya (20.3%) va shu kabilarda kuzatilayotganligining guvohi bo'lamiz.

Aholi qarish jarayonining rivojlanish darajasiga ko'ra keksalik tasnifi*

11.3-jadval

Bosqich	Qariyalar salmog'i (60 yosh va undan yuqori), % hisobida	Qarish bosqichlari va aholining keksayish darajasi
I	8 dan kam	demografik yosh
II	8-10	qarish bo'sag'asida
III	10-12	haqiqiy qarish
IV	12 va undan yuqori	demografik qari
	12-14	demografik qarilikning boshlang'ich bosqichi
	14-16	demografik qarilikning o'rtacha bosqichi
	16-18	demografik qarilikning baland darajasi
	18 va undan yuqori	demografik qarilikning juda baland darajasi

BMT demograflari demografik qarish darajasini baholash maqsadida uch bosqichli shkala ishlab chiqqan (11.4-jadval).

Aholining keksayish shkalasi

11.4-jadval

Bosqich	65 va undan yuqori yoshdagilar ulushi, % hisobida	Aholining qarish darajasi
I	4 dan kam	demografik yosh
II	4 - 7	qarish bo'sag'asida
III	7 dan yuqori	demografik qari

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, BMT demograflari aholining keksayish darajasini baholash uchun keksalik yoshining boshlanish chegarasini asos qilib olgan va unga ko'ra, aholining yosh

tarkibida 65 va undan yuqori yoshdagilarning ulushi 7,0 foizdan oshsa, hudud aholisi demografik qari hisoblanadi. Agar dunyo mamlakatlarini ushbu tasnif bo'yicha guruhlarga ajratsak, quyidagi holatni ko'ramiz. Unga ko'ra:

– 61 mamlakat aholisi demografik qari;
– 58 mamlakat aholisi demografik qarish bo'sag'asida;
– 73 mamlakat aholisi demografik yosh;
– 23 mamlakat haqida ma'lumot yetarli darajada emas[14].

Endi yuqoridagilarga asoslangan holda, O'zbekiston aholisining keksayish darajasini baholavdigan bo'lsak, fransuz demograflari tasnifi bo'yicha 60 va undan yuqori yoshdagilar aholining 6,0 foizini tashkil etadi va respublika aholisi demografik nuqtayi nazardan yosh, BMT demograflari tasnifi bo'yicha esa 65 va undan yuqori yoshdagilar aholining 4,5 foizini tasnkil etadi va respublika aholisi demografik qarish bo'sag'asida turibdi.

Aholining keksayishi juda uzoq vaqt davomida aholining takror barpo bo'lishidagi o'zgarishlar, aholi migratsiyasi va urushdan keyingi sanitar-demografik holatlar kabi murakkab omillar tufayli sodir bo'ladi. Bugungi kunda aholi keksayishi jarayonining quyidan yoki yuqoridan rivojlanib borishiga qarab "quyidan keksayish" va "yuqoridan keksayish" kabi turlarga ajratiladi:

– "**quyidan keksayish**" – bu tug'ilishning qisqarib borishi natijasida aholining yosh tarkibida bolalar salmog'ining kamayib, qariyalar salmog'ining esa ortib borishidir;

– "**yuqoridan keksayish**" – bu tug'ilishning kamayishi sharoitida keksa yoshdagi aholi o'rtasida o'limning qisqarishi, tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining uzayishi hisobiga qariyalar salmog'ining ortib borishidir.

Ilmiy kuzatishlarimiz ko'rsatishicha, aholi asosan tug'ilishning kamayishi hisobiga qariydi, ya'ni "quyidan" keksayish jarayoni sodir bo'ladi. Shu bilan birga, hozirgi davrda rivojlangan G'arb mamlakatlari va Yaponiyada tibbiyot sohasida erishilgan yutuqlar tufayli qariyalar orasida o'lim holatlari keskin kamaydi

[14] Медков В.М. Демография. Учебник. – М.: Инфра. 2004. – С.134.

va aholining o‘rtacha umr ko‘rish muddati uzaydi. Buning natijasida aholining "yuqoridan" keksayish jarayoni boshlandi.

Aytish joizki, aholining keksayishi jarayonining rivojlanishi quyidagi qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi:

– aholining iqtisodiy faolligini pasaytiradi:

– pensiya jamg‘armasi zimmasiga pensiyalar to‘lash xarajatlarining benihoya og‘ir yuki tushadi;

– qariyalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun qo‘shimcha mablag‘ sarflash, geriatrik muassasalar tarmog‘ini kengaytirish va butun sog‘liqni saqlash tizimini sifatli tarzda qayta qurishni talab qiladi;

– nali ishlashni istaydigan "yosh qariyalarni ish bilan ta minlash;

– moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasining tuzilmasiga ta’sir qiladi, ya’ni qariyalarning ehtiyojlariga muvofiq ravishda tovar va xizmatlar assortimentini o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi.

Shunday qilib, aholining keksayishi aholi tarkibida qariyalar ulushining ortishi hisobiga kelib chiqadi va mazkur muammoga duchor bo‘lgan har bir mamlakat o‘z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda keksalarning turmush farovonligini oshirishga harakat qilmoqda.

Aholining takror barpo bo‘lishi jamiyatning mavjudligini aholi sonining o‘sib borishini ta’minlovchi biologik jarayon bo‘lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir.

Aholining takror barpo bo‘lishi deganda, aholining miqdori va tarkibini doimo tabiiy tarzda yangi avlodlar tomonidan keksa avlodlar o‘rni to‘ldirishi orqali yangilanishi tushunilad..

Aholi takror barpo bo‘lishining quyidagi uch turi farqlanadi:

1. Qisqargan takror barpo bo‘lish – bunda yashayotgan aholi o‘zining o‘rnini to‘ldiruvchilarni takror barpo qilmaydi. O‘tayotgan avlodlarning miqdori hayotga qadam qo‘yayotgan avlodlarni miqdoridan ortiq bo‘ladi.

2. Oddiy takror barpo bo‘lish. Aholi takror barpo bo‘lishining mazkur turida hayotga qadam qo‘yayotgan avlod bilan keksa

avlod miqdori teng bo'ladi va aholining statsionar turi vujudga keladi.

3. Kengaygan takror barpo bo'lish. Bu turda hayotga qadam qo'yayotgan har bir avlod ketayotgan avlod miqdoriga nisbatan ko'pligi bilan tavsiflanadi. Aholida yosh-jinsiy tarkibining progressiv turi vujudga keladi, uning mutlaq miqdori esa o'sa boradi.

Demografik siyosat deganda, hozirgi davr hamda uzoq muddatli istiqbol uchun aholining takror barpo bo'lishi va dinamikasi sohasida muayyan bir sifat va miqdorga erishishni nazarda tutuvchi birlashgan vositalar va fikrlar birligining davlat miqyosida qabul qilingan tizimi tushuniladi.

Demografik siyosatni o'tkazish quyidagi shart-sharoitlarga rioya qilishni talab etadi:

– siyosatning maqsadini tavsiflovchi vazifa va vaqtini belgilovchi konsepsiyaning mavjudligi;

– qabul qilingan konsepsiya doirasida siyosatning barcha tadbirlarini moliyalashtirishga sarflanishi zarur bo'lgan resurslar;

– o'tkazilayotgan siyosatning asosiy strategik fikrlarini qo'llovchi o'zaro mutanosib fikrlar.

Aytish joizki, demografik siyosatni o'tkazish uchun iqtisodiy, ma'muriy-huquqiy va ijtimoiy-psixologik usullardan foydalaniladi.

Iqtisodiy uslub asosan tug'ilish darajasi aholi ko'payishini ta'minlay olmagan hollarda qo'llaniladi. Bu uslubda davlat tomonidan homilador ayollarga farzand ko'rgandan keyin va farzandi 2-3 yoshga to'lmunga qadar maxsus nafaqalar ajratiladi hamda turli imtiyozlar beriladi.

Ma'muriy-huquqiy uslubda aholining takror barpo bo'lishiga qonunlar hujjatlari orqali ta'sir ko'rsatiladi. Masalan, bu uslub abortlarni qonun yo'li bilan ta'qiqlash, nikohga kirish yoshini ko'tarish, aholining migratsion harakatini cheklash yoki rivojlantirish, er-xotin ajrashganda ona va bola huquqlarini himoya qilish, homilador ayolni ishga qabul qilishda yoki bo'shatishda ularning huquqlarini himoyasi va boshqa tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Demografik siyosat o'tkazishning **ijtimoiy-psixologik uslubi** aholini "demografik tarbiyalash" deb ham ataladi. Aholini demografik tarbiyalash orqali yosh avlodning oilaga, oilada kutilayotgan farzandlar soniga bo'lgan munosabatini davlat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, aholi salomatligiga mos ravishda shakllantiriladi. Bunda oila asosiy tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Shuning uchun ham ota-onalarning "demografik savodxonligi"ga katta e'tibor beriladi. Demografik tarbiyaning yana bir muhim o'chog'i ommaviy axborot vositalari orqali aholining demografik mayliga ta'sir o'tkazish hisoblanadi.

Demografik siyosatning istalgan strategiyasi doirasida davlat o'zining ijtimoiy jarayonlarini boshqarish huquqini amalga oshiradi. Shu bilan bir vaqtda, davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosatning maqsad va vazifalari oqimida borayotgan aholi qismining xarajatlarini qoplash ham davlat zimmasida bo'ladi. Bunday siyosat turli ijtimoiy-demografik guruhlar, hududiy va etnik jamoalarning hayotiy qiziqishlari va qadriyatlariga mos ravishda maksimal differensiallashgan bo'lishi lozim. Shundagina demografik dasturning u yoki bu jihatiga qiziquvchilarning doirasi kamayib, dasturlarni amalga oshirish xarajatlarining samaradorligi oshishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda, siyosatchilar tug'ilish darajasining kamayishi bilan bog'liq bo'lgan demografik rivojlanishning salbiy tendensiyalariga qaramay, demografik siyosatni olib borishda to'g'ri chiziqli qarorlarni qabul qilish, ya'ni konkret tor doiradagi demografik maqsadlarni ilgari surishni xohlaydi. Bunda ijtimoiy rivojlanishning global dasturlarida demografik yoki an'anaviy integratsiya siyosatiga ahamiyat beriladi. Demografik dasturlarga nisbatan bunday ehtiyotkorona munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

– ong va xulqning individuallashuvi davlatning bu yo'nalishdagi har qanday harakatlarini ommalashtirmaydi;

– demografik investitsiyalar tez va muhim pozitiv natijalarga erishish imkonini bermasligi sababli davlat arboblarining siyosiy imidjini oshirmaydi;

– demografik dasturlar xarajatlarni talab etadi. Masalan, bir marta erishilgan tug'ilish va o'lim darajasini bir maromda ushlab turish uchun ketadigan xarajatlar vaqt o'tishi bilan rasmiy ravishda oshirilib borishi lozim. Buning hisobiga demografik dasturlar, umuman jamiyatga foyda keltirmaydigandek bo'lib ko'rinadi. Bundan tashqari, aholi taklif qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga tezda moslashib, keyinchalik ularga e'tibor qilmay qo'yadi.

Shunday qilib, demografik siyosat aholi siyosatining uzviy qismi hisoblanib, u orqali kutilgan, istalgan aholining takror barpo bo'lish turiga erishish mumkin.

Bugungi kunda dunyoda aholi sonining yuqori sur'atda o'sib borishi yoki kamayishi muammosidan tashvishga tushib, tug'ilish darajasini tartibga solishga harakat qilmayotgan deyarli birorta davlat qolmadi. Tug'ilishni tartibga solishga urinayotgan barcha mamlakatlar diametral qarama-qarshi maqsadlari va qiziqishlari bilan farqlanuvchi ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga kiruvchi mamlakatlarda demografik o'tish hali tugallanmagan va tug'ilish darajasi nisbatan yuqori bo'lib, ularni asosan aholining o'sish suratlarini kamaytirish va shu yo'l bilan mamlakat iqtisodiyoti va resurslariga bo'lgan demografik bosimni pasaytirish masalasi tashvishga soladi. Ushbu masalada eng faol pozitsiyani aholisi soni jihatidan eng ko'p hisoblangan Xitoy va Hindiston mamlakatlari egallaydi. Bu mamlakatlar turli xil, jumladan, regressiv chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan aholini keskin o'sishini to'xtatishga urinmoqdalar. Ikkinchi guruhga esa sanoati yuksak darajada rivojlangan, biroq tug'ilish hatto avlodlar almashinuvini ham ta'minlab bera olmaydigan, ko'pincha depopulyatsiyaga olib keladigan darajada past bo'lgan mamlakatlar kiradi. Bu mamlakatlarning barchasi ham depopulyatsiya muammosining kelib chiqish vaqti, uning davomiyligi, tarixiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sabablariga ko'ra bir-biridan tubdan farq qiladi. Buning hisobiga bu mamlakatlarda qator muhim masalalar bo'yicha yaqqol differensiatsiya namoyon bo'ladi. Tug'ilish darajasi va tipi o'xshash bo'lgan mamlakatlarda demografik siyosatni o'tkazish yoki aksincha, uni rad etish haqida

qaror qabul qilinishining sabablari orasidan quyidagilarni ajratish mumkin: tug‘ilishning haqiqiy darajasi, uning tendensiyalari va aholi soni dinamikasini baholash, ulkan kataklizmalar (birinchi navbatda, urushlar) natijasida aholi orasidagi yo‘qotishlar, strategik (iqtisodiy, geosiyosiy, siyosiy-ma’naviy) rejadagi muammolarni yechish zaruriyati. Bu sabablarning birlashishi ba’zi mamlakatlarda ziddiyatlidir. Shu ma’noda tug‘ilish sohasida demografik siyosatni olib borish zaruriyatini ochiqdan ochiq rad qiluvchi ikkita mamlakat – AQSH va Buyuk Britaniya alohida qiziqish uyg‘otadi. Bu mamlakatlardagi tug‘ilish darajasi, hatto aholining takror barpo etilishini ham ta’minlay olmasligiga qaramay, har ikkala mamlakat ham o‘zlaridagi tug‘ilish darajasini ichki va tashqi qarashlar hamda ehtiyojlarni qonuniylashtirish uchun yetarli, deb hisoblashadi. Ikkala mamlakatda ham farzandlarning tug‘ilishi, oila va insonning shaxsiy ishi, aholining o‘sishi esa davlatga iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy foyda keltirmaydi, degan fikr ilgari suriladi. AQSH va Buyuk Britaniyadan tashqari Italiya, Irlandiya va bir necha boshqa mamlakatlar tug‘ilish darajasiga ta’sir etuvchi choralarni ishlab chiqish borasida o‘rtacha pozitsiyani egallab turishadi. Bu mamlakatlar farzandlar tug‘ilishini tartibga solishni ma’naviy va etnik me’yorlarga mos kelmaydi, deb hisoblaydi hamda bu masalada ka’ta miqyosda hech qanday siyosat olib borilmaydi. Bu mamlakatlarning hukumati hamda jamoatchilikning nikoh-oila munosabatlari, shuningdek, abort va kontratsepsiya masalalarida konservativ fikr bildirishadi.

Hududi, aholisining soni, iqtisodiy rivojlanish darajasi va boshqa belgilari jihatidan xilma xil bo‘lgan bu mamlakatlarni ikkita holat birlashtiradi. Birinchidan, bu mamlakatlardan birortasi ham XX asr davomida ulkan insoniy yo‘qotishlarni boshdan kechirmagan, ikkinchidan, demografik o‘sish zarurati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan strategik (birinchi navbatda, geosiyosiy va iqtisodiy) qarashlar mavjud emas.

XX asrdan boshlab Fransiya, Belgiya va Germaniyada demografik siyosatga butunlay o‘zgacha qarashlar mavjud bo‘lgan. Bu mamlakatlar XIX asrning oxiridan XX asrning boshiga qadar sodir bo‘lgan ketma-ket urushlar oqibatida kattagina yo‘qotish-

larni boshdan kechirdi, iqtisodiy muvozanat buzildi va uni tiklash avj olib borayotgan depopulyatsiya sharoitida juda mushkul bo'lgan. Shu bilan birga, bu mamlakatlar Yevropadagi geosiyosiy tenglikni saqlash zaruriyatiga suyangan holda o'zining demografik salohiyatini qayta tiklashiga harakat qildilar. Aslida Fransiyada 1870 yildan 1910 yilgacha bo'lgan butun davr mobaynida pronatalistik kayfiyat hukm surdi.

Turli mamlakatlardagi farzandli oilalarga beriladigan yordam choralarini tahlil qilish, ularni to'rt guruhga ajratish imkonini beradi:

1. Qonuniy choralar;

2. Farzandli oilalardagi moddiy qiyinchiliklarni kamaytirishga va talab qilinayotgan reproduktiv xulq evaziga shakllangan mukofotlarni taqdim etishga qaratilgan iqtisodiy choralar;

3. Ayollar bandligi va onalikka halaqit beruvchi qarama-qarshiliklarni yengishga qaratilgan huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlar;

4. Olib borilayotgan siyosat va uning maqsadlariga jamoatchilik fikrini shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ruhiy ta'sir choralari.

Qonuniy chora-tadbirlar. Tug'ilishni tartibga solishning huquqiy sohasiga quyidagi masalalar kiradi:

– nikohga kirishning minimal yoshini belgilashdagi nikoh-oilaviy huquq, ajralish huquqi, nikohda va nikoh bekor qilingandan so'ng tug'ilgan farzandlar uchun ota-onalarning mas'ulligi;

– abort, kontratsepsiya va sterilizatsiyani amalga oshirish huquqini qonuniy tartibga solish.

Qonuniy chora-tadbirlarni mamlakatlararo qiyoslash juda murakkab, sababi huquqiy dalolatnoma, oila kodeksi va shunga o'xshash qonun hujjatlarini qabul qilish yoki bekor qilinishi aksariyat mamlakatdagi tarixiy an'analar, diniy qarashlar, milliy mentalitet, shuningdek, o'tmishdagi demografik siyosat tajribalari natijalarining tahlillari asosida amalga oshiriladi.

Nikoh-oila qonunchiligi va nikohdagi xulq tipini tartibga solish masalasida O'zbekiston yuqorida qayd etilgan mamlakatlardan tubdan farq qiladi. Gap shundaki, bu mamlakatlarning

barchasida nikohning Yevropa tipi, ya'ni kech nikohga kirish, nikonsizlik darajasining yuqoriligi, nikohdan oldin norasmiy birgalikda yashashning keng tarqalganligi, aksariyat farzandlarning norasmiy nikonda tug'ilishi ustun turadi.

O'zbekistonda birinchi nikohga kirishning o'rtacha yoshi Yevropa standartlariga ko'ra past (ayollar uchun – 17, erkaklar uchun – 18 yosh) va voyaga yetgandan so'ng darhol tuzilgan nikohlar sonining ko'pligi holatida nikohga kirish minimal yoshining o'zgarishi, reproduktiv natijalarning taqdiriga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Abortlar, kontratsepsiya, sterilizatsiya masalasidagi qonunchilik barcha mamlakatlarda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, tarixiy jihatdan oila va shaxsning bu masalada mustaqil qaror qabul qilishini ta'qiqlashdan tortib to to'la hajmli tolerantlikkacha rivojlangan. Hozirgi kunda bor yo'g'i sanoqli mamlakatlargina (Irlandiya, Portugaliya, Malta) abortlarning legalizatsiyasiga qarshi keskin pozitsiyani egallab turibdi. O'z navbatida, qonunni kuchaytirishga qaratilgan har qanday urinishlar jamoatchilik fikrining qat'iy qarshiligiga duchor bo'lmoqda.

Abortlar haqidagi qonunchilik tarixi 1810 yildan, ya'ni Fransiyada Napaleon kodeksi qabul qilingan davrdan boshlangan. Chamasi, abortlar amaliyoti bundan ancha ilgari qo'llanilib kelgan, biroq aynan shu davrga kelib davlat siyosatining predmeti tarzida shakllandi. Abort qotillikka tenglashtirilib, uning ishtirokchilari kuchli jazolangan, bu huquqiy me'yorlar Fransiyada 1975 yilga qadar saqlanib kelgan va butun o'tgan davr mobaynida nafaqat ulkan jarimalar, balki qamoq jazosi ham tayinlangan. Ko'pchilik mutaxassislar fikriga ko'ra, bunday chora-tadbirlar qo'yilgan maqsadga, ya'ni tug'ilish darajasini oshirishga xizmat qilmasdan kriminal abortlar sonining osishiga olib keladi. Abort masalasidagi qonunchilikning ommaviy liberalashtirish 1960 yillardan boshlanib, 1970 yillarning o'rtalarida abortni butunlay ta'qiqlagan mamlakatlar deyarli qolmadi.

Iqtisodiy chora-tadbirlar. Demografik siyosatning ushbu guruh choralari juda xilma xildir. Ularda farzandli oilalarga nafaqa ajratishdan tashqari, farzandlari bor yoki farzand ko'rgan

oilalarga (ota- onalarga) turli imtiyozlar berishni nazarda tutadi. Shu o'rinda oilalarga ajratilgan nafaqa uchun sarflanadigan mablag'larga nisbatan, farzandli oilalardagi moddiy diskriminatsiyani bartaraf etishga qaratilgan, ijtimoiy siyosat sohasiga tegishli imtiyozlarni berishga ko'proq mablag' sarflanadi. Shu usul bilan investitsiyalar ustidan maksimal davlat nazorati o'rnatiladi.

Aholi salomatligini mustahkamlash va o'limni kamaytirish sohasidagi siyosat tug'ilishni tartibga solish siyosatiga nisbatan ijtimoiy siyosatga yaqinroq integrallashgan. Bunday mustahkam integrallashuvning asosiy sababi, uning ikki turda namoyon bo'ladigan universal igidadir.

Birinchidan, har qanday sivilizatsiyalashgan jamiyatdan ushbu sohadagi siyosat maqsadining o'zi universaldir. Inson hayotini uzaytirish, uning sifatini, ya'ni sog'lom va faol hayot davrini yaxshilash asosiy ijtimoiy qadriyatlar jumlasiga kiradi. Shu sababli, bu sohada olib boriladigan siyosatning maqsadlari hech qanday bahs-munozaralarni keltirib chiqarmaydi; kishilik jamiyati rivojlanishining muayyan davrlari va epidemiologik o'tishning turli bosqichlarida bo'lgan konkret aholi guruhlariga nisbatan harakatlarning doimiy yo'nalishlari o'zgartiriladi va maqsadga erishishning adekvat va samarali usullari hamda choralari tanlanadi.

Ikkinchidan, aholi sog'lig'ini saqlash va o'limni kamaytirish sohasidagi siyosat ijtimoiy siyosat kabi barvaqt keksayish, kasalliklarning ko'payishi, salomatlikning pasayishi oqibatida aholini yo'qotishlarni kamaytirishga qaratiladigan ushbu siyosat ta'sir jihatdan universal, chunki bu siyosatning maqsadlari barcha aholi uchun yagona bo'lib, aholining jami ki ijtimoiy, demografik, hududiy va boshqa guruhlarini, davlat oldida sog'liqni saqlash va inson hayotini uzaytirish dasturlarini amalga oshirishda tenglikligi va salomatlik sohasidagi ehtiyojlarini qondirishdan hech qanday kamsitishga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutadi.

Aholining sog'lig'ini mustahkamlash va umrini uzaytirish bo'yicha uzoq muddatli siyosatni ishlab chiqishda har qanday davlat uchun bu siyosatning ikkita o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari ajratilishi lozim. Birinchisi – aholi salomatligini va o'limning yosh-jins bo'yicha shakllanish tarixi va hozirgi tendensiyalarning

holati haqida umumiy va alohida hududiy, ijtimoiy, etnik hamda boshqa adekvat tasavvurlarning mavjudligi. Ushbu holatning batafsilligi olib boriladigan siyosatning yaqin va uzoq istiqbolli dasturlarini tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Aholi salomatligini mustahkamlash va o'limni kamaytirish sohasidagi siyosatning ikkinchi tarkibiy qismi taxmin qilinayotgan siyosatning chora-tadbirlari, yo'nalishlari va tamoyillarini qo'yishdan maqsad doirasida umumlashtiruvchi konsepsiyadir. Nisbatan kontsentrlangan holatda ushbu konsepsiya Butun jahon sog'liqni saqlash tashkilotining dunyodagi o'limni kamaytirish sohasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgan mamlakatlarning tajribalarini umumlashtiruvchi "Salomatlik barcha uchun" strategiyasida o'z aksini topgan. Bu tajriba shuni ko'rasatadiki, insonlar faqat iqtisodiy rivojlanishga erishish vositasi sifatida qaralmay, insoniyat inson omilidan iborat bo'lib qolmasdan va iqtisodiy o'sish kishilik jamiyatining hisobiga emas, aksincha ularning qiziqishlari yo'lida amalga oshirilsagina strategiya samarali bo'lishi mumkin. Bu siyosat deklaratsiya emas, biroq real faoliyatning zamonaviy ta'minotidir. Bu faoliyat natijasida rivojlangan mamlakatlarda ilgari ham, hozirda ham inson kapitalini rivojlantirishga anchagina mablag'larning investitsiyasi davom etib kelmoqda. Buni sog'liqni saqlash strategiyasida qo'llanilganda eng kamida quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilishni anglatadi.

Sog'liq huquqini insonning eng muhim huquqlaridan biri deb tan olinishi. Davlat har bir insonning qadrini, shuningdek salomatlik borasida barcha insonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklarining tengligini tan oladi va tasdiqlaydi.

Salomatlik va uni muhofaza qilish masalasida adolatlilik. Salomatlik va uni muhofaza qilish ikkita asosiy jihatni o'z ichiga oladi: kambag'allik va u bilan bog'liq salomatlik va xavf soluvchi omillarni qisqartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borish; alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan (sog'lig'idagi muammolar, ijtimoiy va iqtisodiy holatga ko'ra) aholi guruhlarini izolyatsiyadan himoyalash va ularga kerakli tibbiy-sanitar yordamni olishlari uchun imkon yaratish.

Alohida insonlar, aholi guruhlari, tashkilotlar va jamoat sektorlarining sog'liqni saqlash faoliyatidagi ishtiroki va javobgarligi. Bu tamoyil salomatlik fenomenining multifaktor tabiatini tushunishga asoslangan va ikkita asosiy elementdan: barcha sektorlar salomatlik uchun javobgarlikni tan olishlari va ularni sog'liqni saqlash faoliyatiga jalb qilishining samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda sog'liqni saqlash masalalariga tegishli siyosatni ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida aholining ishtirokidan iborat.

Salomatlikni mustahkamlash va o'limni kamaytirish sohasidagi siyosatni ishlab chiqishda epidemiologik o'tish tarixi va epidemiologik jarayonlarning hozirgi holatini hisobga olish inson hayotini, uning faol va sog'lom davrini maksimal uzaytirish singari uzoq muddatli ulkan maqsadlar bilan bir qatorda real holatda adekvat bo'lgan maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'yishni nazarda tutadi. Bunday masalalar jumlasiga aholining ba'zi yosh-jins guruhlari, ijtimoiy xavf yuqori (ishsizlar, nogironlar, yolg'iz qariyalar va hokazo) guruhlari orasidan o'lim va kasallanishning alohida sabablari dinamikasidagi salbiy tendensiyalarni yengish zaruriyati kiradi. Bu maqsadlar doirasida amalga oshiriladigan dasturlar ko'p jihatdan shoshilinch tavsifga ega bo'lsada, kishilarning hayoti va salomatligini saqlash uchun kurashlarning bosh strategiyasiga qarshilik qilmaydi. Bundan tashqari, salomatlik va o'lim trendlarining ko'pchilik salbiy o'zgarishlari ushbu sohadagi ijtimoiy siyosatning konseptual va taktik kamchiliklari natijasida yuzaga kelganligi sababli, inqirozga qarshi dasturlar bosh strategiyaning asosiy to'g'rilovchi jihozi bo'lib xizmat qiladi.

Kambag'allik va qashshoqlikning ko'payib ketishi alohida bir muammo guruhini keltirib chiqaradi. Tibbiy yordam va doridarmonlarning qimmatlashuvi, bepul yordamning kamayishi va uning sifati pasayishi sog'liqni saqlash sohasida ijtimoiy tartibsizlikka olib keladi hamda xatarni kuchaytiradi. Shunday guruhlardan biri qariyalar o'lim ko'rsatkichining o'sib borishida ko'rish mumkin. Kam ta'minlangan, ko'p bolali va tugalmas oilalarda ham shunday holat uchraydi.

Kelib chiqqan holatni, muammoni yechishga qaratilgan masalalar quyidagilardan iborat:

– yosh bolalar va o'smirlarning sog'lig'ini mustahkamlash va jarohat, zaharlanish, chekish, spirtli ichimliklarni va narkotiklarni iste'moi qilishdan saqlash;

– jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish;

– aholi salomatligining nazorati va tibbiy yordamini kuchaytirish;

– aholining salomatligini, birinchi navbatda, ish yurita oladigan yoshdagilarda jarohat, zaharlanishni oldini olish va qon aylanish tizimi kasalliklarini hamda yuqumli patalogiyalarning nuqsonlarini bilib olish,

– keksalarning sog'lig'ini saqlash, onkologik, endokrin va yuqumli kasalliklarning oldini olish.

Aholining ko'p qismi doimiy stress holatida bo'lganligi bois tibbiy yordamning dolzarbligini oshiradi. Shu o'rinda aytish kerakki, tibbiy yordamni nafaqat davlat tashkilotlari, balki nodavlat tashkilotlar ham ko'rsatsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, aholi salomatligini mustahkamlashga va o'lim holatlarini kamaytirishga yordam beradi.

11.2. Inson taraqqiyotining gender omillari

Gender (inglizcha «*gender*», lotincha «*genus*» so'zlaridan - «zot») – insonning jamiyatda o'zini tutishini va bunday tutish qanday qabul qilinishini belgilaydigan ijtimoiy jinsdir. Agar jins erkaklar va ayollar o'rtasidagi farqlar aniq va o'zgarmaydigan bo'lgan biologik kategoriya hisoblansa, gender jamiyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy kategoriya bo'lib, vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi.

O'g'il va qiz bolalar tug'ilganidan boshlab o'z an'anaviy gender rollarini o'zlashtiradilar va jamiyat tomonidan ma'qullangan o'zini tutish standartlariga rioya qila boshlaydilar. Bu – ijtimoiylashish jarayoni hisoblanadi.

Odam jinsiga bog'liq ravishda o'ziga belgilangan gender rolini o'ynaydi, hayotning hamma jihatlariga taalluqli bo'lgan

huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi. Gender roli odamlar ehtiyojlari va manfaatlarini belgilaydi, ularning turli imkoniyatlardan foydalanishlarida katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ayni paytda gender roli ba’zan tenglik masalasiga ham ta’sir ko‘rsatib, kamsitish va huquqni buzish sababiga aylanadi.

Gender tengligi – ayollar va erkaklar, qizlar va o‘g‘il bolalar uchun teng huquq, mas’uliyat, imkoniyat, qadriyat va natijalardir. Gender tengligi faqat ayollarga taalluqli masala bo‘lmasdan u, erkaklar huquq va majburiyatlarini ham anglatadi. Chunki jamiyat har ikki jinsdan gender normalari va standartlariga muvofiq harakat qilishni kutadi. Tenglik ayollar va erkaklar bir xil bo‘lib qolishini bildirmaydi. Lekin ularning huquqlari, mas’uliyati va tengligi o‘zlari qiz yoki o‘g‘il bola bo‘lib tug‘ilganlariga bog‘liqdir. Gender tengligi ayollarning ham, erkaklarning ham manfaatlari, ehtiyojlari va ustuvorliklari hisobga olinganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga ayollar va erkaklar guruhlari o‘rtasidagi xilmaxillik hisobga olinadi. Gender tengligiga erishishning bir-birini o‘zaro to‘ldiradigan ikki usuli mavjuddir:

1. *Gender meynstriming* (yoki gender masalalarini barcha sohalar va yo‘nalishlarga joriy etish) – ushbu usul har qanday rejalashtirilayotgan choralarni, shu jumladan qonunchilik, siyosat va dasturlarning barcha sohalarida va barcha darajalarda ayollar va erkaklarga taalluqli oqibatlarni baholash jarayonidir. Ushbu yagona keng qamrovli strategiya gender masalalarini barcha yo‘nalishlar va sektorlarda dasturiy faoliyat olib boradigan (masalan savdo, sog‘liqni saqlash, ta’lim, transport va hokazolar) tashkilotlar (shu jumladan, vazirlik va idoralar) faoliyatiga gender masalalarini kiritishni nazarda tutadi. Mazkur holda gender tengligiga “alohida masala” sifatida qaraladi, u har qanday strategiya va dasturning tarkibiy qismiga aylanadi. Har ikki jins – ayollarga ham, erkaklarga ham rivojlanish jarayoni qatnashchilari va buning natijasidan foydalanuvchilar sifatida qaraladi. Gender yondashuvi ayollar va erkaklar, qiz va o‘g‘il bolalar turli ehtiyojlar va ustuvorliklarga ega bo‘lishlari mumkinligini hisobga oladi. Shuning uchun taklif etilayotgan dasturlar va ustuvorliklar

turlicha bo'lishi hamda jinslar guruhlariga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2. *Maxsus dasturlar* – jiddiy muammolar va tengsizlik mavjud bo'lgan sohalarda esa gender meynstrimingidan tashqari ayollar yoki erkaklarga alohida-alohida yo'naltirilgan maxsus dasturlar, choralar va loyihalar ishlab chiqilishi mumkin. Jumladan, bu erkaklarning salomatligini yaxshilash yoki uyda ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish kabi loyihalar va dasturlar bo'lishi mumkin.

BMT Mingyillik rivojlanish maqsadlarining 3–maqsadi vazifalarini bajarish ta'lim olish masalalarida gender tengsizligi muammolarini hal qilishga xizmat qildi. So'nggi yillarda jahonda qizlarni boshlang'ich va o'rta maktab ta'limi bilan qamrab olish jiddiy ravishda yaxshilandi. Biroq 2005 yil uchun mazkur yo'nalishda belgilangan vazifalar to'liq bajarilmadi.

Qashshoqlik ayniqsa o'rta maktab yoshidagi qizlarning o'qish imkoniyatlari cheklanishining asosiy sababidir. Holbuki, o'rta ma'lumot xotin-qizlarning huquqlarini ta'minlash va imkoniyatlarini kengaytirish uchun juda muhimdir. Ammo kambag'al oilalardagi qizlar o'rta ma'lumot olishda iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlardagi dugonalariga qaraganda ikki barobar kam imkoniyatga egalar.

Ayollarning ish bilan bandligi sohasida ham ayrim o'zgarishlar ro'y berganligiga qaramasdan mavjud muammolar saqlanib qolmoqda. To'g'ri, qishloq xo'jaligi sohasidan boshqa iqtisodiyot tarmoqlarida mehnatga haq to'lanadigan ish bilan band bo'lgan ayollar ulushi asta-sekin ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila Kodeksi, Mehnat Kodeksi, umuman 80 tadan ortiq normativ – huquqiy hujjatlar ana shu maqsadga – xotin-qizlarning barcha sohalarda erkaklar bilan keng huquqligini ta'minlash, ularning jamiyatdagi rolini oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib

chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar" deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatining ko'pchilik mamlakatlari kabi gender tengligi sohasida o'z zimmasiga qator majburiyatlar olgan. O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib ayollar huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qator xalqaro-huquqiy hujjatlarga qo'shilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya, Ayollar ahvoli bo'yicha to'rtinchi umumjahon konferensiyasida qabul qilingan Pekin platformasi va Harakat rejasi shular jumlasidandir. Mazkur hujjatlar milliy darajada gender tengligiga doir qonunchlik hujjatlarini ishlab chiqishda xalqaro-huquqiy asos vazifasini o'tadi. Ushbu xalqaro hujjatlarda belgilab qo'yilgan qoidalar davlat organlari amaliy faoliyatida ham e'tiborga olinadi.

Umuman O'zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilish to'g'risida yuztadan ko'proq normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan. Mamlakat hukumati qator milliy dasturlarni, shu jumladan O'zbekistonda ayollar ahvolini yaxshilash strategiyasini belgilab bergan Milliy harakat platformasini qabul qilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'risida"gi Farmoni asosida ayollarning iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida yangi ish o'rinlari yaratish va ayollarning tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga yo'naltirilgan tegishli dastur ishlab chiqildi. Mazkur dasturda ayollarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini yanada oshirishga qaratilgan choralar ham ko'zda tutilgan.

O'zbekistonning amaldagi qonunchiligiga ayollarning siyosiy faoliyatda ishtirok etishlarini rag'batlantirishni ko'zda tutilgan o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu o'zgartirishlarga muvofiq siyosiy partiyalar davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi va vakolatli organlarga ko'rsatayotgan nomzodlar umumiy sonida ayollarning ulushi kamida 30,0 % bo'lishini ta'minlashlari kerak.

O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi mamlakatda ayollar muammolarini hal etishga qaratilgan hukumat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asosiy mas’ul bo‘lgan tuzilmadir. Mamlakat xotin-qizlar qo‘mitasining rahbari bir yo‘la O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosaridir. Qarorlar qabul qilishda xotin-qizlar ishtirokini kengaytirish maqsadida viloyatlar va Toshkent shahar xotin-qizlar qo‘mitalarining raislari hamda viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o‘rinbosarlari qilib tayinlanadi. Ular mahalliy darajada xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilish, salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun mas’uldirlar.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish bo‘yicha qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasining Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barxam berishi to‘g‘risidagi konvensiyani amalga oshirish bo‘yicha Milliy ma’ruzasi muhokamasi yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqqan. O‘zbekiston Respublikasi hukumati shu munosabat bilan Milliy harakat rejasini qabul qildi hamda uni amalga oshirishni muvofiqlashtirish va monitoringini amalga oshirish uchun ishchi guruhini tashkil etdi. Shuningdek, O‘zbekiston hukumati xotin-qizlarning o‘z huquqlari to‘g‘risida xabardorligi darajasini oshirish, ayollarning jamiyatdagi mavqeini ko‘tarish va boshqa masalalar bo‘yicha qator tadbirlarni ishlab chiqib, ular izchil amalga oshilishini ta’minlamoqda.

11.3 Atrof muhitning inson taraqqiyotiga ta’siri

Dastavval insonni rivojlantirish konsepsiyasiga yalpi milliy mahsulot hajmi kabi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash vositasi sifatida qaralar edi. Biroq bugungi kunda xalqaro hamjamiyat iqtisodiy rivojlanish, atrof muhitning holati va odamlar sog‘lig‘ini muhofaza qilish o‘rtasida o‘zaro qalin bog‘liqlik mavjud ekanligini e’tirof etmoqda. So‘nggi 50 yil mobaynida jahondagi aholining katta qismi moddiy ahvolni yaxshilashda ulkan taraqqiyotga erishildi. Biroq surunkali qashshoqlik, rivojlanish darajasining pastligi muammolari ayrim mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish keskin sur’atlari oqibatidagi salbiy hodisalar bilan birga

yanada chuqurlashib, jahondagi inson va tabiiy resurslariga nihoyatda kuchli bosim o'tkazmoqda. Masalan, Yer yuzidagi 1,1 milliard kishi xavfsiz ichimlik suvi iste'mol qilish imkoniyatiga ega emas. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi barcha kasalliklarning 10,0% ichimlik suvi iflosligi, umuman ichimlik suvining etishmasligi bilan izohlanadi. Mazkur muammolar qishloq joylarida yanada o'tkirdir. Qishloq joylaridagi aholining 29,0 % toza ichimlik suv iste'mol qilishdan, 62,0 % oddiy sanitariya sharoitlaridan mahrum.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi kasalliklarning 25,0-33,0 % ekologiya muammolari bilan bog'liqdir. Dunyodagi 2,4 milliard odam sanitariya qoidalariga javob bermaydigan sharoitlarda yashaydi. Katta shaharlardagi aholining 40,0 % turar joyi kulbalardan iborat. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining tarkibidagi kimyoviy moddalarning miqdori hosildorlik ortishiga qaraganda tezroq sur'atlarda ko'paymoqda. Texnogen omillar va aholining atrof muhitga salbiy ta'siri oqibatida tabiiy fojialar takrorlanib turibdi. Insoniyat stivilizatsiyasiga xavf solayotgan omillar o'rtasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

– Yer yuzida haroratning ortishi;

– o'rmonzorlarning qisqarishi;

– sahrolarning kengayishi;

– tuproqning ifloslanishi va zaharlanishi oqibatida uning unumdorligi kamayishi;

– suv resurslarining ifloslanishi;

– okean sathining ko'tarilishi;

– radioaktiv muhitning o'sishi;

– o'simlik va hayvonot dunyosi turlari yo'qolishining tezlashishi.

Ushbu tendensiyalar ekologik vaziyatni keskin yomonlashtirmoqda, chunki aholi ortishi bilan tabiatga bosim kuchayishi o'rtasidagi bevosita bog'liqlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuqorida qayd etilganlar ekologik barqarorlikni ta'minlash vazifasini BMT Mingyillik rivojlanish maqsadlariga kiritishni qat'iyan talab etdi.

Atrof muhitni muhofaza qilish – odamlar yashaydigan muhitning qulay va xavfsiz bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan choralar tizimidir. Havo, suv, tuproq atrof muhitning eng muhim omillaridir. Atrof muhitni muhofaza qilish tabiiy resurslarni inson faoliyati natijalarining bevosita va bilvosita salbiy ta'siridan saqlash va tiklashni ko'zda tutadi.

Fan-texnika taraqqiyoti va sanoat ishlab chiqarishining intensivlashishi sharoitlarida atrof muhitni muhofaza qilish eng muhim umumdavlat vazifasiga aylandi. Ushbu vazifalarni hal etish odamlar sog'lig'ini muhofaza qilish bilan uzviy bog'liqdir.

Uzoq yillar davomida atrof muhit yomonlashish jarayonlari cheklangan xususiyatga ega bo'lib, faqat ayrim mintaqalarni qamrab olgan edi. Shuning uchun atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha amalda samarali choralar ko'rilmasdi.

Keyingi 20-30 yil davomida jahondagi turli mintaqalarda tabiiy muhit halokatli tarzda o'zgarib, juda xavfli tus oia bosnladi. Atrof muhit ommaviy tarzda ifloslantirilishi munosabati bilan tabiatni muhofaza qilish mintaqaviy, davlatning ichki muammolaridan xalqaro muammoga aylandi. Barcha rivojlangan davlatlar atrof muhitni muhofaza qilishni insoniyat yashashi uchun kurash olib borishning eng muhim masalasi sifatida belgilab oldilar. Ular tomondan quyidagi tashkiliy va fan-texnika tadbirlari ishlab chiqilgan:

– aholining sog'lig'i va mehnatga layoqatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan kimyoviy, biologik va boshqa omillarni aniqlash hamda ularni baholash, bu orqali mazkur omillar salbiy ta'sirini kamaytirish uchun zarur strategiyani ishlab chiqish;

– aholi salomatligiga nisbatan xavfning zarur mezonlarini o'rnatish uchun zaharli moddalarning atrof muhitga ta'sirini baholash;

– ehtimol tutilgan ishlab chiqarish avariyalarining oldini olish bo'yicha samarali dasturlarni ishlab chiqish hamda bu avariyalar oqibatida atrof muhitga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararli oqibatlarni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rish.

Atrof muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq masalalarni hal etishda inson tug'ilishidan boshlab butun umri davomida turli

omillar ta'sirida bo'lishi bilan bog'liq muammolarni hisobga olish lozim. Ularga turmushda, ishlab chiqarishda zaharli va xavfli kimyoviy vositalardan foydalanish, dorilarni iste'mol qilishlariga to'g'ri keladi, shu bilan birga organizmlariga oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibida bo'lgan kimyoviy moddalar tushishi mumkin va hokazolar. Shu bilan birga atrof muhitni tobora ortib borayotgan zararli sanoat chiqindilari ifloslanirmoqda.

Atrof muhitni ana shunday salbiy oqibatlardan muhofaza qilishning eng ta'sirchan chorasi - chiqitsiz yoki kam chiqitli texnologik jarayonlarni joriy etish, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish yoki ulardan ikkilamchi foydalanish uchun qayta ishlashdir. Shuningdek, turli ishlab chiqarishlarni joylashtirish prinsiplariga yondashuvni o'zgartirish, eng zararli moddalar mavjud bo'lgan ishlab chiqarishlarni zararsizlar bilan ahnashtirish atrof muhitni muhofaza qilishga qaratilgan yana bir yo'nalishdir.

Turli sanoat va qishloq xo'jalik obyektlarining o'zaro aloqadorligi tobora kuchayib bormoqda. Bunday sharoitlarda turli korxonalarning yonma-yon joylashganligi, xomashyo manbalarining yaqinligi yoki transportning qulayligi bilan bog'liq foydaga qaraganda avariyalar oqibatidagi ijtimoiy va iqtisodiy zarar ancha katta bo'lishi mumkin. Bunday obyektlarni eng maqbul tarzda joylashtirish vazifasini hal etish uchun atrof muhitga salbiy ta'sirni prognoz qilish qobiliyatiga ega bo'lgan turli yo'nalishdagi mutaxassislarning hamkorligini yo'lga qo'yish talab qilinadi.

XX asr 70 yillarining oxirlarida ko'pgina mamlakatlarda jahon tajribasini mujassamlashtirgan, avval noma'lum bo'lgan, tabiat va aholi sog'lig'iga zarar yetkazadigan omillarni tadqiq etadigan atrof muhitni muhofaza qilish markazlarining tashkil etilishi mavjud muammolarni hal etishni ilmiy asosga qo'yish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

BMT Mingyillik rivojlanish maqsadlari 7 maqsadi vazifalarini hal etishda muayyan natijalarga erishilganiga qaramasdan, 2010 yilga erishilishi mo'ljallangan jahonda biologik xilma-xillikni saqlab qolish muammosi hal etilmadi. Hozirgi tendensiyalar butun XXI asr davomida biologik xilma-xillikni yo'qotish jarayoni davom etishidan dalolat bermoqda. Biologik xilma-xillikni

yo‘qotishning asosiy sabablari bilan kurashishga kiritalayotgan investitsiyalar ortishiga qaramasdan atrof muhitning ifloslanishi, iqlimning o‘zgarishi davom etyapti. Holbuki, Yer yuzidagi milliardlab insonlarning hayoti o‘simlik va hayvonat dunyosining har xil turlari mavjud bo‘lishiga bevosita bog‘liqdir.

O‘rmonlar qisqarishi sur’atlari biroz sekinlashdi. Bunga daraxt ko‘chatlari o‘tqazish dasturlarining amalga oshirilishi hamda ayrim mintaqalarda o‘rmonlarning tabiiy kengayishi tufayli 7 million gektardan ko‘proq o‘rmon paydo bo‘lishi ta’minlandi. Shunga qaramasdan 2000-2010 yillarda o‘rmonlar yiliga 5,2 million gektarga qisqarib bordi. Bu o‘rinda 1990-2000 yillarda mazkur ko‘rsatkich yiliga 8,3 million gektarni tashkil etganligini qayd etish lozim.

Baliqlarning haddan tashqari ko‘p ovlanishi Yer yuzidagi milliardlab odamlar uchun protein manbai bo‘lgan baliqlarni yo‘q qilishga xavf solmoqda. Keng ko‘lamli sanoat baliqchiligi hajmlarining ortishi, shuningdek baliq resurslardan foydalanish zarur darajada tartibga solinmaganligi ushbu muammoni yanada o‘tkirlashtirmoqda.

1987 yilda qabul qilingan Monreal protokoli rejalarini amalga oshirish natijasida atmosfera ozon qatlamini barbod etadigan moddalarning 98,0 % ni bosqichma-bosqich yo‘qotishga 2008 yilda erishildi. Ozon tuynugi hosil bo‘lishiga olib kelayotgan ko‘pgina moddalar Yer yuzidagi iqlimni o‘zgartirishga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. 2007 yilda jahondagi deyarli barcha mamlakatlarning hukumatlari ozon qatlamini barbod etadigan, keng qo‘llaniladigan zararli moddalardan bosqichma-bosqich voz kechish majburiyatini oldilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan BMT sammitining yalpi majlisida so‘zlagan nutqida “Ekologiyani muhofaza qilish va atrof-muhitni asrab-avaylash, ayniqsa, hozirgi anomal tabiiy o‘zgarishlar sharoitida Mingyillik deklaratsiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda katta ahamiyat kasb etadi”.

“Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunda tabiatni muhofaza qilishning maqsadlari sifatida quyidagilar belgilangan:

– odamlar yashashi uchun qulay sharoitlarni yaratish, ekologik muonazanatni saqlash, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlarida tabiatdan oqilona foydalanish;

– tirik tabiatning boy turlari va genetik fondini saqlash;

– ekologik tizimlar, landshaftlar va noyob tabiiy obyektlarning xilma-xilligini saqlash;

– ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

– tabiat obyektlari bilan bog'liq madaniy merosni saqlash.

Inson taraqqiyoti to'g'risidagi birinchi global ma'ruzada *xavfsiz atrof muhit – "Toza suv, oziq-ovqat va havo"* – inson erkinligining unsuridir, deb ta'kidlangan. 2007 yilgi global ma'ruzada esa iqlim o'zgarishi oqibatidagi yo'qotishlar insonni rivojlantirishda qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi konsepsiyasi bayon etilgan. Jumladan, ushbu ma'ruzada jahonda haroratning ko'tarilishi, qutbdagi muzlarning erishi, dengiz sathining ko'tarilishi oqibatida Yer yuzidagi eng nochor aholi guruhlarining ahvoli yanada murakkablashganligi asoslab berilgan.

Hozirgi vaqtda jahon aholisi haroratning global ko'tarilishi o'zlariga jiddiy xavf tug'dirayotganligini anglamoqda. Jahon tom ma'noda nihoyatda xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan jiddiy tahdidlar ostidadir.

Haroratning global ko'tarilishi, qurg'oqchilik, suv toshqinlari va boshqa ekologik muammolar BMT Mingyillik maqsadlarini amalga oshirishga jiddiy to'siq bo'lmoqda. Shuning uchun butun jahon hamjamiyati, barcha mamlakatlarning hukumatlari, butun insoniyatdan dunyo xalqlari oldida avvalari hech qachon mavjud bo'lmagan eng jiddiy xavfga qarshi turish uchun tabiatni muhofaza qilish talab etilmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Ta'lim, salomatlik, ish bilan bandlik va aholi turmush darajasi o'rtasida qanday o'zaro aloqadorlik mavjuddir?

2. “Ta’lim – hamma uchun” strategiyasining mohiyati va uning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida gapirib bering.

3. “Kadrlarni tayyorlash milliy modeli” tushunchasining mohiyati nimada?

4. Demografik siyosat deyilganda nima tushuniladi?

5. O‘zbekistonda demografik vaziyatning xususiyatlari nimalardan iborat?

6. Ekologik muammolar odamlar sog‘lig‘iga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

7. “Gender meynstriming” nima uchun kerak?

8. Siz “BMT – Xabitit” dasturlari va loyihalari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

XII BOB. AHOLINI IJTIMOIY MUHOFAZA QILISH VA INSON TARAQQIYOTI

12.1. Ijtimoiy himoya tizimining inson taraqqiyotidagi roli

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholini kafolatli himoya qilish eng muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vazifadir. Har bir mamlakat ijtimoiy himoya tizimining sifat va miqdor ko'rsatkichlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining darajasidan dalolat beradi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 25 moddasida "Har bir inson ... ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega"[15] ekanligi ko'rsatilgan.

Bu aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi tomonidan ta'minlanadi.

Aholini *ijtimoiy muhofaza qilish tizimi* uchta asosiy shaklga ega:

- *ijtimoiy ta'minot;*
- *ijtimoiy sug'urta;*
- *ijtimoiy yordam.*

Shu bilan bir qatorda aholining ijtimoiy muhofaza qilishning davlat va nodavlat shakllari farqlanadi (12.1-chizma).

Ijtimoiy ta'minot – bu fuqarolar ayrim toifalarini davlat budjeti hamda budjetdan tashqari maxsus fondlar mablag'lari hisobidan moddiy ta'minlashga yo'naltirilgan davlatning ijtimoiy yordam ko'rsatish shaklidir. Fuqarolarga bunday yordam davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan muhim deb e'tirof etilgan hollarda ko'rsatiladi. Ana shu yordamdan aholining nochor qatlamlari axvollarini jamiyatning boshqa a'zolari bilan imkoniyat darajasida tenglashtirish maqsadi ko'zlanadi.

[15] Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. – Т.: Адолат, 2004. – Б.35.



12.1-chizma. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi

Ijtimoiy ta'minotga ehtiyoj jamiyat paydo bo'lishi bilan tug'ildi. Har qanday jamiyatda – uning iqtisodiy va siyosiy tuzilishidan qat'i nazar – o'zlariga bog'liq bo'lmagan vaziyatlar sababli tirikchilik kechirish uchun madad topishga qodir bo'lmagan aholi toifalari bo'ladi. Ularga, eng avvalo, bolalar va keksa kishilar kiradi. Bundan tashqari ijtimoiy yordamga

muhtojlar safini vaqtincha yoki bir umr mehnatga layoqatsizligini yo'qotgan odamlar to'ldirishi mumkin. Jamiyat rivojlanishi va ijtimoiy aloqalar murakkablashishi bilan ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolar qatoriga iqtisodiy sabablar oqibatidagi ishsizlar, kambag'allar, shuningdek inflyatsiyaning yuqori sur'atlaridan moddiy axvollari og'irlashganlar kiradi.

Ijtimoiy ta'minot deyilganda quyidagilar aniqlanadi:

• fuqaroiarga qarilikda mehnat faoliyati, mehnat qobiliyati va boquvchisini yo'qotganligi uchun ko'zda tutilgan moddiy ta'minotdan tashqari ularning normal turmush va madaniy standartlarini kafolatlaydigan taqsimlash shakli;

• fuqarolarni yoshi, kasallanishi, nogironligi, ishsizligi, boquvchisini yo'qotganligi, bolalarni tarbiya qilish uchun hamda qonunda belgilab qo'yilgan boshqa holatlar bo'yicha moddiy ta'minlash tizimi;

• bir tomondan fuqarolar, ikkinchi tomondan davlat, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari tomonidan daromadlari yo'qotilishi yoki kamayishi vaziyatlari paydo bo'lganda fuqarolarga maxsus fondlar, budjet mablag'lari hisobiga tibbiy yordam ko'rsatish, pensiya, nafaqalar va moddiy ta'minlashning boshqa shakllari asosida tarkib topayotgan ijtimoiy munosabatlar jamlanmasi.

Qonunchilik ijtimoiy ta'minotning quyidagi olti turini nazarda tutadi:

• pensiyalar;
• nafaqalar;
• ijtimoiy ta'minot kompensatsiyasi;
• imtiyozlar;
• ijtimoiy va tibbiy xizmatlar;
• hayotiy zarur ashyolar.

Yuqorida qayd etilgan bu turlarning har biri, odatda yana qator turlarga bo'linadi. Bunda ijtimoiy ta'minot turlari barqaror xususiyatga ega bo'lgani holda ularning boshqa turlari muayyan siyosiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarga bog'liq ravishda o'zgarib boradi.

Ushbu ijtimoiy himoya ko'rsatish shaklida avvaldan ma'lum to'lovlar bajarilganmi yoki yo'qmi, shuningdek, shaxslarning moddiy holati (muhtojligi) e'tiboriga olinmagan holda davlat tomonidan ijtimoiy ta'minot taqdim etiladi. Mazkur ijtimoiy himoyaning moliyaviy manbalari – bu umumiy va maxsus soliqlar hisobidan shakllanadigan davlat budjetidan to'g'ridan-to'g'ri olinadigan mablag'lardir.

Aholining ijtimoiy ta'minoti tizimidagi eng muhim unsur – ijtimoiy sug'urtadir. *Ijtimoiy sug'urta* – davlat tomonidan belgilab qo'yilgan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan, davlat maqsadli, budjetdan tashqari ijtimoiy sug'urta fondi, shuningdek boshqa jamoaviy va xususiy sug'urta fondlari mablag'lari hisobiga keksa yoshdagi, mehnatga layoqatsiz fuqarolarni moddiy ta'minlash, qo'llab quvvatlash tizimidir.

Ijtimoiy sug'urta – pul nafaqalari tizimi bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- ishsizlik nafaqasi;
- mehnatga layoqatsizlik nafaqasi;
- homiladorlik va tug'ish nafaqasi;
- qarilik bo'yicha, nogironlik hamda boquvchisini yo'qotganligi bo'yicha pensiya.

Ijtimoiy sug'urtaning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Majburiy ijtimoiy sug'urta. Bu iqtisodiy faol aholini o'z daromadini mehnatga layoqatsizligi tufayli (kasallik, baxtsiz hodisa, keksalik) yoki ishsiz qolgani sababli yo'qotish xavfidan ijtimoiy himoyalash institutidir. Mazkur tizimning moliyaviy manbalari – ish beruvchilar, xodimlarning sug'urta to'lovlari (badallari) hisoblanadi. Ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalarni sug'urtalash tizimlari bundan istisno, ular faqat xodimlarning badallari hisobidan ta'minlanadi.

Ijtimoiy sug'urta tizimlari doirasidagi pensiya va nafaqa pullari fuqaroning sug'urta huquqiga ko'ra, shuningdek uning va ish beruvchining ushbu tizimlarning moliyalashtirilishidagi ishtirokidan kelib chiqqan holda beriladi.

Ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning muhim jihati – mahrum bo'lgan ish haqini o'rnini qoplash omilidir. Unga ko'ra, pensiya

va nafaqa miqdorlari avvalgi ish haqi va badallar miqdori bilan bog‘liq bo‘lib, ma’lum sug‘urta davri mavjudligi har qanday muhtojlik tekshiruvlarsiz belgilanadi.

Majburiy sug‘urta to‘lovlari miqdori jamiyatda shakllangan ijtimoiy kafolat darajalari bilan bog‘liq va ular xodim bilan ish beruvchi o‘rtasida, davlat ishtirokida tuziladigan shartnomalar asosida shakllanadi.

2. Ixtiyoriy qo‘shimcha (kasbiy) ijtimoiy sug‘urta. Sug‘urtaning bu turi iqtisodiyotning alohida tarmoqlari yoki korxonalar doirasida yollanma xodimlar uchun uzoq muddatli tarmoq‘i va jamoa shartnomalari asosida tashkil etiladi. Odatda, ixtiyoriy qo‘shimcha ijtimoiy sug‘urta tizimi xususiy tusga ega bo‘ladi, biroq ular maxsus qonunchilik bilan tartibga solinadi. Bunda sug‘urtalanuvchilar uchun ijtimoiy kafolatlar tizimi yaratiladi. Jumladan, bir korxonada ishlashning eng kam muddati belgilanadi, ushbu muddat tugagach, xodimda qo‘shimcha ijtimoiy nimoya turlaridan foydalanish huquqi paydo bo‘ladi. Masalan, pensiya ta’minoti, sug‘urtalanuvchi o‘z ish joyini o‘zgartirgan holda sug‘urta bo‘yicha qo‘lga kiritgan huquqlari saqlanib qoladi.

Ijtimoiy himoyaning ushbu instituti tashkiliy-huquqiy shakllari alohida korxonalarning pensiya tizimlari hisoblanadi. Buning uchun pensiya huquqlarini amalga oshirishni kafolatlash maqsadida zaxira pensiya jamg‘armasi tuziladi. Korxona yoki mustaqil pensiya kassasi mablag‘ ajrata olmagan holda jamg‘arma to‘lov majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Hozirgi davrda nodavlat pensiya jamg‘armalari rivojlanib bormoqda. Ular o‘zining huquqiy maqomiga ko‘ra ijtimoiy ta’minotning notijorat tashkiloti bo‘lib, majburiy ijtimoiy sug‘urta tizimiga ixtiyoriy qo‘shimcha shakl sifatida faoliyat olib boradi.

3. Fuqarolarning xususiy sug‘urtasi. Sug‘urtaning bu turi shartnoma asosida rasmiylashtiriladi, uning doiralari, amal qilishi muddatlari, jismoniy shaxslarning moliyaviy imkoniyatlari, tavakkalchilik turlari bilan cheklangan bo‘ladi. Ushbu sug‘urta shakli uchun fuqarolarning o‘zlari mas’ulligi xosdir.

“Ijtimoiy himoya” atamasi birinchi marta 1935 yilda AQShning “Ijtimoiy xavfsizlik bo‘yicha Qonun” deb nomlangan

huquqiy hujjatida qo'llanilgan. Mazkur qonunga ko'ra, mamlakat har bir fuqarosining ishsizlik yoki daromadni yo'qotish, shuningdek, uning keskin kamayib ketishi (kasallik tufayli, farzand tug'ilishi natijasida, ishlab chiqarish jarohati oqibatida, nogironlik sababli) bois iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlardan mahrum bo'lishdan himoya qiluvchi chora-tadbirlar tizimi ijtimoiy himoya deb e'tirof etilgan. Bandan keyin bu atama Yangi Zelandiyaning 1938 yili qonun hujjatida qo'llanilgan.

"Aholini ijtimoiy muhofaza qilishi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini aniqlashda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va Xalqaro mehnat byurosi (XMB) ekspertlarining alohida nuqtayi nazari mavjud. Ular ijtimoiy himoya masalasiga ikki tomonlama yondoshadilar. Ya'ni keng ma'nodagi ijtimoiy himoya - inson hayoti va faoliyatining deyarli barcha sohalarini qamrab oluvchi (ijtimoiy himoya predmeti) va tor ma'nodagi ijtimoiy himoya - ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy yordam (ijtimoiy himoya mexanizmi sifatida). Bu o'rinda ijtimoiy himoyaning bu ikki turi o'rtasida jiddiy farq yo'qligini ham ko'rsatish lozim.

Yuqoridagilardan aholining ijtimoiy himoyasi – bu davlat tomonidan aholining munosib turmushni, ya'ni jamiyat rivojining zamonaviy bosqichidagi standartlariga mos bo'lgan moddiy ta'minotni va insonning erkin rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan kafolatlanadigan va amalga oshiriladigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlar majmuasi ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

Davlat ijtimoiy yordami – mehnatga layoqatsizligi, ishsizligi, daromad manbai mavjud bo'lmaganligi sababli mustaqil ravishda o'zini moddiy ta'minlay olmagan shaxslarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam hisoblanadi. Bu yordam turining hajmi shaxs daromadi yoki aholining umumiy turmush darajasi bilan bog'liq bo'lmaydi. Ijtimoiy yordam doirasidagi nafaqa va yordam puliari faqat amaldagi qonunchilikda belgilab qo'yilgan aholi toifalariga beriladi. Mazkur himoya institutining asosiy jihati – bu aholining kam ta'minlangan guruhlariga (bolalikdan nogiron, boshqa nogiron bo'lgan shaxslar, pensiya olish uchun zarur

sug‘urta maqomiga ega bo‘lmagan fuqarolarga)davlatning ijtimoiy-shartnomasiz yordam ko‘rsatishidir.

Jismoniy shaxs tomonidan ijtimoiy yordam olishi uning ijtimoiy mehnat faoliyatidagi ishtirokiga bog‘liq bo‘lmaydi. Ushbu tizimning ijtimoiy yordam pullari muhtoj shaxsning daromadi tekshirilganidan keyin, unga tirikchilik o‘tkazishning eng kam darajasini ta’minlash maqsadida beriladi. Bunga shaxsda tirikchilik o‘tkazishning eng kam darajasi hajmida mablag‘ning mavjud emasligi asos bo‘ladi.

Ijtimoiy himoya tizimida nafaqa va yordam puli miqdori oila a’zolarining daromadlarini hisobga olgan holda belgilanib, bu ularning umumiy daromad hajmi o‘rnatilgan tirikchilik ko‘rishning eng kam miqdoriga yetishi uchun tayinlanadi. Ijtimoiy himoya ushbu institutining moliyaviy manbai hududiy va munitsipal budjetlar hisoblanadi. Bu mablag‘lar umumiy soliq tizimi va maxsus maqsadda yig‘iladigan soliq hisobidan shakllanadi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining shakllanishi va uning insonni rivojlantirishdagi roli o‘z tarixiga ega. XIX asr o‘rtalaridan boshlab ijtimoiy huquqlar fuqarolik huquqlari bilan bir qatorda insonning tabiiy huquqlarining ajralmas qismi sifatida e’tirof etila boshlandi. Lekin ijtimoiy huquqlarning tabiati va mohiyati to‘g‘risidagi tasavvurlar keyingi uch asr davomida jamiyat va davlatning tadrijiy rivojlanishi jarayonida hamda asosiy siyosiy doktrinalarni modernizatsiyalash davomida rivojlanib bordi.

Tomas Morning[16] “Utopiya” (1516 yil) asaridan boshlab tenglik va adolat tushunchasiga davlat tuzilishi bilan bog‘liq ravishda qaraladigan bo‘ldi.

Jamiyatning teng imkoniyatlarga ega bo‘lishda ijtimoiy adolatsizlikka munosabatlari davlatni tenglikni amalda ta’minlash bo‘yicha mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishini talab etadi. Shuning uchun davlat qonun yo‘li bilan shart-sharoitlarning tengligi yagona mezonlarini belgilaydi hamda ayrim toifadagi odamlar

[16] Томас Мор (*Sir Thomas More*, куплрок *Saint Thomas More* сифатида танилган, 1478-1535) — инглиз мутафаккири, ёзувчи.

noqulay ijtimoiy axvolini qoplash uchun teng sharoitlarni iqtisodiy jihatdan ta'minlash mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

"Adolat" asosiy tushunchasi uning ikki turi – kommutativ va taqsimlash adolatini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

1. *Kommutativ adolat* – huquqlarning rasmiy tengligidir. Rasmiy tenglikning asosiy g'oyasini juda qadimiy prinsip – *"Har kimga – xizmatiga yarasha"* yoki zamonaviy *"Har kimga – mehnatiga yarasha"* tashkil etadi.

Ijtimoiy siyosatda kommutativ adolat shaxsiy sug'urta mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Bunda nafaqa to'lash qo'shimcha ijtimoiy ne'matlar uchun xizmatlar ko'rsatish, masalan veteranlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun badallar to'lashni qoplashni nazarda tutadi.

2. *Taqsimlash adolati.* Ijtimoiy siyosatda taqsimlash adolati bevosita tenglik g'oyasi bilan bog'liq bo'lib, alohida ahamiyatga egadir. Mazkur sohada eng mashhur tadqiqotchilardan biri J.Rolz[17] taqsimlash adolatiga ta'rif berar ekan, barcha ijtimoiy ne'matlar – erkinlik va imkoniyat, daromad, mulk, o'z qadr-qimmati hissi teng taqsimlanishi zarur deb hisoblagan. Bunda mazkur ne'matlardan qaysidir birini yoki hammasini notekis taqsimlashga faqat hammaning manfaati yo'lida istisno tariqasida yo'l qo'yilishi mumkin.

Taqsimlash adolati, eng avvalo, iqtisodiy sohada amaldagi tengsizlikni ta'minlashga qaratilgan hamda ne'matlarni boylar va kambag'allar o'rtasida qayta taqsimlashni nazarda tutadi. Hozirgi vaqtda taqsimlash adolati ko'pincha *ijtimoiy adolat* deb yuritiladi.

Kommutativ adolatdan farqli ravishda taqsimlash adolatini tashqi kuchlarning aralashishisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Kimgadir nimanidir berish uchun, bu narsani kimdandir olish kerak. Buning uchun esa hokimiyat zarur. Davlat o'z zimmasiga taqsimlash adolatini amalga oshirish funksiyasini olar ekan, buni qayta taqsimlash orqali bajaradi. Ana shunday qayta taqsimlash insonning maqbul turmush tarzi, ijtimoiy muhofaza qilinishi va

[17] **Jon Rolz** (*John Bordley Rawls*, 1921-2002) — amerikalik faylasuf, AQShning hozirgi davrdagi siyosati negizini tashkil qiladigan ichki va xalqaro huquqning liberal-davlat konsepsiyasining asoschisi. Asosiy asarlari: "Adolat nazariyasi" ("*A Theory of Justice*", 1971), "Siyosiy liberalizm" ("*Political Liberalism*", 1993), "Xalqlar qonuni" ("*The Law of Peoples*", 1999).

eng kam miqdordagi ijtimoiy ne'matlarga ega bo'lishidan iborat himoya qilinishi insonning o'z ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan tabiiy huquqlarini ta'minlaydi.

Biroq kommutativ adolat g'oyalari tenglik prinsipiga zid kelib qolishini ham hisobga olish lozim. Odamlarning bir-biridan tabiatan farq qilinishi tengsizlik paydo bo'lishining birlamchi mohiyati bo'lib, buni imkoniyatlardagi tenglik bilan to'la qoplab bo'lmaydi. "Har kimga – xizmatiga yarasha" prinsipini amalga oshirishga intilinar ekan, kommutativ adolat odamlarning tabiiy tengsizligini yanada chuqurlashtiradi. Ana shunday hollarda davlat, agar u o'zining oldiga ijtimoiy maqsadlarga erishish va ijtimoiy funksiyalarini bajarish vazifasini qo'yar ekan, ya'ni ijtimoiy davlat funksiyasini amalga oshirishga harakat qilar ekan, o'z zimmasiga adolatning turli usullarini amalga oshirish funksiyasini olishi mumkin.

XIX asrning o'rtalariga kelib davlat ijtimoiy funksiyalari rolining ortishi bilan davlatning ijtimoiy mohiyati nazariyasi qayta ko'rib chiqishni talab eta boshladi. Davlatning yangi, ijtimoiy xususiyatini mustahkamlab qo'yish zaruriyati paydo bo'ldi. 1850 yilda Lorens fon Shteyn[18] tomonidan kiritilgan *"ijtimoiy davlat"* tushunchasi xuddi shu maqsadga qaratilgan edi. Lorens fon Shteyn ijtimoiy davlat barcha ijtimoiy sinflar va alohida shaxslar uchun huquqlardagi mutlaq tenglikni o'z hokimiyati vositasi bilan qo'llab- quvvatlashi shart deb ko'rsatgan. Shuningdek, uning fikricha, davlat barcha fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiy etishiga yordam ko'rsatishi zarur, zero bir shaxsning rivojlanishi boshqa shaxsning rivojlanishi sharti sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy davlat to'g'risida bevosita ana shu ma'noda gap boradi.

"Ijtimoiy davlat" atamasining paydo bo'lishi davlatchilik tabiati o'zgarishini prinsipial jihatdan anglash bo'ldi. Mazkur tushuncha *"Ijtimoiy shartnoma sifatidagi davlat", "Hokimiyat-*

---

[18] **Lorens fon Shteyn** (*Lorenz von Stein*, 1815-1890) — nemis faylasufi, huquqshunos, tarixchi, iqtisodchi, "ijtimoiy davlat" g'oyasining muallifi. Asosiy asarlari: "Fransiyada ijtimoiy harakatning 1789 yildan hozirgi kungacha tarixi" ("Geschichte der socialen Bewegung in Frankreich von 1789 bis auf unsere Tage", 1850), "Boshqaruv to'g'risidagi ta'limot" («Die Verwaltungslehre", 1865—1868), "Germaniyada davlat va huquq to'g'risidagi fanning bugungi va ertangi kuni" ("Gegenwart und Zukunft der Rechts- und Staatswissenschaft Deutschlands — Stuttgart", 1876).

ning oliy shakli sifatidagi davlat"dan ijtimoiy funksiyalarni zimmasiga olgan davlatga o'tilishini aks ettirdi.

Germaniyada XIX asrning 80 yillarida "ijtimoiy davlat" atamasi bilan bir qatorda boshqa tushuncha – *"farovonlik davlati"* paydo bo'ldi. "Farovonlik davlati" siyosati o'zining barcha fuqarolari turmushini yaxshilashga yo'naltirilganligini anglatardi. Bunday siyosatning asosini fuqarolarga ijtimoiy huquqlarni kafolatlash, davlatning esa o'z zimmasiga ijtimoiy mas'uliyatni olishi deb hisoblangan.

Ijtimoiy davlat prinsipi qator mamlakatlarning rasmiy doktrinasiga aylandi. Bu prinsip 1919 yilgi Veymar respublikasining konstitutsiyasida va Chexoslavakiyaning 1920 yilgi konstitutsiyasida huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi.

Germaniyada esa 1871 yilda tarixda birinchi marta ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalardan davlat ijtimoiy sug'urtasi joriy etildi. 1880 yilda ushbu davlat tibbiy yordam ko'rsatishni moliyalashtirishni boshladi, 1883 yilda esa kasallanish bo'yicha nafaqa to'lashga kirishildi. Germaniyada 1910 yilda majburiy pensiya sug'urtasi ham joriy etildi.

Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalardan ijtimoiy sug'urtalash Avstriyada – 1887 yilda, Fransiyada – 1898 yilda, Norvegiyada – 1894 yilda, Yangi Zelandiyada –1900 yilda, Shvetsiyada –1901 yilda yo'lga qo'yildi. XIX asrning 70 yillaridan boshlab ikkinchi jahon urushiga qadar Yevropa va Amerikadagi barcha mamlakatlarda davlat sug'urtasi ijtimoiy xavf mavjud sohalarni to'la qamrab oldi. Davlat fuqarolarning farovonligi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi. Jamiyatning barcha a'zolari ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishdan foydalanishlari ta'minlandi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordam ko'rsatish davlat tizimi yaratildi, ijtimoiy dasturlarni budjetdan moliyalashtirish yo'lga qo'yildi, davlat ijtimoiy sug'urtasi sifatidagi ijtimoiy siyosatning yangi mexanizmlari amal eta boshladi.

XX asrning birinchi choragida ko'pgina mamlakatlarda ijtimoiy qonunlar qabul qilindi, ijtimoy davlat prinsiplari joriy etila boshlandi. Ijtimoiy qonunchilikning paydo bo'lishi hamda uning boshqa huquqiy-normativ hujjatlari bilan bevosita

bog'lanishi ijtimoiy normalar va standartlarning huquqiy asosini yaratish zaruriyatini tug'dirdi.

1930 yilda *"ijtimoiy huquqiy davlat"* tushunchasi paydo bo'ldi. Ijtimoiy huquqiy davlatning asosiy g'oyasi davlat tomonidan fuqaro huquqlarining ijtimoiy kafolatidir. Ijtimoiy davlatning uning huquqiy mohiyati bilan bog'lanishi davlat ijtimoiy funkstiyalarini mustahkamlab qo'yishda olg'a qarab katta qadam bo'ldi. Davlatning ijtimoiy funksiyalari faqat huquqiy asoslarga ega bo'lib qolmasdan, shu bilan birga davlatning o'zining huquqiy asosini ham mustahkamladi.

Insonning shaxsiy huquqlari davlat butun huquqiy tizimini tamal toshiga aylandi. Davlatning huquqiy tizimi hokimiyatni – *saylov huquqi,* davlatning siyosiy tabiatini – *fuqarolar huquqi,* ijtimoiy majburiyatlarini va ijtimoiy funksiyalarini – *ijtimoiy huquqlar orqali* belgilab qo'ydi.

Ijtimoiy davlat to'g'risidagi tasavvurlarni rivojlantirishda 1942 yilda U.Beverijning[19] Buyuk Britaniya parlamentidagi "Erkin jamiyatdagi ish bilan to'liq bandlik" mashhur ma'ruzasi asos bo'ldi. Ushbu ma'ruzada "farovonlik davlati"ning asosiy prinsiplari ko'rsatildi hamda birinchi marta kafolatlangan *yagona milliy eng kam daromad g'oyasi* ilgari surildi.

Bu maqsadlarga erishishda davlatning ijtimoiy siyosati uning mehnatga layoqatli aholini ish bilan bandligini to'la ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lishi zarur edi. Shu vaqtdan boshlab "farovonlik davlati" ijtimoiy davlat sinonimiga aylandi. Mazkur bosqichda "farovonlik davlati" ijtimoiy funksiyasining namoyon bo'lishi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda o'z ifodasini topdi.

Davlatning yangi ijtimoiy funksiyasi – ijtimoiy xizmatlarning xususiyati shundan iborat ediki, davlat insonga u tomonidan turmush kechirishning muayyan standartlariga erishish imkoniyati

[19]**Uilyam Genri Beverij** (*William Henry Beveridge, 1st Baron Beveridge*, 1879-1963) – ingliz iqtisodchisi. Asosiy asarlari: "Ishsizlik: sanoat muammosi ("Unemployment: A problem of industry", 1909); "Angliyada o'n ikkinchi asrdan o'n to'qqizinchi asrgacha narxlar va ish haqi" ("Prices and Wages in England from the Twelfth to the Nineteenth Century", 1939); "Ijtimoiy sug'urtalash va uyushma xizmatlari" "(Beverij hisoboti" deb ham ataladi) ("Social Insurance and Allied Services", 1942), "Ish bilan to'la bandlik va erkin jamiyat" ("Full Employment in a Free Society". 1944); "Ish bilan to'la bandlikning iqtisodiy nazariyasi" ("The Economics of Full Employment". 1944).

yo‘qligini shunchaki qoplabgina qolmasdan, balki mazkur standartlarga erishishi uchun shart-sharoitlarni faol shakllantirishi zarur edi. Bunda davlat barcha ijtimoiy guruhlar uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratish mas’uliyatini o‘z zimmasiga olardi. Amalda bu davlatning *nofaol bo‘lgan ijtimoiy siyosatdan faol ijtimoiy siyosatga o‘tishi*ni anglatardi.

Davlatning ijtimoiy tabiati birinchi marta Germaniya Federativ Respublikasining 1944 yilgi konstitutsiyasida o‘z ifodasini topdi. Ushbu konstitutsiyada “Germaniya Federativ Respublikasi *demokratik va ijtimoiy huquqiy federativ davlat*” deb belgilab qo‘yildi. Mazkur qoida amalda hukumatning inson uchun munosib bo‘lgan turmush darajasini ta’minlash, barcha ijtimoiy guruhlar asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan siyosat o‘tkazish mas’uliyatini bildirardi. Ijtimoiy davlat maqomi 1958 yilda – Franstiyada, 1972 yilda – Shveytsariyada, 1975 yilda – Shvetsiyada, 1978 yilda – Ispaniya va Turkiyada joriy etildi.

Davlatning ijtimoiy funksiyalari va uning ijtimoiy maqomi qator xalqaro hujjatlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 55-moddasi, Yevropa Kengashi Ustavining 1-a- va 1-b-moddalari, 1973 yilgi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi paktda mustahkamlab qo‘yilgan.

Mazmun jihatidan “ijtimoiy davlat” bilan “farovonlik davlati” tushunchalari o‘rtasidagi yaqinlikka qaramasdan ularda rivojlanishning obyektiv shart-sharoitlari va davlat qurilishining milliy amaliyoti aks etgani holda muayyan farqlar ham mavjudligini ko‘rsatish lozim.

“Ijtimoiy davlat” tushunchasini talqin etishdagi farqlar ayniqsa “farovonlik davlati” tushunchasi o‘rniga *“yalpi farovonlik davlati”* tushunchasi paydo bo‘lgandan so‘ng yaqqol sezila boshlandi.

“Yalpi farovonlik davlati” g‘oyasi XX asr 50-60-yillarida rivojlangan davlatlarda turmush darajasi keskin oshishi asosida paydo bo‘ldi. Bu paytga kelib ijtimoiy xavflarni sug‘urtalash tizimi odamlarning o‘z kelajaklaridagi mavhumlikni amalda to‘la qoplaydigan bo‘ldi. Davlatning avvalgi shakllaridan farqli ravishda “yalpi farovonlik davlati” butun aholiga turmush

sifatining nisbatan teng va yuqori darajasini ta'minlash mas'uliyatini zimmasiga oldi.

Biroq jamiyat barcha a'zolari uchun yagona farovonlikni ta'minlash rejalari iqtisodiy, demografik cheklovlar va sug'urta mexanizmi inqirozi sababli jiddiy muammolarga duch keldi. XX asrning 70 yillaridan boshlab ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy ta'minot uchun xarajatlar daromadlarga nisbatan yuqoriroq sur'atlarda ortadigan bo'ldi. Bu esa hamma joyda soliqlarni va ijtimoiy ta'minot tizimiga majburiy badallarni oshirishni talab etdi. Iqtisodiyotga bunday bosim, o'z navbatida, uning samaradorligi yo'lida to'siq bo'ldi hamda majburiy badallar va soliqlar yukini kamaytirish zaruratini tug'dirdi. Oqibatda ijtimoiy dasturlar va nafaqalar qisman qisqartirildi. Eng asosiysi - ushbu holat davlat ijtimoiy siyosatini isloh qilish zaruratini tug'dirdi.

Moliyaviy muammolar *ijtimoiy yordam ko'rsatishning manzilligi (tanlanishi) prinsipi*ning keng yoyilishiga sabab bo'ldi. Moliyaviy resurslar yetarli bo'lmagan, ehtiyojlar ortadigan inqiroz davrlarida eng muhtoj fuqarolarga nafaqalarni aniq maqsadli taqdim etish zarurati paydo bo'ladi. Hozirgi davrda nafaqalarning manzilliligi prinsipi ko'pgina mamlakatlarda joriy etilgan. Bunda ana shu nafaqalarning miqdori daromadlar yoki ta'minlanganlik umumiy darajasiga bog'liq ravishda o'zgarib boradi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish aholining ehtiyojmand qatlamlariga pensiya, nafaqa, imtiyozlar, moddiy yordam berish, xizmatlar ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Jahon tajribasi ijtimoiy himoya tizimining to'rtta asosiy tarkibiy qismini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

1. Mehnatga layoqatli bo'lmaganligi, ish joyi, daromad manbalari mavjud emasligi sababli o'z-o'zini mustaqil ravishda moddiy jihatdan ta'minlashga qodir bo'lmagan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish.

2. Davlat ijtimoiy va pensiya ta'minoti. Bu iqtisodiy faol aholining ish joyini yo'qotish yoki pensiya yoshiga yetishi bilan daromaddan mahrum bo'lish xavfidan ijtimoiy himoya qilish tizimi bo'lib, majburiy ijtimoiy sug'urtalash shaklida amalga oshiriladi.

3. Ixtiyoriy qo‘shimcha (kasbiy) sug‘urtalash. Bu alohida tarmoqlar va korxonalar doirasida uzoq muddatli jamoa bitimlari asosida amalga oshiriladi.

4. Fuqarolarning ixtiyoriy ravishda o‘z-o‘zini shaxsiy sug‘urtalashi.

Aholining ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand subyektlariga quyidagi guruhlar kiradi:

• *pensionerlar.* Aholining bu guruhi pul ta’minoti huquqiga ega fuqarolar bo‘lib, ularning bu huquqi tegishli qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Muayyan yoshga (erkaklar 60 yosh, ayollar 55 yosh, ayollarga nisbatan ayrim hollar bundan istisno) yetgan fuqarolar pensiyaga chiqish huquqiga egalar.

Nogironlikning tegishli guruhi belgilangan shaxslar, oila boquvchisini qaramog‘idagi mehnatga qobiliyatsiz oila a’zolari, shuningdek, boquvchisidan ajragan bolalar (14 yoshgacha bo‘lgan bolalar) parvarish. bilan mashg‘ul shaxslar, uzoq vaqt muayyan kasbiy faoliyatni bajarib kelgan xodimlarning ayrim toifasi; ichki ishlar idoralarida harbiy xizmatni o‘tagan lar, ularning oila a’zolari ham aholining pensiya ta’minoti huquqiga ega toifasiga kiradi.

Shu bilan birga aholining bu toifasiga korxona, muassasa, tashkilotda ishlayotgan pensiya oluvchi fuqarolar ham kiradi. Ishlayotgan pensionerlarga keksalik bo‘yicha pensiya 50,0 % miqdorida to‘lanadi;

• *nogironlar.* Aholining bu toifasiga jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi, turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxslar kiradi. Bu toifadagi shaxslar hayot faoliyatini cheklashga olib kelgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qilib qo‘ygan jarohat yoki nuqsonlar, kasalliklar bo‘yicha aniqlanadi;

Organizm funksiyasining buzilish darajasiga bog‘liq holda va hayot faoliyati cheklanganligiga ko‘ra birinchi va ikkinchi guruh nogironligi belgilanadi. Nogiron bolalar jismoniy yoki aqliy, sezgi nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslardir. 16 yoshgacha bo‘lgan bolalarni nogiron deb topish tibbiy-maslahat komissiyalari tomonidan, 16

yoshdan 18 yoshgacha esa – tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

• *kam ta'minlangan oilalar.* Ular daromadlari tirikchilik eng kam miqdoridan yuqori bo'lmagan oilalardir. Kam ta'minlanganlik (kambag'allik) chegarasi mutaxassislar tomonidan me'yoriy iste'mol savatchasi miqdoridan kelib chiqib belgilanadi. Hozirgi vaqtda yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga o'tilishi munosabati bilan bu chegarani belgilash ancha murakkab masala hisoblanadi. Kam ta'minlangan oilalarga ko'p bolali, boquvchisini yo'qotgan, nafaqaxo'r oilalar kiradi.

• *ishsizlar.* Aholining bu toifasiga ishsiz va daromad topish manbai bo'lmagan mehnatga layoqatli fuqarolar kiradi. Bu toifadagi fuqarolar aholining ish bilan bandligi xizmatida ishsiz sifatida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishini talab qilinadi.

Aholining ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand subyektlariga, shuningdek quyidagilar ham kiradi:

• homilador va yosh bolalarga qarash bilan bandligi tufayli ishlamayotgan ayollar;

• kasallik tufayli vaqtincha ishlamayotgan fuqarolar;

• o'quvchi yoshlar;

• mehnatga layoqatsiz shaxslarning parvarishi bilan band bo'lgan, ishlamayotgan mehnatga layoqatli fuqarolar ham kiradi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida quyidagi darajalarni ajratib ko'rsatish qabul qilingan (12.1-jadval):

• aholini davlat tomonidan muhofaza qilish;

• aholini davlat hokimiyatining mahalliy organlari tomonidan muhofaza qilish;

• aholini ijtimoiy birlashmalar, shu jumladan kasaba uyushmalari tomonidan muhofaza qilish;

• xodimlarni ish beruvchilar tomonidan muhofaza qilish;

• oilaviy himoya va o'zini o'zi himoya qilish.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki, boshqa intstitutlar aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida davlat tomonidan belgilangan maqsadlarga erishishda davlatga ko'maklashadilar.Davlat aholini ijtimoiy

muhofaza qilish boshqa institutlar bilan munosabatlarini *ijtimoiy sherikchilik* asosida yo'lga qo'yadi.

Mehnat sohasidagi ijtimoiy himoya xalqaro hamjamiyatda tan olingan va davlat tomonidan kafolatlanadigan xodimning munosib hayot kechirishi uchun yetarli fiziologik, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatidir.

Xalqaro mehnat tashkiloti 117-konvensiyasining 25-moddasida xodim o'zining hamda oila a'zolarining salomatligi va turmushi uchun zarur bo'lgan ehtiyojini qondirishga haqlidir, ya'ni u oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, tibbiy xizmat va hokazolar bilan ta'minlanish imkoniyatiga ega bo'lishi lozimligi ko'rsatilgan. Shuningdek, u o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, o'zi va oilasini ta'minlay olmay qolsa, ishsiz yoki nogiron bo'lsa ham ijtimoiy ta'minlanish huquqiga ega.

Aholini ijtimoiy himoya qilish asosiy institutlarining xususiyatlari

12.1-jadval

Xususiyatlar va mexanizmlar	Davlat ijtimoiy yordami	Davlat ijtimoiy va pensiya ta'minoti	Ixtiyoriy qo'shimcha ijtimoiy sug'urtalash	Ixtiyoriy shaxsiy sug'urtalash
Tartibga solinishi	Davlat tomonidan yordam ko'rsatish uchun obyektiv ehtiyojning mavjudligi	Sug'urta staji, nogironlik, boquvchisini yo'qotish mavjud bo'lganida	Jamoa shartnoma munosabatlari asosida	Shaxsiy sug'urtalash shartnomasi asosida

Tashkil etish prinsiplari	Butun jamiyat mas'uliyati	Davlatning sug'urtachi sifatidagi mas'uliyati	Kasb guruhlarining o'zaro yordami	Fuqarolarning shaxsiy mas'uliyati
Moliyalashtirish	Budjet mablag'lari	Majburiy sug'urta badallari	Xodimlar va ish beruvchilarning sug'urta badallari	Fuqarolarning ihtiyoriy sug'urta badallari
Amal etish mexanizmi	Ehtiyojni baholash	Ijtimoiy xavf turlari va moliyaviy imkoniyatlarni baholash	Kasb xavfini baholash	Shaxsiy xavfni baholash
Boshqarish shakllari	Davlat	Davlat	O'zini o'zi boshqarish	Xususiy sug'urta kompaniyalari
To'lov miqdorini belgilash tartibi	To'lovni oluvchi shaxs kategoriyasi bo'yicha	Mehnat staji davomiyligi, badal miqdori va to'lash vaqti bo'yicha	Mehnat staji davomiyligi	Shaxsiy sug'urta badali miqdori va to'lash vaqti bo'yicha

Yollanib ishlaydigan ishchi kasallik, baxtsiz hodisa, keksalik yoki uning mehnatiga talab kamayishi sababli mehnatga layoqatliligini yo'qotsa (vaqtinchalik yoki muntazam ravishda), unda moddiy ta'minlanish muammosi yuzaga keladi. Shu sababli bozor iqtisodiyotida ijtimoiy himoya jamiyatning xo jalik faoliyati va ijtimoiy hayotning tarkibiy qismiga aylangan. Bu tizimning tashkiliy-huquqiy shakllari esa mehnat jarayoni va xodim qobiliyatining takror hosil bo'lishi uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Xodimlarni ijtimoiy himoya qilish korxona (tashkilot), tarmoq va hudud darajasida amalga oshiriladi. Mazkur ijtimoiy himoya tizimi tarkibi 12.2-jadvalda keltirilgan.

Mehnat jarayonida xodimlarni ijtimoiy himoya qilish unsurlari, mexanizmlari va tizimlari

12.2-jadval

Unsurlar	Mexanizmlar	Tizimlar
Ijtimoiy kafolatlar – milliy darajada: mehnat, ijtimoiy qonunchilik; texnika xavfsizligi va mehnat gigiyenasi	Iqtisodiy, huquqiy, siyosiy	Davlat minimal ijtimoiy standartlari: tibbiy yordam, kasbga yo'naltirish va kasbga tayyorlash
Jamoa, hududiy, tarmoq va bosh kelishuvlardagi ijtimoiy kafolatlar	Ijtimoiy	Mehnatni muhofaza qilish, kasbiy xavf-xatarning profilaktikasi, baholanishi, kamaytirilishi, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish
Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiya va tavsiyalaridagi ijtimoiy kafolatlar	Iqtisodiy, huquqiy	Kasb kasalligi va ishlab chiqarishda mehnat qobiliyatini yo'qotganligini aniqlash, tibbiy, ishsizlik bo'yicha nafaqa, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan ijtimoiy sug'urta

Mehnat sohasida xodimlarni ijtimoiy muhofaza etish tizimi quydagidagidlardan tashkil topgan:

a) mehnat va fuqarolik huquqi qonunchilik me'yorlari. Ular xodimlarni ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish, ish vaqti, dam olish vaqti, mehnatga haq to'lash, ayollar va yoshlar mehnatini muhofaza etish umumiy tartibini belgilab beradi;

b) xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmlari. Ular ijtimoiy-iqtisodiy hamda moddiy mexanizmlardan iborat bo'lib, xodimlarni ijtimoiy muhofaza etish funksiyalari va turlarini, shuningdek xodimlar hamda ish beruvchilar manfaatlarining mutanosibligini ta'minlashga da'vat etilgan jamoa va mehnat shartnomlardan iboratdir;

d) yuridik maqomi hamda iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda aniq maqsadli funksiyalarni bajaradigan ijtimoy muhofaza etish muassasalari.

Ijtimoiy himoyalar tizimida ish bilan band xodimlarni ijtimoiy-iqtisodiy muhofaza etish mexanizmlari katta ahamiyatga egadir (12.2-chizma).

Ish bilan band xodimlarni ijtimoiy-iqtisodiy muhofaza etish mexanizmi quyidagilardan tarkib topgan:

1)ijtimoiy- mehnat kafolatlari:

• ish vaqti davomiyligi, mehnat va dam olish vaqtini, mehnatga layoqatli yosh chegarasini tartibga solish;

• moddiy ta'minot – eng kam ish haqi miqdori, tarif setkalari, vaqtincha mehnatga layoqatni yo'qotgandagi to'lovlar va hokazolar;

• kasb ta'limoti – xodimlarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash, mehnat faoliyati sharoitlaridan xabardor qilish.

2) tibbiy kafolatlar:

• dastlabki va davriy tibbiy ko'riklar o'tkazish;

• ishlab chiqarishda jarohat olganlarni davolash.

3) kompensatsiya – reabilitatsiya kafolatlari:

• xodimning mehnat faoliyatini amalga oshirish paytida sog'lig'iga yetkazilgan zararni moddiy jihatdan qoplash;

• ishlab chiqarishda sog'lig'iga zarar yetganlarni tibbiy, kasbiy va ijtimoy reabilitatsiya qilish;



12.2-chizma. Xodimlarni mehnat jarayonida ijtimoiy muhofaza etish mexanizmlari

• noqulay mehnat sharoʻtlaridagi ish uchun imtiyozlar va kompensatsiyalar.

4) tashkiliy kafolatlar:

• ish joylardagi shart-sharoitlar va mehnatni muhofaza etish tizimini ekspertizadan oʻtkazish;

• ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar sabablarini tekshirish.

Ish bilan band xodimlarni moddiy jihatdan muhofaza etish mexanizmlari ishlab chiqarish muhiti, mehnatni muhofaza etish, gigiyena va tibbiy xizmat koʻrsatishni mujassamlashtiradi. Ular

xodimlarni mehnat faoliyati jarayonida ijtimoy himoya qilish muayyan darajasini shakllantiradi.

Mazkur guruh mexanizmlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

• *ijtimoiy muhofaza qilishning texnik mexanizmlari.* Bu ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash darajasi, ish joylarini tashkil etilishining mehnat xavfsizligi talablari hamda ergonomika tavsiyalariga muvofiqligi darajasi;

• ijtimoiy-maishiy infratuzilma – tegishli sanitariya me'yorlariga javob beradigan maishiy xonalarning mavjudligi.

Aholini, shu jumladan xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilishda ijtimoiy sherikchilik iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyotiga ega davlatlarda daromadlar siyosatini amalga oshirishda qo'llaniladi. Hukumat, ish beruvchilar va kasaba uyushmalari ishtirokidagi uch tomonlama komissiyalar ijtimoiy sherikchilikning vositasi hisoblanadi. Mazkur komissiyalar har yili ish haqi va ayrim ijtimoiy to'lovlar miqdorini tartibga solishga qaratilgan bitimlar tuzadilar.

Hozirgi davrda jahonda aholini ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iboratdir:

• aholining nochor toifalariga avvalgi ko'psonli, jiddiy ahamiyatga ega bo'lmagan nafaqalar to'lash o'rniga aniq manzilli yo'nalishga ega bo'lgan yagona nafaqalarni joriy qilish;

• ijtimoiy yordamga muhtoj aholi toifalariga aniqlik kiritish, ayni paytda ularning muhtojlik darajasini aniqlash;

• ijtimoiy sohaning yetakchi sohalarida (sog'liqni saqlash, ta'lim, turar joy-kommunal xo'jaligi) jamoatchilik sektorini rivojlantirish;

• aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi xarajatlarini davlat va mahalliy budjetlar o'rtasida oqilona taqsimlash;

• ijtimoiy soha tarmoqlarida xo'jalik yuritishning xususiy shakllari va notijorat tashkilotlarini rivojlantirish;

• ijtimoiy sohani dasturiy moliyalashga o'tish, moliya mablag'lari xarajatlarining ijtimoiy normativlarini o'rnatish va sarf-xarajatlar ustidan jamoat nazoratini kuchaytirish;

• ijtimoiy buyurtmani shakllantirish va uni bajarish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarni jalb etish.

12.2. Kuchli ijtimoiy siyosat – insonni rivojlantirish "o'zbek modeli"ning ustuvor yo'nalishi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning ijtimoiy maqomi to'g'risida maxsus modda mavjud bo'lmasa ham O'zbekiston mohiyati jihatidan ijtimoiy davlat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati insonning munosib turmush kechirishi va erkin rivojlanishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari o'rtasida birinchi bo'lib o'tish davrida aholini ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini e'lon qildi.

Yuqorida qayd qilinganidek O'zbekistonga sobiq totalitar tizimdan og'ir meros qolgan. Mamlakatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari sobiq ittifoq respublikari o'rtalarida ham eng paslaridan biri edi. Shuning uchun mamlakatda bozor islohotlariga o'tishning dastlabki bosqichida murakkab sharoitlarda aholini ishonarli ijtimoiy muhofaza qilish uchun ta'sirchan choralar ko'rishga to'g'ri keldi.

O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirishning "o'zbek modeli" asosida aholini ijtimoiy muhofaza qilishning aniq manzilli va maqsadli tizimi barpo etildi. U quyidagilarga asoslangan:

• fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunchiligida kafolatlangan huquqlariga to'la amal etilishini ta'minlaydigan normativ-huquqiy va institutsional bazalar hamda mexanizmlar;

• aholining "o'zini o'zi ijtimoiy muhofaza qilish" salohiyatini faollashtirishning samarali mexanizmlari va sharoitlari;

• obyektiv shart-sharoitlarga ko'ra bozor munosabatlarida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmagan aholining alohida qatlamlari va kategoriyalarini manzilli va maqsadli himoya qilishning normativ, institutsional va resurs asoslari.

Mazkur kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda davlat va mahalliy hokimiyat organlari, ish beruvchilar, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirok etadi.

Mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi davlat organi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hisoblanadi. Uning aholini muhofaza qilish sohasidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- muhtoj oilalar, pensionerlar, nogironlar, yolg'iz keksa fuqarolarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tabaqalinishi va manzilligini kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish va ijtimoiy himoya mexanizmlari amal etishi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- manfaatdor vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va muassasalar bilan birgalikda pensionerlar, nogironlar, yolg'iz keksa fuqarolarga qonunchilik bilan belgilangan imtiyozlar, sanatoriya-kurortlarda davolanish uchun yo'llanmalar va harakatlanish maxsus vositalarini taqdim etishda ishtirok etadi;
- manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda eng muhim ijtimoiy-mehnat normalari va normativlarning ro'yxatlarini belgilaydi hamda ularni ishlab chiqishni muvofiqlashtiradi;
- Iqtisodiyot vazirligi, boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda aholining turmush darajasi va farovonligini tadqiq etadi hamda ularni oshirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;
- manfaatdor vazirliklar va idoralar, davlat hokimiyatining joylardagi organlari ishtirokida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishga muhtoj pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, aholining boshqa ijtimoiy nochor guruhlarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;
- Bandlikka ko'maklashish davlat fondi mablag'larini belgilangan tartibda tasarruf qiladi;
- Ishsizlar va ular oilalarini Bandlikka ko'maklashish davlat fondi mablag'lari hisobiga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ta'minlanishini tashkil etadi;
- Bandlikka ko'maklashish davlat fondi mablag'laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qiladi;

• ish joylarining eng kam miqdori ajratilishi masalalarini o‘rganadi va tahlil qiladi hamda bu ish joylari ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar tomonidan egallanishini ta’minlaydi;

• dehqon va fermer xo‘jaliklarida ish bilan band fuqarolar, shuningdek tadbirkorlarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha belgilangan ijtimoiy kafolatlar va choralar amalga oshirilishini tashkil etadi;

• Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi bilan aholi daromadlarini tartibga solish davlat mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

• Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha takliflar tayyorlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi fuqarolarning quyidagi toifalarini qamrab olgan:

• qonunchilikka muvofiq nogiron deb topilgan shaxslar, shuningdek 18 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalar;

• texnogen va tabiiy ofatlar, shuningdek harbiy va millatlararo mojarolarda jabr ko‘rganlar;

• qarilik bo‘yicha pensiya tayinlash uchun zarur mehnat stajiga ega bo‘lmagan hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq moddiy ta’minlanishlari kerak bo‘lgan shaxslar tomonidan bunday moddiy yordam olmayotgan 65 yoshga to‘lgan yolg‘iz erkaklar va 60 yoshga to‘lgan ayollar, shuningdek o‘zgalar tomonidan parvarish qilishga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz qari fuqarolar;

• fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan belgilab qo‘yilgan darajadan kam daromadga ega bo‘lgan ayrim fuqarolar hamda kam ta’minlangan oilalar;

• ko‘p bolalik kam ta’minlangan oilalardagi bolalar;

• yetim bolalar hamda vasiysiz qolgan bolalar;

• ijtimoiy muhim hisoblangan kasalliklarga chalingan shaxslar;

• ikki yoshgacha bo‘lgan bolalarni parvarish qilayotgan kam ta’minlangan oilalardagi onalar yoki bunday ona mavjud bo‘lmaganda ular o‘rnidagi shaxslar;

• boquvchisini yoqotgan oilalar, voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalayotgan bevalar;

• rasmiy ravishda ishsiz sifatida ro‘yxatga olingan fuqarolar.

O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy muhofaza qilish shakllaridan biri - ijtimoiy nafaqa Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 iyundagi qarori bilan joriy qilingan. 1990-1993 yillarda fuqarolar bunday toifa fuqarolarga ijtimoiy pensiyalar berilar edi.

Nafaqa tegishli budjet mablag‘lari hisobidan obyektiv sabablarga ko‘ra ish haqi yo‘qotilgani, shuningdek aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy himoya qilish maqsadlarida tayinlanadi (12.3-chizma).

Ish haqi yo‘qotilgani bilan bog‘liq nafaqalarga vaqtinchalik ishga layoqatsizlik, homiladorlik va tug‘ruq bo‘yicha, ishsizlik va boshqa shu kabi holatlar bo‘yicha to‘lanadigan nafaqalar kiradi.

Aholining ayrim guruhlarini *ijtimoiy himoya qilish maqsadlarida tayinlanadigan nafaqalar* ayollar va bolalarga bir martalik to‘lovlar, bolalarni parvarishlash bilan band bo‘lgan oilalarga, dafn marosimi uchun to‘lanadigan nafaqalar va boshqa to‘lovlar kiradi.

Yosh bo‘yicha nafaqalar. Yoshi bo‘yicha nafaqa ish stajiga ega bo‘lmagan, yaqinlari yo‘q 65 yoshga to‘lgan erkaklar va 60 yoshga to‘lgan ayollarga tayinlanadi. Ijtimoiy ta’minot bo‘limlari tekshiruviga ko‘ra, nafaqa so‘rab murojaat etgan shaxs qarindoshlarining moddiy nochorligi aniqlangan hollarda nafaqa o‘zlarining keksa qarindoshlariga moddiy yordam ko‘rsata olmaydigan qarindoshlari bor bo‘lgan taqdirda ham tayinlanishi mumkin. Yoshi bo‘yicha nafaqa tayinlash to‘g‘risida murojaat etgan shaxs tuman (shahar) ijtimoiy ta’minot bo‘limiga ariza, ariza beruvchining yoshini tasdiqlovchi hujjat, yashash joyidan ma’lumotnoma, ariza beruvchi oilasining umumiy daromadi to‘g‘risida ma’lumotnoma taqdim etishi lozim. Fuqaroning holati o‘rganilib chiqqandan so‘ng unga ijtimoiy ta’minot bo‘limi tomonidan nafaqa tayinlanadi.



12.3-chizma. Nafaqa turlari

Nogironlik bo'yicha nafaqalar. Mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotilgan I va II guruh nogironlariga nafaqa tayinlanadi va to'lanadi. Fuqarolarning mehnat qobiliyatlarini yo'qotganlik darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirishni faqat tibbiy-mehnat ekspert komissisiyalari shahar yoki tuman ijtimoiy ta'minot bo'limlari yo'llanmasi bo'yicha amalga oshiradi. Ishlab turgan yoki daromadning boshqa manbalariga ega bo'lgan I va II guruh nogironlarga nafaqa to'lanmaydi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqa. Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan shaxs vafot etgan taqdirda uning qaramog'ida bo'lgan oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqa olish huquqiga ega.

Vafot etgan fuqaroning oila a'zolariga nafaqalar miqdori quyidagicha belgilanadi:

- oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a'zosiga – vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo'lgan nafaqaning 100,0 %;
- oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a'zosiga nafaqaning – 75,0 %;
- oilaning mehnatga layoqatsiz bir a'zosiga nafaqaning – 50,0 %.

Boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha nafaqa tayinlashda tuman (shahar) ijtimoiy ta’minot bo‘limiga boquvchisining vafot etganligi to‘g‘risida guvohnoma va bolalarning tug‘ilganligi to‘g‘risidagi guvohnomalar nusxasi taqdim etiladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi. Nafaqaning bu turi quyidagi hollarda beriladi:

• vaqtincha mehnatga qobiliyatini yo‘qotish bilan bog‘liq kasallikda;

• sanatoriy-kurortlarda davolanganda;

• kasallanganda oila a’zosini parvarishlash zarur bo‘lganda;

• karantinda;

• sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o‘tkazilganda;

• mehnat qobiliyatini tiklash yoki protez qo‘ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotqazilganda.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini tayinlash uchun belgilangan tartibda berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik (kasallik) varaqasi asos bo‘ladi. Nafaqaning bu turi mehnat qobiliyati yo‘qotilgan birinchi kundan to u tiklanguncha qadar yoki tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi tomonidan nogironlik belgilangunga qadar beriladi.

Ishlayotgan nogironlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha nafaqa mehnatda mayiblanish hodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari ketma-ket ikki oydan va kalendar yilda uch oydan oshmagan muddatga beriladi. Ishlayotgan imtiyozli jihatdan Ikkinchi Jahon Urushi nogironlariga tenglashtirilgan nogironlarga, Chernobil AESdagi falokat yoki uning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha ishlarni bajarish bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra nogiron bo‘lgan shaxslarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ketma-ket to‘rt oygacha yoki kalendar yilda besh oygacha beriladi. Agar ishlayotgan nogironning vaqtincha mehnatga layoqatsizligi mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli yuz bersa, nafaqa u to‘la sog‘ayguncha yoki mehnatda mayiblanish yoxud kasb kasalligi bilan nogironlik guruhi qayta ko‘rib chiqilgunga qadar to‘lanadi. Sil kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha nafaqa shaxs to‘la

sog‘aygunga qadar, lekin ko‘pi bilan 10 oyga beriladi. Xodim sil kasalligi bilan qayta kasallanganda yoki sil kasalligi oqibatida nogiron deb topilganda nafaqa ko‘pi bilan 6 oyga beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik quyidagi davrlarga to‘g‘ri kelganda nafaqa to‘lanmaydi:

1.Ish haqi saqlanmagan ta’til.

2.Bolani parvarishlash bo‘yicha ta’til.

3.Ish vaqtincha to‘xtatilganda.

4.Xodim ish (lavozim)dan chetlashtirib, mehnat haqi to‘lash to‘xtatib qo‘yilganligi sababli ishlamaganda.

5.Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o‘quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo‘shimcha ta’tilda.

Bulardan tashqari, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ishdan yoki boshqa vazifalardan bo‘yin tovlash maqsadida o‘z salomatligiga ataylab ziyon yetkazgan yoxud o‘zini kasallikka solganda; giyohvandlik yoki mastlik bilan bog‘liq harakatlar oqibatida, shuningdek, spirtli va giyohvandlik moddalarni iste’mol qilish natijasida kasallikka chalinganda; jinoyat sodir qilish vaqtida jarohatlanganda; sud qarori asosida majburiy davolanishga yuborilganda; hibsda bo‘lgan davrda; sud-tibbiyot ekspertizasidan o‘tish davrida berilmaydi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish stajining davomiyligidan qat’i nazar ish haqining 100,0 % miqdorida ishlayotgan Ikkinchi Jahon Urushi qatnashchilariga; baynaminal jangchilarga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga; qaramog‘ida 16 yoshga (o‘quvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo‘lgan xodimlarga; Chernobil AESdagi avariya natijasida radioaktiv zararlanish zonasidan evakuatsiya qilingan va ko‘chirilgan, qon hosil qiluvchi organlar kasalliklari va xavfli o‘smalar bilan bog‘liq kasalliklarga chalingan xodimlarga; mehnatga mayiblanish va kasb kasalligi natijasida vaqtincha mehnatda yaroqsiz bo‘lgan xodimlarga to‘lanadi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kasalliklar (sil kasalligi, onkologiya kasalliklari, xavfli o‘smalar, jinsiy yo‘l bilan o‘tadigan kasalliklar, OITS, moxov kasalligi, ruhiy kasalliklar) bo‘yicha hisobga turgan xodimlarga ular tomonidan davlat ijtimoiy sug‘urta

badallari to‘lagan davrining (umumiy ish stajining) davomiyligiga bog‘liq ravishda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi miqdorda to‘lanadi:

• umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo‘lgan xodimlarga ish haqining 100,0 % miqdorida;

• umumiy ish staji 5 yildan 8 yilgacha bo‘lgan xodimlarga ish haqining 80,0 % miqdorida;

• umumiy ish staji 5 yilgacha bo‘lgan xodimlarga ish haqining 60,0 % miqdorida.

Umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo‘lgan xodimlarga hamda 21 yoshga yetmagan yetimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi mehnat haqining 80,0 % miqdorida; umumiy ish staji 8 yilgacha bo‘lgan xodimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi mehnat haqining 60,0 % miqdorida to‘lanadi.

Umuman, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa barcha hollarda belgilangan eng kam ish haqidan kam bo‘lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidan yuqori bo‘lmasligi lozim.

Kasallangan oila a’zosini parvarishlash zarur bo‘lganda beriladigan nafaqa. Uch yoshgacha bo‘lgan bolani yoki 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolani parvarishlashda band bo‘lgan ona kasal bo‘lib, bolani parvarishlashga qurbi yetmay qolgan hollarda, parvarish bilan band bo‘lgan ishlayotgan boshqa oila a’zolari yoki qarindoshlariga mehnatga layoqatsizlik varaqasiga asosan nafaqa beriladi. Oilaning kasal bo‘lgan a’zosiga qarash bo‘yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor birovning parvarishiga muhtoj bo‘lgan, lekin 7 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi. 14 yoshga yetmagan bemor bolaga qarash uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bolaga parvarish kerak bo‘lgan, ammo 14 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.

Homiladorlik va tuqqandan keyingi davrlar bo‘yicha nafaqa. Homiladorlik va tuqqandan keyingi davrlar ta’tili sifatida ayollarga tuqqaniga qadar 70 kalendar kun va tuqqanidan keyin 56 kalendar kun (tug‘ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug‘ilgan hollarda – 70 kalendar kun) ta’til beriladi. Bu nafaqani

tayinlash va to‘lash uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo‘ladi hamda ko‘rsatilgan barcha davr uchun to‘lanadi. Oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarini tamomlagan va ishga yuborilgan ayollarga ishni boshlagunga qadar homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asosida nafaqa ayol ishga kelishi lozim bo‘lgan kundan boshlab beriladi. Ishni vaqtinchalik to‘xtatish yoki ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o‘quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo‘shimcha ta’til davrida homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’til berilgan holda, nafaqa ko‘rsatilgan davr tugagandan keyin ayol chiqishi lozim bo‘lgan kundan boshlab beriladi. Xodim yillik ta’tilda va bolani parvarishlash uchun ta’tilda bo‘lgan vaqtda homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’til berilganda, nafaqa homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’tilning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko‘rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo‘yicha ta’til davri uchun nafaqa ta’rif stavkasidan (lavozim maoshidan) va ta’til boshlanishidan oldingi 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning o‘rtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi. Bunda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochilgan kunga bo‘lgan tarif stavkasi joylarda belgilangan tuman koeffitsiyenti va ustamalarni hisobga olgan holda olinadi.

Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa, shu jumladan, ayrim hollarda, ya’ni mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko‘ra bekor qilingandan keyin bir oy ichida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik yoki homiladorlik va tug‘ish ta’tili boshlangan bo‘lsa, nafaqa yashash joyidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta’minot bo‘limi tomonidan ish haqining 100,0 % miqdorida beriladi.

Bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa. Bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi. Ish haqiga koeffitsiyent qo‘llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koeffitsiyentlarni hisobga olgan holda belgilanadi. Ishlayotgan ayollarga hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan ayollarga bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa tegishlicha ish yoki o‘qish joyidan to‘lanadi.

Ishlamaydigan va o‘qimaydigan ota-onalarga bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa ijtimoiy ta’minot bo‘limlari tomonidan tayinlanadi va to‘lanadi. Agar ayol homiladorlik bo‘yicha ta’til davrida ishdan bo‘shab, shu davr mobaynida homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa olgan bo‘lsa, bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi. Bola o‘lik tug‘ilgan hollarda nafaqa to‘lanmaydi.

Qo‘shimcha dam olish kuni uchun nafaqa. Bu nafaqa nogiron bolasini tarbiyalayotgan ishlovchi ota-onaning biriga bola o‘n olti yoshga to‘lgunga qadar davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to‘lagan holda oyiga qo‘shimcha bir dam olish kuni beriladi.

Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa. Dafn etish marosimi uchun nafaqa xodim yoki uning qaramog‘ida bo‘lgan quyidagi oila a’zolari vafot etganda beriladi:

- turmush o‘rtog‘i;
- 18 yoshga to‘lmagan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat’i nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari;
- ota-onasi;
- bobosi yoki buvisi.

Xodim vafot etganda dafn etish marosimi uchun nafaqa oila a’zolariga yoki dafn o‘tkazishni o‘z zimmasiga olgan shaxslarga tuman (shahar) ijtimoiy ta’minot bo‘limi tomonidan eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida beriladi. Ishlamaydigan pensioner vafot etgan taqdirda dafn etish marosimi uchun nafaqa uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o‘tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining ikki hissasidan kam bo‘lmagan miqdorida to‘lanadi. Ayolning homilasi tushgan hollarda dafn etish marosimi uchun nafaqa berilmaydi.

Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan xodim yoki uning oila a’zosi vafot etgan taqdirda dafn etish marosimi uchun nafaqa, agar unga so‘nggi ish haqi to‘langan kundan bir oydan ko‘p vaqt o‘tmagan bo‘lsa beriladi. Oliy, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan shaxslar, maktablar, malaka oshirish institutlari o‘quvchilari yoki ularning oila a’zolari vafot etganda, agar ular kurslarga, maktablarga, institutlarga korxona

tomonidan yuborilgan bo'lsalar va ularning o'qish davridagi ish haqi to'la yoki qisman saqlanib qolgan bo'lsa, dafn etish marosimi uchun nafaqa eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida beriladi.

Ishsizlik bo'yicha nafaqa. Qonunda belgilangan tartibda ishsiz deb tan olingan fuqarolarga ishsizlik bo'yicha nafaqa beriladi. Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan shaxslar uchun ishsizlik nafaqasi oldingi ish joyidagi oxirgi bir yilgi o'rtacha ish haqiga foiz nisbatida belgilanadi. Boshqa hollarda ishsizlik nafaqasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdoriga foiz nisbatida belgilanadi. Qaramog'ida 16 yoshga to'lmagan bolalari va boshqa kishilar bo'lgan ishsiz shaxslarga nafaqa miqdori 10,0 % ga oshiriladi. Ish haqiga koeffitsiyentlar belgilangan joylarda yashovchi shaxslarga tayinlanadigan ishsizlik nafaqasi miqdorlari ularning shu joylarda yashagan davri uchun mazkur joyda noishlab chiqarish tarmoqlarining xodimlariga belgilangan koeffitsiyentni qo'llagan holda aniqlanadi. Ishsizlik nafaqasi davlat bandlikka ko'maklashish jamg'armasi hisobidan tayinlanadi.

Ishsizlik nafaqasining quyidagi turlari farqlanadi:

1. Birinchi marta ish qidirayotganlar shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi;

2. Uzoq tanaffusdan keyin ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi.

Birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi ilgari ishlamagan va ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash yoki ishga joylashish imkoniyati berilmagan taqdirda, ularda qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining kamida 75,0 % miqdorida nafaqa to'lash kafolatlanadi.

Uzoq tanaffusdan keyin ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik bo'yicha nafaqa uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan ishsiz fuqarolarga to'lanadi. Bu quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

• mutaxassisligi bo'lgan shaxslar uchun, shuningdek, 12 oy mobaynida haq to'lanadigan ish bilan bandligi 12 kalendar haftadan kam bo'lmagan shaxslar uchun, agar ularning ishga joylashishi uchun kasbga qayta o'rgatish yoki malakasini oshirish talab qilinmasa, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda;

• boshqa hollarda, shu jumladan, mutaxassisligi bo'lmagan shaxslarga, mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish imkoniyati berilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining 75,0 % miqdorida.

Ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

• ishsiz shaxs zarur kasb malakasiga ega bo'lmaganligi tufayli unga maqbul keladigan ish tanlash mumkin bo'lmasa;

• ishsiz shaxsning kasb ko'nikmalariga mos keladigan ish yo'qligi sababli uning kasbini o'zgartirish zarur bo'lsa;

• ishsiz fuqaro avvalgi kasbi bo'yicha ish bajarish qobiliyatini yo'qotgan bo'lsa.

Ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish o'quv yurtlarida mehnat organlarining yo'llanmalari bo'yicha davlat bandlikka ko'maklashish jamg'armasining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ish beruvchi tomonidan to'lanadigan nafaqa. Nafaqaning mulkchilik shaklidan va xo'jalik yuritish usulidan qat'i nazar, ish beruvchilar korxonada (tashkilotda) mehnat shartnomasi tuzish asosida yollanib mehnat qiluvchi xodimlariga to'lanadigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, bir yo'la beriladigan nafaqa hisoblanadi. Xodim ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisa yoki boshqa xil shikastlanish tufayli sog'lig'iga zarar yetganda, shuningdek, u kasb kasalligiga chalinishi tufayli salomatligi yomonlashganda, ish beruvchi unga bir yillik o'rtacha ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda bir yo'la beriladigan nafaqa to'laydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi tufayli xodim vafot etgan taqdirda ish beruvchi uning qaramog'ida

bo‘lgan shaxslarga olti yillik o‘rtacha ish haqidan kam bo‘lmagan miqdorda nafaqa to‘laydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi tufayli sog‘lig‘iga zarar yetgan yoki vafot etgan xodim qaramog‘ida bo‘lgan fuqarolarga nafaqa to‘lash shartlari va tartibi, nafaqaning aniq miqdori tegishli qonun hujjatlarida, jamoa kelishuvlari va jamoa shartnomalarida, boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilanadi.

O‘zbekistonda mehnat sohasida xodimlarni ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlashda 2008 yilgi “Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtalash to‘g‘risida” hamda 2009 yilgi “Ish beruvchilarning fuqaroviy mas’uliyatini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususan, “Ish beruvchilarning fuqaroviy mas’uliyatini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risida”gi qonunda xodim o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha ish beruvchi o‘z fuqarolik javobgarligini belgilangan shartlar asosida va tartibda sug‘urtalashi shart ekanligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekistonda aholining nochor qatlamlariga ijtimoiy yordam fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari – mahallalar orqali beriladi.

O‘zbekistonda ijtimoiy xizmat qo‘rsatish turlariga quyidagilar kiradi:

- nogironlarni “Muruvvat” uylariga, yolg‘iz qariyalarni “Sahovat” uylargia joylashtirish;
- muhtojlarni protez-ortopediya va harakatlanish vositalari bilan ta’minlash;
- nogiron bolalarni kasbga o‘qitish va ishga joylashishda yordam ko‘rsatish;
- pensionerlarni sanatoriy va dam olish uylarida sog‘lomlashtirish;
- qonunda belgilangan tartibda muhtojlarga turar joy, maishiy xizmat to‘lovlari va soliqlarda intiyozlar berish.

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, pensiyaning quyidagi uch turi mavjud:

- yoshga doir pensiya;
- nogironlik pensiyasi;
- boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar 60 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006 yil 7 sentabrdagi “2007-2010 yillarda yolg‘iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida”gi 459 sonli Qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro‘yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Chunonchi:

- yoshidan qat’i nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1 sonli ro‘yxati (kon sanoatidagi yetakchi kasb egalari, bevosita yerosti va ochiq kon ishlarida to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlar, uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlarning xizmat muddati – erkaklarda 20 yil, ayollarda 15 yil bo‘lganda);
- umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning 2-sonli ro‘yxati (yerosti ishlarida, mehnat sharoiti o‘ta zararli va o‘ta og‘ir ishlarda to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlar, stirklar va konsert tashkilotlari artistlarining ayrim toifalari ijodiy ishdagi stajı kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda);
- umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar va ko‘rsatkichlarning 3 sonli ro‘yxati

(urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, qishloq xo'jaligi xodimlarining ayrim toifalari, aviastiya muhandis texniklari tarkibining xodimlari, shahar yo'lovchilar tashish transporti haydovchilari, besh va undan ortiq farzand tuqqan hamda ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan ayollar, ekologiya falokati mintaqasida ishlagan fuqarolar, ijtimoiy ta'minot tizimining qariyalar, nogironlar va yolg'iz fuqarolarga xizmat ko'rsatishda bevosita band bo'lgan xodimlar).

O'zbekistonda nogironlarga nisbatan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat ularning hayotda va jamiyat taraqqiyotida faol qatnashish imkoniyatlarini kengaytirishga, moddiy axvollarini yaxshilashga qaratilgan. Hayot faoliyatining buzilishi darajasiga qarab birinchi, ikkinchi nogironlik guruhi belgilanadi.

Birinchi guruh nogironlikni belgilash uchun kasalliklar, jarohatlar, tug'ma nuqsonlar oqibatida organizm hayot faoliyatining yaqqol ko'rinib turgan cheklanishlari asos bo'ladi.

Birinchi guruh nogironlik quyidagi hollarda belgilanadi:

• o'ziga o'zi xizmat qilish, harakat qilish yoki o'z xulq-atvorini nazorat qilish (o'qish, muomala qilish, harakatlanish), shuningdek, mehnat faoliyatida qatnashish mumkin bo'lmagan, bu esa o'z navbatida boshqalarning doimiy parvarishiga, yordamiga yoki nazoratiga ehtiyoj sezishga olib keladigan, to'la ijtimoiy moslashuvchanlikni yo'qotish hollarida (tetraplegiya, og'ir tetraparez, og'ir surunkali psixozlar, inkurabel xatarli o'smalar);

• harakat qilish, o'ziga o'zi xizmat qilish, o'qish yoki muomala qilish, o'zini idora qilish, o'z xulq-atvorini nazorat qilish, shuningdek, oddiy ishlab chiqarish sharoitida mehnat faoliyatida qatnashish ancha qiyinlashgani oqibatida, agar ko'rsatilgan buzilishlar doimo o'zgalarning parvarishi, yordami yoki nazorati zarurligini taqozo etuvchi ancha yaqqol ko'rinib turgan ijtimoiy moslanuvchanlikni yo'qotish hollarida (oyoqlarning doimiy falaji, har ikki qo'lning cho'ltoqligi, ya'ni har ikki panjadagi hamma barmoqlarning yo'qligi, yuqoridan uchdan bir darajada har ikki sonning cho'ltoqligi, butunlay ko'rmaslik).

Ikkinchi guruh nogironlik quyidagi hollarda belgilanadi:

• salomatligining holatiga ko‘ra mehnat faoliyatida qatnasha olmaslik oqibatida ancha yaqqol ko‘rinib turgan ijtimoiy moslashuvchanlikni yo‘qotishda yoki mehnat faoliyati ta’sirida kasallik kechishining yomonlashishi, og‘ir asoratlar paydo bo‘lish xavfi tug‘ilganda, shuningdek, muomala qilish, o‘zini idora qilish, o‘qish, o‘z xulq-atvorini nazorat qilishga yaqqol qiynalishda, ammo o‘zgalarning yordamiga, parvarishiga yoki nazoratiga ehtiyoj bo‘lmaganda (yurakning klapan apparati shikastlanganligi yoki qon aylanishining II va III darajali doimiy buzilgandagi miokard, tez avj oluvchi, tez-tez krizislarga moyil ikkinchi bosqich gipertoniya kasalligi, o‘pka sirrozi, takroriy miokard infarkti, qisqa vaqt ichida takrorlangan insult, yaqin masofani ko‘rolmaslik);

• og‘ir surunkali kasalliklar, tayanch-harakat a’zolarining o‘zaro bog‘liq nuqsonlari va ko‘rish qobiliyatini ancha yo‘qotish oqibatida yaqqol ko‘rinib turgan ijtimoiy moslashuvchanlikni yo‘qotganda, shuningdek, muomala qilish, o‘zini idora qilish, o‘qish, o‘z xulq-atvorini nazorat qilish hamda oddiy sharoitdagi mehnat faoliyatida qatnashish qiyin bo‘lganda, ammo o‘zgalarning yordamiga, parvarishiga yoki nazoratiga ehtiyoj bo‘lmaganda (ovqatlanishning kamayishi va qisqa muddatli remissiyalar ko‘rinib turgan yara kasalligining og‘ir shakli, zaharlanish, tez-tez zo‘rayib turadigan bronxoektatik kasallik, tez-tez huruj qiladigan tutqanoq kasalligi, qadam bosishni bir muncha buzib turadigan oyoq paraparezi).

Nogironlik pensiyalari mehnat qobiliyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotilgan quyidagi hollarda tayinlanadi:

• mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda;

• umumiy kasallik (ish bilan bog‘liq bo‘lmagan shikastlanish, mayiblik, bolalikdan nogironlik) tufayli.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat’i nazar tayinlanadi. Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar quyidagicha ish stajiga ega bo‘lgan taqdirda tayinlanadi.

20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi.

Agar nogironlik keltirib chiqaruvchi jarohatlanish, zaharlanish, issiq urishi, kuyish, sovuq urishi, cho'kish, elektr toki yoki yashin urishi, shuningdek, tabiiy ofatlar yoki avariyalar tufayli salomatlikning boshqacha shikastlanishi mehnat vazifasini bajarishda, korxona, tashkilot hududida sodir bo'lsa, nogironlik mehnatda mayiblanish tufayli sodir bo'lgan deb hisoblanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Marhumning qaramog'ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag' manbaidan mahrum bo'lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, o'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga egadirlar.

Pensiyalar tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanib, uning miqdori ish stajining muddatiga bog'liq bo'lib, pensiyaning tayanch miqdori, ish staji uchun pensiyaning oshirilishi va pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan tarkib topadi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni bilan pensiyalarning quyidagi tayanch miqdorlari belgilangan:

- yoshga doir to'liq pensiya uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55,0 %, lekin rasmiy belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida 100,0 % miqdorida;
- va 2 guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55,0 % , lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100,0 % miqdorida;
- 3 guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish

haqining 30,0 %, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50,0 % miqdorida;

• oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30,0, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50,0 % miqdorida;

• ota-onasidan judo bo'lgan bolalarga yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30,0 %, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100,0 % miqdorida.

Ta'kidlash joizki, to'liq davlat ta'minotida turgan yetim bolalarga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi eng kam oylik ish haqining 100,0 %, ota-onasining biridan ajralgan va to'liq davlat ta'minotida turgan bolalarga eng kam oylik ish haqining 50,0 % miqdorida pensiya to'lanadi.

Sahovat uylarida yashovchi yolg'iz qariyalar va nogironlarga pensiya bilan ular ta'minoti uchun sarf-xarajat o'rtasidagi farq, lekin tayinlangan pensiyaning kamida 10,0 %, urush nogironlariga esa kamida 20,0 foizi to'lanadi.

2004 yilda O'zbekistonda budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga asos solindi. Natijada 2005 yil 1 yanvardan boshlab ish bilan band jismoniy shaxslarning daromad solig'ini kamaytirish hisobiga ular ish haqining 1,0 % ni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallar sifatida o'tkazila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrdagi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mamlakat pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish imkonini berdi.

Hozirgi vaqtda pensiya va nafaqalarni tayinlash, ularning to'lovini monitoring qilish, hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi yangidan tashkil etilgan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Uning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilab qo'yilgan:

• fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil etish;

• fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni tayinlash, ularning miqdorlarini qayta hisoblab chiqish;

• jamg'arma hisobvaraqalarida majburiy to'lov, badallar va boshqa to'lovlarni jamlash;

• pensiyalar va boshqa to'lovlarning to'liq hamda moliyalashtirilish va to'lanishini tashkil etish, ular bo'yicha hisob va hisobotni yuritish;

• fuqarolarning pensiya ta'minotiga doir mablag'larini qat'iy maqsadli ishlatilishini ta'minlash.

Mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilishning pensiya va ijtimoiy nafaqalar orqali qo'llab-quvvatlashdan tashqari ular uchun qator imtiyozlar ham joriy qilingan. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq davlat pensiyasi tayinlangan I va II guruh nogironlari, yolg'iz pensionerlar, boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar, shuningdek shaxsiy pensionerlar yer solig'i to'lashdan ozod qilinadilar. Bundan tashqari I va II guruh nogironlari va pensionerlar qonunchilikda belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida mulk solig'i to'lashdan ozod etilganlar. Yolg'iz pensionerlar, shu jumladan nogironlar, shaxsiy pensionerlar har oyda kommunal to'lovlari bo'yicha imtiyozlar o'rniga eng kam ish haqining 45,0 % miqdorida kompensatsiya to'lovlarini olishmoqda. Ayrim toifadagi fuqarolar pensiyalariga davlat oldida ko'rsatgan xizmatlari uchun eng kam ish haqining 0,5 barobaridan 3,0 barobarigacha har oylik ustamalar belgilangan.

10.3. Mahalla – O'zbekiston aholisini ijtimoiy muhofaza qilishni tashkil etishning noyob iustituti

Insonni rivojlantirish vazifalarini bajarishda davlat tuzilmalari bilan bir qatorda biznes, fuqarolik jamiyati institutlari zimmalarida ham katta mas'uliyat bor. Davlat jamiyatning qo'llab- quvvatlashisiz hamma mavjud ijtimoiy muammolarni to'liq hal eta olmasligi ayondir.

Shuning uchun davlat hokimiyatning markaziy organlari asosiy e'tiborlarini inson salohiyatni shakllantirishga yo'naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirishning strategik masalalariga qaratadigan bo'lsa, joriy ijtimoiy muammolarni hal etish davlat hokimiyati mahalliy organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining vazifalaridir.

O'zbekistonda "*Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga*" konsepsiyasi izchil amalga oshirilar ekan, bunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallaga alohida o'rin berilgan.

Mahalla–o'zini o'zi boshqarish tizimining xalqimizga xos noyob tizimidir. *Mahalla* – O'zbekistonda ma'muriy-huquqiy birlik, o'zini o'zi boshqarishning milliy an'analar va qadriyatlarga xos bo'lgan usulidir. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, miloddan avvalgi uchinchi asrdan milodiy beshinchi asrning boshlarigacha Parkana (Farg'ona) davlatida oqsoqollar kengashi amal etgan. Kengash vakolatiga sulh tuzish, vazirlar tarkibini aniqlash, soliqlarni belgilash, fuqarolarni jamoa ishlariga safarbar qilish va boshqa vazifalar kirgan.

Adabiyotlarda mahallaning ko'p mingyillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Buxoroda X asrda bir qancha mahallalar bo'lgani qayd etilgan. Alisher Navoiy esa "Hayrat ul-abror" asarida "Mahalla - shahar ichidagi shaharcha" ekanligi bayon etilgan. Amir Temur saltanatida mahallalar fuqarolarning kasb-korlari asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Zargarlik, misgarlik, ko'nchilik, pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchilik, egarchilik, taqachilik va hokazo mahallalar mavjudligi ana shu bilan izohlanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng davlatchiligimiz tarixida birinchi marta "mahalla" tushunchasi Asosiy Qonunimizga kiritilib, jamiyat boshqaruvidagi o'rni va konstitutsiyaviy maqomi qat'iy belgilab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105 moddasi hamda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlar to'g'risida"gi Qonunga binoan mahallalar o'z huquqiy maqomiga ega bo'ldi.

Yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunda esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati tarkibi organlariga kirmasligi ko'rsatildi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolar yig'inlari, shuningdek shahar mahallalaridan iborat (12.4-chizma).

Mahalla institutining tiklanishi va rivojlantirilishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar - do'stona qo'shnichilik va o'zaro hurmat, mehr-oqibat, yordamga muhtoj odamlarga g'amho'rlik qilish, yoshlarni vatanparvarlik, jamiyat oldidagi o'z burchi va javobgarligini teran angiash ruhida tarbiyalash maqsadlariga xizmat qilmoqda. Mahalla tom ma'noda aylanib, ozod va obod Vatan barpo etish, xalq farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni amalga oshirishda mustahkam tayanch bo'iib xizmat qilmoqda.



12.4-chizma. Qishloq, ovul, shahar mahallasi fuqarolari yig'ini tashkiliy tuzilmasi

Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolarning 9773 ta o‘zini o‘zi boshqarish organi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining asosiy prinsiplari – ochiqlik, oshkoralik, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mahalliy ahamiyatga ega vazifalarni hal etishda mustaqillik, ijtimoiy o‘zaro yordamdir. Mazkur organlar hokimiyatning barcha darajadagi vakolatli organlariga saylovlarda faol ishtirok etadilar, o‘zlari ham saylov asosida shakllanadi. Har ikki yarim yilda fuqarolar yig‘inlarining raislari (oqsoqollar) va ular maslahatchilarining saylovlari bo‘lib o‘tadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari mamlakatda amalga oshiralayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarni kengaytirish va chuqurlashtirishda faol ishtirok etadilar. Avvallari davlat hokimiyati mahalliy organlari vakolatiga kirgan 30 tadan ortiq funksiyalar bugun mahallalar tomonidan bajarilmoqda. Bu funksiyalarga, jumladan, quyidagilar kiradi:

• o‘z hududlarini kompleks rivojlantirish, obodonlashtirish va sanitariya ahvolini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar rejalarini tasdiqlash;

• qonunlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi, shuningdek o‘z qarorlari bajarilishi ustidan jamoat nazoratini amalga oshirish;

• O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi va mahalliy kengashlar deputatligiga nomzodlar ko‘rsatish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

• tuman, shahar va viloyat hokimiyatlari rahbarlarining fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga taalluqli masalalar bo‘yicha muntazam hisobotlarini eshitish;

• hududlarida joylashgan korxona, tashkilot, muassasalar rahbarlarining atrof muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish masalalari bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida hisobotlarini eshitish;

• kam ta’minlangan oilalarga ularning uylari va kvartiralarini ta’mirlashda yordam ko‘rsatish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

• o‘z hududi ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘larini ixtiyoriylik asosida jamlash masalalari bo‘yicha qarorlar qabul qilish;

• o‘z hududida yashaydigan fuqarolarning ish bilan bandligiga ko‘maklashish, jumladan oilaviy biznes va kasanachilikni tashkil qilish;

• atrof muhitni muhofaza qilishga ko‘maklashish;

• to‘ylar va boshqa marosimlarni o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar berish;

• hasharlar tashkil etish va hokazolar.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondining o‘rni va ahamiyati tobora ortmoqda. Hozirgi vaqtda jamoat fondi tarkibida 14 hududiy bo‘lim, 196 tuman va shahar bo‘linmalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular aholini ijtimoiy himoya qilish bilan birgalikda bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy rivojlantirishga salmoqli hissalarini qo‘shmoqdalar. “Mahalla” xayriya jamoat fondi tashabbusi bilan umumxalq hasharlari o‘tkazilmoqda, mahallalarni obodonlashtirish, fuqarolar yig‘inlari markazlarini qurish va jihozlash ishlari olib borilmoqda. U fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga katta amaliy yordam ko‘rsatmoqda. Jumladan, 3600 dan ortiq fuqarolar yig‘inlari zamonaviy kompyuterlar, mebel va zarur inventarlar bilan jihozlandi. Mahallalarning faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash, hududlarni obodonlashtirish uchun 4 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari orqali aholining ayrim guruhlariga (nogironlar, yolg‘iz pensionerlar, pensiya tayyorlash uchun zarur stajga ega bo‘lmagan yolg‘iz qari fuqarolar, yetim bolalar, kam ta’minlangan oilalardagi bolalar va boshqalar) qishki kiyim-kechak, o‘quv qurollari bepul tarqatiladi, o‘zgalar parvarishga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz qari fuqaroiar patronaji amalga oshirilishiga yordam ko‘rsatiladi, muhtoj fuqarolarning turar joy-kommunal va boshqa xarajatlarini qoplash bo‘yicha choralar ko‘riladi.

Mahallaning jamiyatdagi o‘rni va mavqeidan 2011 yilda “Ijtimoiy fikr” markazi tomonidan o‘tkazilgan sostiologik tadqiqot natijalari ham yaqqol dalolat berib turibdi. Ma’lum bo‘lishicha, fuqarolar mahallalarga o‘z shaxsiy muammolarini hal etish

(so‘rovda ishtirok etganlarning 51,0 %), ijtimoiy yordam so‘rab (40,0 %), o‘z oilasi, mahallasidagi bahsli masalalarni hal etish (13,4 %), turli tadbirlarni tashkil etishda yordam ko‘rsatish (12.7 %) to‘g‘risida murojaat qilishadi. Eng e’tiborlisi, bu murojaatlarning aksariyat qismi ijobiy yechimini topmoqda. Sotsiologik tadqiqotda ishtirok etganlarning yarmidan ko‘prog‘i fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ishini ijobiy baholadilar. Fuqarolarning aksariyat ko‘pchiligi (90,9 %), mahalla o‘zlarining va oilalarining hayotida juda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdilar.

Mamlakatda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish konsepsiyasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko‘lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o‘zaro yaqin munosabatlarini ta’minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi ko‘rsatilgan.

Bu vazifani hal qilish uchun “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilmoqda. Bu mahallani aniq yo‘naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirish maqsadlariga qaratilgan.

Mahallalarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan “O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish ham mo‘ljallangan.

Nazorat uchun savollar

1. Ijtimoiy siyosatda kommutativ va taqsimlash adolati qaysi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?

2. Ijtimoiy muhofaza qilish tizimining asosiy institutlari funksiyalari nimalardan iborat?

3. Ijtimoiy davlat deyiiganda nima tushuniladi?

4. O‘zbekistonda amalga oshiriiayotgan ijtimoiy siyosat mexanizmlarining asosiy yo‘nalishlari nimadan iborat?

5. Aholining nochor kategoriyalari tarkibiga kimlar kiradi?

6. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimi qanday amal etadi?

7. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish yuzasida qanday funksiyalar yuklatilgan?

GLOSSARIY

Asosiy ehtiyojlar — bu davlat sektori (sog'liqni saqlash, ta'lim, ba'zi davlatlarda uy-joy sotib olishga ketgan xarajat) tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hamda shaxsiy daromad hisobiga sotib olingan mahsulotlar (oziq-ovqat va kiyim-kechak) majmuidir.

Aholi, jami — ma'lum yilning 1 iyul holatiga ko'ra, mamlakat, viloyat yoki mintaqa aholisining amaldagi soni.

Aholi ko'payishi — jamiyatning asosiy reproduktiv jarayonlaridan biri bo'lib, uni aholidan uch ko'rinishdagi «harakatlar», ya'ni «tabiiy», makonga oid ijtimoiy harakatlar yig'indisi ko'rinishida qarash mumkin.

Aholi zichligi — mamlakat yoki region birligiga to'g'ri keladigan aholi soni.

Aholining yillik o'sish sur'ati — ko'rsatilgan davrda aholining har yilgi o'rtacha eksponensial o'sish sur'atlariga taalluqlidir.

Vazni kam bo'lgan chaqaloqlar — bu vazni 2,5 kilogrammdan kam bo'lgan chaqaloqlarning foizlardagi ulushidir.

Demografik transformatsiya modeli — Sanoatlashuvgacha bo'lgan, industrial va postindustrial jamiyatli mamlakatlarning rivojlanish jarayonida tug'ilish va o'lim koeffitsiyentlarining o'rgarishi asosidagi demografik vaziyat dinamikasini empirik tasvirlashni namoyon etadi.

Gender — jamiyatda mavjud bo'lgan shart-sharoitlardan kelib chiqib, ayollar va erkaklarning tug'ilishidan boshlab jamiyat tomonidan ayol va erkaklarga beriladigan ijtimoiy, madaniy, siyosiy, huquqiy va iqtisodiy xususiyatlar majmui. Bu mazkur madaniyatda odamning ayol yoki erkak ekanligining ijtimoiy farqidir. Jinsiy farqlar asosida yaratilgan ijtimoiy va madaniy konsepsiyalar ayollar va erkaklar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni va jamiyatdagi hokimiyat taqsimlanishini belgilab beradi. Bu konsepsiya ijtimoiy-madaniy konsepsiya ekanligi bois, tarixiy jarayonda o'zgarib borish xususiyatiga egadir, shuning uchun bu tushuncha bir madaniyatdan boshqasiga qarab farqlanib boradi.

Gender tahlili — jamiyatda qiz bolalar va ayollarning, o'g'il bolalar va erkaklarning turli faoliyatlarini, bilimlarini,

iste'dodlarini va ehtiyojlarini namoyon etish uchun to'plangan ma'lumotlar majmuasi va tahlilidir. Undan jinsiy tafovutlarga asoslangan tengsizliklarni aniqlash va bunday tengsizliklarni bartaraf etishga imkon beradigan siyosat, dasturlar va loyihalarni amalga oshirish uchun foydalaniladi. Gender tahlili rejalashtirilgan choralarning natijalari va ularning ayollar hamda erkaklar uchun oqibatlarini tushunish uchun yo'naltirilgandir.

Gender tengligi — ayollar va erkaklarning turli xulqlarini, intilishlarini va ehtiyojlarini bir xil inobatga olgan, muhim o'rin tutgan va teng huquqli tarzda olg'a siljitilgan jarayon tushuniladi. Ayollar va erkaklar inson huquqlarini to'liq amalga oshirish, o'zlarining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy rivojlanishga hissa qo'shishi va undan foyda olish uchun teng shart-sharoitga egadirlar. Bu ayollar va erkaklar bir xil bo'lib qoladi degani emas, balki bu ularning huquqlari, majburiyati va imkoniyatlari ularning ayol bo'lib yoki erkak bo'lib tug'ilishlariga bog'liq emasligini anglatadi. Genderli teng huquqlilik barcha erkaklar va ayollar o'zlarining shaxsiy imkoniyatlarini erkin rivojlantira olishi va qarorlar qabul qila olishini bildiradi.

Daromadlar taqsimotining destil koeffitsiyentlari — deb eng boy oilalarning yoki odamlarning 10% ga to'g'ri kelgan minimal daromadlarini eng kambag'al oilalarning yoki odamlarning 10% ga to'g'ri kelgan maksimal daromadlariga nisbatiga aytiladi.

Diskriminatsiya — bu o'zgalarga nisbatan bo'lgan, faqat ularning biror irq, etnik tarkib, jins, din, yosh yoki nogironlik kabi alohida olingan ijtimoiy guruhga yoki kategoriyaga tegishliligiga asoslangan, turlicha munosabatdir. Ayollarga nisbatan diskriminatsiya erkaklar va ayollar tengligi, ularning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik va boshqa sohadagi inson huquqlari va asosiy erkinliklari asosida, ularning oilaviy sharoitiga bog'liq bo'lmagan holda, ayollarning huquq va erkinliklarini, ularning tan olinishini zaiflashtirish yoki inkor etish shaklidagi maqsadga yoki ta'sirga ega bo'lgan, jins asosidagi har qanday tafovut, ayirish va cheklovni anglatadi. Bevosita diskriminatsiya aynan bir xil vaziyatda bir odamga nisbatan boshqa odamga qaraganda (garchi, ko'pincha, bu holat tan olinmasada) biror-bir jiddiy sabablarsiz, masalan, jinsiy tafovutlarga ko'ra, tengsizlikka asoslangan muno-

sabatdir. Bilvosita diskriminatsiya bu qonunchilik va siyosatda taqdim etilayotgan imkoniyatlardan ma'lum bir sabablarga ko'ra to'liq foydalana olmaslik holatidir.

Degradatsiya — bu biror-bir narsa yoki holatning son va sifat jihatdan oldingi holatiga nisbatan yomonlashuvidir. Ya'ni berilgan atama ekotizimlarning tarkibiy qismlariga nisbatan (masalan, o'rmonlar degradatsiyasi, biror joy hayvonot dunyosining degradatsiyasi), shuningdek, suv obyektlariga (masalan, Orol dengizi degradatsiyasi), millat va elatlarga hamda rivojlanish tushunchasiga teskari tushunchasi—antiteza-sifatida qo'llaniladi. Masalan, tuproq degradatsiyasi deganda tuproq tarkibining buzilishi, eroziyaga uchrashi, botqoqlanishi, sho'rlanishi va boshqa sabablarga ko'ra uning holati yomonlashib, tuproq unumdorligi pasayishi tushuniladi.

Demografik siyosat — bu davlat organlari va ularning ijtimoiy institutlarining aholi ko'payishi jarayonini tartibga solish sohasidagi maqsadli yo'naltirilgan faoliyatidir. Demografik siyosat, o'z navbatida, aholi sonining o'zgarishini boshqarish, uning miqdoriy va sifat jihatlarining maqbulliligiga erishishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmui bo'lib, kelajakda sog'lom avlodni ta'minlash garovi deb hisoblanadi.

Depopulyatsiya — bu muayyan hudud ichida aholi sonining kamayishi jarayonidir.

Deprivatsiya — bu iqtisodiy (oziq-ovqat, turar joy, va h.k.), ijtimoiy (sog'liqni saqlash, ta'lim va h.k.) va boshqa hayot uchun muhim bo'lgan boshlang'ich ne'matlardan mahrum bo'lishdir.

Kambag'allik — ijtimoiy guruh yoki individning hayot uchun zarur bo'lgan eng kam ehtiyojlarini qondira olmasligining iqtisodiy sharoitini aks ettiruvchi xususiyat.

Kambag'allik, mutlaq – kambag'allik chegarasidan kam bo'lgan iste'mol yoki daromad darajasiga ega bo'lgan aholi yoki uy xo'jaliklari soni.

Kambag'allik, nisbiy — kambag'al aholining ma'lum foizini (masalan, 10%, 20%, 30%) yoki mamlakat aholisi va uy xo'jaliklarining o'rtacha yoki mediana daromad darajasiga nisbatan kambag'allik chegarasini belgilaydi.

Jamlama indeks — ushbu kattalik, vaziyatni umumiy holatda tavsiflovchi turli statistik ko'rsatkichlarni o'zida jamlagan integral

indeksdir. Bu jamlama indeks bo'lib, uning negizida yotgan modelning asosida alohida ko'rsatkichlarni yagona indeksga birlashtirish natijasida shakllantiriladi. Jamlama indeks yordamida bitta ko'rsatkich bilan aks ettirish mumkin bo'lmagan turli xil birlikka ega bo'lgan miqdorlarni o'lchash mumkin, masalan, kambag'allik, raqobatbardoshlik, barqarorlik, bozorga integratsiya va h.k.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi — bu iqtisodiy o'sish, iqtisodiyotdagi ijobiy tuzilmaviy o'zgarishlar hamda aholining turmush sharoitlarini va yashash sifatining oshishini qamrab olgan ko'p qirrali jarayondir.

Jismoniy sog'lomlik — tananing tabiiy holati. shartli ravishda uning barcha a'zo va tizimlarining normal ishlashi.

Iqlim o'zgarishi — bu ma'lum vaqt davomida yer yuzasida yoki ma'lum bir mintaqada o'n yillikdan million yillargacha bo'lgan davrdagi ob-havoning ko'p yillik statistik ishonchli kattaliklaridan chetga chiqishini anglatadigan yer iqlimining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonga aytiladi. Bu o'zgarish ob-havo shart-sharoitlarining o'rtachasining yoki bu o'rtachani atrofidagi hodisalarning o'zgarishlaridan ham iborat bo'lishi mumkin.

Inson taraqqiyoti — insonlarning uzoq, sog'lom va munosib ijodiy hayot kechirish va boshqa shu kabi, ularning tasavvurlarida qadriyatga ega bo'lgan asosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan erkinliklarning kengayish hamda yer yuzida adolatlilikni ta'minlash va barqaror rivojlanish yo'lida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarda faol ishtirok etish jarayonidir. Kishilar - alohida holda ham, guruhlar doirasida ham moddiy va ma'naviy mahsulotlarning iste'molchisi hamda taraqqiyotning asosiy kuchi sifatida qaraladi

Inson taraqqiyoti indeksi (ITI) — inson taraqqiyotini rivojlantirishning umumiy ko'rsatkichi. Muayyan mamlakatda inson taraqqiyoti quyidagi eng muhim uchta elementida erishilgan natijalarning o'rtacha darajasini o'lchaydi: uzoq va sog'lom hayot — tug'ilishda kutiladigan umr ko'rish uzunligi bilan o'lchanadi; bilimlar olish — ta'lim olishning o'rtacha davomiylik ko'rsatkichi va ta'lim olishning kutilayotgan ko'rsatkich-laridan iborat; davomiyligi ko'rsatkichlaridan iborat; turmush darajasi (HQT AQSh dollarida) — aholi jon boshiga YaMD (yalpi milliy daromad) ko'rsatkichi bilan o'lchanadi.

Iste'mol narxlari indeksi — bu xaridor tomonidan sotib olinadigan tovarlar va xizmatlar «savatchasi»ning o'rtacha bahosi bo'lib, «savatcha»ning hajmi mamlakatdan mamlakatga o'tgan sari o'zgarishi, doimiy bo'lishi hamda muayyan vaqt oralig'ida o'zgarib borishi mumkin. Iste'mol narxlari indeksining o'zgarishi pulning haqiqiy qiymatini, ya'ni uning xarid qilish qobiliyatidagi o'zgarishlarni aks ettiradi.

Kontratseptivlarning tarqalganlik darajasi — bu ayol o'zi yoki turmush o'rtog'i zamonaviy yoki an'anaviy kontratseptiv vositalardan foydalanayotgan reproduktiv (15—49) yoshdagi ayollar ulushidir.

Konvergensiya — deb biror-bir aniq ko'rsatkichlar bo'yicha davlatlar o'rtasidagi farqning tadrijiy kamayib borish jarayoniga aytiladi.

Kutiladigan umr davomiyligi (tug'ilishda) — bu bolaning tug'ilish davrida shu yoshdagi aholi guruhlari uchun xos bo'lgan muayyan hayot ko'rsatkichlari uning butun umri davomida o'zgarishsiz bo'lib qolganda yashashi kutiladigan yillar soni.

Kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi indeksi — inson taraqqiyotini rivojlantirish indeksining asosini tashkil etadigan uchta indekslardan biri.

Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi — yetishmovchiliklar intensivligiga qarab tuzatish kiritilgan ko'p o'lchovlar bo'yicha kambag'al bo'lgan aholi ulushini belgilab beruvchi tarkibiy indeks. KKI ham inson taraqqiyoti indeksi (ITI)ni hosil qiluvchi uch yo'nalish bo'yicha (hayot kechirish darajasi, sog'liq va ta'lim) uy-xo'jaligi miqyosidagi ko'plab etishmovchiliklarni o'nta ko'rsatkich asosida aniqlab berdi. Shu bilan birga, bu ko'rsatkich kambag'al odamlar hamda kambag'al uy xo'jaliklari boshidan kechirayotgan yo'qotishlarning o'rtacha sonini ko'rsatib berdi.

Maktab ta'limining o'rtacha davomiyligi — aholining savodxonlik darajasini e'tiborga olgan holda, har bir ta'lim bosqichining nazariy davomiyligiga asoslangan hamda maktab ta'limi yillariga o'tkazilgan, 25 va undan yuqori yoshdagilar tomonidan butun hayoti davomida egallanadigan ta'lim olish yillarining o'rtacha soni.

Masofaviy ta'lim — bu asosiy ishdan uzilmagan holda ta'lim muassasasidan masofada ta'lim va kasb-hunar dasturlarini

o‘zlashtirishdir. Masofaviy ta’lim zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalaridan foydalinishga asoslanadi.

Migratsiya — odamlarning bir mamlakatdan ikkinchisiga ko‘chib, kamida bir yil mobaynida o‘z vatanidan chetda istiqomat qilishi.

Oila — Birlashgan Millatlar Assambleyasining 1989 yil 8 dekabrdagi 44/82 sonli rezolyutsiyasida 1994 yil «Dunyoning o‘zgarishida oila bu resurslar va mas’uliyatlar» shiori ostida Xalqaro Oila yili deb e’lon qilindi. BMT «ideal oila» tushunchasini ma’lum bir qolipga solish yoki «oila axloqi»ni aniq bir vazifalar sari yo‘naltirishni maqsad qilib qo‘ymadi. Oila konsepsiyasi ba’zi jihatlari bilan davlatdan davlatga va hattoki davlat ichidagi bir mintaqadan ikkinchi mintaqagacha o‘tib borgan sari farqlanib boradi, shu bois, oila tushunchasiga universal yagona bir ta’rif berib bo‘lmaydi.

Oila qurishni rejalashtirish — bu shunday xatti-harakatlar majmuasi hisoblanadiki, unda ba’zi bir shaxslarga yoki er-xotinlarga yordam berish orqali quyidagi natijalarga erishish tushuniladi: a) istalmagan homiladorlikning oldini olish; b) orziqib kutilayotgan bolani dunyoga keltirish; d) homiladorliklar orasidagi oraliq muddatni nazorat qilish; e) ota-onalarning yoshidan kelib chiqqan holda farzand ko‘rish vaqtini tanlashni nazorat qilish va oiladagi farzandlar sonini belgilash.

Onalar o‘limi — homiladorlikning davomiyligi va makonidan qat’i nazar, ayolning homiladorlik davrida yoki tug‘uruqdan keyingi 42 kun davomida tug‘uruq asorati tufayli, homiladorlik yoki og‘ir o‘tgan homiladorlik yoki, homilador ayolni parvarish qilish bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday sababga ko‘ra (homiladorlikka bog‘liq bo‘lmagan favqulodda hodisalar va sabablar bundan mustasno) yuz bergan o‘limidir.

Onalar o‘limi koeffitsiyenti — yiliga 100 000 tirik tug‘ishga to‘g‘ri keladigan homiladorlik yoki tug‘uruq sababli vafot etgan ayollar soni.

Salomatlik determinantlari — bu alohida insonlar yoki aholi guruhlarining salomatligini belgilab beruvchi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillarning majmuidir.

Salomatlikning ekologik ko'rsatkichlari — bu atrof-muhit (masalan, suv, havo va Yerning sifatini, ifloslanish darajasini va h.k.) holatining aks ettirilishidir.

Sog'liq — bu nafaqat kasallik va jismoniy nuqsonlar yo'qligi holati, balki to'la jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik hamdir.

Sog'lom hayotning kutilayotgan davomiyligi — bu termin birinchi marta USST tomonidan kutilayotgan sog'lom hayot davomiyligi ko'rsatkichi sifatida taklif qilingan bo'lib, undan kasal yoki ishga layoqatsiz holatida bo'lgan yillar chiqarib tashlanadi.

Sog'liqni saqlash tizimi — salomatlik sohasida faoliyat olib borayotgan hamda asosiy maqsadi salomatlikni tiklash va qo'llab quvvatlash bo'lgan, to'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy salomatlikni ta'minlash, uni himoya qilish sohasidagi ishtirokchilar, manbalari, va muassasalar majmuidan iborat.

Sivilizatsiya — jamiyatning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi va rivojlanish darajasini ifodalovchi bu tushuncha madaniyat, din va ijtimoiy hamda iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Shunga ko'ra, tsivilizatsiyalar bir-biridan yashash uchun qo'llanilayotgan zarur vositalari, dunyoqarash va diniy e'tiqodlari, hayot tarzi, ijtimoiy va davlat boshqaruvi turi, mulkchilik munosabatlari, ijtimoiy tabaqalanish kabi xususiyatlari bo'yicha bir-biridan farq qiladilar.

Sog'liqni saqlash muassasalaridan foydalanish imkoniyati — bir soat davomida mahalliy transport vositasi yordamida yoki yayov holda mahalliy tibbiyot muassasiga yetish imkoniyatiga ega bo'lgan aholining foizdagi ulushidir.

Reproduktiv salomatlik — bu nafaqat reproduktiv tizim, uning funksiyalari va jarayonlariga taalluqli bo'lgan kasalliklarning mavjud emasligi, balki jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlik holatidir.

Shifokorlar bilan ta'minlanganlik — umumiy yo'nalishdagi shifokorlar va maxsus tibbiyot amaliyotchilarini o'z ichiga oluvchi, 10 000 nafar aholiga to'g'ri keluvchi shifokorlar soni.

Urbanizatsiya — shahar aholisining ko'payish jarayonidir. Urbanizatsiya jarayoni sanoatlashish (industrializatsiya) bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Tabiiy resurslarning kamayib borishi — bu tabiiy resurslarning foydalanish mumkin bo'lgan zaxiralarini davlat, hudud yoki korxona talablariga nomutanosibligidir.

Taraqqiyot — bu tushuncha ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida, daromadlar va ishlab chiqarishning o'sishi bilan bir qatorda, jamiyatning ongi va an'analaridagi, institutsional, ijtimoiy va ma'muriy tuzilmalaridagi sifat o'zgarishlarini amalga oshirishga qaratilgan jarayondir.

Ta'lim indeksi — inson taraqqiyoti indeksini hisoblash uchun ishlatiladigan uchta indeksning biridir. 1990–2009 yilgacha katta yoshli aholining savodxonlik darajasi, boshlang'ich, o'rta va oliy o'quv yurtlari o'quvchilarining umumiy kontingenti ko'rsatkichlariga asoslangan edi. 2010 yildan boshlab ta'lim olish indeksi– ta'lim olishning o'rtacha davomiyligi ko'rsatkichi va ta'lim olishning kutilayotgan davomiyligi ko'rsatkichlari yordamida aniqlanadi.

Fertillilik — bu ayollarning reproduktiv xususiyati bo'lib, fertil yoshidagi fiziologik davrda ayollarning farzand ko'rish qobiliyatini ifodalaydi. Demografik statistikada bola ko'rish yoshi (fertillilik davri) 15 dan 49 yoshgacha deb qabul qilingan.

Fertillilik darajasi, o'smirlar orasida — 15—19 yoshdagi har bir ayolga to'g'ri keladigan tug'ishlar soni, shu yoshdagi har 1000 ta ayolga to'g'ri kelgan tug'ruqlar miqdorida ifodalangan.

O'quv yurtlariga kirganlar ko'rsatkichi, sof ko'rsatkich — bu ta'lim bosqichining mantiqiy

nazariy yosh guruhiga mos keladigan, mazkur bosqichda ta'lim olayotgan aholi sonidir. Ushbu yosh guruhi aholining jami soniga nisbatan foizida ifodalanadi.

Ta'lim xarajatlari, davlat xarajatlari — bu kapital xarajatlar (qurilish, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda og'ir uskuna va avtotransport sotib olish xarajatlari) va joriy xarajatlar yig'indisidir.

Ta'lim bilan qamrab olingan aholi ulushi — yoshidan qat'i nazar, berilgan ta'lim darajasi bilan qamrab olinganlilik ko'rsatkichidir. Ushbu ko'rsatkich ta'lim bilan qamrab olingan rasmiy maktab yoshida bo'lgan aholining foizlardagi ulushini aks ettiradi.

Ta'lim olishning kutilayotgan davomiyligi — bu ta'lim qamrovi darajasi bo'lib, agar bolaning butun umri davomida, ushbu

qamrov o'zgarmas bo'lib qolsa, maktab yoshidagi bola kutayotgan ta'lim olish yillarining davomiyligini ifodalovchi ko'rsatkichdir.

Cho'llanish — bu qurg'oq va yarim qurg'oq erlarning odatda chorvachilikning rivojlanishi o'rmonlarning chopilishi, er degradastiyasi, iqlimning o'zgarishi yoki boshka omillar natijasida cho'lga aylanishidir.

Qarz to'lovlari, umumiy hajmi — uzoq muddatli (muddati bir yildan ortiq bo'lgan) qarzdorlik bo'yicha to'lanadigan asosiy to'lovlar va foiz to'lovlarning chet el valyutasidagi yoki tovarlar va xizmatlar ko'rinishida amalga oshirilgan to'lovlari hamda Xalqaro Valyuta Fondiga to'lanadigan qisqa muddatli qarzdorlik bo'yicha to'lovlar yig'indisidir.

Qaramoqda bo'lish koeffitsiyenti — bu 15—64 yosh orasidagi har 100 ta odamga to'g'ri keluvchi boqimandalar (0—14 yoshdagi hamda 65 va undan yuqori yoshdagi aholi) sonidir.

Qobiliyat — bu inson amalga oshirgan yoki oshirishi mumkin bo'lgan barcha faoliyat turlarining to'plamidir. Qobiliyatning yana bir ta'rifi quyidagicha: «Inson o'zi qadrlaydigan hayot tarzini ta'minlovchi erkinlikdir».

Faollik — bu shaxsning o'z oldiga qo'ygan har qanday maqsad yoki qadriyatlarga erishishdagi sa'y-harakatlar erkinligidir.

Fondlar koeffitsiyenti — bu koeffitsiyent aholining eng boy 10% daromadlarining eng kambag'al aholining 10% daromadlariga nisbatidir. Bu ko'rsatkich yuqori (eng boy 10% aholi) va quyi (eng kambag'al 10% aholi) chegaralarning destillaridagi daromadlarining o'rtacha qiymatlarini aks ettiradi.

5 sinfgacha o'qishga yetib kelgan bolalar — bu boshlang'ich maktabda o'qishni boshlagan va 5 sinfga o'tgan bolalar foizidir. Baholari qayta tiklangan kogort uslubi asosida olingan bo'lib, mazkur usul doirasida boshlang'ich maktabni muvaffaqiyatli tamomlaganlar orasida o'qishni davom ettirayotgan bolalar foizini aniqlash uchun qatorasiga ikki yil davomida maktabga qabul qilinganlar va bir sinfda ikkinchi yil qolib o'qiyotganlar to'g'risidagi ma'lumotlardan ham foydalanilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2017.

1.2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi // http:// www. lex.uz.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi // http:// www. lex.uz

1.4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi // http:// www. lex.uz.

1.5. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi // http:// www.lex.uz.

1.6. “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // http:// www.lex.uz.

1.7. “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // http:// www.lex.uz.

1.8. “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // http:// www.lex.uz.

1.9. “Ta’lim to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // http:// www.lex.uz.

1.10. “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // http:// www.lex.uz.

1.11. “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // http:// www.lex.uz.

1.12. “Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // http:// www.lex.uz.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari

2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2666-sonli qarori

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillasntirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-2707-son qarori

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 4956-son Farmoni.

2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» 2779-son qarori

2.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi «O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2829-sonli qarori

2.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 aprelda «Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2863-sonli qarori

2.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi «Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 5017-sonli Farmoni

2.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 2900-sonli qarori

2.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2909-sonli qarori

2.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 iyuldagi “Turizm sohasini rivojlantirishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas’uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3129-sonli qarori

2.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 avgustdagi «Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O‘zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish namda sportchilarni va ularning trenerlarini rag‘batlantirish to‘g‘risida» PQ-3196-son qarori.

2.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi «O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-3219-son qarori

2.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli farmoni

2.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi «Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida»gi PF-5313-son farmoni

2.15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

3.1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. - 104 b.

3.2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr / Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. 48 b.

3.3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. / Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

3.4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: «O”zbekiston», 2016. -56 b.

IV. Kitoblar, to‘plamlar, monografiyalar

4.1. Kalandar Abdurakmanov, Nodira Zokirova, Bakhtiyor Islamov, Masato Hiwatari. Systemic Transformation and Sustainable Human Development: the Case of Uzbekistan. – Jakarta: Gunadarma Publisher, 2016. – 230 p.

4.2. Kalandar Abdurakmanov, Nodira Zokirova. Human Development. Textbook. – norderstedt, Books on Demand, 2014, 428 p.

4.3. Abdurakhmanov K.Kh. Management of tourism: Tutorial. - Jakarta.: Gundarama Publisher, 2014.- 350 p.

4.4. Abdurakhmanov K., Zokirova N. Labour Economics and Sociology: Edited by: Prof. Dr. E.S.Margianti, SE., MM. Tutorial.- Jakarta.: Gunadarma Publisher, 2013. 430-p.

4.5. Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 476 b.

4.6. Abdurahmonov Q.X, Zokirova N.Q. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: «Fan va texnologiya», 2013. – 536 b.

4.7. Abdurahmonov Q.X, Shoyusupova N.T, Bakieva I.A, Abdurahmonova G.Q. Kichik biznesda aholini munosib mehnat tamoyillar asosida ish bilan ta’minlashni takomillashtirish. Monografiya. - T.:IQTISODIYOT, 2017.-217 b

4.8. Аникив А.А., Зокирова Н К., Абдурахманов О К. Человеческий капитал в условиях реформирования и модернизации экономики. МонографиЙ. –Т.: Фан ва технология, 2008.

4.9. Беккер Г. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории / Пер. с англ. Сост., научн. ред., послес. Капелюшников Р.И. –М.: ГУ ВШе. 2003.

4.10. Бобков В.Н., Зинин В.Г., Разумов А.А. Политика доходов и заработной платы. Доклад в рамках проекта МОТ «Преодоление бедности, содействие занятости и местное экономическое развитие в Северо-Западном федералном округе». — М.: 2004.

4.11. Бобилев С. Н., Гирусов Э. В., Перелет Р. А. Экономика устойчивого развития. Учебное пособие. -М.: Изд-во «Ступени», 2004.

4.12. Davlatning makroiqtisodiy siyosati (o‘quv qo‘llanma). –T.: Akademiya, 2007.

4.13. Децентрализация и человеческое развитие. Доклад о человеческом развитии – 2005. – Т.: Программа развития ООН, Центр экономических исследований, 2005.

4.14. Insonni rivojlantirish to‘g‘risida ma’ruza. 2010 yil / O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi // http: // www.undp.uz.

4.15. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar: to‘plam. – T.: Adolat, 2004.

4.16. Ирманов А. Человеческий капитал в Узбекистане: состояние и перспектива. –Т., 2009.

4.17. История экономических учений: Современный этап: Учебник / Под общ. ред. А. Г. Худокормова. — М.: ИНФРА-М, 2009.

4.18. Заирова Ф. Народонаселение и региональная экономика / Социально-демографические процесс в современном Узбекистане. –Т., 2009.

4.19. Здоровье для всех: основная цел нового тысячелетия для Узбекистана.

4.20. Zokirova N., Abdurahmonov O. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. –T.: "Fan texnologiya", 2009.

4.21.Зокирова Н.К. Социально-трудовые отношения: международный и национальный аспекты. – Т.: Фан, 2008.

4.22. N.Q.Zokirova, N.T. Shoyusupova, V.T. Gabzalilova, G.Q.Abdurahmanova. Aholini ish bilan bandligini tartibga solish: Monografiya.-T.: TDIU,2011

4.23. Миркин Б. М., Наумова Л. Г. Устойчивое развитие. Учебное пособие. - Уфа: РИЦ БашГУ, 2009.

4.24. Национальная инновационная система Узбекистана. Оценка потенциала и результативности. – Т.: Институт прогнозирования и макроэкономических исследований, ПРООН в Узбекистане, 2011.

4.25. Рынок труда: учебное пособие / Под об.ц.ред. Абдурахманова К.Х., Одегова Ю.Г. – Т.: ТФ РЕА, 2009.

4.26. Саидов М.Х. Узбекистан: инвестиции в человеческий капитал, партнерство в сфере образования. – М.: Книжний дом газеты «Труд», 2008.

4.27. Стюарт Т.А. Интеллектуалный капитал. Новый источник богатства организаций – М.: Поколение, 2007.

4.28. Temur tuzuklari. –T.:Sharq, 2005.

4.29. Труд как средство борбы с нишетой / Доклад Директора Международной организации труда. – М., 2003.

4.30. Ubaydullayeva R.A., Ata-Mirzaev O.B., Umarova N.O. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy-o'quv qo'llanma). – T.: Universitet, 2006.

4.31. Убайдуллаева Р.А. Демографическая ситуастия Узбекистана и перспективы её развития / Социально-демографические процессы в современном Узбекистане. –Т.,2009.

4.32. Узбекистан на пути к экономике, основанное на знаниях: обеспечение устойчивого экономического роста в XXI веке. – Т.: StEL, 2008.

4.33.Управление трудовыми ресурсами: учебник/ А. Я. Кибанов, Э. А. Митрофанова, И. А. Эсаулова ; под ред. А. Я. Кибанова. - М.. ИНФРА-М, 2010.

4.34. Фитст–энст Я. РентАбелност инвестиций в персонал: измерние человеческой стеиности персонала / Пер. с англ. – М.: Вершина, 2006.

4.35. Фуруботин Э. Г., Рихтер Р. Институты и экономическая теория· Достижения новой институциональной экономической теории / Пер. с англ. под ред. В. С. Каткало, Н. П. Дроздовой. — СПб.: Издат. дом Санкт-Петерб. гос. ун-та, 2005.

4.36. Xaitov A.A., Abdurahmonov Q.X. Mehnat bozori va aholini ish bilan ta'minlash muammolari. – T.: G.Plexanov nomidagi RIAning Toshkent shahar filiali, 2010.

4.37. Хаек Ф. Индивидуализм и экономический порядок. – М.: Изограф, 2000.

4.38. Человеческое развитие. Учебник. – Т.: ПРООН в Узбекистане, Университет мировой экономики и дипломатии, 2008.

4.39. Xalqaro Mehnat Tashkilotining asosiy konvenstiyalari va tavsiyalari. –T.. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi, 2008.

4.40. Шаститко А. Э. Новая институциональная экономическая теория / 4-э перераб. и доп. изд. — М.: ТЕИС, 2010.

4.41. Эдвинссон Л., Мелоун М. Интеллектуалный капитал. Определение истинной стоимости компании. –М.: Академия, 1999.

4.42. Экономика труда: рыночные и состиалные аспекты: учебно-методический комплекс для подготовки магистров. /Под общ. ред. Н.А.Волгина.- М.: Изд-во РАГС, 2010.

4.43. Экономика труда. Учебноэ пособиэ / Под ред. Абдурахманова К.Х.Одегова Ю.Г.-Т., 2010.

4.44. Экономика и социология труда. Учебник. Под ред. А.Я.Кибанова. –М.: ИНФРА-М, 2010.

4.45. Экономический рост и инновации: теория и практика модели. – Т.: Институт прогнозирования и макроэкономических исследований, ПРООН, 2010.

4.46. Экономическая теория / Под ред. Э. Н. Лобачёвой. — 2-э изд.. - М.: Высшее образование, 2009.

4.47. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. –T. 1990.

4.48. Ядгаров Я. С. История экономических учений. - М.: Инфра-М, 2004.

4.49. O'zbekistonda ta'lim: talab va taklif mutanosibligi // Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza. – T.: BMT rivojlanish dasturi, 2007/2008.

V. Inostrannaya literatura

5.1. Ben-Porath. The Production of Human Capital and the Life Cycle of Earnings. – N.Y.; -L, 1970.

5.2. Bowen H.R. Investment in Learning. –San Francisco etc-Josscy – Bass, 1978.

5.3. Buckman R.H. Building a Knowledje – Driven Organization. – McGraw – Hill, 2004.

5.4. Bukowitz W.R. and Williams R.L. Knowledge Management Fieldbook // Finansial Times, Prentice Hall, 2000.

5.5. Carnington W.J. How Big is the Brain Drain? INF Working Paper 98/102 (Washington), 1998.

5.6. Kuznets S.S. Economic Growth of Nations: Total Output and Production Structure, Harvard University Press, Cambridge (USA). 1971.

5.7. Nordhoug O. Human Capital in Organizations: Competence, Training and Learning. – OsLo,1999.

5.8. Psacharopoulos G. Returns to Investment in Education//Policy Research Working Paper 1067. January 1993.

5.9. Fighting climate change: Human solidarity in a divided world — New York, 2007.

5.10. Solow R. Technical Change and the Aggregate Production Function // Rewiew of Economics and statistics. 1957, V.39.

5.11. Shultz T. Investment in Human capital / Theodore Shultz. – N.Y. – London. 1971.

5.12. Shultz T. Human Capital. family planning and their etfects on population growth // American Economic Review. -1994. –May.

VI.Internet saytlari

6.1. http: //www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasining davlat portali.

6.2. http: //www.mineconomu.uz – O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligining rasmiy sayti

6.3. http: // www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining rasmiy sayti

6.4. http: //www. mexnat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi sayti.

6.5. http: //www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining sayti.

6.5.http: //www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari sayti.

6.6.http: // www.ilo.org – Xalqaro mehnat tashkilotining sayti.

6.7.http: //www.undp.uz – Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining (PROON) O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi sayti.

6.8. http: // www.worldbank.org – Jahon bankining sayti.

6.9. http: // www.eLibrary.ru – ilmiy elektron kutubxona sayti

6.10. http: // www.edu.uz– O‘zbekiston ta’lim sayti

6.11.http: // www ula.uzsci.net – O‘zbekiston Respublikasi kutubxonalar assostiastiyasining sayti

6.12.http: // www.e-ilm.uz– masofadan turib o‘qitish tizimining sayti

6.13. http: // www.uzsci.net– ilmiy–ta’lim tarmog‘i

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB.	**IJTIMOIY SOHALAR VA INSON TARAQQIYOTI FANINING PREDMETI VA MAZMUNI**	
1.1.	Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va uning xususiyatlari.....	6
1.2.	Ijtimoiy soha tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishi.....	11
1.3.	Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti fanining predmeti.....	14
1.4.	Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyotining boshqa ilmiy yo'nalishlar bilan bog'liqligi....	17
	Nazorat uchun savollar.....	19
II BOB.	**SOG'LIQNI SAQLASH**	
2.1.	Aholiga tibbiy yordam va tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi.....	21
2.2.	Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorning rivojlanishi.....	29
2.3.	Sog'liqni saqlashni moliyalashtirish.....	34
	Tibbiy sug'urta va uning xususiyatlari.....	44
	Nazorat uchun savollar.....	48
III BOB.	**TA'LIM**	
3.1.	Ijtimoiy soha tarkibida ta'lim tizimining tutgan o'rni.....	49
3.2.	Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari.....	51
3.3.	Ta'lim sohasiga investitsiyalar.....	68
	Nazorat uchun savollar.....	74
IV BOB.	**TURAR JOY-KOMMUNAL XO'JALIGI.**	
4.1.	Turar joyga egalik – insonning asosiy huquqlaridan biri.....	76
4.2.	O'zbekistonda turar-joy-kommunal xo'jaligidagi islohotlar.....	80
4.3.	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi xodimlarini moddiy rag'batlantirish.....	84
4.4.	Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish va uning asosiy turlari.....	88

Nazorat uchun savollar..... 92
V BOB. MADANIYAT
5.1. Jamiyat taraqqiyotida madaniyat sohasining tutgan o'rni..... 94
5.2. Madaniyat muassasalarini moliyalashtirish manbalari..... 100
Nazorat uchun savollar..... 105
VI BOB. SPORT VA TURIZM
6.1. Sport va uning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni..... 107
6.2. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlar..... 111
6.3. Turizm – iqtisodiyotni rivojlanishning samarali sohasi..... 115
6.4. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari..... 121
Nazorat uchun savollar..... 126
VII BOB. IJTIMOIY SUG'URTA VA PENSIYA TA'MINOTI
7.1. Ijtimoiy sug'urtaning mohiyati va shakllari.... 128
7.2. Pensiya tizimining iqtisodiy funksiyasi va maqsadi..... 132
Nazorat uchun savollar..... 137
VIII BOB. INSON TARAQQIYOTI KONSEPSIYASI
8.1. Inson taraqqiyoti konsepsiyasining mohiyati... 138
8.2. Inson taraqqiyoti tamoyillari, komponentlari va mezonlari..... 141
8.3. Inson taraqqiyoti indeksi va uni hisoblash metodikasi..... 147
Nazorat uchun savollar..... 155
IX BOB. INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI VA MINGYILLIK RIVOJLANISH MAQSADLARI
9.1. Inson huquqlari – ijtimoiy taraqqiyot va barqaror rivojlanishning asosi..... 156
9.2. Mingyillik rivojlanish maqsadlari, ularning vazifalari va indikatorlari..... 162

	Nazorat uchun savollar.....	177
X BOB.	**TURMUSH DARAJASI VA INSON TARAQQIYOTI**	
10.1.	Turmush darajasi va unga ta'sir etuvchi omillar.....	179
10.2.	Turmush sifati ko'rsatkichlari va omillari.....	185
10.3.	Aholi daromadlari va ularning turkumlanishi..	194
10.4.	Aholi daromadlarining tabaqalasuvi.....	198
10.5.	Kam ta'minlanganlik: ko'rsatkichlari, omillari va uni kamaytirish yo'llari.....	206
	Nazorat uchun savollar.....	214
XI BOB.	**INSON TARAQQIYOTI OMILLARI**	
11.1.	Demografik vaziyat va uning inson taraqqiyotidagi roli.....	215
11.2.	Inson taraqqiyotining gender omillari.....	235
11.3.	Atrof muhitning inson taraqqiyotiga ta'siri.....	239
	Nazorat uchun savollar.....	244
XI BOB.	**AHOLINI IJTIMOIY MUHOFAZA QILISH VA INSON TARAQQIYOTI**	
10.1.	Ijtimoiy himoya tizimining inson taraqqiyotidagi roli.....	246
10.2.	Kuchli ijtimoiy siyosat – insonni rivojlantirish "o'zbek modeli"ning ustuvor yo'nalishi.....	267
10.3.	Mahalla – O'zbekiston aholisini ijtimoiy muxofaza qilishni tashkil etishning noyob instituti.....	285
	Nazorat uchun savollar.....	290
	GLOSSARIY.....	292
	ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	301

GULNORA QALANDAROVNA ABDURAXMANOVA
XAMID XUDAYBERGENOVICH ABDURAMANOV

IJTIMOIY SOHALAR VA INSON TARAQQIYOTI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2018

Muharrir:	F.Ismoilova
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	F.Tishabayev
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Raxmatullayeva

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AI№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 22.11.2018.
Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi
Shartli bosma tabog'i 19,0. Nashriyot bosma tabog'i 19,5.
Tiraji 200. Buyurtma № 464.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.

ISBN 978-9943-11-894-2



